

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 2

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Aftondil Erkinov

Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar 4

Zilola Amonova, Azizbek Boqiyev

Saif Zafari Buxoriyning "Durrul majolis" asarida
Odam (a.s) talqini 28

Sohiba Nadirimova

To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li
hayot yo'li va ijodiy merosi 42

Akrom Malikov

XX asr matnshunosligida Navoiy asarlari tadqiqi:
Hamid Sulaymonov hamda Porso Shamsiyev
tajribasi 60

ADABIYOTSHUNOSLIK

Dilnavoz Yusupova, Umedullo Mahmudov

Sharq mumtoz adabiyotida faxriya 89

Айнур Ибрагимова

Кероглу – азербайджанский народный
героический эпос 103

LINGVISTIKA

Qosimjon Sodiqov

Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan
tilshunoslik atamaları 117

G'aybulla Boboyorov

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-
turk" asaridagi ayrim so'zlarning o'zbek
shevalarida saqlanishi ("b" undoshi
bilan boshlanuvchi so'zlar o'rnagida) 136

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Aftondil Erkinov**

Some comments on manuscript bayoz 4

Zilola Amonova, Azizbek BoqiyevThe interpretation of Adam (a.s) in the work
"Durrul majolis" by Saif Zafari Bukhary 28**Sohiba Nadirimova**Life path and creative heritage of Sayyid
Muhammad Khan son of Toramurad 42**Akrom Malikov**The study of Alisher Navoy's works textual
criticism of the 20th century: the experience
of Hamid Sulaymonov and Porso Shamsiev 60**LITERATURE****Dilnavoz Yusupova, Umedullo Mahmudov**

Faxriya (Self-Praise) in Eastern Classical Literature 89

Aynur Ibrohimova

Koroglu – Azerbaijan Folk Heroic Epos 103

LINGUISTICS**Qosimjon Sodiqov**Linguistic terms used in works of the Karakhanid
era 117**Gaybulla Babayarov**Preservation of some words in Uzbek dialects
in Mahmud Kashgari's work "Dīwān Lughāt al-Turk"
(in the example of words beginning
with the consonant "b") 136

MATNSHUNOSLIK
TEXTOLGY**Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar**Aftondil Erkinov¹**Abstrakt**

Bayoz – she'riy to'plam bo'lib, ularda klassik va zamondosh shoirlar she'rlari keltiriladi; bu majmua virtual she'riy musobaqa maydoni sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bayoz she'rlar kutubxonasi, qo'shiq matni repertuari hamda muayyan davrdagi estetik didlarni ko'rsatuvchi manba bo'la oladi. Maqola, asosan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti fondidagi qo'lyozma bayozlarga suyanib yozilgan.

Kalit so'zlar: *Bayoz, repertuar, kutubxona, kitobxonlar, she'riy musobaqa.*

Kirish

Bir necha yillardan beri yurtimiz hududida tuzilgan bayozlar bo'yicha tadqiqotlar olib boraman. Shu munosabat bilan o'zbek mumtoz adabiyotidagi bayozlar haqida, masalan, Mavjuda Hamidova, Yoqubjon Is'hoqovlarning bayozlar haqidagi 1980-yillardagi nashrlariga ko'p murojaat qilaman va bu tadqiqotlarni qadrlayman [Исҳоқов 1978, 23-38; Ҳамидова 1981]. Men kuza-tishlarimning bir qismini nashr ham qildirganman [Эркинов 2021, .219-244, 269-282, 355-367]. Mazkur maqolani yozishga meni, avvalo, bayoz janrining ba'zi nazariy xususiyatlarini ko'rsatishga bo'lgan istak boshladi.

Nazarimda, keyingi vaqtlarda adabiyotshunosligimizda turli hodisa va janrlarning nazariy tomonlarini yetarlicha o'rganmay turib, obyekt tahliliga o'tib ketish kuchayib borayotgandek. Boshqa yana bir jihat mazkur maqolani yozishga undadi: ilmiy tadqiqotlarimizda mavzuga doir bizgacha qilingan ishlarni o'rganib,

¹ Erkinov Aftondil Sodirxonovich – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi.

E-pochta: aftandilerkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

Iqtibos uchun: Erkinov, A. S. 2024. "Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar". *Oltin bitiglar* 2: 4 – 27.

ulardan ishimiz qaysi jihati bilan farq qilishi va yangiligimiz nimadan iborat ekanligini ko'rsatish o'rniga, o'zimizdan avval qilingan ilmiy ishlarni umuman tilga olmay ham qo'ya qoldik. Ya'ni, har qanday ilmiy ishda joiz bo'lgan "istoriografiya" qismini go'yo unutgandekmiz. Unutishning o'zi bilangina cheklansak mayli edi, undan-da yuqoriroq nuqtaga "ko'tarilayapmiz". Endilikda, bir qator ishlardagi yondashuvlardan kelib chiqilsa, shunday gapni uqqandek bo'lasiz: "Men shug'ullanayotgan bu mavzu (yoki maqola) bo'yicha shu paytgacha mening ilmiy rahbarim ishlagan va men endi uning ishini davom ettirayapman". Yoki "bu mavzuni o'rganish mendan boshlanadi". Vaholanki, bu gaplarni yozayotgan muallifdan avval mazkur mavzu bo'yicha allaqachonlar maqola-yu kitoblar nashr qilingan bo'lib, ularda yangi muallif hozirda ilgari surayotgan xulosalar allaqachon keltirib o'tilgan bo'lishi mumkin. Masalan, bayozlar, Xiva adabiy muhiti bo'yicha va bir qator tadqiqotlar ayni holat uchrab turadi. Deylik, o'zbek mumtoz adabiyotshunosligidagi bayozlar haqida yozilgan va ilmiy jihatdan pishiq tadqiqotlar – Mavjuda Hamidova, Yoqubjon Is'hoqovlarning 1980-yillardagi ilmiy nashrlari hozirda yangi ishlarga yetarlicha jalb qilinmayotganligi taajjublantiradi...

Bayozning ta'rifi

Asosiy mavzuimizga o'taylik. Bayoz – bu turli shoirlarning she'rlaridan iborat to'plam (majmua)dir. Undagi she'rlar mahoratga ko'ra tanlab olingan bo'ladi yoki to'plovchilar, o'quvchilar yoxud muayyan shaxslar qatlamining buyurtmasiga asosan to'planadi. Bayozda ikki va undan ortiq muallifning she'rlari keltirilgan bo'lishi shart.

"Bayoz" so'zi "oq" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z qoralama – xomaki nusxa (musavvada)ning antonimi sifatida kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. Qoralamadagi she'rlar esa uzviy tartib asosida keltirilmaydi. Prof. A.B.Holidovning (1929–2001) yozishicha, "mualliflar xizmatidagi, ba'zan ularning shogird yoki ixlosmandlaridan iborat mutaxassis kotiblar asarning nisbatan ishonchliroq nusxasini taqdim qilishgan; ular muallif qoralamasi (musavvada, tasvid)ni oqqa (tabyiz, mubayyaza, bayaz) o'girishgan, boshqacha qilib aytganda, kotiblar shunday ishlaganki, ularning qilgan ishlari keyinchalik – nashriyotlar davriga kelib, matn teruvchi va musahhihlarning vazifasiga aylangan. Ba'zan mualliflarning o'zi shu ishni bajarishgan yoki oqlamani qayta o'qib tuzatishgan" [Халидов 1985, 157].

Kuzatuvimizga ko'ra, bayoz so'zi ilk bor XVII–XVIII asrlardagi qo'lyozmalarda keltirilgan: Masalan, Parijda joylashgan Fransiya milliy kutubxonasi qo'lyozma fondida “Bayozi Abulqosim” deb nomlangan hind bayozi mavjud bo'lib, u 1054/1644-45-yili ko'chirilgan [Баёзи Абулқосим. 1928, 468-469]; Muhammadshoh qozi davrida, 1138/1725-26-yili Hindistonda ko'chirilgan bayozning so'zboshisida bayoz so'zi savod (qoralama) so'ziga qarama-qarshi ma'noda keltirilgan [Баёзи Абулқосим. 1928, 474-475]. O'rta Osiyo qalandar, maddoh hamda qo'shiqchilarining maxsus til(jargon)ida oppoq (orttirma sifat) so'zi maktub, hujjat ma'nolarida qo'llanilgan [Троицкая 1948, V, 251-272]. Qo'lyozmalarga oid Sharqdagi atamashunoslik lug'atlarida bayoz so'zi she'riy to'plam va eng oxirgi nusxa (qoramamaga, chernovoyga zid) sifatida ta'riflangan [Husayn Hoshimiy 1379 [2000], 33].

Mazkur dalillar shuni ko'rsatadiki, oq ma'nosidagi so'z qo'lyozma matnga nisbatan, bizning holatimizda esa, she'rlar to'plamiga nisbatan qo'llanilgan. Bayoz atamasi ba'zida muraqqa', safina, jo'ng, jarida, kashkul, jarida va majmua kabi nomalar bilan ham atalgan [Daneshpajuh 1989, 886]. Ayni vaqtda bayoz so'zi turli qaydlar keltirilgan qoramamaga nisbatan ham ishlatilishi mumkinligi qayd etilgan [Bečka 1968, 525]. Shu bilan birga bayoz atamasi xalq she'riyatidan iborat to'plam ma'nosida ham kelishi mumkin ekan [Philologiae Turcicae Fundamenta, 1964, 702].

Ba'zi kataloglarda bayoz nomi ostida majmua – turli nazmiy va she'riy ijod namunalari to'plami keltiriladi. Aslida, bir necha xildagi matnlarning aynan shu tarzda taqdim qilinishi ko'p hollarda jo'ng, deb atalgan. Tabiiyki, bu hali bayozning ba'zi kataloglarda jo'ng nomi ostida keltirilishini inkor qilmaydi. Masalan, Ozarbayjon ilmida, O'zbekistondan farqli ravishda, she'riy to'plamlar jo'ng deb ataladi [Ярмамедов 1992, 12]. Erondagi she'riy antologiyalar safina, jo'ng, bayoz yoki jo'ngi bayoz, majmu'a nomi ostida tarqalgan. Bularning ichidan she'riy antologiyalarga nisbatan ko'proq “jo'ng” atamasi qo'llanilgan [Dehudo 1338 [1959], 125]. Bayoz va jo'ng atamalari turli badiiy – nasriy va lirik asarlar to'plamini anglatishi mumkin [Bayozi Tojiddin Ahmadvazir 1381 [2002]; Jonge Mortezo Quli Shamlu 1382/2004]. Fors tilidagi qo'lyozmalarning zamonaviy kataloglarida ba'zan bayoz va jo'ng bir xil turdagi to'plam sanalgan holatlar uchraydi [Richard 1989. №40; Navshahī 1404 [1983], 127-140; Munzavi 1357/1978]. Shu bilan birga aynan o'sha forscha qo'lyozmalarning ba'zi kataloglarida bayoz deganda, asosan, she'rlar to'plami, jo'ng deganda esa turli xildagi she'r va nasriy bo'laklardan

iborat to'plam anglashilishi mumkin ekan [Гасимов 1983, 104-107]. 1995-yilda Sharqiy Turkistonda bayoz nomi ostida turli xil she'rlarning to'plami nashrdan chiqarildi [Bayoz, 1995]. Tojikiston Respublikasi FA Qo'lyozmalar instituti katalogida ham she'rlar to'plami bayoz nomi ostida beriladi, ammo ulardan bir qanchasida dostonlardan parchalar ham mavjud [CVRT, V, №1566]. Eronda nashr qilingan kodikologiyaga oid monografiyada bayoz ko'tarib yurishga mo'ljallangan she'rlar to'plami hisoblangan [Hiravi 1380 [2001]. 201-203].

1209/1794-95-yillarda ko'chirilgan Toshkentdagi qo'lyozma bayozda ilk bor bayoz so'zi she'riy antologiyaga nisbatan qo'llangan [Bayoz. O'zFASHI-1, №7038, 5]. Mazkur so'z, masalan, turli bayozlarning debochasida [Bayoz. O'zFASHI-1, №6973, 16-3b; №12471, 253b (SVR, II, №1878); Bayoz. O'zFASHI-1, №9966, 34b, 121b; Bayoz. O'zFASHI-1, №6993, 206b; Bayoz. O'zFASHI-1, №10184, 1b; Bayoz. O'zFASHI-1, №2072, 270b; Bayoz. O'zFASHI-3, №1108, 135b (KFIR, I, 638, №713)]; bayozning sarlavhasida uchraydi [Bayoz. O'zFASHI-1, №6968/1, 1b; Bayoz. O'zFASHI-1, №9920, 1a]. XX asrning boshlariga keliboq, bayoz atamasini she'riy antologiyalarga nisbatan qo'llash keng namoyon bo'la boshlagan edi. Misol uchun, 1900-yillarda ko'chirilgan Xiva bayozlari kolofonlarida kotiblar she'riy to'plamlarni to'g'ridan-to'g'ri bayoz deb atashgan [Bayoz. O'zFASHI-1, №№1118; 1174; 2031; 2035]. O'rta Osiyoda she'riy antologiyalar ko'pincha bayoz va majmuayi ash'or nomlari ostida tarqalgan [Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии Академии наук СССР (краткий алфавитный каталог). 1, 1964, 499-502; Berg 2004, 33, 123, 136]. Turkiston general-gubernatorligi (1867-1917) nashriyotlarda she'riy to'plamlar deyarli har safar bayoz so'zi ishtirok etgan nomlar ostida nashr qilingan: "Bayozi Xaziniy", "Bayozi gulshani ash'or"... [Туркистон вилоятининг газети. 1908, №47; Абдуллаева 1989, 37-44]. Bugungi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi sharqshunoslik instituti kartotekasida ham she'riy to'plamlarning asosiy qismi bayoz sifatida qayd qilinadi. O'rta Osiyoda she'riy antologiyalarning nomim asosan, bayoz (bayaz) deb ifodalanar ekan, biz ham shu atamadan foydalandik.

Bayozning tarkibi

Bayoz fehrist, debocha va asosiy qism – she'rlardan iborat bo'lishi mumkin. Lekin ko'pincha bayozlar faqatgina she'rlarning o'zini tashkil qiladi.

Debocha-muqaddima

Har bir bayoz muayyan bir davrning adabiy did va estetik ehtiyojlari haqida ma'lumotni beradi. Bu ma'lumotni she'rlar vositasida ilg'ab olish maqsadga muvofiqdir. Qo'lyozmalarda muayyan bayozning tuzilishi, kengroq ma'noda esa, bayoz tuzish haqidagi umumiy ma'lumotlar keltirilishi mumkin. Bu kabi manbalar sirasiga bayoz tarkibidagi fehrist, debocha yoki sarbayoz (so'zboshi) kiradi [Xamidova 1981, 41-42]. Ba'zan fehristda bayozda nomi keltirilgan shoirlar ro'yxati sanab o'tiladi yoki she'rlarning birinchi misralari taqdim qilinadi [Bayoz. O'zFASHI-3, №358, -7a-1a]. Lekin bayozlarda fehristlar har doim ham keltirilmagan. Fehrist asosan radoyif ul-ash'or, ya'ni bir xil radif yoki qofiyada yozilgan she'rlar to'plamiga xosdir. Undagi she'rlar xuddi devondagidek – oxirgi harflar tartibiga ko'ra joylanadi. Masalan, radoyif ul-ash'orning birida shunday fehrist keltirilgan bo'lib [Radoyif ul-ash'or, №2335, 0a-1b], shu yerning o'zida to'plamdagi shoirlar nomi va ularning miqdori – 135 shaxs qayd qilingan. Faxri Hiraviy (1490–1563) qalamiga mansub “Radoyif al-ash'or” qo'lyozmasida ham fehrist keltiriladi. Yana bir misol: bir bayozda asosan Shohiynning she'rlari eng ko'p keltirilgan bo'lib, asar oxirida she'rlari to'plamga kiritilgan shoirlar nomi bitilgan jadval berilgan [Bayoz. TadRSI, №2293/1, 96 (CVRT,V, №1634)].

Debocha (forsa “so'zboshi”, “kirish”) odatda shoirlarning devoniga yozilgan. Ba'zan bayozlarda ham debochani uchratish mumkin. Ular, asosan, fors tilida yozilgan. Afsuski, debochalar juda kam uchraydi. Bayozning boshi (sarbayoz) sifatida belgilangan debochali bayozlar bunga misoldir [Bayoz. O'zFASHI-1, №1944, 93a-94b]. Forscha debochaga ega bayozlarning boshqa qo'lyozmalari ham mavjud [Bayoz. O'zFASHI-1, №6973, 1b-3b; Bayoz. O'zFASHI-1, №7038, 5b-6b; Bayoz. O'zFASHI-1, №6968/1, 1b-2a; Bayoz. BnF-SP, №805, 2b]. Masalan, Xiva xonligida yaratilgan bayozdagi debocha turkiy tilida yozilgan [Bayoz. O'zFASHI-3, № 797, 80b-81b (KFIR, I, №678)]. Tojikistonda bir bayoz borki, unga tuzuvchi tomonidan nasriy kirish berilib, bu kirish murakkablashtirilgan uslubda yozilgan [Bayoz. TadRSI, №1795 (CVRT, V, №1510)]. Eron bayozlarida ham debocha bayoz boshida beriladi [Bayoz. TUK, №2454, 119-121 (FKDT, S.1189)]; ulardan biri debochayi bayoz deb nomlangan [Bayoz. TUK, №2591, 331 (FKDT, S.1414)].

Shoirlar

Bayozdagi shoirlar doirasi turlicha. Shoirlarni ikki toifaga

ajratish mumkin:

1. **Klassik shoirlar.** Bular bayozlarning doimiy ishtirokchilari – asosan, fors she'riyati klassiklaridir. Aslida bayozning o'zi fors adabiyotining klassik davri tugagach, mumtoz shoirlarning she'rdagi etalonini saqlab qolish va she'rlarini bir to'plam – antologiyaga kiritish maqsadida XVI asrdan boshlab vujudga kelgan. Shu ma'noda ilk bayozlar klassik shoirlarning she'rlaridan va ularga yozilgan taqlidiy she'rlardan to'plangan [Хамидова 1981, 120]. Bayozlar repertuarida klassik shoirlar ishtiroki deyarli shart bo'lib qolgan. Fors adabiyotining Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, XVII asrdan keyin Bedil, Sayyido, Soib kabi mumtoz namoyondalari shular jumlasidandir. Fors shoirlari shu darajada mashhur edildarki, bayozlarda keltirilgan she'rdan avval, ba'zan, shoirning ismi keltirilmay, faqat uning taxallusini keltirish bilan cheklanilardi. Bundan qaysi shoir nazarda tutilayotgani tezda ma'lum bo'lardi: Xoja – bu Hofiz Sheroziy, Shayx – Sa'diy Sheroziy... [Bayoz. TUK, №4343, 136-147 (FKDT, S.3299)]. O'zbek mumtoz adabiyoti shoirlaridan Navoiy, Fuzuliy va qisman Amiriylarni shunday klassik shoirlar qatoriga kiritish mumkin.

Bayozlarda XIX asrdan boshlab o'lkamizdagi turkiy shoirlar she'rlari ko'plab keltirila boshlangan. Misol uchun, XIX asrga oid turkiy tildagi bayozda Fuzuliyning 29 ta, Amiriyning 22 ta she'ri berilgan [Bayoz. O'zFASHI-3, №1940/1/(KFIR, I, 693)]. Mazkur bayozda jami 134 ta she'r bo'lib, shulardan 51 tasi yuqoridagi ikki shoir qalamiga mansub. Shu bilan birga, forscha she'rlardangina tarkib topgan bayozlar ham borki, ularga taniqli turkiy shoirlarning faqat fors tilidagi she'rlari kiritilgan [Bayoz. O'zFASHI-1, №3326 / (SVR, VI, №4617); Baëz. O'ZFASHI-1, №1108]. "Tazkirat ul-xavonin" nomli Eron bayozida Navoiyning fors tilidagi she'rlari Foniylar taxallusi ostida berilgan [Тазкират ул-хавонин. TUK, №2431, 37 (FKDT, 1098)]. Hindistonda tuzilgan boshqa bir bayozda Navoiy va Husayn Boyqarolarning forscha she'rlari keltirilgan [Тазкират ул-хавонин. TUK, №2431, 37 (FKDT, 1098)]. Har xil tillarda yozilgan she'rlariga qarab, bitta shoirning nomi turli bayozlarda, turlicha shakl va repertuarda keltirilgan bo'lishi mumkin.

2. **Zamondosh shoirlar.** Bular bayoz tuzuvchiga zamondosh yoki mahalliy bo'lgan shoirlardir. Har bir bayoz shoirlarning zikr qilingan ikki doirasiga ega. Shu ma'noda, bir bayoz debochasida mazkur bayozning "o'tmish [shoirlar] devonlari to'plami (jomei devoni mutaqqaddimin)" va eng so'nggi [shoirlarlardan] tanlangan asarlari (muntaxabi abkori afkori muta'oxxirin)" ekani haqidagi

ko'rsatma mavjud [Bayoz. O'zFASHI-1, №1944, 93a]. Demak, klassik va zamondosh shoirlarning adabiy-she'riy merosiga murojaat qilish va ularni to'plash bayozning asosiy belgisi hisoblanadi. XIX asrdan boshlab bayozga u tuzilgan davrda yashagan shoirlarning she'rlari ko'proq kiritila boshlandi. Qiziq paradoks: XX asrga yaqinlashgani sari o'lkamizdagi bayozlarga zamonaviy shoirlarning she'rlari ko'proq kiritila boshlangan. Bunday she'rlarning katta qismi turkiy tilida bo'lgan. 1910–1920-yillarning toshbosma (litografik) bayozlarida o'rta asr fors va turkiy adabiyotining mumtoz namoyondalari deyarli keltirilmagan. Ularda nisbatan zamonaviyroq mumtoz yoki zamondosh shoirlar nomi bor, xolos. Yangi davr shoirlarining she'rlari esa, aksariyat hollarda turkiycha bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bayozda kamida ikkita shoirning she'rlari keltirilishi shart. O'rta Osiyo bayozlarida har doim ham shoirlarning keng ommasi ishtirok etavermagan. Bu mintaqadan farqli ravishda, masalan, Eron bayozlarida biryo'la ko'p miqdordagi mualliflarning she'rlari beriladi: bir bayozda 657 shoirning she'rlari keltirilgan bo'lsa [Bayoz. TUK, №2446 (FKDT, S.1132-1150)], boshqasida 302 ta shoirning she'ri taqdim qilinadi [Bayoz. TUK, №2423 (FKDT, S.1065-1075)]. Bayozlarda taniqli bo'lmagan, markazdan uzoqda yashab ijod qilgan, kam miqdorda she'r yozgan shoirlarning she'rlari ham uchraydi. Bunday shoirlarning she'rlari balki, bittagina bayozdan tashqari hech qayerda va hech qachon keltirilmagan bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq ularning she'rlari keng yoyilmagan ham.

Odatda, bayozlarda shoirlarning 3-4 tadan boshlab 300-400 tagacha she'ri o'rin oladi. Bayozlarda aynan bitta shoirning she'rlari ularning tarkibi va janridan kelib chiqqan holda bir necha marotaba keltirilgan bo'lishi mumkin. She'rlarning saralab olinishi shoirlarning o'zaro javob yozishmalari; biron bir she'rga taqlid (nazira); bir xil radifli she'rni tanlash; mumtoz shoirlar merosining eng yuqori badiiy saviyali namunalarini tanlash va shu kabilar asosida amalga oshirilgan.

Lirika janrlar

She'r janrlari o'ziga xos ma'lumotlarni ifoda eta oladi. Lirika janrlariga oid tadqiqotlarda yo muayyan shoir ijodidagi janrlar [Серикова 1981] yoki O'rta Osiyo she'riyatidagi muayyan janrlarning nazariy xususiyatlari o'rganiladi [Адабий турлар ва жанрлар, 1992]. Bularning bari o'ziga xos ahamiyatga ega. Lekin tilga olingan tipdagi tadqiqotlarda she'rlarning jamiyat hayotida foydalanishiga

yetarlicha e'tibor berish yetishmaydi. Ularda janr tarixi haqidagi ma'lumotlar juda kam, janr umumiy kontekstda deyarli ko'rib chiqilmaydi. Bayoz ifodalay olishi mumkin bo'lgan she'riy janrlar "hayoti" va uning o'zga janrlar bilan munosabati va raqobati tahlil etilmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bayozlardagi she'riy janrlar, jumladan, turkiy she'riyatdagisi yetarlicha o'rganilmagan.

Shoir yoki shoirlar jamiyatga o'z she'rlarini taklif qiladilar. O'quvchilar o'z estetik ehtiyojlaridan kelib chiqib, she'rlardan o'zlarida qiziqish uyg'otganlarini tanlab oladilar. Bayoz – o'quvchi ehtiyojlari ko'zgusi. Shoir muayyan turdagi she'rlarga talab mavjud bo'lgan bozor borasida o'ylamasligi mumkin. Bayoz bo'lsa, ayni badiiy bozor xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bayoz vositasida o'quvchi auditoriyasining badiiy didini marketing shaklida tadqiq qilish mumkin.

Janr nuqtayi nazaridan bayozlar quyidagi ma'lumotlarni berishi mumkin:

a) shoirlar tomonidan juda kam qo'llanilgan ba'zi lirika janrlari bor. Bular bayozlarda keltirilishi mumkin. Bayozlarning birida keltirilgan anonim ruboiy-murabba' bunga yorqin misoldir. O'zbek adabiyoti tarixida bu kabi sintetik janrning bundan boshqa namunasi bizga ma'lum emas;

b) janrlar tarixi, tarix davomida ularga bo'lgan munosabat va talabning tatbiq qilinishi;

v) lirika janrlarining qaysi tildagisiga o'quvchilarning ko'proq qiziqqani. Muayyan janrning dolzarbligi. Bayozlarda asosan g'azal, ruboiy, muxammas va fard janridagi she'rlar beriladi. Misol uchun, fardlardan ko'pincha sahifani to'ldirishda foydalaniladi [Bayoz. O'ZFASHI-1, №2515, 102b-103b]. Fard ikki misra (bayt)dan iborat hajmda bo'lgani tufayli varaqning bo'sh qismlarini ular bilan to'ldirish qulayroq. Ammo har doim ham bunday bo'lavermagan. Ba'zida fard yoki ruboiy kabi janrlar alohida, boshqa qismidan, masalan, qo'lyozmaning oxiridan joy olishi mumkin [Bayoz. BNF-SP, №1473 (B1, III,1975)].

Shunday bayozlar ham borki, ular she'rlarni badiiy mahorat darajasiga ko'ra saralash maqsadida tuzilgan. Fors tilidagi turli xil she'rlar to'plami bo'lmish "Tashbihoti zebo" ("Zebo o'xshatishlar") nomli bayoz shular jumlasidan bo'lib, unda tashbih-o'xshatishlarning yuzlab go'zal namunalari mavjud [Bayoz. O'ZFASHI-1, №1858/2]. Bu boradagi ma'lumotlar bayozning o'zida berilgan holatlar ham uchrab turadi. Bayozga kiritilgan lirik janrlar debochada konstatatsiya (qayd etilishi) qilinishi mumkin. Bunday

janrlar jumlasiga gʻazal, tarjiband, ruboiy, qasida kabilar kiradi [Bayoz. TUK, №2454, №119 (FKDT, S.1189)]. Xiva xonligida tuzilgan bir bayoz debochasida koʻrsatilishicha, asarga jozibador sheʼrlar (ashʼori dilfirib) kiritilgan. Bayoz tarkibidagi sheʼrlarning janri ham koʻrsatilishi mumkin: masalan, ruboiy, masnaviy [Bayoz. OʻZFASHI-1, №1944, 93a]. Xivadagi bir bayozning turkiy tilidagi debochasida aytilishicha, mazkur bayoz Xiva hukmdori Sayid Muhammad Bahodirxon (1856–1864) buyrugʻiga koʻra qasida, taʼrix, gʻazal va masnaviy sheʼriy janrlaridagi asarlardan tuzilgan [Bayoz. OʻZFASHI-3, № 797/2, 80b-81b].

Muayyan bir janrdagi sheʼrlarni bayozga kiritish qoʻlyozma bayozning spetsifikasiga bogʻliq. Shoirlarning sheʼriy mahoratda oʻtgan va zamondosh shoirlar bilan musobaqalashishi bayozlarning eng asosiy xususiyati boʻlgan. Ayniqsa, klassik shoirlarning sheʼrlari bilan muxammas janridagi sheʼrlar vositasida musobaqalashish mumkin edi. XIX–XX asr boshlarida muxammas janrida ijod qilmagan shoirning oʻzi kam edi. Sababi shoirlar uchun klassik shoirlar sheʼrlaridan afzalroq sheʼrni yaratish qiyin boʻlgan, sheʼrni davom ettirish – muxammas yozish esa osonroq tuyulgan. Bundan tashqari, muxammas janri kuy-qoʻshiq uchun ham juda mos kelardi [Абибов 1984, 212]. Bir bayozda Navoiy qalamiga mansub “tut” (ushla) radifli gʻazalga xivalik shoirlarning yozgan muxammaslari keltiriladi [Bayoz. OʻZFASHI-3, № 797/2, 83a-91a]. Bir qancha bayozlarda ikki tilda yozilgan muxammaslar ham uchraydi: muxammas muallifi muxammasning asosiy qism (ikki misra) uchun bir tildagi sheʼrlarni tanlab turib, oʻzining sheʼrlarini (uch misra) boshqa tilda qoʻshib qoʻyadi [Bayoz. OʻZFASHI-1, №1597, 243a-244a / (SVR, II, №1741)]. Bayozlarda eng keng tarqalgan janr turlari muxammas va musaddasdir [Bayoz. OʻZFASHI-1, №231/4 (SVR, II, №1757)].

Bayoz ichidagi sheʼriy musobaqa uchun bir xil sheʼr oʻlchovi, bir xil qofiya kabilarga ega sheʼrlar tanlab olinishi mumkin. Bunga misollar bor: sheʼr radifi va qofiyasi uchun muayyan bir soʻz tanlangan, sheʼrlarning oʻzi esa fors va turkiy tillarda ifodalangan [Bayoz. OʻZFASHI-1, №4208, 42b-44b, 51a-53a, 626-65a, 160a-170a]: masalan, musulmon Sharqi sheʼriyatida juda keng tarqalgan “ohista-ohista” radifiga ega sheʼrlar eski oʻzbek tilida ham, fors tilida ham yaratilgan [Bayoz. OʻZFASHI-1, №4181, 726-73a; Bayoz. OʻZFASHI-3, №3567, 66-7a, 10a-11a, 23a-24a, 33a-33b]. Bir xil qofiyali va sheʼriy oʻlchovga ega qasida janridagi sheʼrlar musobaqasi [Bayoz. OʻZFASHI-1, №2077 26a-76b / (SVR, VI, 4614)], muxammas va gʻazal janridagi sheʼrlar qiyosi va ijodiy musobaqasi ham

uchraydi [Bayoz. O'zFASHI-1, №3059/1, 111b-119a]. Qizig'i shuki, musobaqaning bunday shakliga qaramasdan, she'rlarning ko'pi ikki til – fors va turkiy tillarida yozilgan. Shunday turdagi bayozlardan biri – Buxorodagi mang'itlar sulolasi vakili Xishmat (1862–1927) tomonidan tuzilgan [Bayoz. O'zFASHI-1, №183/2 (SVR, II, №1756); Bayoz. O'zFASHI-1, №231/4 (SVR, II, №1757)].

Bayozning vazifalari

Bayozlar kim uchun va nima maqsadda tuzilgan?

Bayozlar o'quvchining didiga muvofiq keluvchi eng yaxshi she'rlar repertuari sifatida tuzilgan va o'qishga mo'ljallangan. Turli doiradagi o'quvchilar ommasiga xrestomatiya o'laroq xizmat qilgan [Хамидова 1981, 24].

1) Shoirlarning devonlari har doim ham o'quvchilarga to'lig'icha kerak bo'lavermagan. Shuning uchun o'quvchi (yoki tuzuvchi) o'ziga yoqqan she'rlarnigina saralab olib bayoz tuzgan.

2) O'z devoniga ega bo'lmagan, tor doiraga mo'ljallab yozgan yoki mutlaqo o'zi uchun ijod qilgan, kam she'r yozgan shoirlar ham bo'lgan. Ularning she'rlari faqat bayozlarda to'plangan. Mana shu o'rinda bayozlarning vazifalarini belgilab olish kerak bo'ladi.

1. Kutubxona. Aslida, har bir madaniyatli kishining shaxsiy bayozi bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday an'ana mohiyatan bugungi kunda ham bor. Bu bayoz/antologiya kitob, daftar, yon daftarcha yoki alohida varaqlar shaklida bo'lishi shart emas. O'nlab, hatto yuzlab she'rlar insonning xotirasida yashashi mumkin. Badiiy antologiya insoniyat madaniyati va xalq og'zaki ijodi bilan birgalikda paydo bo'lgan. Har bir kishining o'z sevimli qo'shig'i, she'rlari, romani, povesti, badiiy filmi, qadrlı qahramoni va timsollari, pyesa, oddiy badiiy asari yoki badiiy qahramonlari va ideallari mavjud bo'ladi. Bu madaniy qadriyatlarni kishi o'z xotirasida, ongida saqlashi mumkin. Lekin bularning barchasi eslab qolish uchun ko'plik ham qiladi. Shunda biz ularni uyimizda, shaxsiy kutubxonamizda, plastinkalar to'plamida, audio va videotasmalarda, fotoalbomlarda saqlaymiz. Mazkur madaniy yuk butun umr bizga yo'ldosh bo'ladi, yangidan-yangi sahifalarga boyib boradi. Lekin uni gardanimizga ortmoqlab yuraverish bizga og'irlik qiladi. Bunday bebaho boylikdan voz kechib yashab ham bo'lmaydi. Shunda jami badiiy va madaniy boyligimizni, xususan, she'rlarni jajji kutubxona shaklida bir joyga jamlashimiz mumkin. O'tmishda aynan shunday kutubxona vazifasini bayoz bajargan. Bayoz – bu O'rta Osiyoda ajdodlarimizning kichik hamda ko'tarib yurishga qulay va o'ziga xos shakldagi kutubxonasi.

O'rta Osiyodagi kutubxonalar, asosan, saroylarda bo'lgan. Madrasalar qoshidagi yoki kam miqdorda shaxsiy kutubxonalar ham mavjud bo'lgan. XX asr boshlaridan ommaviy kutubxonalar tashkil etila boshlangan. Kitoblar qo'lda ko'chirilardi, qog'oz qimmat, uni qo'lyozma kitob shakliga keltirish uchun esa katta miqdorda pul kerak bo'lardi. Bunday sharoitda o'rtacha kattalikdagi kutubxonaga ega bo'lish ham bebaho ma'naviy boylik bo'lgan. Musulmon Sharqida badiiy ijodning eng asosiy ko'rinishi she'riyat edi. U san'atning boshqa turlari o'rnini ham bosib turgan. Shu sababli har bir kishi o'z ma'naviy ehtiyojlarini ko'pincha she'riyat vositasida qondira bilgan. Turli she'rlardan tarkib topgan bayozlar esa mana shu o'rinda muhim rol o'ynagan. Foydalanish uchun kutubxonalar yetarli emas ekan, o'quvchilar o'zlarining sevimli matnlarini doimo birga olib yurishga katta ehtiyoj sezganlar. Bayoz esa shu tarzda qalbga yaqin, qo'ldagi kichik kutubxonaga aylangan. Bugungi kunda O'R FAning Beruniy nomidagi qo'lyozmalar institutida bayozlarning 700 dan ortiq nusxalari saqlanadi. Bu ko'rsatkich bayozlarga bo'lgan qiziqish darajasi qanchalar yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Aholi ixtiyorida ham bunday qo'lyozmalarning kattagina qismi bor.

Fikrimiz dalili sifatida bayozlarning formati va hajmini keltirishimiz mumkin. Odatda ko'tarib yurishga qulay bayozlar format va hajmiga ko'ra kichik va cho'ntakbop bo'lgan. Ba'zi bayozlar esa, albom tarzida ochiladigan – perpendikulyar shaklda bo'lib, uni o'qish ham oson edi¹.

2. Repertuar. Bayoz musiqiy, aniqrog'i, qo'shiq repertuari to'plami sifatida xizmat qilishi mumkin. Musulmon Sharqida musiqa ijrochilari kuy chalish davomida maxsus notalarga tayanishmagan, bu davrda nota yozuvi keng yoyilmagan edi. Ijrochilar kuyni yodlab olishardi. Kuy ijro qilish davomida ular bayozdagi qo'shiq uchun asos bo'lgan matnga ham qarashardi, undagi har bir matn oldida esa, ko'pincha, kuylanayotgan qo'shiqning musiqasi nomi qayd qilinardi. Masalan, Abdulqodir Marog'iy (vaf.1435) o'zining musiqa nazariyasi haqidagi asariga qo'shiq tarzida ijro qilish uchun matnlar ilova qilgan. Mazkur matnlarga alohida bir asar sifatida shakl bergan [Abdulqodir ibn G'aybiy ul-Hofiz al-Marog'iy, 1372 [1993]]. Fursat Sheroziy (vaf. 1921) ham qo'shiqlar uchun matn yaratgan. Uning qalamiga mansub kitob kirishida ta'kidlanishicha, unda asosan, Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Xayyom va Vaxshiy kabi shoirlarning she'rlari keltirilgan [Fursat al-Davla Sheroziy, 1375 [1996]]. Shu tarzda bayoz

¹ Masalan, 120 x 250 milimetrli o'lchamdagi bayoz: Bayoz. O'zFASHI-1, №3066 (ko'chirilgan yili –1303/1885-1886).

qo'shiqning yozma – matniy asosi sifatida namoyon bo'la boshlagan. Ijrochi matnga qarab turib, xotirasiga tayangan holda, musiqani qo'shgan, qo'shiqni kuylagan. Repertuarida maqomga oid asarlari keltirilgan bayozlarni musiqiy repertuarga bog'liq deb bilish joiz.

Bayozning maqom kuylovchi xonandalar tomonidan qo'llanilganiga ham misol keltirish mumkin: “Levicha Hofiz – Levi Boboxonov (1873–1926) Buxoro amiri Amir Olimxan (1910–1920) ning saroy hofizi bo'lib, o'z bayozlariga ham ega bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan Shashmaqom ijrosiga oid bir qancha bayozlar Levicha tomonidan tuzilgan. Bu bayozlardagi forscha she'rlar O'rta Osiyo ivriti (ibroniy tili)ning yozuvida berilgan (ular hozirda Boboxonovlar oilasida saqlanadi). Aftidan, bayoz tuzish an'anasi Buxoro yahudiylari – mumtoz musiqa va she'riyat shaydolari orasida (ayniqsa, Buxoroda) tarqalgan bo'lgan. She'rning qaysi kuy bilan birgalikda ijro etilishi ko'rsatilgan to'plamlari Buxoro yahudiylari silsilasining katta avlodi orasida uchraydi¹.

Bayozlar yig'inlarda o'qilardi. Biror kishi musiqa ostida she'rni qo'shiq qilib ijro etsa, boshqasi she'rni ifodali o'qib berardi. Madumar (Muxammad Umar) Hofiz, Abdulqahhor Hofizlarning bayozlari bunga misol bo'la oladi. Ular XIX asrda Isfaradagi (Tojikiston Respublikasi) eshonlarning uyida fors va turkiy tillaridagi qo'shiqlarni bayoz asosida kuylashardi. Mazkur bayoz Isfarada topilgach, u 2003-yilda Tojikistonda nashr qilindi [Баёзҳои Умар Ҳофиз 2003].

XX asrga taalluqli boshqa misollar ham uchraydi: O'zbekistondagi maqom ijrochisi Orifxon Xotamov (1927–2002) mashhur maqomchi Jo'raxon Sultonov (1903–1965)ning tilidan hikoya qiladi: XIX asrda Beshariq vohasida (bugunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyatining Beshariq tumani) o'z davrining taniqli maqomchisi Hamroqul qori yashab o'tgan. U shu darajada iste'dodli va mashhur bo'lganki, u bor joyda boshqa uquvsiz mashshoqlarning daromad topishiga putur yetardi. Bunday vaziyatlarda bu uquvsiz raqiblar mahoratli qo'shiqchilar kuylaydigan katta tadbirlarda bu mashhur musiqachi – Hamroqul qoriga zarba berish yo'llarini qidirishgan. Shu maqsadda ular bir yig'inda Hamroqul qori ijroga chog'langan zahotiyoq, uning

¹ Musiqashunos Aleksandr Jumayevning fikriga ko'ra, bu o'rinda quyidagi qo'lyozma misol bo'la oladi: O'zFASHI-1, №1466/1. Bu kitob Shashmaqom (*Shashmaqom*. Y.Radjabiy (noshir). Tashkent, 1975. 135-184)ning 6-jildiga ilova tarzida faksimile shaklida nashr qilingan [Джумаев А. Бухарские евреи и музыкальная культура Средней Азии [в сб.:] Евреи в Средней Азии: вопросы истории и культуры. Ташкент: Фан, 2004, 84-102].

repertuaridagi qo'shiqlarning hammasini ketma-ket kuylashga tushganlar. Bunday sharoitda maqomchining o'zi ularni qayta kuylay olmasdi. Jo'raxon Sultanovning ta'kidlashicha, Hamroqul qori mohir artist bo'lib, darhol improvizatsiya (badiha) uchun yo'l topardi. Noqulay vaziyatdan chiqish uchun Hamroqul qori ichidagi she'rlarini avvaldan bilmagan bir bayozni qo'lga olib, undagi she'rlarni birma-bir kuylab chiqqan ekan¹. Bu misol sharqona mubolag'a bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin bayozdagi she'rlarning hammasini qo'shiqqa solib kuylashga intilish fakti bayozning muhim vazifasi – musiqiy repertuar uchun asos bo'la olishini ko'rsatadi. Agar bayozdagi biror she'rni kuyga solishning iloji bo'lmasa, hech bo'lmaganda uni kuy ohangiga solib o'qish (melodeklamatsiya) mumkin bo'lgan.

1911-yilda Toshkentda shoir Xislat (1880–1945) bir bayoz tuzib, uni toshbosma tarzida nashr qildirgan. Qizig'i shundaki, bu bayozda keltirilgan she'rlarning hammasi turkiy tilida. Toshbosma bayoz – “Armug'oni Xislat” (Xislat tuhfası) deb nomlanib, o'sha davrning taniqli qo'shiqchisi To'ychi Hofiz (1868–1943) repertuaridagi qo'shiq matnlarini o'z ichiga olgan [Армуғони Хислат, 1329 [1911]].

Xivada tuzilgan bir bayozda she'r matnlarini berishdan avval Domla Xudoyberdi Maxdumning bu bayozni yoddan bilganligi zikr qilinadi; uning boshqa joyida yozilishicha, shu bayozni ikkinchi qismini Muhammad Yoqub Fozachi yoddan bilgan [Bayoz. O'zFASHI-1, №6977, 1b, 104a]. Bu bayozda fors-tojik va eski o'zbek tillaridagi she'rlar keltiriladi. Lekin, eng qizig'i, 1-52 sahifalarda muayyan maqom turlari uchun yozilgan g'azallar keltirilib, maqom nomlari ko'rsatib o'tiladi (“Rost”, “Segoh”...). Ko'rinishidan, bayozning bu qismi maqom ijrosi uchun repertuar sifatida xizmat qilgan. Biror bir bayozni muayyan bir kishi yoddan bilgani ta'kidlansa, bu mazkur bayozdagi she'rlarning qo'shiqqa mo'ljallanganligini ko'rsatuvchi belgi bo'lishi mumkin. Qiyos uchun misol: “Majmuayi ash'or” nomli usmoniy tilidagi to'plam mavjud bo'lib, undan so'fiylar o'zlarining samo' majlislari – tasavvufiy yig'inlarida foydalanganlar [Fehreste nusxahoye xattiye turkiy ketobxonaye bozorge hazrat Oyatullah al-azamiy Mar'ashiy-Najafiy, 1381, №2847]. Shu yo'sinda bayozlar doimiy matn o'laroq muayyan bir auditoriya uchun mo'ljallangan va xizmat qilgan. Bunday antologiyalar qo'shiq matnlarini mustahkamlash maqsadida tuzilgan. Maqomlarga mos she'rlarga

¹ Ma'lumot beruvchi – O'zbekiston xalq hofizi, bayozxan hofiz Mahmud Tojiboyev (1957–2020).

to'la bir antologiya bunga misol bo'ladi: undagi she'rlar usmonli turk tilida bo'lib, ammo grek harflarida yozilgan [Kappler 2002].

Bugungi davrda ham qo'shiqlar uchun bayozlar yaratiladi. Masalan, 2002-yilda O'zbekistonda kuylanadigan mumtoz hamda zamonaviy qo'shiqlar repertuaridagi she'rlar to'plami kitob holida chiqarildi [Umrboqiy qo'shiqlar 2002]. Musiqiy antologiyalar Sharqda keng tarqalgan. Yana zamonaviy she'riy antologiyalar ham mavjud bo'lib, ular an'anaviy mumtoz janrlarda dariy va o'zbek tillarida ijod qiluvchi Afg'oniston shoirlarining she'rlaridan tuzilgan [Bedilistan va guldeste, 2001].

Bayozni bir joyning o'zida ham matn, ham musiqa keltiriluvchi zamonaviy karaokega qiyoslash mumkin¹. Bu o'rinda bayozdagi matnga qarab turib kuylash qoladi, xolos. Bayoz karaokega o'xshaydi, ammo unda musiqa jaranglab turmaydi. Ijrochi matnga qarab turib kuylaydi. Bunday qo'shiqchilar bayozxon hofiz, ya'ni bayoz asosida qo'shiq aytuvchi hofiz deb atalgan.

3. Qo'llanma. Shunday bayozlar ham borki, ular yuksak badiiy mahorat namunalarini bir joyga jamlash maqsadida tuzilgan. Ular go'yo shoirlar uchun qo'llanmadek bo'lgan [Historical Anthology of Kazan Tatar Verse: Voices of Eternity, 2000]. Bayozlar madrasa o'quvchilari uchun xrestomatiya ham bo'la olishi mumkin bo'lgan. Bu o'rinda ifodali o'qish – deklamatsiya to'plami sifatida ham bayozlar diniy she'riyat qo'llanmasi bo'lib xizmat qiladi. Musulmon madrasalarida bizning tushunchamizdagi maxsus adabiyot darslari mavjud emas edi. Lekin she'riyat din va tasavvufni o'rganishning badiiy shakli sifatida xizmat qilgan. Faraz qilish mumkinki, ba'zida bayozlar adabiyotning bunday ko'rinishi uchun xrestomatiyaga aylangan.

4. She'riy mahoratning real va virtual musobaqa maydoni. XV asrdan so'ng o'rta asrlarga xos she'riy yuksalish davri o'zgara boshladi. Shoirlarning o'z mahoratlarini charxlash va namoyon qilish imkoniyatlari ham kamaydi. Ular o'zlarini mumtoz shoirlar qatorida bayoz maydonida sinab ko'rishga majbur bo'ldilar. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, bayozlarning katta qismi o'tmish mumtoz shoirlarining she'rlariga ajratilardi. Keyingi davr yoki zamonaviy shoirlar ham go'yo mumtoz shoirlar bilan bellashgandek va ularga taqlid qilgandek, o'z mahoratlarini bayoz orqali namoyon qila boshladilar. Bunda bayoz virtual musobaqa maydoni vazifasini o'tadi.

¹ Musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari nomzodi Iroda Dadajanovanning og'zaki fikri.

Turli davr shoirlarining, ayniqsa, klassik shoirlarning bayozlardagi “ishtiroki” o‘zaro virtual bellashuvining qay darajada yuksak bo‘lishini oldindan belgilab qo‘yardi [Bayoz. O‘zFASHI-1, №2072, 184^b-215^b]. Bu xususiyat har bir bayozga xos. Misol uchun, XIX asrda Ozarbayjonda turli adabiy yig‘inlar uyushtirilgan. Ularni tashkil etish tartibiga ko‘ra majlis ishtirokchilarining har biri, masalan, “Bayt ul-safo”ning (1867-yilda Shemaha shahrida o‘tkazilgan she‘riyat yig‘ini nomi, rahbari Mulla Og‘a) har bir shoir a‘zosi nazira – aynan bitta g‘azalga o‘zicha javob yozishi kerak edi. Bu esa tabiiyki, she‘rga kuch-quvvat, she‘riyatga ravshanlik berib, shoir mahoratining taraqqiyoti va mukammallashuviga muayyan darajada turtki berardi [Гапаев 1990, 105]. Bu kabi kechalarda Sa‘diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she‘rlarining asl matnlari bilan birga, ularga taqlidan yozilgan she‘rlar ustida bahs borardi [Hamid Demirel. The Poet Fuzuli, 1991]. Klassik shoirlardan o‘qilgan she‘rlar borasida bahs-munozaralar uyushtirilardi. Bunday yig‘ilishlardagi asosiy mashg‘ulot esa, tanlangan asarlarga javob (nazira) yozish edi [Гасым-заде 1956, 387]. Bayoz ham nazira asosidagi musobaqa maydonidir. Buning yorqin dalili sifatida hukmdorlarning buyrug‘iga ko‘ra tuzilgan bayozlarni keltirish mumkin. Ulardagi naziralar shoirlar tomonidan hukmdorning she‘rlariga yoziladi. Bunga misol sifatida Qo‘qon xonligidagi “Majmuayi shoiron” bayozini keltirish mumkin. Uning ikkinchi qismida Umarxon (1810–1822)ning she‘rlariga yozilgan she‘riy javoblar berilgan [Эркинов 2021, 219-244, 269-282, 355-367]. Xiva xonligida “Majmuati shuaro-i Feruzshohiy” (shoh Feruz [atrofidagi] shoirlarning [she‘riy] to‘plami) bo‘lib, bu bayoz butkul Muhammad Rahimxon II (1864–1910)ning she‘rlariga yozilgan naziralardan tashkil topgan [Erkinov 2008, 58-65; 2009, 285-330].

Bayozlar o‘z tarkibiga ko‘ra shoirlar uchun qo‘llanma sifatida xizmat qilishini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, shunday bayozlar borki, ular badiiy yuksak she‘rlarni bir joyga jamlash maqsadida tuzilgan. “Tashbihoti zebo” (Zebo o‘xshatishlar) bayozi shular jumlasidan bo‘lib, undan tashbih-o‘xshatishlarning yuzlab namunalariga ega turli fors-tojikcha she‘rlar joy olgan [Bayoz. O‘zFASHI-1, №1858/2]. Mazkur bayozni shoirning doimiy tayanch kitobi deb sanash mumkin.

5. Bayoz tuzuvchilari, buyurtmachilari va o‘quvchilari.

Bayozlartuzuvchivabuyurtmachilarsharofatibilanyaratilardi, ular esa doimo o‘quvchining didi bilan hisoblashishgan. Shoirlarning o‘zi ham shunday tuzuvchi bo‘lishi mumkin. Hindistonning mashhur

forsiyzabon shoiri Bedil o'zining "Chor unsur" asarida shoirlarning shunday guruhi haqida yozadi: ular "g'uncha va atirgul" haqidagi g'oyalarini yoyish maqsadida she'rlar yaratib, ularni bayoz vositasida elga tarqatardilar [Бедил 1882, 63-64; Ризаев 1971, 7]. Bayoz tuzuvchilardan biri Mirzo Yuldoshboy ismli shaxs bo'lib, u Doiy taxallusi bilan she'r yozgan. Bayoz qo'lyozmasining o'rtasida u o'zi haqidagi ba'zi ma'lumotlarni keltiradi: 1315/1898-yilda Doiy Darvoz (hozirgi Tojikistondagi joy nomi) hukmdori etib tayinlangan, u bu yerda uch yil istiqomat qilgan. Darvozda hayoti xotirasi uchun Doiy bayoz tuzgan. 1320/1903–1323/1905–1906-yillarda u Shug'nonda (hozirgi Badaxshon avtonom viloyati, Tojikiston Respublikasi) yashagan. U yerda bayoz, asosan, uning o'z she'rlar hisobiga (2000 misradan ortiq) to'ldirilgan. Bu bayozning qimmati shundaki, unda tojik tili bilan birga mahalliy shevalarda ham ijod qilgan Darvoz va Badaxshon shoirlari she'rlari mavjud. Ayni qo'lyozma bayoz juda noyob to'plam hisoblanadi. Qo'lyozmaning bir qismi tuzuvchi tomonidan Xorogda 1920-yilning avgustida qayta ko'chirilgan [Bayoz. TadRSI, №819 (CVRT, V, №1568)].

Bayoz buyurtmachilari turli insonlar bo'lganlar. Afsuski, ular haqidagi ma'lumotlar juda kam. Masalan, bayozlar hukmdorlar buyrug'iga ko'ra tuzilgan. Buxoro xonlari uchun, asosan, forsiyzaon she'rlarni o'z ichiga olgan bayozlar tuzilgan. Sababi fors tili Buxoro xonligining davlat tili edi. Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II (1864–1910) buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan bayozlar asosan turkiy tilidagi she'rlarni o'z ichiga olgan. Xiva xonligida tuzilgan turkiy tilidagi bir bayoz debochasida ko'rsatilishicha, u Xiva hukmdori Sayyid Muhammad Bahodirxon (1856–1864) buyrug'iga ko'ra tuzilgan [Bayoz. O'zFASHI-3, №797/2, 80b-81b]. Bu podsho xivalik shoirlarga Navoiy g'azallariga muxammas yozishni amr etadi. Turli mintaqa hukmdorlarining farmoyishiga ko'ra tuzilgan boshqa bayozlar ham bor. Xiva xoni Muhammad Rahimxon IIning buyrug'iga ko'ra tuzilgan bayoz kotibining aytishicha, u Xiva shoirlariga tegishli 255 ta g'azalni to'plagan [Bayoz. O'zFASHI-1, №1185 /([SVR, VII, №5287)]. Bunday bayoz qatoriga Sarpul, Qorategin (Tojikiston Respublikasidagi bugungi Qorategin tumani) vohasida tuzilgan qo'lyozmani ham kiritish mumkin [Bayoz. O'zFASHI-1, №12471, 253b].

O'zbek shoiri Charxiy (1900–1979) bergan ma'lumotga ko'ra, o'quvchilarning bayozga buyurtmasi qanday qilib hisobga olinganligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Charxiyning o'zi shoir va

bayoz tuzuvchi bo'lgan¹. She'riyat shaydolari unga muallif-shoirilar ro'yxatini taqdim qilishgan, ya'ni bayozga buyurtma berishgan. U buyurtmadagi ro'yxatga asoslangan va she'rlarni o'z dididan kelib chiqib, turli qo'lyozmalardan saralab olgan. Bayozlar shu tarzda tuzilar edi.

Eng murakkabi – bayoz o'quvchilar doirasini aniqlash. Bunga sabab esa ular haqidagi ma'lumotlarning taqchilligidir. Bir bayoz muqovasining ichki qismida unga 45 tanga narx-baho qo'yilganligi ko'rsatilgan yozuv yopishtirilgan [Bayoz. O'zFASHI-1, №2072]. Narx haqidagi yozuv kechroq yopishtirilgan bo'lib, mazkur bayozning sotuvga mo'ljallanganidan darak beradi. Demak, avvaldan tayyor qilib qo'yilgan bayozni kitobxonlar sotib olish imkoniga ega bo'lganlar. O'zbek mumtoz adabiyoti vakili, shoir Ochildi Murod Miriy Kattaqo'rg'oniy (1830–1899) o'z shaxsiy bayozini yaratgan. Olimlar fikriga suyanadigan bo'lsak, mazkur bayoz tarkibiga ko'ra ta'lim oluvchilar uchun o'qish kitobi sifatida xizmat qilgan [Муродов 1971, 97-99]. Keltirilgan dalillarning barchasi, to'liq bo'lmasada, bayozlarning o'z muayyan vazifalariga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, bayozning shunchaki oddiy she'riy to'plam emas, balki yuksak lirik antologiya ekani ayon bo'ladi.

Bayozlar vositasida qanday she'rlar o'tmish davr o'quvchilarini qiziqtirgani, ular qaysi she'rlarni o'qib, o'z bayozlariga ko'chirib olganliklari haqidagi bilimga ega bo'lish mumkin. Turli davrlarda turlicha shoirlar rasm (moda) bo'lgan. Bayoz orqali o'quvchilar didi tarixini bilish va o'rganish mumkin.

Bayoz qo'lyozma janr sifatida

Manbashunoslik fani nuqtayi nazaridan qaraganda, bayoz qo'lyozma janri, deb hisoblanishi mumkin. Aslida, har bir bayoz o'ziga xos bo'lib, biri boshqasiga o'xshamaydi. Har bir kitobxon yoki bayoz tuzuvchi xilma-xil she'rlar prizmasi orqali borliqni o'zicha qabul qiladi va to'plamni ham o'zicha saralab tuzadi. Alohida olingan asar turlicha qo'lyozmalarda turli o'rinlarda keltirilishi mumkin. Bayozlar avvaldan qat'tiy va tayyor repertuarga ega bo'lmagan. O'z tadqiqotimiz mobaynida biz 200 dan oshiq bayoz tarkibi bilan tanishib chiqdik, ammo biron marta ham bayozdagi she'rlarning aynan bir xil repertuariga duch kelmadik. Demak, bayoz qo'lyozma janrdir, shuningdek, u mustaqil qo'lyozma talab-me'yorlariga javob beradi.

Bayoz – bu she'riyatni qadrllovchilar janri. Buni hatto bayozlar

¹ Filologiya fanlari nomzodi Boboxan Qosimxonov (1945-2018) ma'lumoti.

husnixatidan ham bilish mumkin. Ular deyarli har doim kalligrafik jihatdan yuksak darjada yozilgan [Erkinov 2015, 347-364]. Bayoz bu – shunchaki oddiy she'rlar to'plami emas. Masalan, bayozlar tarkibida xalq og'zaki ijodiga xos she'rlari deyarli uchramaydi. Bayoz yuksak aql-idrok sohiblari uchun antologiya sifatida bir joyda she'riyat klassikasini, she'riyat (kvintessensiya) qaymog'ini jamlashi lozim edi. Forsiyyabon mumtoz shoirlarning ijod namunalari esa uzoq asrlardan beri aynan yuksak darajadagi she'riyat namunasi bo'lib kelgan. Ular bir qancha asrdan keyingina, fors she'riyati o'z ufqiga yaqinlashganida o'z o'rinlarini boshqa adabiyotlarga (masalan, turkiy adabiyoti) bo'shatib bera boshladilar. Garchi O'rta Osiyo, Turkiya va Eronning ham Navoiy va Fuzuliy kabi o'z klassik shoirlari bor bo'lsa-da, asrlar mobaynida ko'proq forsiyyabon ijodkorlar she'riy taqlid uchun namuna-o'rnak bo'lib kelgan. O'zimizning turkiy she'riyat rivoji va bu tildagi she'rlarga taqlid qilish an'anasi mavjud bo'lganligiga qaramasdan, hatto mashhur turkiy klassik shoirlar – Navoiy va Fuzuliy she'rlari nisbatan keyingi davr bayozlariga kiritilgan [Эркинов 2021, 219-244]. Bu davrdan boshlabgina O'rta Osiyo bayozlarida turkiy she'rlar ham ko'proq ko'zga tashlana boshladi.

Xulosa qilib aytganda, bayoz o'ziga xos she'riy to'plam bo'lib, u muayyan davr kitobxonlarining she'riy didi, estetik darajasini ko'rsatishga xizmat qilar ekan.

Shartli qisqartmalar:

BnF = Bibliothèque nationale de France, Paris – Fransiya milliy kutubxonasi, Parij.

BNF-SP = BnF- Supplement Persan (fors tilidagi qo'lyozmalar fondi).

TUK = Tehron universiteti kutubxonasi.

CVRT = Katalog vostochnix rukopisey Akademii nauk Tadjikskoy SSR. Tom I-V, Dushanbe, 1960–1974.

FKDT = Fehreste ketobxonaye markaziye doneshgohe Tehron. Jild 9, M.T.Doneshpajuh (noshir).Tehron, 1340 [1961].

KFIR = Katalog fonda instituta rukopisey. A.Qayumov and (ed.). vol I, 1989; vol II, Tashkent, 1988.

TadRSI = Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Dushanbe).

O'zFASHI = O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (Toshkent). O'zFASHI-1 asosiy fondni anglatadi. O'zFASHI-3 esa sobiq Qo'lyozmalar institutidan (1978–1998) bu institutga kelib qo'shilgan fondni bildiradi.

SVR = Sobranie vostochnykh rukopisej instituta vostokovedeniya

Akademii nauk UzSSR, A.A. Semenov and. (ed.), vol. II, 1954;
vol VI, 1963; vol VII, Tashkent, 1964.

Qo'lyozma manbalar:

- Jo'ng. BnF-SP, №1366 (ko'chirilgan yili – 1009/1600-1601).
Bayoz. BNF-SP, №1473.
Bayoz. BnF-SP, №805.
Bayoz. O'ZFASHI-1, №1108 (ko'chirilgan yili –1298/1880-1881)
Bayoz. O'zFASHI-1, №1185 (ko'chirilgan sana – 1326 yil, 18 rabi us-soniy/
1908 yil, 21 may).
Bayoz. O'zFASHI-1, №12471.
Bayoz. O'zFASHI-1, №1466/1.
Bayoz. O'ZFASHI-1, №1597 (ko'chirilgan yili –1278/1861-1862).
Bayoz. O'zFASHI-1, №183/2
Bayoz. O'ZFASHI-1, №1858/2 (ko'chirilgan yili – 1247/1831-1832).
Bayoz. O'zFASHI-1, №1944 (ko'chirilgan yili –1275/1858-1859).
Bayoz. O'zFASHI-1, №2072 (ko'chirilgan yili – 1272/1855-1856).
Bayoz. O'ZFASHI-1, №2077 (ko'chirilgan yili – 1109/1697-1698).
Bayoz. O'zFASHI-1, №231/4.
Bayoz. O'ZFASHI-1, №2515 (ko'chirilgan yili –1291/1874-1875).
Bayoz. O'zFASHI-1, №3059/1 (ko'chirilgan yili –1274/1857-1858).
Bayoz. O'zFASHI-1, №3066 (ko'chirilgan yili –1303/1885-1886).
Bayoz. O'zFASHI-1, №3326 (ko'chirilgan yili – 1298/1880-1881)
Bayoz. O'ZFASHI-1, №4181.
Bayoz. O'ZFASHI-1, №4208 (ko'chirilgan yili – 1279/1862-1863).
Bayoz. O'zFASHI-1, №6968/1 (ko'chirilgan yili – 1318/1900-1901).
Bayoz. O'zFASHI-1, №6973.
Bayoz. O'zFASHI-1, №6977 (ko'chirilgan yili –1335/1916-1917).
Bayoz. O'ZFASHI-1, №7038 (ko'chirilgan yili – 1209/1794-1795);
Bayoz. O'zFASHI-3, №1940/1 (ko'chirilgan yili – 1297/1879-1880).
Bayoz. O'ZFASHI-3, №3567.
Bayoz. O'zFASHI-3, №358 (ko'chirilgan yili –1317/1899-1900).
Bayoz. O'zFASHI-3, №797 (ko'chirilgan yili –1274/1857-1858).
Bayoz. TadRSI, №1795.
Bayoz. TadRSI, №2293/1.
Bayoz. TadRSI, №819.
Bayoz. TUK, №2423.
Bayoz. TUK, №2446.
Bayoz. TUK, №2454 (ko'chirilgan yili – 1189/1775-1776).
Bayoz. TUK, №2591.
Bayoz. TUK, №4343 (ko'chirilgan yili – 1292/1875).
Radoyif ul-ash'or. O'zFASHI -1, №2335 (ko'chirilgan yili – 1301/1883-
1884).
Tazkirat ul-xavonin. TUK, №2431.

Adabiyotlar

- Абибов, А. 1984. *Доираҳои адабии Бухорои шарқӣ (асри XIX ва ибтидои аср XX)*. Душанбе.
- Армуғони Хислат. 1329 [1911]. Тошкент.
- Abdulqodir ibn G'aybiy ul-Hofiz al-Marog'iy. 1372 [1993]. *Jome ul-alhon: xotime*. T.Binish (noshir). Tehron.
- Абдуллаева, Б. "Тошбосма баёзларнинг илмий тавсифи". *Адабий мерос*. 1989, 4(50). Б.37-44.
- Абибов, А. 1984. *Доираҳои адабии Бухорои шарқӣ (асри XIX ва ибтидои аср XX)*. Душанбе.
- Bedilistan va guldeste-2*. 2001. Istanbul.
- Bayozi Tojiddin Ahmadvazir* (782 h.q). 1381 [2002]. Jild 1-2. Tehron.
- Баёзҳои Умар Ҳофиз*. 2003. Н.Ғиёсов, А.Самеев (noshiron). Хўжанд.
- Бедил. Куллийат*. 1882. Бомбей.
- Bečka J. 1968. *Tajik literature from the 16th century to the present*. Rypka. J. History of Iranian Literature. K.Jahn (ed.). Dordrecht-Holland.
- Berg, G.R. van den. *Minstrel Poetry from the Pamir Mountains*. 2004. *A Study on the Songs and Poems of the Ismailis of Tajik Badakhshan*. (Iran-Turan 6). 33,123,136. Wiesbaden.
- Исҳоқов, Ё. 1978. "Баёз". *Ўзбек адабиёти тарихи*. IV том: XVIII асрнинг охири – XIX асрнинг биринчи ярми. 23-38. Тошкент: Фан.
- Гараев, Н. 1971. *Азербайджанские литературные медресы*. PhD.
- Гасум-заде Ф. 1956. *История азербайджанской литературы XIX века*. Баку.
- Гасимов, А. 1983. "Эл шаирлари жунгларда". *В сокровищнице рукописей VI*, 104-107. Баку.
- Муродов А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент.
- Джумаев, А. Б. 2004. "Бухарские евреи и музыкальная культура Средней Азии". *Евреи в Средней Азии: вопросы истории и культуры* 87-90. Ташкент.
- Daneshpajuh, M.T. 1989. "Bayaz". *Encyclopædia Iranica*, III: 886. E. Yarshater (Gen. Ed.), London - Costa Mesa - New York.
- Dehudo, A.A. 1338/1959. *Lughatnome*. Jild 16: 125. Tehron.
- Нагиева, Д.М. 1990. *Наваи и азербайджанская литература XV-XIX вв.* Ташкент.
- Ризаев, З.Р. 1971. *Индийский стиль в поэзии на фарси конца XVI- XVII вв.* Ташкент.
- Ҳамидова, М. 1981. *Қўлёзма баёзлар – адабий манба*. Тошкент.
- Шашмақом. Ҳ. 1975. *Radjabiy* (noshir). Ташкент.
- Эркинов, А. 2021. *Навоийни англаш сари*. Анкара: Akçağ Yayinevi.
- Erkinov, A. 2015. "XV-XIX. asirlar Orta Asya edebi metin örneklerinde el yazma beyazların özellikleri". *A.U.Sosiyallegitim Bilimler Dergisi [SBD]* 54, 347-364. Erzurum.
- Erkinov, A. 2009. "Les Timourides, modèles de légitimité et les recueils poétiques de Kokand". *Écrit et culture en Asie centrale et dans le monde turko-iranien, XIVe-XIXe siècles /Writing and Culture in Central Asia and in the Turko-Iranian World, 14th-19th Centuries*, F. Richard and M. Szuppe (eds.), 285-330. [Cahiers

- de Studia Iranica 40], Paris: AAEI.
- Erkinov, A. 2008. "Timurid mannerism in the literary context of Khiva under Muhammad Rahim-khan II (Based on the anthology Majmu'a-yi shu'ara-yi Firuz-shahi)". Тимуридский маньеризм в литературной среде Хивы при Мухаммад Рахим-хане II (на примере антологии "Маджму'а-йи шу'ара-йи Фируз-шахи). Bulletin of IICAS. Volume 8. Вестник МИЦАИ 8: 58-65.
- Fehreste nusxahoye xattiye turkiy ketobxonaye bozorge hazrat Oyatullah al-azamiy Mar'ashiy-Najafiy*. 1381. H.Muntakiy (noshir). Jild 1, Qum (Iran).
- Fursat al-Davla Sheroziy. 1375 [1996]. *Buhur al-alhon*. T.Binish (noshir). Tehron.
- Hamid Demirel. 1991. *The Poet Fuzuli*. Ankara.
- Historical Anthology of Kazan Tatar Verse: Voices of Eternity*. 2000. D.J.Matthews, R.Bukharaev (Transl. & ed.). London-New York.
- Hiravi, N.M. 1380 [2001]. *Ta'rix-e nusxapardoziy va tashihe enteqodiye nusxahoye xattiy*. 201-203. Tehron.
- Husayn Xoshimiy. 1379 [2000]. *Vijanomaye nusxashenosiy va ketobpardoziy. Tazhib, khat, sahhofiy, kog'az, rang va murakkab*. Tehron.
- Historical Anthology of Kazan Tatar Verse: Voices of Eternity*. 2000. D.J.Matthews, R.Bukharaev (Transl. & ed.). London-New York.
- Kappler, M. 2002. *Türkischsprachige Liebeslyrik in griechisch-osmanischen Liedanthologien des 19. Jahrhunderts*. Berlin.
- Umrboqiy qo'shiqlar*. 2002. E.Ochilov (noshir). Toshkent.
- Халидов, А.Б. 1985. *Арабские рукописи и арабская рукописная традиция*. Москва.
- Троицкая, А.Л. 1948. "Abdotili-Арго цеха артистов и музыкантов Средней Азии". *Советское востоковедение*. V: 251-272.
- Philologiae Turcicae Fundamenta*. 1964. II: 702. Wiesbaden.
- Ярмамедов, Н.Х. 1992. *Азербайджанская рукописная книга 19 века*. Автореферат кандидатской диссертации. Баку.
- Jonge Mortezo Quli Shamlu (Mortezo Qoli Shamlu's Miscellanous writings). 1382 [2004]. *A Facsimile edition based on the original manuscript compiled in 1069 A.H. (1658)*. I.Afshar, A.Munzavi (eds.). Tehron.
- Richard, F. 1989. *Catalogue des Manuscrits Persans*. I. Ancien Fonds. 40. Paris, 1989.
- Navshahi, S.A. 1404 [1983]. *Fehreste nusxahoye xattiyi forsiy*. 127-140. Karachi. Islomobod.
- Munzavi, A. 1357 [1978]. *Fehreste nusxahoye xattiye ketobkhonayi Ganjbaxsh*. 1, Lahor.
- Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии Академии наук СССР (краткий алфавитный каталог)*. 1964. Часть 1. 499-502. Москва.
- Туркистон вилоятининг газети*. 1908, №47.
- Серикова, Л. 1981. *Малые формы лирики Алишера Навоий*. Ташкент.

Some Comments on Manuscript Bayoz

Aftondil Erkinov¹

Abstract

Bayaz is a collection of poems that includes works by classical and modern poets; this collection can also serve as a platform for a virtual poetry competition. Bayaz can be a text for a song repertoire or a source of aesthetic tastes from a certain era. The article was written primarily based on manuscripts from the collection of the Institute of Oriental Studies named after Abu Raikhan Biruni of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *Bayaz, repertoire, library, readers, poetry competition.*

References

- Abibov A. 1984. *Doirahoyi adabiyi Buxoroiy sharqiy (asri XIX va ibtidoi asr XX)*. Dushanbe.
- Armug'oni Xislat*. 1329 [1911]. Toshkent.
- Abdulqodir ibn G'aybiy ul-Hofiz al-Marog'iy. 1372 [1993]. *Jome ul-alhon: xotime*. T.Binish (noshir). Tehron.
- Abdullaeva, B. "Toshbosma bayozlarning ilmiy tavsifi". *Adabiy meros*. 1989, 4(50). B.37-44.
- Abibov, A. 1984. *Doirahoyi adabiyi Buxoroiy sharqiy (asri XIX va ibtidoi asri XX)*. Dushanbe.
- Bedilistan va guldeste-2*. 2001. Istanbul.
- Bayozi Tojiddin Ahmadvazir (782 h.q)*. 1381 [2002]. Jild 1-2. Tehron.
- Bayozhoi Umar Hofiz*. 2003. N.G'iyosov, A.Sameev (noshiron). Xo'jand.
- Bedil. Kulliyat*. 1882. Bombay.
- Bečka, J. 1968. *Tajik literature from the 16th century to the present*. Rypka. J. History of Iranian Literature. K.Jahn (ed.). Dordrecht-Holland.
- Berg, G.R. van den. *Minstrel Poetry from the Pamir Mountains*. 2004. *A Study on the Songs and Poems of the Ismailis of Tajik Badakhshan*. (Iran-Turan 6). 33,123,136. Wiesbaden.
- Is'hoqov, Yo. 1978. "Bayoz". *O'zbek adabiyoti tarixi*. IV tom: XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi yarmi. 23-38. Toshkent: Fan.
- Garaev, N. 1971. *Azerbaydjanskije literaturnye medjlisi*. PhD.
- Gasum-zade, F. 1956. *Istoriya azerbaydjanskoy literaturi XIX veka*. Baku.

¹ Erkinov Aftondil Sodirxonovich – Doctor of Philology, International Islamic Academy of Uzbekistan.

E-pochta: erkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

For citation: Erkinov, A. S. 2024. "Some comments on manuscript bayoz". *Golden Scripts* 2: 4 – 27.

- Gasimov, A. 1983. "El shairlari junglarda". *V sokrovishnitse rukopisey VI*, 104-107. Baku.
- Murodov, A. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent.
- Djumaev, A. B. 2004. "Buxarskie yevrei i muzыkal'naya kultura Sredney Azii". *Yevrei v Sredney Azii: voprosi istorii i kulturi* 87-90. Tashkent.
- Daneshpajuh, M.T. 1989. "Bayaz". *Encyclopædia Iranica*, III: 886. E. Yarshater (Gen. Ed.), London - Costa Mesa - New York.
- Dehudo, A.A. 1338/1959. *Lughatnome*. Jild 16: 125. Tehron.
- Nagieva, D.M. 1990. *Navai i azerbaydjanskaya literatura XV-XIX vv.* Tashkent.
- Rizaev, Z.R. 1971. *Indiyskiy stil v poezii na farsi konsa XVI- XVII vv.* Tashkent.
- Hamidova, M. 1981. *Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba*. Toshkent.
- Shashmaqom. Y. 1975. Radjabiy (noshir). Tashkent.
- Erkinov, A. 2021. *Navoiyni anglash sari*. Ankara: Akçağ Yayınevi.
- Erkinov, A. 2015. "XV-XIX. asirlar O'rta Asya edebi metin örneklerinde el yazma beyazların özellikleri" *A.U.Sosiyallegitim Bilimler Dergisi [SBD]* 54, 347-364. Erzurum.
- Erkinov, A. 2009. "Les Timourides, modèles de légitimité et les recueils poétiques de Kokand". *Écrit et culture en Asie centrale et dans le monde turko-iranien, XIVe-XIXe siècles /Writing and Culture in Central Asia and in the Turko-Iranian World, 14th-19th Centuries*, F. Richard and M. Szuppe (eds.), 285-330. [Cahiers de Studia Iranica 40], Paris: AAEI.
- Erkinov, A. 2008. "Timurid mannerism in the literary context of Khiva under Muhammad Rahim-khan II (Based on the anthology Majmu'a-yi shu'ara-yi Firuz-shahi)". *Timuridskiy manerizm v literaturnoy srede Xivы pri Muxammad Raxim-xane II (na primere antologii "Madjmu'a-yi shu'ara-yi Firuz-shaxi)*. Bulletin of IICAS. Volume 8. *Vestnik MITSAT* 8: 58-65.
- Fehreste nusxahoye xattiye turkiy ketobxonaye bozorge hazrat Oyatullah al-azamiy Mar'ashiy-Najafiy*. 1381. H.Muntakiy (noshir). Jild 1, Qum (Iran).
- Fursat al-Davla Sheroziy. 1375 [1996]. *Buhur al-alhon*. T.Binish (noshir). Tehron.
- Hamid Demirel. 1991. *The Poet Fuzuli*. Ankara.
- Historical Anthology of Kazan Tatar Verse: Voices of Eternity*. 2000. D.J.Matthews, R.Bukharaev (Transl. & ed.). London-New York.
- Hiravi, N.M. 1380 [2001]. *Ta'rix-e nusxapardoziy va tashihe enteqodiye nusxahoye xattiy*. 201-203. Tehron.
- Husayn Xoshimiy. 1379 [2000]. *Vijanomaye nusxashenosiy va ketobpardoziy. Tazhib, khat, sahhofiy, kog'az, rang va murakkab*. Tehron.
- Historical Anthology of Kazan Tatar Verse: Voices of Eternity*. 2000. D.J.Matthews, R.Bukharaev (Transl. & ed.). London-New York.
- Kappler, M. 2002. *Türkischsprachige Liebeslyrik in griechisch-osmanischen*

- Liedanthologien des 19. Jahrhunderts*. Berlin.
- Umrboqiy qo'shiqlar*. 2002. E.Ochilov (noshir). Toshkent.
- Xalidov, A.B. 1985. *Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya*. Moskva.
- Troiskaya, A.L. 1948. "Abdotili-Argo sexa artistov i muzykantov Sredney Azii". *Sovetskoe vostokovedenie*. V: 251-272.
- Philologiae Turicae Fundamenta*. 1964. II: 702. Wiesbaden.
- Yarmamedov, N.X. 1992. *Azerbaydjanskaya rukopisnaya kniga 19 veka*. Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii. Baku.
- Jonge Mortezo Quli Shamlu (Mortezo Qoli Shamlu's Miscellanous writings). 1382 [2004]. *A Facsimile edition based on the original manuscript compiled in 1069 A.H. (1658)*. I.Afshar, A.Munzavi (eds.). Tehron.
- Richard, F. 1989. *Catalogue des Manuscrits Persans*. I. Ancien Fonds. 40. Paris, 1989.
- Navshahī, S.A. 1404 [1983]. *Fehreste nusxahoye xattiyi forsiy*. 127-140. Karachi. Islomobod.
- Munzavi, A. 1357 [1978]. *Fehreste nusxahoye xattiye ketobkhonayi Ganjbaxsh*. 1, Lahor.
- Persidskie i tadzhikskie rukopisi Instituta narodov Azii Akademii nauk SSSR (kratkiy alfavitnyy katalog)*. 1964. Chast 1. 499-502. Moskva.
- Turkiston viloyatining gazetisi. 1908, №47.
- Serikova, L. 1981. *Malie formi liriki Alishera Navoiy*. Tashkent.

Saif Zafari Buxoriyning "Durrul majolis" asarida Odam (a.s.) talqini

Zilola Amonova¹

Azizbek Boqiyev²

Abstrakt

Mazkur maqolada Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asaridagi Odam (a.s.) bilan bogʻliq qissa tahlilga tortilgan. Mazkur toshbosma Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi Gʻulomiy matbaasida bosmadan chiqarilgan boʻlib, 240 sahifadan iborat. Kitob Toshkentda chop etilgan boʻlsa-da, Buxoro qoʻlyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda “Buxoro toshbosmasi” nomi bilan oʻrganilmoqda. Mazkur manba qissayi anbiyo xarakteridagi asarlar sirasiga mansub boʻlib, Qurʼoni Karimda nomlari zikr etilgan oʻn ikki paygʻambar haqidagi qissa berilgan. Shuningdek, kitobda sahobalar, shayxlar haqidagi hikoyatlar ham keltirilgan. Qolaversa, turli didaktik hikoyatlarga ham oʻrin ajratilgan. Toshbosmaning birinchi bobi “Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarini yaratmogʻini bayonidadur”, deb nomlanadi. Mazkur qissa hajm jihatdan ancha salmoqli boʻlib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa Odam (a.s.)ga bagʻishlangan boʻlsa-da, Sulaymon, Yusuf, Yunus (a.s.)lar bilan bogʻliq kichik hikoyatlar ham berilgan.

Kalit soʻzlar: *Durrul majolis, Saif Zafari Buxoriy, toshbosma, nashr, Basmala, Qurʼoni Karim, Hadisi Sharif, Odam (a.s.), tasavvuf, badiiyat.*

Kirish

Mustaqillikdan soʻng, mumtoz maʼnaviy merosga munosabat tubdan oʻzgardi. Yangi manbalarni topish, ularni ilmiy muomalaga kiritish, sharh va talqinlarini amalga oshirish bilan bogʻliq jiddiy, ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Koʻplab nodir qoʻlyozma va toshbosma manbalar joriy yozuvimizga tabdil qilindi. Bu xayrli ish

¹ Amonova Zilola Qodirovna – filologiya fanlari doktori, Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: zilolajonamonova@gmail.com, z.q.amonova@buxdu.uz

ORCID ID: 0000-0001-7710-3065

² Boqiyev Azizbek Abdullajon oʻgʻli – tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: mullomuxtasar7@gmail.com


ORCID ID: 0009-0002-7919-8437

Iqtibos uchun: Amonova, Z., Boqiyev, A. 2024. “Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolis” asarida Odam (a.s.) talqini”. *Oltin bitiglar* 2: 28 – 41.

hozirda ham davom etib kelmoqda. Jumladan, Buxoro viloyatidagi Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida saqlanayotgan bebaho qo'lyozma manbalar ham soha mutaxassislari xizmati bilan nashr etilib, xalqimizga taqdim etib kelmoqda. Albatta, ushbu sa'y-harakatlar natijasida sho'ro tuzumi mafkurasi o'rganishni man etgan ko'plab mutafakkirlarimiz, din va tasavvuf arboblarning ilmiy-ijodiy merosidan bahramand bo'la boshladik. Buyuk olim va mutasavvif arbob Saif Zafari Buxoriyning ijodi ham shular jumlasidandir.

Saif Zafari Buxoriy o'z davrining ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan bo'lib, uning bizga "Durrul majolis" kitobi yetib kelgan. Asarda Qur'oni Karimda zikr qilingan qissalar va ularni asoslovchi oyatlarning ma'nolari chuqur yoritilgan bo'lib, o'z davrining talabiga binoan forsiy tilda yozilgan. Mazkur asar Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat ilmiy kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi G'ulomiy matbaasida bosmadan chiqarilgan bo'lib, 240 sahifadan iborat. Kitob Toshkentda chop etilgan bo'lsa-da, Buxoro qo'lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda "Buxoro toshbosmasi" nomi bilan o'rganilmoqda. Toshbosma betlari sahifaning yuqori qismida arab raqamlari bilan ko'rsatilgan. Ushbu kitob an'anaviy devonlar kabi Basmalayi sharif bilan boshlangan. Hamd-u sano va na'tlardan so'ng, ushbu kitobning asl musannifi Saif Zafar al-Buxoriy ekanligi, kitobning nomi «Durrul majolis»ligi hamda ushbu kitob forsiy tilda yozilganligi, bu asarni forsiy tildan turkiy tilga tarjima qiluvchi Eshon Janobi Sulton Sayyid xo'ja Ibn Mahmudxo'ja eshon Toshkandiy mashhur Maxdum Qodiriylardan ekanligi aytib o'tilgan.

Asar 33 bobdan iborat bo'lib, birinchi bob "Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarini yaratmog'ini bayonidadur", deb nomlanadi. Mazkur qissa hajm jihatdan ancha salmoqli bo'lib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa, dastlab, Alloh taoloning insonni yaratmoqchi bo'lganligi va bunda arsh, kursi, samo insonni o'zlaridan yaratishlarini so'rab iltijo qilishlari bilan boshlanadi:



Joriy yozuvdagi tabdili:

Hazrat Haq subhanahu va taolo xohladiki, yer yuzig'a banda yaratib xalifa qilurman deb va andin ko'p bandazodalar paydo bo'lurki, alar meni do'stumdurlar deb oyati karima mazmuni birlaki "yuhibbuhum va yuhibbunahu", "va iz qola robbuka lilmalaikati inni jailun fil arzi xoliyfah" o'shal on Arsh bosh ko'tarib aydi: "Ey bor Xudoyo bandayi baxtiyor yaraturman dersan, xohlarmanki, mendin paydo qilingki, Kalomingda meni azim deb xabar berding va ayding "Arshul azim" deb orzum shulki, xalifa azizu mukarramingni mandin ofariyda qiling", deb, andin so'ng kursiy bosh ko'tarib aydi: "Ey bor Xudoyo shul bandayi baxtiyorni mendin yarating" deb chunonchi Kalomingda xabar berding. "Vasia kursiyyuxus samavati val ard" deb meni lavh birla ilgari yaratding andin so'ng osmon bosh ko'tarib va aydi: "Ey bor Xudovando sen meni oy va oftob va yulduzlar birla ziynat berding, Kalomingda xabar berding. "Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha" deb, sen bul bandangni mendin yaratg'il", deb va lekin hammalarini gumoni bul erdiki mandin yaratur deb Hazrat Odam alayhissalom bizlardin yaratur deb har qaysilarini muddaolari shul erdi, ammo zamini karim andin hech ovoz chiqmadi va hech nimarsa demadi, g'ayri aks shikastalikdin o'zga hech nimarsa demadi, boshini quyi solib turdi. Allohu taolodin farmon bo'ldiki, ey zamin, sandin boshqa har qaysilari Odam alayhissalomni yaratmog'imni o'zlarig'a gumon qildilar. Sen na uchun xomush bo'lding va hech so'z demading dedi. Anda zamin aydi: "Ilohi san hamma rozlarg'a va so'zlarg'a o'zing donosen va bilursenkim Arsh o'zini kattalig'ig'a tamanno va noz qilur va osmon o'zini balandlig'ig'a noz qilur va har

qaysilari o'z martabalarini balandlig'ig'a havo qilurlar va men nima martabadadurmanki, Sani yaratodurgon aziz bandangni o'zimg'a kamon qilurmanki, hamma to'rt oyoqliq mahluqlaringni oyog'ini ostida yotg'udaman", dedi. Andin so'ng Xudovand Karimdin farmon bo'ldi va aydi: "Ey zamin, sen buncha shikastalikni o'zingg'a ixtiyor qilding menga bisyor xush keldi emdi hamma ishlar sandin paydo bo'lur", - dedi.

Ushbu parchaga e'tibor qaratsak, muallif o'z fikrlarini dalillash va ta'sirchanlikni ta'minlash maqsadida iqtibos san'atidan o'rinni foydalangan. Ya'ni Haq taoloning yer yuziga banda yaratib xalifa qilishi bilan bog'liq "Moida" surasining 54-oyatidan

يُحِبُّهُمْ وَيُحِبُّونَهُ

"yuhibbuhum va yuhibbunahu" (Alloh taolo ularni yaxshi ko'radi, ular ham o'z Robbilarini yaxshi ko'radilar) qismini hamda "Baqara" surasining 30- oyatining dastlabki qismidan

وَإِذْ قَالَ رَبُّكَ لِلْمَلَأِكَةِ إِنِّي جَاعِلٌ فِي الْأَرْضِ خَلِيفَةً


"Va iz qola robbuka lilmalaikati inni jailun fil arzi xoliyfah" (Eslang: Vaqtiki, Pobbing farishtalarga: "Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman"), - keltirgan.

Shuningdek, muallif insonni yaratilishida da'vogar bo'lgan har bir ashyoni alohida keltirib, ularning odamni yaratilishidagi fikrlarini asarda qayd etish bilan qanoatlanmaydi. Balki, ayni masala bilan bog'liq oyati karimalarni iqtibos qilib, mulohazalarini asoslashga harakat qiladi. Masalan, arsh odamni o'zidan yaratishini istab, Allohning o'zi haqida Qur'onda الْعَرْشِ الْعَظِيمِ "Arshul azim" (Buyuk arsh) deya e'tirof etilamganligini "Naml"-surasining 26-oyatining oxirgi qismini keltirsa, kursining da'vogarligi haqida fikr yuritib, "Baqara" surasining 255-oyatini keltiradi: وَسِعَ كُرْسِيُّهُ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضَ "Vasia kursiyyuhus samavati val ard" (Uning kursisi osmonlar-u, yerni qamragan).

Ayni zamonda osmon ham insonni o'zidan yaratilishini istab Allohga iltijo qiladi. Bunda esa iqtibos sifatida "Mulk" surasi 5-oyatining dastlabki qismi keltiriladi: وَلَقَدْ رَئَيْنَا السَّمَاءَ الدُّنْيَا بِمَصْبِجٍ "Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha" (Va darhaqiqat, Biz dunyo osmonini chiroqlar (yulduzlar) bilan ziynatlab qo'ydik).

Shunda muallif Allohning tuproq (zamin)ning shikasta holda turganini, o'zining hech bir sifatini aytib maqtanmayotganligini qayd etadi. Va ayni holatning Haq taologa xush kelgani va yaratmoqchi bo'lgan xalifasi – odamni undan yaratishiga qaror qilganligiga urg'u beradi. Ma'lumki, ayni masalalar talqini Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy"sida ham keltiriladi. Ammo Zafar Buxoriy Qur'oniy

qissalar targ'ibiga bag'ishlangan asarlardan farqli o'laroq, Odam (a.s.) bilan bog'liq qissa tarkibida qissa mavzusiga mos holda Sulaymon (a.s.) bilan bog'liq parchani ham keltiradi. Bunda muallif, asosan, kamtarlikda yuksak kamol borligini e'tirof etishni maqsad qilib qo'yadi:



Joriy yozuvdagi tabdili:

Endi bul ham bir misoldurki va anga o'xshash so'zdurki, vaqtiki, Hazrat Sulaymon alayhissalomning qo'llarig'a xosiyatlik uzuk solmoqg'a ixtiyor qildi. Sulaymon alayhissalom qo'llarini panjalari bir-birlarig'a so'zlar qilib aytishdilarki, ibhomki bosh barmoqdur aydi: "Man hammadin kattamen, albatta, uzukni manga taqar", derdi va yoni sabbobaki ani shahodat derlar bosh barmoqni yonidag'i aydi: "Man sizlardin sharofatlikroqdurman uzukni manga solarlar", dedi. Vustoki o'rta panjadur ul aydi: "Men sizlarni o'rtalaringizda kattaroqdurman uzukni manga solurlar", dedi. Kichkina panja hech so'z demadi. Bas farmon bo'ldiki: "Yo Sulaymon, uzukni kichik panjangg'a solg'il, negaki o'zini zaifroq va kichikroq bildi". Andin so'ng, Sulaymon alayhissalom kichik panjalarig'a aydilarki: "Ey kichik panja, nechun sandin katta panjalar uzukni solmoqni orzu qildilar sen na uchun dam urmading?" Kichik panja aydi: "Ey payg'ambari xudo, alar o'zlarini kattalig'ig'a havo qildilar man bechora alarni oldilarida zaif va notavonman manga na uchun solursizki?!" dedi. Va bu shikastalig'i Alloh taologa xush kelib uzukni kichik panjalarig'a soldurdi.

Parchada qayd etilganidek, kibrga berilmaslik, o'zni kamtar

tutish Alloh nazdida ham yuksak maqom egasi bo'lmoq uchun asos hisoblanadi. Shuning uchun payg'ambar (a.s.) bilan bog'liq hikoyatni keltirish lozim deb topilgan. Muallif ayni masalaga ancha keng yondashadi, ya'ni yuqoridagi payg'ambar bilan bog'liq hikoyatdan so'ng, vali zotlarga tegishli hikoyatni ham keltirishni maqbul deb biladi: "Va yana bir so'zdurki, Sulton Boyazid Bistomiy quddasallohu sirrohu Haq subhanahu va taolog'a munojot qilib aydilarki: "Ey bor Xudoyo Xudovando, sani dargohingga qaysi nimarsa loyiqdurki, amr qilsang men ani qilsam bajo va dil deb". Bas, Alloh taolodin farmon bo'ldiki: "Uch nimarsa meni xaridimda yo'qdur, agar sanda bo'lsa kelturgin toki man xaridor bo'lay".

Sulton Boyazid Bistomiy so'radilarki: "Xudoyo Xudovando, u uch narsa nimarsa nimadur?". Bas, Alloh taolodin nido keldiki: "Ul uch nimarsani biri dil shikastalikdur, ikkinchisi shuldurki tilidin har taqirot o'tsa tavba qilmoqlikdur, uchinchisi shuldurki o'zini zaif va bechorahol bilmoqdur".

Demak, qissada odam yaratishi lozim bo'lgan unsur tuproq ekanligi ta'kidlangan. Ammo ijodkor Haq taolo o'ziga xalifa qilmoqchi bo'lgan odamni yaratish uchun tuproqni shunchaki tanlanmaganligiga urg'u beradi. Ya'ni xoksorlik, kamtarlik fazilatlarini zaminni shunday ulug' maqomga ko'targanligini asoslash maqsadida asosiy qissa orasiga Sulaymon (a.s) va Boyazid Bistomiy hikoyatlarini kiritgan. Muallifning bundan maqsadi asarda didaktik ruhni kuchaytirish, ya'ni insonlarga o'z asli kabi kamtar, kamsuqum bo'lishiga undash ekanligi anglashiladi. Shundan so'ng, mazkur qissa orasida "Endi Alloh taolo Odam alayhissalomni vujudi shariflarini paydo qilmoq to'g'risidagi farishtalarning lavhul mahfuzida bitikliklardin Alloh taolog'a so'zlag'onlarini bayonida", deb nomlangan kichik hikoyat berilgan. Bunda asosiy e'tibor insonning yaratilishi, farishta va inson orasidagi tafovut, lavhul mahfuzda inson haqidagi bitiklarga qaratiladi: "Va bilmoq kerakkim, Alloh taoloning irodasi Odam alayhissalomni muborak jasadlarini ofariyda qilmoq bo'ldi. Farishtalar aydilar: "Ey bor Xudoyo, lavhul mahfuzda bizlar bitiklik ko'rdukki, Odam alayhissalom befarmonlik qilur va aning farzandlari gunohkor va zinokor qilg'uvchi va nohaq qon to'kg'uvchi bo'lur deb, bas, bizlar sani poklig'ingga hamd va sano ayturmiz va bandaligingni qilurmiz va farmoyishingni bajo keltiurmiz. Na uchun shundoq odamni yaratusen?", dedilar. Farmon bo'ldiki: "Ey farishtalar, dam urmanglar, ilmu qadim birla xo'p bilurman va sizlar bilmassizlar", dedi.

Muallif payg'ambarlar qissalarida keltirilgan an'anaviy syujet

Alloh taoloning Odam jasadini yaratmoqchi bo'lib, farishtalarga bir siqim tuproq keltirishni buyurgani va bunda Jabroil, Mikoyil, Isrofil farishtalar zaminning nolalariga e'tibor qaratib, quruq qo'l bilan qaytganligi, shunda Haq taolo Azroyil farishtani yuborganligi bilan bog'liq mulohazalarga ham alohida o'rin ajratgan: "Qola taolo inni a'lamu ma'la ta'lamun andin so'ng farmon bo'ldiki: "Ey Jabroil, zaminni oldig'a borg'il bir qas qism tuproq olib keltur", deb. Andin so'ng Jabroil alayhissalom zamin oldig'a kelub xohladilarki, bir musht tuproq olg'oylar zamin hol tili birla aydi: "Ey malak, hikmat ul Xudoyi sani yaratibdur mandin bir narsa olmag'il". Andin so'ng Jabroil alayhissalom qaytdilar va aydilar: "Ilohi, sen donoroqdursan! Zamin sani nomingni qasamyod qilib aydiki: "Mandin bir nimarsa olmag'il", deb. Andin so'ng Mikoil va Isroilga ham farmon bo'ldiki: "Boringlar, yerdin bir musht tuproq olib kelinglar!" - deb. Yer ularg'a ham aydi: "Ey farishtalar, sizlarga qasam billahki ul Parvardigor hamma nimarsag'a qudrati bor sizlar mandin bir nimarsa olmanglar", - deb erdi alar ham qaytdilar. Andin so'ng Azroyil alayhissalomga farmon bo'ldiki: "Bor, Azroyil, zamindin bir musht tuproq olib kelgil", - deb. Anda Azroyil alayhissalom zamin oldig'ayaqin keldilar xohladilarki bir musht tuproq olg'ay va qo'llarini tuproqg'a uzatdilar, o'shal zamon yer yana qasamga keldi anda Azroyil alayhissalom aydi: "Ey Yer, dam urmag'il xomush bo'lg'ilki, sandin bir musht tuproq olsam ham yana o'zingg'a berurman", - deb. Azroyil alayhissalom yerdan bir musht tuproq olib komil Xudog'a bordi. Va yana Xudodin farmon bo'ldiki: "Ey Azroyil, senga qasam mening uchun berdi na uchun andoq tuproqni olding", dedi. Anda Azroyil alayhissalom aydi: "Agar chandiki mandin sanga qasam berdi, ammo saning farmoning qasamidan ulug'roqdur deb oldim", - dedi. Farmon bo'ldiki: "Ey Azroyil, agar chandiki mani farmonbardorlig'im qilding va yana bechora tuprog'a rahm qilmading man bu tuproqdin Odamni banda qilurmanki Odamni ruhini qobizi san bo'lursan", - dedi. Ammo zaminni tuproq bermaslig'ig'a sabab nima erdi. Vaqtiki, Alloh taolodin farmon bo'ldiki: "Ey zamin, sandin Odamni aforiyda qilmoqni xohladim". Anda zamin bu nidoni eshitib qo'rqib titradi nola qildiki: "Agar mendin Odamni xalq qilsang, nofarmonlik qilur", deb tuproq bermasligini sababi shul erdi. Endi Alloh taoloni irodasi shuldur Azroyil alayhissalom yerdin tuproq olib keldi, anda yetmish ming yil o'tdi".

Bu kabi an'anaviy syujet ifodasini Nosuriddin Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy"sida ham ko'ramiz. Mazkur an'anani davom ettirgan Zafar Buxoriy qur'oniy iqtiboslarga ham alohida e'tibor

qaratganki, bu bilan ifoda uslubida ta'sirchanlikka erishgan: "Hazrat Odam alayhissalomning muborak jasadlarini qudrati birlan mavjud qildi. Andin so'ng **"Va nafaxtu fih min ruhiy"** oyatini mazmuni birla qolib Odamg'a ruh damida bo'ldi. Andin so'ng Odam alayhissalomni badanlarig'a jon kirgan so'ng o'shal on turib o'lturdilar va aksa uradilar va aydilar "Alhamdulillah Robbil alamiyn va ala kulli haal", deb. Va Hazrat Robbul olamiyn javob qildiki: "Yarhamukalloh".

Mazkur parchada Qur'oni Karimdagi "Sod" surasining 72-oyatidan bir qism iqtibos keltirilgan: **"وَنَفَخْتُ فِيهِ مِنْ رُوحِي"** **"Va nafaxtu fih min ruhiy"** (Va Men Odamga o'z tomonimdan bo'lgan ruhni pufladim). Mazkur oyat ifodasi badiiy adabiyotda ham ancha keng targ'ib qilingan. Hatto nazmiy asarlarda ham ushbu oyatga ishora qilinganligi ma'lum. Hazrat Navoiy, Xo'janazar Huvaydo, So'fi Olloyor ijodi shular jumlasidandir.

Aytish lozimki, muallif asosiy e'tiborni farishta va inson orasidagi munosabatga qaratadi, ya'ni farishtalar muttasil ibodatda bo'lib, bandalikni to'liq ado etayotgan bir paytda odam esa yaratiliboq Allohning nazarida ekanligi bilan bog'liq mulohazalar asarda keng targ'ib qilingan: "Va anda farishtalar aydilarki: "Ilohiy, Odam hanuz sani bandaligingni qilib topmay nechun anga "yarhakumalloh", - deb javobi karim qilding? Bizlar necha yildurki sani bandachiligingda erurmiz va sani yod qilib tasbehingni ayturmiz, ammo bu lutfi karam bizlarni haqqimizda yo'qdir. Odam bir marta sano aytg'onig'a o'shal on "yarhamukalloh", - deb javob berding. Haq subhanahu va taolo farishtalarig'a itob qilib ayturki, "Ey farishtalar, sizlar meni bandalarimni haqida nima so'zlarni aytursizlar, emdi ko'ringlarki, bandalarim menga nechuk farmonbardorlik qilurlar deb va bunda yana aydi: "Ey farishtalar, mening bandalarimni gunohlarig'a qaramanglarki, man bul bandalarimni boshig'a ko'p nimarsalarni paydo qildimki, sizlarga yo'qdur, misli yamoq va yemoq ichmoq va shahvati nafs va havo va hirs va vasvasa, shayton va makoni dunyoni berdim. Ey farishtalar, agar shu aytilg'ondin bir-birini sizlarga bersam, albatta, sizlar ham gunoh qilar erdingizlar". "Ey farishtalar, sizlar meni Arsh va kursimni va yana behisht va do'zaximni(ng) hammasini maoniy ko'zlar birla ko'rub ibrat olursizlar meni bu bandalarim bulardin birini ko'rmaslar, ham g'oyibona iymon keltirurlar".

Asarda muallif keltirgan har bir fikrlarini asoslashga harakat qiladi. Bunda ikki yo'ldan foydalangan:

- 1) Qur'on oyatlaridan iqtibos;
- 2) Qur'oniyy oyatlarga talme' (ishora).

Asardan olingan yuqoridagi qator parchalardagi iqtiboslar muallif maqsadini aniq yetkazishga xizmat qilganligini anglash mumkin. Qolaversa, Qur'on oyatlariga talmeh qilingan o'rinlarga ham e'tiborga molik. Masalan, quyidagi parchada "Soffat" surasining 102-110-oyatlari mazmuniga ishora qilinganligini ko'rish mumkin: "Emdi bilmak kerak va eshitmak kerakkim, Odam to'g'risidin Alloh taolo farishtalarg'a nima itoblar qilur? Vaqtiki, Hazrat Ibrohim alayhissalomg'a farmon bo'ldiki: "Yo Ibrohim, o'g'lingni meni rizolig'im uchun yo'ling'a qurbonliq qilg'il". O'shal on amru Xudog'a taxir bo'lmasun deb qo'llarig'a pichoq oldilar va o'g'illarini qurbonliq joyig'a olib bordilar: "Ey o'g'lum, Xudodin amr bo'ldiki: "O'g'lingni meni rizolig'im uchun qurbonliq qilg'il", - deb. Toki sani Xudo yo'lig'a qurbonliq qilurman", - dedilar. Ul vaqtda Hazrat Ismoil Ibrohim alayhissalomg'a aydilar: "Ey Padari Buzrukvor, amr Xudog'a taxir bo'lmasunki bir jondur necha jon bo'lsa va agar yetmish ming jon bo'lsa ham Xudoni rizolig'i uchun berdim", - dedilar. Ul holida Ibrohim alayhissalom Ismoil alayhissalomni bog'zilarig'a pichoq surdilar".

Ayonki, mazkur hikoyat ham Odam (a.s) bilan bog'liq qissada zikr etilgan. Muallif ayni xarakterda yaratilgan asarlardan farqli o'laroq, qoliplash usulidan foydalanib, qissada qator hikoyatlarni keltirib o'tadi, ammo bu parchalar mantiqan qissada ilgari surilgan g'oyaning davom ettirilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, Yusuf (a.s) bilan bog'liq hikoyat ham ayni xarakterda yaratilgan. Ya'ni insonning Alloh amrlarini mahkam tutuvchi, qolaversa, o'z Rabbisidan qo'rqib gunohdan tiyilishi kabi mulohazalarni asoslash uchun yana bir kichik hikoyat, ya'ni Yusuf va Zulayxo voqealarini keltiradi. Bu o'rinda ham muallif "Yusuf" surasining 23-24-oyatlari mazmuniga ishora qiladi: "Yana bir voqeaturki, ul vaqtiki Zulayho Hazrat Yusuf alayhissalomning o'z joyig'a olib kirdi va uyini yetti eshiklarini mahkam qildi va andin so'ng Yusuf uy bo'lsa bor xilvat joyi ham bor husn va jamol ham bor. Emdi seni hargiz qo'ymasmen to mening murodimni hosil qilmasang, deb Yusuf alayhissalomg'a yopishdi, anda Yusuf alayhissalom aydilar: "Ey Zulayho, bul so'zni demagilki, Xudoyi taolo hozir va nozirdir. Xudo biladurki, men sen bilan hargiz zino qilmoqchi emasmen", dedilar".

Zafar Buxoriy badiiy asar talabidan kelib chiqib, nafs qutqusi va undan omon qolish masalasiga urg'u berib, asarda juda ta'sirchan badiiy ifodalarni ham keltirgan. Bu go'zal ifodalarni muallifning novatorligi sifatida baholash mumkin: "Anda Zulayho aydi: «Ey Yusuf, seni ishqingni shakari mani mahkam tutibdur, ko'p betoqat va beoromdurman. Man endi nechuk sabr qilurman», dedi. Anda

Yusuf alayhissalom aydilar: «Ey Zulayho, menga nimani ko'rding, buncha besabr, beorom bo'ling?». Zulayho aydi: «Ey Yusuf, nechuk sabr va toqat qilurmanki, boshindag'i zulf va kokillaringni ko'rib va muftalo bo'ldum», dedi. Anda Yusuf alayhissalom aydilar: «Ey Zulayho, soch va kokillardan nima foyda bor, avval go'rga qo'yg'onda to'kiladurg'on bir natni mo'ylaridur», dedilar. Anda yana Zulayho aydi: «Seni ikki nargiz shahlo ko'zlaringg'a muftalo bo'ldum». Va yana Yusuf alayhissalom aydilar: «Ey Zulayho, go'rg'a qo'yulg'onda ikki ko'zim ham badandin oqib tushib ketar», dedilar. Anda Zulayho aydi: «Men seni shirin so'zlaringni do'st tutar men», dedi. Va yana Yusuf alayhissalom aydilar: «Ey Zulayho, odamiki o'ldi, tiliga muhr bosilur, so'zlayonmaydur», dedilar. Va yana Zulayho aydi: «Ey Yusuf, men seni boshingdin oyog'ingg'acha do'st tutar men», dedi. Yusuf alayhissalom aydilar: «Ey Zulayho, go'rda odamni hamma bandi bo'g'implari biri-biridan ayrilib, judo bo'lur», deb ko'p nasihatlar qildilar. Zulayhoni ko'nglig'a hech ta'sir qilmadi.

Asardan ma'lum bo'ladiki, Yusuf payg'ambar Haq taolo qahridan qo'rqib, rahmatidan umidvor bo'lib, uning rizoligi uchun zino qilmaydi. Muallif odam farzandlari ana shunday Allohni zohiriy ko'zlari bilan ko'rmasalar-da, xuddi ko'rib turgandek, nafslarini tiyadilar va unga ibodat qiladilar, deb farishtalardan ularning ustun ekanligi masalasiga alohida urg'u beradi. Shuning uchun ayni masala bilan bog'liq Yunus payg'ambar haqidagi Qur'oniy hikoyat ham keltiriadi. Asarda bu hikoyatdagi voqealar orqali "Saffot" surasining 142-143-oyatlariga ishora qilingan: "Va yana bu so'zni eshitingkim, Xudoni irodasi birla Yunus alayhissalomni baliq qornig'a yutdi, boz Xudoyi taolo Yunus alayhissalomg'a uch qorong'uluqni ato qildi. Birisi, balig'ning ichini qorong'ulig'i, ikkinchi, daryoni qorong'ulig'i, uchunchi, kechani qorong'ulig'i, vaqtiki Yunus alayhissalom balig'ni qornig'a kirdilar o'shal on namozg'a qo'l bog'ladilar va tillarini Xudoni zikrig'a va tasbehig'a ochdilar".

Zafar Buxoriy ana shu asoslarni keltirib, Alloh taoloning insonni farishtalardan ustun qilib yaratganligini ta'kidlaydi. Zero, mazkur qissa Odam (a.s)ga bag'ishlangan bo'lsa-da, boshqa nabilar va hatto, valiullohlar bilan bog'liq kichik hikoyatlarni ham qissa orasida keltiradi. Shu asosdan so'ng, farishtalarga Odam (a.s)ga sajda qilishni buyurgani, ammo shayton sajda qilmaganligi, shu bois unga la'nat tamg'asi bosilganligini qayd etadi: "Ey farzandi Odam, farishtalar Odamg'a ikki martaba sajda qildilar, sizlar ikki martaba sajda qilinglar deb. Al-g'araz shayton sajda qilmadi. Farmon bo'ldiki". Ey Mal'un, ne uchun befarmonliq qilding va bandayi barkazidimni

pisand qilmading, sajda qilmading, va takabbur qilding, takabbur qilg'uvchi do'stim emasdur, nechun tarki farmonliq qilding, sani dargohimdin ronda qildim, dog'i la'nat muhrini nopok peshonang-g'a bosdim, - dedi".

Ushbu parchada "Xijr" surasining 32-35-oyatlariga ishora qilingan. Asarda aytilishicha, Shayton: «Bir kun har banda mo'minni ko'nglig'a kirib, yil uch yuz oltmish kun hamla qilib, vasvasa qilurman», dedi. Shunda Haq taolo aytdi: «Ey Mal'un, o'z lutfi karamim birla bandayi mo'minning ko'nglig'a nazar rahmatim birla uch yuz oltmish kun qararmen», - dedi.

Shayton insonga sajda qilmaganligi uchun la'natlanadi, shuning uchun u odamga dushmanlik nazari bilan qarar va har jabhada unga yomonlikni ilinar edi. Muallif asarda Odam(a.s.)-ning jannatdan tushirilishlarining bosh sababi ham shaytonning yomonliklari, odamga vasvasa qilishidir, degan xulosani qissaga singdirgan va fikrlarini "Baqara" surasining 35-oyatidan keltirilgan iqtibos bilan asoslagan: "Alqissa andin so'ng, Haq subhanahu va taolodin bas Odam alayhissalomg'a farmon bo'ldiki, Havo birla behishtga kirib yuringlar va behishtni ne'matlaridan yenglar va ichinglar, ammo bug'doy daraxtini(ng) oldig'a aslo bormanglar va yemanglar. Va yana aydi: "Ey Odam, bu daraxt(ning) mevasini agar yesangizlar, bas, zolimlardandursizlar". Va bu oyatni mazmuni birlaki, "Fa takunaa minaz zolimiyn", munda nima hikmat bor va nima sir borini qudrati birla O'zi bilur. Andin so'ng shayton Havvoni vasvasa qildi. Shayton Havvoni tili bo'lub vasvasa qilib, Odamg'a aydi: "Ey Odam, man avval bug'doy daraxti oldig'a bordum, bug'doydin yedum, mani nega yeding deb man qilmadi. Sani kim man qildiki, bul daraxtdan yemaysan?" - dedi. Anda bejon Odam gumon qildiki, bu so'z Havvodandur deb. Odam Havvo xohladiki, bug'doyni bir donasidin olib, muborak og'izlarig'a soldilar. Shunda bug'doy Odam (a.s.)ning bo'g'izlariga bormay, "boshlaridan izzat toji uchdi, badanlaridan hullayi Jannat qochdi", ya'ni jannatdan tushirildilar. Yer yuziga tushib, "sharmandalikdan Odam boshlarini quyi qilib, osmong'a hargiz qaramadilar. Va kecha va kunduz yig'idan hargiz to'xtamadilar. Chunon yig'ladilarki, ikki ko'zlaridin suv chashma va buloq bo'lib oqdi. Havvodaki, parrandalar yer yuzig'a oqqon ko'z yoshini suyini ichdilar".

Odam (a.s.) cheksiz faryod va nadomat bilan ko'z yosh to'kdilar. Bu istig'forlarini Alloh qabul qildi va muborak boshlarini ko'tarib, Arshga boqdilarki, bir bitikka ko'zlari tushadi. Muallif ana shu jihatlarni ham asarda go'zal ifodalagan: "Bu farmon birla Odam

alayhissalom taskin topdilar. Besh yuz yildin so'ng osmon tarafiga boqdilar. To Arshi Azimg'acha ko'zlarig'a hech yerda qolmadi va yana Arshi Azimda bitiklik ko'rdilarki, "La ilaha illallohu Muhammadur Rosulullohu", - deb yozilgan".

Qissada keltirilishicha, Odam (a.s) Allohndan bu yozuv haqida so'radilar va aytdilarki, "Ul qandoq zotni ismidurki, Sani osmoning birla qo'shibdur?" Va shul hol farmon bo'ldiki: "Ey Odam, na uchun hayratda qoldingki, bu baxt farzand sani farzandlaringdandurki, agar bu farzanding o'rtada bo'lmasa erdi, sen ham yaratilmas erding va o'n sakkiz ming olam ham yaratilmas erdi", dedi. Va yana Xudolig'imni ham oshkor qilmas erdim dedi.

Xulosa

Qissadan oydinlashmoqdaki, Alloh taolo yer yuzini, jami insonlarni, qolaversa, o'z Xudolik qudratini namoyon etish uchun Muhammad (s.a.v)ni yaratgan ekan. Demak, mazkur asarda ham "Qissasi Rabg'uziy"dagi singari Qur'onda nomlari zikr etilgan payg'ambarlar haqida turli hajmdagi qissa keltirilgan bo'lsa-da, bularning barchasini Muhammad (s.a.v.) obrazi birlashtirib turadi.

"Durrul majolis" toshbosmasidagi "Odam (a.s.) qissasi"ni tabdil va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) "Durrul majolis" Qur'oni karimda nomlari zikr etilgan payg'ambarlar hayoti hikoya qilingan Qur'oniy qissa xarakteridagi asar bo'lib, dastlab fors tilida yaratilgan, so'ng, turkiy tilga tarjima qilinib, "Durrul majolisi turkiy" nomi bilan yuritilgan;

2) muallifning kitobda iqtibos yoki talmeh vositasida o'z mulohazalarini asoslashi, albatta, asarning Qur'oniy qissalardagi ifoda uslubini saqlashga harakat qilganligini ko'rsatadi;

3) asarda Qur'onda nomlari keltirilgan hamma payg'ambarlarga alohida sarlavha ostida qissa berilmagan bo'lsa-da, ma'lum sarlavhadagi qissalarda boshqa payg'ambarlar bilan bog'liq kichik hikoyatlar ham kiritilgan. Masalan, Odam (a.s) qissasida Sulaymon, Ibrohim, Yusuf, Yunus (a.s)lar bilan bog'liq hikoyatlar kiritilgan;

4) an'anaviy Qur'oniy qissalardan farqli o'laroq, qissalar tarkibida valilar bilan bog'liq kichik hikoyatlar ham kiritilgan. Masalan, Odam (a.s.) qissasida Boyazid Bistomiy haqidagi kichik hikoyat mavjud. Ayni holat asarda didaktik ruhni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar

در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند ۹۲۳۱ هجري

Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1983. 4 jildlik. 1-jild. Toshkent: Fan.

- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 1983. 4 jildlik. 2-jild. Toshkent: Fan.
- Сирожиддинов, Ш.С. 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент.
- Богин, Г. И. 1984. *Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов*. Автореф. дисс. д-ра фил. наук. Ленинград.
- Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. 1990. *Қисаси Рабғузий*. Биринчи китоб. Тошкент.
- Рабғузий Носируддин Бурхониддин. 1991. *Қисаси Рабғузий*. 2-китоб. Тошкент.
- Қуръони Карим. 2011. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф таржимаси. Тошкент.
- Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. 2004. Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. Тошкент.
- Usmon Turar. 1999. *Tasavvuf tarixi*. Toshkent: Istiqlol.

The interpretation of Adam (a.s) in the work "Durrul majolis" by Saif Zafari Bukhary

Zilola Amonova¹

Azizbek Boqiyev²

Abstract

In this article, the story related to Adam (pbuh) from Saif Zafari Bukhari's «Durrul Majolis» is analyzed. This lithograph is stored in the Bukhara Regional Library named after Abu Ali Ibn Sina under inventory number 726. This unique resource was published in 1910 at the Gholomi printing house in Tashkent and consists of 240 pages. Although the book was published in Tashkent, it is tentatively being studied under the name "Bukhara lithograph" because it is kept in the fund of Bukhara manuscripts. This source story belongs to the series of prophetic works, and tells the story of the twelve prophets whose names are mentioned in the Holy Qur'an. The book also contains stories about companions and sheikhs. In addition, a place is reserved for various didactic stories. The first chapter

¹ Zilola K. Amonova – doctor of philology, associate professor of the Uzbek language and literature department of BukhSU.

E-mail: zilolajonamonova@gmail.com, z.q.amonova@buxdu.uz

ORCID ID: 0000-0001-7710-3065

² Azizbek A. Boqiyev – Bukhara State University Master's student of Textology and Literary Source Studies.

E-mail: mullomuxtasar7@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-7919-8437

For citation: Amonova, Z., Boqiyev, A. 2024. "The interpretation of Adam (a.s.) in the work "Durrul majolis" by Saif Zafari Bukhary". *Golden Scripts* 2: 28–41.

of the lithograph is called "The body of Hazrat Adam, peace be upon him, describes the creation of the blessed." This short story is quite large in terms of volume, it consists of 11 pages. Although the story is dedicated to Adam, there are also small stories about Sulayman, Yusuf, Yunus.

Key words: *Durrul Majolis, Saif Zafari Bukhari, lithograph, publication, Basmala, Qur'an, Hadith Sharif, Adam, Sufism, art.*

References

- Dar Al-Majlis, Saif Zafar Al-Bukhari.* 1329. Tashkent.
- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.* 1983. 4 jildlik.1-jild. Toshkent: Fan.
- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.* 1983. 4 jildlik. 2-jild. Toshkent: Fan.
- Sirojiddinov, Sh. S. 2019. *Matnshunoslik saboqlari.* Toshkent.
- Bogin, G. I. 1984. *Model yazikovoy lichnosti v yeyo otnoshenii k raznovidnostyam tekstov.* Avtoref. diss. d-ra fil. nauk. Leningrad.
- Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. 1990. *Qisasi Rabg'uziy.* Birinchi kitob. Toshkent.
- Rabg'uziy Nosiruddin Burxoniddin. 1991. *Qisasi Rabg'uziy.* 2-kitob. Toshkent.
- Qur'oni Karim.* 2011. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. Toshkent.
- Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.* 2004. Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. Toshkent.
- Usmon Turar. 1999. *Tasavvuf tarixi.* Toshkent: Istiqlol.

To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li hayot yo'li va ijodiy merosi

Sohiba Madirimova¹⁶

Abstrakt

Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan zullisonayn shoir – To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li va uning lirik merosi manbalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", "Haft shuaro" hamda Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asarlari asosida shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar yoritilib, ular matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tadqiq qilingan. Manbalar qiyosiy o'rganilib, mulohazalar ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Asosiy e'tibor shoir biografiyasi hamda uning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan 906/VII raqamli qo'lyozma hamda №10374 raqamli toshbosma, ya'ni, "Haft shuaro"dan o'rin olgan she'rlari haqida ma'lumot berishga qaratilgan. 1960-yildan keyin yozilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlardagi Murodiy hayoti va ijodiga doir qaydlardan ham foydalanildi. Ular haqida umumlashma fikrlar bildirildi.

Kalit so'zlar: *Murodiy, shoir, she'r, bayt, band, qo'lyozma, tazkira, bayoz, g'azal, muxammas, musaddas, qasida, ruboiy.*

Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida adabiyot, san'at, madaniyat, tarjimachilik hamda kitobatchilik rivojlandi. Bu davrda Muhammad Rahimxon II – Feruz hukmronlik qilgan. Uning tashabbusi bilan madrasalar, inshootlar qurildi. Madaniyat, san'at va adabiyot taraqqiyot cho'qqisiga yetdi.

Feruzning ma'rifatparvarligi jamiyat ravnaqiga va uning oila a'zolarining ham barkamol avlod bo'lib yetishishiga zamin yaratdi. Shoh oilasidan **Murodiy**, Sultoniy, Oqil, Komyob, Sa'diy, Asad kabi

¹ Madirimova Sohiba Mahmudovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Iqtibos uchun: Madirimova, S. 2024. "To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li hayot yo'li va ijodiy merosi". *Oltin bitiglar* 2: 42 – 59.

yigirmaga yaqin iste'dod egalari yetishib chiqdi. Bundan tashqari, bu davrda Tabibiy, Avaz O'tar, Faqiriy, Devoniy, Shinosiy kabi iste'dodli shoirlar yashab ijod etgan. Murodiy ham ular singari o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan shoirlardan biridir.

Asosiy qism

To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li 1854-yil tug'ilib, 1908-yili vafot etgan. To'ramurod to'ra Muhammad Rahimxon soniyning ukasi hisoblanib, o'z davrining yetuk mutafakkirlaridan bo'lgan. Murodiy 54 yil umr ko'rgan. U arab va fors-tojik tillarini bilgan. Keyinchalik esa Muhammad Rahimxon II – Feruzning xos amaldorlari safida xizmat qilgan. U o'ziga Murodiy taxallusini berib fors-tojik va turkiy tillarda she'rlar yozgan [Bayoniy 1994, 92-93; Laffasiy 1992, 83].

Murodiy hayoti va ijodiga doir ilk ma'lumotlar Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" hamda "Hafti shuaro", Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro"larida uchraydi [Bayoniy №10374, 1-17; Bayoniy 1994, 92-93; Laffasiy 1992, 83].

Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" tarixiy asarida Murodiy vafotiga oid quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Hijratning **ming uch yuz yigirma oltinanjisida** muvofiqi bijan yili sunbulating yigirma beshlanjisida va sha'boni muazzamning yigirmasida To'ramurod to'rakim, xon hazratlarining birodarlari erdilar, **ellik to'rt** yoshlarida olami foniydin saroyi boqiyg'a rihlat ko'rguzdilar. Ul hazratdin ikki o'g'ul yodgor qoldi. Biri **Rahmonquli to'ra** va biri **Xudoyquli to'radurlar**. Ul hazrat muhibi ulamo va muhibi aqrabo erdilarkim, tez-tez tamomi xesh-u aqraboni jam' qilib ittihodu yakranglik tariqidin bir zarra munharif bo'lmay kamoli muhabbat va muddat bila musohibat va muvonasat ko'rguzur erdilar. Bizlar tamomi oqo-ini bila da'vatlari mujibicha majlislariga hozir bo'lur erduk. Xohishlari bu erdikim, bizlarni bir lahza hazratlaridin judo qilmag'aylar va o'zlarin Murodiy taxallusi bila mutaxallis etib, she'r ham oytur erdilar..." deya o'limidan qayg'uga cho'mgan Bayoniy "Chun rahili olami baqo bo'ldilar, faqirg'a muforaqatlaridin ajab bir betoqatliq dast berib, ul iztirob bu g'azalni aytmoqimg'a bois bo'ldi" – deydi [Bayoniy 1994, 92-93]. Shundan so'ng Bayoniy Murodiyga atab yozgan 7 baytli marsiya g'azalini keltirib o'tadi.

G'azalning matla' qismi davrning zulmi javr uzra javr, qiyinchilik uzra qiyinchilik aylab, g'amli ko'nglimni yanada ravshan ayladi mazmunidagi bayt bilan boshlangan:

*Davr javri g'amli ko'nglumni yana aylab g'amin,
Zohir etdi javr uza javr aylabon kin uzra kin.*

Ikkinchi bayt: ey o'tkinchi dunyo, senda vafo yo'q ekan, kim(ki) sen (dunyo)ga kelsa, qayg'uli bo'lib, g'amgin ketishini bildim:

*Bildim, ey dunyoyi foniy, senda yo'q erkan vafo,
Kim sanga kelsa, g'aming ketdi, bo'lub zori hazin.*

Uchinchi bayt: kimlarga yuz ming hiyla bilan rang berding, kimlarni yuz ming vafosizlik bilan tuproqqa berding:

*Bermading kimlarga sen yuz oliy nayrang ila rang,
Qilmading kimlarni yuz ming g'adr ila turbatnishin?!*

To'rtinchi baytda qasidada madh qilinuvchi shoir taxallusi keltiriladi va bu so'z orqali ikki xil ma'no anglashilib, Murodiy (shoir taxallusi) va murodli odam so'zlari bilan iychom san'ati yuzaga keladi. (Taqdir) mukarram, aziz bo'lgan murodli insonga jafo aylab murosiz (nomurod) insonga aylantirdi. Chunki u ma'no gulzorida nozikfahm fikr egasi edi. Sen shunday insonni nochor ahvolga solib qo'yding mazmunidagi bayt:

*Nomurod etting Murodiydek mukarram zotni
Kim, edi gulzori ma'ni ichra fikri xurdabin.*

Beshinchi bayt: u yaqinlariga muhabbatli birodar edi, uning mehri ko'ngullarga naqsh (kabi) muhrlangandi:

*Aqrobog'a bir muhabbatli birodar erdi ul,
Bas, ko'ngullarda edi mehri oning naqshi nigin.*

Oltinchi bayt: do'st (Murodiy) ketti, endi oh (qilgan)dan nima foyda, uni olamlarning Robbisi (o'z) rahmatiga olgay.

*Do'st qo'ldin ketti, emdi ohi afg'ondin ne sud,
Rahmatiga noyil etgay oni rabbul-a'lamin.*

G'azalning **maqta'sida** shoir o'ziga murojaat qilib, ey Bayoniy, shohingning davlatini duo qil, chunki duo qiluvchi insonga Tangrining lutfi doimo nasib etadi, degan xulosaviy fikr bayon etiladi:

*Ey Bayoniy, ayla shohingning duoyi davlatin
Kim, onga payvasta bo'lg'ay Tengrining lutfi ma'yin.*

Bayoniyning ikkinchi kitobi "Haft shuaro" (Yetti shoir) deb nomlanadi. Majmua hozirda O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida №10374 raqami ostida saqlanmoqda. Bu hijriy 1325-yil, milodiy

1906-yilda "Muhammad Rahim Bahodirxon soniyning farmoni oliylari ila Xorazm matbaasida bosil"gan [Bayoniy 1906]. "Haft shuaro"ga Murodiy, Farrux, Sultoni, Sodiq, Sa'diy, Oqil, Bayoniylarning g'azal, muxammas, ruboiy, murabba', qasida, tarje'band, musabba', musaddas, musamman, mustazod, masnaviy, muammo, ta'rix, qit'a janrlaridagi she'rlari ko'chirilgan. Bunda Murodiyning 19 ta g'azal, 5 ta muxammas, 1 ta musaddas, 2 ta qasida hamda 1 ta ruboiysi bor.

2016-yilda I.Xajiyevaning "Xorazm milliy-ma'naviy merosi durdonlari" monografiyasi e'lon qilinadi. Olima tadqiqotida "Haft shuaro" manbalari haqida ilmiy mulohazalarni berib, "Feruzning o'z yaqinlariga g'amxo'rliigi va ularning badiiy iqtidoriga e'tibori kuchliligini ko'rsatish zaruriyati ham majmuani yaratishga turtki bo'ldi" – deya ta'kidlaydi [Xajiyeva 2016, 29-30]. Bu haqida Nusratulla Jumaxo'ja "Xalq so'zi" gazetasining 1992-yil, 29-sonida quyidacha ma'lumot beradi: "Feruz shajarasiga daxldor adabiy muhitda ularning har biri o'ziga xos o'rin va mavqega ega edi. Ularning yaxshigina she'rlar majmuasi o'z davrida "Xeva shoir va shahzodalarining kitobi" – "Haft shuaro" nomlari bilan xalq orasida tarqalgan...." [Jumayev 1992, 29-son].

"Feruz – shoh va shoir qismati"da "Haft shuaro"dan o'rin olgan Murodiy she'rlari haqida qaydlar beriladi [Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул, Нусратулла Жумахўжа 1995, 33]. Shulardan ikkitasi fors-tojik tilidagi g'azal ekanligi aytiladi. Bunda shoirning "Ey, orazi tu az mahi tobon nekutar ast..." misrasi bilan boshlanuvchi fors-tojik tilidagi g'azalining 2 bayti, Feruz g'azaliga yozilgan "Davlati vasling menga davron ekandur, bilmadim...." (3 bayti berilgan), "Ki ey shoh mulku sifatingga qulluq..." (2 bayti berilgan), "Tangrining lutfi bila bu yetti iqlim aro..." (4 bayti berilgan) misralari bilan boshlanuvchi tatabbulari ko'zga tashlanadi. Bu nashrda Murodiy g'azallarining 2, 3, 4 bayti berilgan xolos.

Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro"sida Murodiyning hayoti va ijodiga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Qayd qilinishicha, Murodiy arab va fors-tojik tillarini o'z ona tilisi kabi juda yaxshi bilgan. Yoshligidan Hotamsifat, saxovat egasi, barchaga mehmondo'st bo'lgani aytiladi. Laffasiy Murodiyga quyidagicha ta'rif bergan: "...Murodiy qizil yuzlig', jayron cho'qqi saqqol, uzun bo'ylig', salobatlig' bo'lib, doimiy Xiva ulomalari bilan hamsuhbat bo'lib, kitobxonlig' qilib, aksari o'zi mutakallum bo'lur erdi...". U Murodiy ijodiga "... ma'ni jihatdan bir daryoyi ummon bo'lib, ilm g'avvoslari durri javohir, la'li sadaf ijrosidin hosil qilgan kabi, Murodiyning bir she'ridin yuzlarcha ma'nini maf'ul hosil qilur

erdilar” – deya yuksak baho beradi [Laffasiy 1992, 27-28].

“Tazkirayi shuaro”da shoirning vafoti haqida quyidagilar berilgan: “Murodiy hama vaqt parishonhollig’ bilan umr kechirur erdi. Chunki oning badanida avvaldin jismoniy xastalig’ bo’lib, doimiy Xiva tabiblariga muolaja qildirsada, hech naf’ hosil ko’rmay, oxiri maraz bitariga bosh qo’yib, natijada hijriy **bir ming uch yuz dag’i yigirma to’rtlanji yili ellik ikki yoshida** jannat bo’stonig’a rixlat qilib, behishti jovidonada manzil qiladur...” [Laffasiy 1992, 27-28].

Hasanmurod Laffasiyning shoir vafotiga oid bu ma’lumotlari Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”sidagi qaydlariga ziddir. Chunki Hasanmurod Laffasiyning tazkirasi hijriy 1365, milodiy 1945-yilda yozilgan. Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”si esa 1910-yilda kitobat qilingan. Bundan ko’rinadiki, Bayoniy Murodiyning o’limiga guvoh bo’lgan. Hasanmurod Laffasiy esa bu tazkirani yozganda yillar tafovutlarida adashgan.

Bunga o’xshash yana bir o’ringa to’xtalsak. Ushbu tazkirada “Murodiydan uch nafar o’g’il yodgor qoladi” deyilgan [Laffasiy 1992, 28]. Biroq “Shajarayi Xorazmshohiy”da Murodiydan ikkita o’g’il, **Rahmanquli to’ra** va **Xudoyquli to’ra** yodgor qolgani aytiladi. [Bayoniy 1994, 95-93].

Shoirning qabri “Xiva hazrati Palvon ota maqbarasining sharqida Mozori Sharif madrasasida xususiy dahmada dafn” qilingan [Laffasiy 1992, 28]. Bu ma’lumotlar ham mulohazalidir.

Hasanmurod Laffasiy Murodiyga atab 4 baytli masnaviy bitgan:

“Murodiy ajab shirin maqolot,

Aning har bir nuktasi jonlarga rohat...” deb boshlanuvchi misralaridan shoirning xushmuomala bo’lganligi, uning har bir so’zi jonga rohat bag’ishlaganligi anglashiladi.

*Dedikim g’azal ishqiy muhabbat,
Muhabbat shevalig’ anga muruvvat.*

Murodiy g’azallari ishqiy muhabbat (mavzusida bo’lib), (shu) muhabbati orqali (uning) muruvvati namoyon bo’ladi.

*Muruvvatlig’ ishi ahli faqirg’a,
Faqir-u benavo, miskin haqirg’a.*

Ahli kambag’al-u yo’qsil, miskinlarga (ham) muruvvat ko’rsatish (uning) ishidir.

Go’zaldur she’rlari ishqiy majozi,

Saxodur doimo chun muddaosi.

Murodiyning ishqiy majoziy she'rlari (hajmi) har doim kichik, shuning uchun (ham) go'zal (mazmunga ega).

Laffasiyning yana bir masnaviysi sakkiz baytdan tarkib topgan bo'lib, "Murodikim To'ramurod To'ra ahvoloti" sarlavhasi ostida beriladi:

*Murodiykim shohzodayi komgor,
Xirad ichra topdi eldakim e'tibor.*

*Qilib fazli ash'orni maqsad,
Birodar Feruzga bo'lib payvand.*

Mazkur baytlarda shahzoda Murodiy zehni bilan elda e'tibor topgani, she'rlar yozishni o'ziga maqsad qilgani va Feruzning birodari, ya'nikim ukasi ekanligi haqida ma'lumot beriladi:

*Nechukkim deyin oning avsofini,
Qilay zikr andoqki ahvolini.*

*Saxovatda hotami soni erur,
Ilm-u adabda gavhari koni erur.*

Keyingi misralarda esa uning ta'rif-u ahvolini qanday bo'lsa shundayligicha bayon qiladi. Saxovatda qo'li ochiq, ilm-u adobda esa gavharning koni edi, ya'nikim u shunchalik ilmi va yaxshi xulqli ediki, buni oltin-u gavharga, hatto o'sha gavharning koniga mengzamoqda:

*Murodiykim, shohzodayi ofoqdur,
Bo'lib nazm ichra ajab muvofiqdur.*

*Feruzga ham birodar bo'lib,
Nazmi xirad ichra bir gavhar bo'lib.*

Murodiy bu dunyoning shahzodasi, (u) nazm ichra loyiq bo'ldi. Bunda uning Feruzga birodar ekanligi ta'kidlanib, nazmi xirad (aql) ichra bir gavhar ekanligi aytilgan:

*Bu abyoti shirinni qilmish ayon,
Murodiy debon taxallus qildi bayon.*

*Murodiyga ilm-fan ma'qul kelib,
Oning ta'bi Feruzga maqbul kelib.*

Laffasiy so'nggi misralarida esa (u) bu ma'nili she'rlarini ayon qilib, o'ziga Murodiy deb taxallus olganini aytadi. Murodiyga ilm-fan ma'qul bo'lgani, uning ta'bi Feruzga maqbul kelganini

ta'kidlaydi. Ushbu masnaviydan keyin Murodiyning qalamiga mansub "Davlati vasling manga davron ekandur, bilmadim..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali ham berilgan.

1987-yilda Nurmuhammad Qobulov va boshqalar tomonidan "Avaz va uning adabiy muhiti" nomli kitobi e'lon qilingan. Bunda Xorazm adabiy muhiti shoirlarining turmush tarzi, she'rlarining mavzu ko'lami haqida ma'lumotlar beriladi [Qobulov 1987, 26-27]. Shu o'rinda, saroy shahzodalari haqida so'z borib, G'ulomiy, Sa'diy, Ojiz, **Murodiy**, Sultoniylar shohning amaldorlari bo'lgani aytiladi hamda Murodiyning "Taxti farmoninga kirsun jumla olam shohlari..." (1 bayti berilgan), "O'tgan kecha zulfin qilibon bo'ynimga qullob..." (3 bayti berilgan) misralari bilan boshlanuvchi g'azallaridan namunalar berilib, tahlil qilingan.

Shoir hayoti va ijodiga oid maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Xorazm adabiy muhitiga oid tadqiqotlarda Murodiy haqida oz bo'lsa-da, ma'lumotlar berib o'tilgan [Fанихўжаев 1969, 193]. Masalan, G.Ismoilova "Feruz davri Xorazm adabiy muhiti"da Feruzning qarindosh-urug'lari haqida to'xtalib, "Murodiy bilan Komyob Feruzning ukalari, ikkalovi ham bittadan devon tartib berishgan" – degan fikrni qayd qiladi [Ismoilova 1995, 1-130].

2016-yilda Jaloliddin Jo'rayev va boshqalar tomonidan "**Feruz gulshani**" nomli kitob nashr qilingan [Jo'rayev va boshqalar 2016, 15-22]. Ushbu kitobda Nazar, Bayoniy, Xusrav, **Murodiy**, Komyob, Farrux, Oqil, Sultoniylar, Asad, G'oziy, Sa'diy, Sodiq, Kishjonbikalarning g'azal, qasida, muammo, taxmis, ruboiy janridagi she'rlaridan namunalar berilgan. Nashrda Murodiyning **13 ta** she'ri, ya'ni, "Vah netaykim, oyta olmon sirrim ul yor ollida" (7 bayt), "Mahzun ko'nglum shod o'lg'usi ul mohi tobonin ko'rub" (11 bayt), "Soqiyo, kelgil, bu kunkim, bayrami qurbon erur" (9 bayt), "Zor ko'nglum ichra oshubi jahon bo'lmish havas" (9 bayt), "Mango har dam ul oyning peshasi javru jafo bo'lmish" (9 bayt), "Ey shohi malaksifot, qulluq" (7 bayt), "Naylayin, bu shahrdin arz etdi jonon, ey ko'ngul" (9 bayt), "Ushshoq ko'ngli qushlarini aylamakka rom" (9 bayt), "Davlati vasling mango davron ekandur bilmadim" (7 bayt), "Xubliq sipehrida oftobi tobonsan" (11 bayt), "Komimni ayla shirin, shakkarafshon tilingdin" (9 bayt), "Mandek ongo (bir) oshiqi farzona kim erkon" (11 bayt) misralari bilan boshlanuvchi **12 ta g'azali** hamda **19 bayt**dan iborat "**Qasidayi Murodiy**" matni berilgan. Jaloliddin Jo'rayev fikricha, shahzodalarning she'rlari turli bayoz va qo'lyozma devonlardan to'planib, ilk bor "Feruz gulshani" sarlavhasi ostida nashr qilingan. Bu she'rlar qaysi manbalardan olingani haqida aniq ma'lumot yo'q.

2023-yilda S.Umarovanning “Xorazm adabiy muhitida – devonchilik” nomli uslubiy qo'llanmasi e'lon qilinadi [Umarova 2023, 4]. Mazkur qo'llanmada Feruzning ukalari hamda barcha shahzodalar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar bor. Shuning barobarida, quyidagilarni bayon etadi: “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O'tar, Tabibiy, Rojiiy, Rog'ib, Komyob, Mutrib, Muhammad Rasul Mirzo kabi namoyandalari hayoti va ijodini tadqiq etish yuzasidan adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ular bilan zamondosh, bir adabiy muhitda faoliyat olib borgan Sultoniyy, Sa'diyy, G'oziiy, Asad, **Murodiy**, Sodiq, Farrux, Oqil kabi xon oilasidan yetishib chiqqan ijodkorlar devonlari qo'lyozmalari hanuzgacha o'rganilmagan”.

O'zR FASHI asosiy fondida 906/VII raqamli qo'lyozmada Murodiyning 19 ta g'azal (shundan 3 tasi fors-tojikcha, 16 tasi esa turkiy), 5 ta muxammas (2 tasi Fuzuliy, 1 tasi Feruz g'azaliga yozilgan), 1 ta musaddas, 2 ta qasida, 1 ta ruboiysi ko'chirilgan. Bu manbada shoir she'rlari devon tuzish tartibida berilmagan. Janrlari ham to'liq emas. Jami: 28 ta (663 misra) she'r bor. Qo'lyozmada Devoni **Murodiy**, Devoni Farrux, Devoni Doiy, Devoni Ajziy, Devoni Xokiy, Devoni Devon, Mutrib Xonaxarob, Devoni Nadimiy, Devoni Xodim, Devoni Chokarlarning, 10 ta shoirning she'rlariga tartib berilgan. Murodiy she'rlari “**Bismillahir rohmanir rohim**”dan boshlanib, “To'ramurod to'ramiz zayd umra valadi jannatmakon Firdavs oshyon Sayyid Muhammad Bahodirxon al-mutaxallas bil-Murodiy” sarlavhasi ostida beriladi. Qo'lyozmadagi birinchi g'azal:

“Vah, netaykim, oyta olmon sirrim ul yor ollida,
Ey sabo, qil arzim ul la'li shakkarbol ollida” – misralari bilan boshlanadi.

Maqta' qismi esa,

“Ey Murodiy, chun ango hech kimsa holimni demas,
Emdi arz aylay o'zum ul sho'xi dildor ollida” – tarzida yakunlangan. Bu g'azal ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun: -V--/-V--/-V--/-V) vaznida yozilgan bo'lib, 7 baytdan iborat. Ushbu qo'lyozma kolofonida Murodiy she'rlarining ko'chirilgan yili va kotibi haqida ma'lumot yo'q. Qo'lyozmaning 237^a-sahifasida Devoniyyning she'rlari berilgan. Devoniyy she'rlari xotimasida quyidagi ma'lumot bor: “kotibi Mullo Boltaniyoz usto Qurbonniyoz mulaqqabi bi Xarrot yozib etmomi sarhadig'a yetkurdi”. Murodiy va Devoniyy she'rlari xati bir xil. Bundan kelib

chiqib, Murodiy devonini ko'chiruvchi kotib ham Mullo Boltaniyoz usto Qurbonniyoz mulaqqabi bi Xarrot bo'lganligini taxmin qilishimiz mumkin [Qo'lyozma 906/VII. Murodiy, 237^a]

O'zR FA Sharqshunoslik instituti, asosiy fondida saqlanayotgan 1172 raqamli qo'lyozma bayozda esa **906/VII** raqamli qo'lyozmadagi "Qilg'oli bazmimni, rashki, gulsiton xush keldingiz" (9 bayt), "Mandek ongo bir oshiqi farzona kim erkon" (11 bayt), "Az on ruzi ki purshud dar jahon oshubi g'avg'oyat" (7 bayt) misralari bilan boshlanuvchi uchta g'azal kiritilgan. Bu qo'lyozma bayoz hijriy 1323/1905-yilda Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy farmoniga binoan Muhammad Sharif devon Allohbergan devon marhumiy tomonidan ko'chirilgan [Qo'lyozma bayoz 1172. Murodiy, 36^a – 38^a].

Murodiyning **906/VII** raqamli qo'lyozmadagi she'rlari 1172 raqamli qo'lyozma bayoz hamda №10374 raqamli toshbosma ("Haft shuaro")lar qiyosiy o'rganildi. Natijada, shoir she'rlari **906/VII** raqamli qo'lyozma hamda №10374 raqamli toshbosmada ham bayt va band tushib qolishiga doir farqlar ko'zga tashlandi. Masalan, uning **906/VII** raqamli qo'lyozmadagi 19-o'rinda ko'chirilgan 8 baytli [Qo'lyozma 906/VII. Murodiy, 6^{a/b}] g'azali Bayoniyning "Haft shuaro"sida 9 bayt. Ushbu g'azal "Ey muallo, borgohu vey shahi zilli iloh" misrasi bilan boshlanadi. Qo'lyozmadan tushib qolgan bayt toshbosmada 4-baytda berilgan:

*Taxti farmoningga kirsun jumlayi olam shahlari,
Qullig'ingga muftaxir bo'lsun bori zarrin kuloh*

[Murodiy, №10374. 9].

906/VII raqamli qo'lyozmaning 9^b-10^{a/b}-sahifalarida Murodiyning "Hajring tunida yig'latibon shamimni nam etma" misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi ham negadir 6 band shaklida ko'zga tashlanadi. Toshbosmada esa bu musaddas 7 band. Farq qiluvchi band "Haft shuaro"ning 15-sahifasida, ya'ni musaddasning 5-bandida berilgan:

*Ohi xatin nargisu g'ammozinga sadqa,
Bo'lsun bu jahon xo'blari nozinga sadqa.
Zuhra bo'lub, ey mohjabin, sozinga sadqa,
Kel aylamayin jonimi ovozinga sadqa,
Ko'zdin solib ag'yor aro muttaham etma,
Ey shohjahonim, mango muncha sitam etma.*

Yuqoridagilardan anglashiladiki, 906/VII raqamli qo'lyozmada shoirning g'azal va musaddasi tarkibidan o'rin olgan bayt

va band qisqargan. Bu esa kotibning e'tiborsizligi tufayli yuzaga kelgan. Bayoniyning "Haft shuaro" si orqali ushbu misralarni tiklash maqsadga muvofiq. Bu bilan "Haft shuaro" matni to'liq degan fikrdan yiroqmiz. Sababi shoirning **906/VII** raqamli qo'lyozmasi (11^{a/b}-sahifalari)dagi "Ey dilu jon, mushfiqim, sizdin erur multamas" misrasi bilan boshlanuvchi 24 bayt 48 misrali qasidasi "Haft shuaro" da 22 bayt 44 misra shaklida berilgan. Toshbosmada qasidaning 17- va 22-baytlari qisqargan:

*Xoliqi Razzoq erur holi diling noziri
Davlati survat¹ sango gar bo'lsa tong emas.
El aro mashhurdur xatmi rusuldin hidoyat,
Tolibidurlar gulob moli maqoli najas.*

Ma'lum bo'ladiki, shoir adabiy merosi ko'lamini aniqlashda har ikkita manba ham muhim ahamiyatga ega.

Murodiyning she'rlari №906/VII, №1172 raqamli qo'lyozmalar hamda №10374 raqamli toshbosma ("Haft shuaro")dagi she'rlar bir-birining takrori ekanligi aniqlandi. Faqat №906/VII raqamli qo'lyozmadagi 8 baytli g'azal va 6 bandli musaddas aslida "Haft shuaro" da 9 bayt va 7 band ekanligini inobatga olsak shoir adabiy merosi ko'lamini 663 misra emas, balki **671 misrani** tashkil etishi oydinlashadi. Shoirning ushbu manbalardagi she'rlaridan 12 ta g'azal va 1 ta qasidasi joriy imloda berilgan [Feruz gulshani 2016, 15-21]. So'nggi izlanishlarimiz natijasida Murodiyning joriy imloda e'lon qilinmagan 7 ta (shundan, 3 ta fors-rojik, 4 ta turkiy) g'azal, 5 ta muxammas, 1 ta qasida, 1 ta musaddas hamda 1 ta ruboiysi borligi aniqlandi.

Xulosa

Ushbu maqoladan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. To'ramurod to'ra Sayyid Muhammadxon o'g'lining hayoti va ijodi ilk bor monografik jihatdan tadqiq etilib, matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o'rganildi. Murodiy 1854-yil tug'ilib, 1908-yili vafot etgani, ya'ni 54 yil yashaganiga oid qaydlar Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" tarixiy asari asosida dalillandi.

2. Shoirning O'zRFA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi №906/VII, №1172 raqamli qo'lyozmalari hamda №10374 raqami ostida saqlanayotgan "Haft shuaro" toshbosmasidagi she'rlari qiyosiy o'rganildi. Murodiyning yuqorida keltirilgan

¹ Bu so'z surud (ohang, qo'shiq ma'nosida).

manbalardagi she'rlari 28 tani tashkil etadi. Shoirning adabiy merosi hajmi 671 misradan iborat.

3. Murodiyning she'ri ilk bor 1992-yilda Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro"si nashrida e'lon qilingan. Ushbu she'r "Davlati vasling manga davron ekandur, bilmadim..." misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azaldir.

4. 1995-yilda esa Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul, Nusratulla Jumaxo'janing "Feruz – shoh va shoir qismati" kitobida shoirning "Haft shuaro"dan o'rin olgan she'rlari haqida fikr bildirilib, 28 ta she'ridan 1 ta fors-tojik va 3 ta turkiy g'azali (2, 3, 4 bayti namuna sifatida) keltiriladi.

5. 2016-yilda esa Jaloliddin Jo'rayev va boshqalarning "Feruz gulshani" nomi ostida Murodiyning 12 ta g'azali hamda 19 baytdan iborat "Qasidayi Murodiy"si e'lon qilingan. Bu she'rlar matni ham qayta nashrtalab. Chunki bularda so'zlarning tushib qolishi, so'zlarning xato o'qilishi kabi farqlar ko'zga tashlanadi.

6. Murodiyning 7 ta g'azali (shundan, 4 ta turkiy, 3 ta fors-tojik), 5 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta qasida hamda 1 ta ruboiysi, ya'ni 15 ta she'ri joriy imlodagi berilmaganligi aniqlandi.

Shoir she'rlarining e'lon qilinishi To'ramurod to'ra – Murodiy ijodiy merosining adabiyot tarixidagi o'ziga xos o'rnini belgilash va ijodkor mahorati sirlarini kashf etish imkonini beradi.

Adabiyotlar

Muhammad Yusuf Bayoniy. *Shajarayi Xorazmshohiy*. O'zR FASHI Asosiy fondi, inv. №9596.

Devoni Murodiy. O'zR FASHI, asosiy fond. №906/VII.

Bayoz. O'zR FASHI, asosiy fond. №1172.

Muhammad Yusuf Bayoniy. *Haft shuaro*. Toshbosma. №10374.

Носиров, А. 1954. *Хоразмга оид материаллар*. Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. Тошкент.

Ғанихўжаев, Ф. 1969. *Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.

Муродов, А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.

Ғанихўжаев, Ф. 1971. "Табибий тузган икки мажмуа ҳақида". *Адабий мерос* 2.

Навоий асарлари луғати. 1972. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Накимов, М. 1983. "Шарқ қўлёзмаларига доир терминларнинг қисқа изоҳли луғати". *Адабий мерос* 1(25).

Қобулов, Н., Мўминова, В., Наққулов, И. 1987. *Аваз ва унинг адабиёт муҳити*. Тошкент: Фан.

- Лаффасий. 1992. *Тазкираи шуаро*. Нашрга тайёрловчи: П.Бобожонов. Урганч: Хоразм.
- Жумаев Н. 1992. “Феруз”. Халқ сўзи. 29 январ.
- Муҳаммад Юсуф Баёний. 1994. *Шажараи Хоразмшоҳий*. Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул, Нусратулла Жумахўжа. 1995. *Феруз – шоҳ ва шоир қисмати*. Иккинчи китоб. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти.
- Исмоилова, Г. 1995. *Феруз даври Хоразм адабий муҳити*. Филол. фан. номз. дисс... Тошкент.
- Насанов, Солий. 1996. *Хоразм маърифати-олам кўзгуси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Маткаримова, С. 2007. *Табибий – тазкиранавис* (“Мажмуаи си шуаройи пайрави Ферузошхон” асосида). Фил. фан. номз. дисс... Тошкент.
- Аминов, Н. 2008. “Муҳаммад Раҳимхон Соний даври маданияти тарихидан”. *Шарқшунослик* 13.
- Бобожон Тарроҳ – Ходим. 2011. *Хоразм шоир ва навозандалари*. Тошкент: Тафаккур қаноти.
- Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. 2011. *Феруз*. Тошкент: EXPRE-MUM PREES.
- Феруз гулшани*. 2016. Нашрга тайёрловчи: Жалолиддин Жўраев, Жамоллиддин Жўраев ва Сурайё Дўстова. Тошкент: MUMTOZ SO'Z.
- Хажиева, И.А. 2016. *Хоразм миллий-маънавий мероси дурдоналари*. Тошкент: Turon zamin ziyo.
- Махаммадиева, Ю. 2021. *Ферузнинг бадиий маҳорати*. Филол. фан. б. фалсафа доктори (PhD) дисс. Тошкент.
- Мадиримова, С. (2017). *Мутриб девонининг қулзма манбалари*. in Library, 17(2), 424-426.
- Мадиримова, С. (2022). *Мутриб Хонахароб ва унинг адабий мероси*. Каталог монографий, 2(2), 3-137.
- Umarova S. 2023. *Xorazm adabiy muhitida – devonchilik*. Тошкент: BOOKMANY PRINT.
- Умарова, С. (2024). “Shahzoda shoirlar ijodida an'anaviylik”. *Ўзбекистан: тили ва маданият, 1*(2), 50-65.
- Мадиримова, С. (2022). *Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili*. *Ўзбекистан: тили ва маданият*. *Литературоведение*. 1(1), 15-26.
- Madirimova, S. M. (2024). Principles of Creating Scientific-Critical Texts of Mutrib's Works. *SPAST Reports*, 1(1).

Life path and creative heritage of Sayyid Muhammad Khan son of Toramurad

Sohiba Madirimova¹

Abstract

The article discusses the poet Turamurod Tura Sayyid Muhammadkhon and his lyrical heritage, who lived and created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. Additionally, it provides information on the life and creativity of the poets based on the works "Shajarayi Khorazmshohiy" by Muhammad Yusuf Bayoni, "Haft Shuaro," and "Tazkirayi Shuaro" by Hasanmurod Laffasiy. The sources are comparatively analyzed, and conclusions are drawn in terms of textology and literary source studies.

Murodii was a famous Uzbek poet, whose original name was Murodillo Yusupov. His work is preserved in the book "Haft shuaro" (Seven Poets). The Institute of Oriental Studies holds manuscripts and notes about Murodii, and his work has been referenced in various scholarly research conducted since 1960. Overall, his life and contributions have had a significant impact on Uzbek literature and culture, and his poems continue to be widely read and appreciated today.

Key words: *Murodii, poet, poem, line, manuscript, heritage, research, ghazal, ode, rubai.*

References

- Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. O'zR FASHI Asosiy fondi, inv. №9596.
- Devoni Murodiy. O'zR FASHI, asosiy fond. №906/VII.
- Bayoz. O'zR FASHI, asosiy fond. №1172.
- Muhammad Yusuf Bayoniy. *Haft shuaro*. Toshbosma. №10374.
- Nosirov, A. 1954. Xorazmga oid materiallar. Qo'lyozma. O'zR FASHI. Toshkent.
- G'anixo'jaev, F. 1969. *Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Murodov, A. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent: Fan.
- G'anixo'jaev, F. 1971. "Tabibiy tuzgan ikki majmua haqida". *Adabiy meros* 2.
- Navoiy asarlari lug'ati*. 1972. Tuzuvchilar: Shamsiev P., Ibrohimov S.

¹ *Sohiba M. Madirimova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, dotsent, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

For citation: Madirimova, S. 2024. "Life path and creative heritage of Sayyid Muhammad Khan son of Toramurad". *Golden Scripts* 2: 42 – 59.

- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Hakimov, M. 1983. "Sharq qo'lyozmalariga doir terminlarning qisqa izohli lug'ati". *Adabiy meros* 1(25).
- Qobulov, N., Mo'minova, V., Haqqulov, I. 1987. *Avaz va uning adabiy muhiti*. Toshkent: Fan.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirai shuaro*. Nashrga tayyorlovchi: P.Bobojonov. Urganch: Xorazm.
- Jumaev N. 1992. "Feruz". *Xalq so'zi*. 29 yanvar.
- Muhammad Yusuf Bayoniy. 1994. *Shajarai Xorazmshohiy*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul, Nusratulla Jumaxo'ja. 1995. *Feruz – shoh va shoir qismati*. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
- Ismoilova, G. 1995. *Feruz davri Xorazm adabiy muhiti*. Filol. fan. nomz. diss... Toshkent.
- Hasanov, Soliy. 1996. *Xorazm ma'rifati-olam ko'zgusi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Matkarimova, S. 2007. *Tabiiy – tazkiranavis ("Majmuai si shuaro'i payravi Feruzshohiy" asosida)*. Fil. fan. nomz. dis... Toshkent.
- Aminov, H. 2008. "Muhammad Rahimxon Soniy davri madaniyati tarixidan". *Sharqshunoslik* 13.
- Bobojon Tarroh – Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. 2011. *Feruz*. Toshkent: EXPREMUM PREES.
- Feruz gulshani*. 2016. Nashrga tayyorlovchi: Jaloliddin Jo'raev, Jamoliddin Jo'raev va Surayyo Do'stova. Toshkent: MUMTOZ SO'Z.
- Xajieva, I.A. 2016. *Xorazm milliy-ma'naviy merosi durdonalari*. Toshkent: Turon zamin ziyo.
- Maxammadiyeva, Yu. 2021. *Feruzning badiiy mahorati*. Filol. fan. b. falsafa doktori (PhD) diss. Toshkent.
- Madirimova, S. (2017). *Mutrib devonining kulezma manbalari*. in Library, 17(2), 424-426.
- Madirimova, S. (2022). *Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi*. Katalog monografiy, 2(2), 3-137.
- Umarova S. 2023. *Xorazm adabiy muhitida – devonchilik*. Toshkent: BOOKMANY PRINT.
- Umarova, S. (2024). "Shahzoda shoirlar ijodida an'anaviylik". *Uzbekistan: yozik i kultura*, 1(2), 50-65.
- Madirimova, S. (2022). Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili. *Uzbekistan: yozik i kultura. Literaturovedenie*. 1(1), 15-26.
- Madirimova, S. M. (2024). Principles of Creating Scientific-Critical Texts of Mutrib's Works. *SPAST Reports*, 1(1).

Ilova

بسم الله الرحمن الرحيم
 توره مُراد توره ميز زيد عُمره ولدجنت مكان فردوس
 آشیان سیدمحمّد بهادر خان المتخلص بالمرادی

غزل مرادی ۱

وه نیتای کیم آیتا آلمان سَریم اول یار آلیدا
 ای صبا قیل عرضیم اول لعل شکر بار آلیدا

دایما هجران اوتیغه قیلدی باغریمنی کباب
 نی کنه قیلدیم ایکان اول چشم خونخوار آلیدا

نیدین اکراه نظر بولدیم آنکا ای دوستلار
 دیگالی بو حال زاریمنی کیمیم بار آلیدا

ایلا رام لعلی زلالین آرزوسین صبح شام
 قیلماغیل محزون منی اغیار بدکار آلیدا

ایلاسم بویخت گمره دین شکایت نی عجب
 بولمادیم منظور اول شاه جهاندار آلیدا

وه که اول مهوش منگا جور جفاشین کوب قیلور
 هر نچه قیلسام نیاز عجز اظهار آلیدا

ای مرادی چون انگا هچ کیمسه حالیمنی دیماس
 ایمی دی عرض ایلائی اوزوم اول شوخ دلدار آلیدا

مخمس مرادی

عشق سرّین اسر ایور غه بن کبی شیدا نَدور
 عاشق شیدا نه بیلسون زیر ایله بالا نَدور
 فهم قیلمز سن بنگا کم منزل مأوا نَدور
 ایله سرمستم که ادراک ایتمزم دنیا نَدور
 بن کم ساقی اولن کیمدور می صهبا نَدور

ای کونگل اول یار وصلن صبح ایله شام ایترم
 وصلنه رهبر بولورتک بخت فرجام ایترم
 عشرت ایامی الندن جام کلفام ایترم
 کرچه جاناندن دلی شیدا ای چون کام ایترم
 سورسا جانان بیلزم کام دل شیدا نَدور

رحم قیلزم حالیمه اول معدن غنج دلال

جان قوشين صيدايته کالی لب اوزره قويمش طرفه خال
عشق دشتن سيرايدنلاردن بودم قيلديم سوال
وصلدن چوخ عاشقى مستغنى ايلار برخيال
عاشقه معشوقدن هر دم بو استغنا نَدور

سوزديمه اول کيمسيه اسرارينگا کاشف دگل
هرديانت پيشه لارا اول رمزدن واقف دگل
حق رضاسين استين لار کمسه دن خائف دگل
حکمت دنيا ومافيه بيلن عارف دگل
عارف اولدور بيلميه دنيا و مافيه نَدور

بولمه دى چون اول پرى پيکر مرادى همدمى
بوسبیدن تبينماين افزون اولور چشمنگ نمى
آرى آرى هجر شامى اوکسوک ايلار ماتمى
آه فريادينگ فضولى انجيدبدور عالمى
کر بلای عشقندن خوشنودسن غوغا نَدور

رباعى مرادى

ای لعل لبينک چشمه حيواندين الز
وى خال خطينگ سبزه ريحاندين الز
عالم ارا يوق مثالينک اى حور نژاد
عقبى داغى جنت بيله رضواندين الز

**To'ramurod To'ramiz zayd¹umra² valadi jannatmakon
- Firdavs³ oshyon⁴ Sayyid Muhammad Bahodirxon al
mutaxallas bil-Murodiy⁵**

G'azali Murodiy

-1-

Vah, netaykim, oyta olmon sirrim ul yor ollida,
Ey sabo, qil arzim ul la'li shakarbor ollida.

Doimo hijron o'tig'a qildi bog'rimni kabob,
Ne gunoh qildim ekan ul chashmi xunxor ollida.

¹ Zayd – ziyoda, ko'p va farovon ma'nosida.

² Zaydumra – umr ziyoda.

³ Firdavs – eng oliy, eng yaxshi.

⁴ Oshyon – uy, xona.

⁵ Devoni Murodiy. O'zR FASHI, asosiy fond. №906/VII. – B. 1^b.

Nedin ikrohinazar bo'ldim ongo, ey do'stlar,
Degoli ul holi zorimni kimim bor ollida.

Aylaram la'li zilolin orzusin subhu shom,
Qilmag'il mahzun mani ag'yori badkor¹ ollida.

Aylasam bu baxti gumrahdin shikoyat ne ajab,
Bo'lmadim manzur ul shohi jahondor ollida.

Vahki, ul mahvash mango javru jafosin ko'b qilur,
Har necha qilsam niyozi, ajz izhor ollida.

Ey **Murodiy**, chun ango hech kimsa holimni demas,
Emdi arz aylay o'zum ul sho'xi dildor ollida.

Muxammasi Murodiy

Ishq sirrin asroyurg'a ban kabi shaydo nadur,
Oshiqi shaydo na bilsun zer ila bolo nadur.
Fahm qilmazsan banga kam manzili ma'vo nadur,
Ayla sarmastam ki idrok etmazam dunyo nadur,
Ban kimam soqiy o'lan kimdur mayi sahbo nadur.

Ey ko'ngul, ul yor vaslin subh ila shom ettiram,
Vaslina rahbar bo'lurtak baxti farjom² ettiram,
Ishrat ayyomi alindan jomi gulfom ettiram,
Garchi jonondan dili shaydo, ey, chun kom ettiram.
So'rsa jonon bilmizam komi dili shaydo nadur.

Rahm qilmaz holima ul ma'dani g'unji dalol,
Jon qushin sayd etgali lab uzra qo'ymish turfa hol,
Ishq dashtin sayr edonlardan bu dam qildim savol,
Vasldan cho'x oshiqi mustag'no³ aylar barxayol,
Oshiqa ma'shuqdan har dam bu istig'no nadur.

So'z dema ul kimsaya asroringo koshif degal,
Har diyonatpeshalar ul ramzdan voqif degal,
Haq rizosin istayanlar kimsadan xoif degal,

¹ Yomon ishlarni qiluvchi.

² So'ng, oxir, oqibat.

³ Ehtiyojsiz; tortinuvchi.

Hikmati dunyovi mofiho bilan orif degal,
Orif uldur bilmaya, dunyovi mofiho nadur?

Bo'lmadi chun ul pari paykar **Murodiy** hamdami,
Bu sababdan tinmayin afzun o'lur chashmang nami,
Ore, ore hajr shomi o'ksuk aylar motami,
Ohu faryoding **Fuzuliy** injidibdur¹ olami,
Gar baloyi ishqdan xushnudsan g'avg'o nadur.

Ruboiyi Murodiy

Ey, la'li labing chashmayi hayvondin² alaz³,
Vay xoli xating sabzavu rayhondin alaz,
Olam aro yo'q misoling, ey huri najod,
Uqbo⁴ dog'i jannat bila rizvondin⁵ alaz⁶.

¹ Xafa qilmoq, ranjitmoq.

² Chashmayi hayvon – tiriklik bulog'i.

³ Alaz – zarur, lozim, kerak.

⁴ Oxirat, boqiy dunyo.

⁵ 1. Rozilik, mamnuniyat; 2. Jannat.

⁶ O'zR FASHI. Qo'lyozma. Devon. Murodiy. 906/VII. – B. 11^b.

XX asr matnshunosligida Navoiy asarlari tadqiqi: Hamid Sulaymonov hamda Porso Shamsiyev tajribasi

Akrom Malikov¹

Abstrakt

O'zbek matnshunosligida Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Dastlabki matnshunoslik tadqiqotlari S. Mutallibov, G'. Karimov, I. Sulton, H. Sulaymonov, P. Shamsiyev, S. G'aniyeva kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu maqolada H. Sulaymonov hamda P. Shamsiyevlarning matn tuzishdagi ilmiy tutumlari, tamoyil va yondashuvlari qiyosiy o'rganilgan, xulosalar qilingan. Shuningdek, maqola so'ngida ilmiy-tanqidiy matn tuzishda kontekst muammosi ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Matn, matnshunoslik, tanqidiy matn, matnshunoslik tadqiqoti, qo'lyozma, kontekst.*

Kirish

Keyingi yillarda Alisher Navoiy asarlarini bir necha qo'lyozma nusxalar va toshbosma nashrlar matnlari asosida qiyosiy o'rgangan, tanqidiy matn tuzishning fundamental mezonlari ustida ishlagan, buni amalda qo'llab ko'rsatgan olimlardan sanalmish Hamid Sulaymonov hamda Porsoxon Shamsiyevlarning faoliyatlari yosh olimlar tomonidan tadqiqqa tortilmoqda. Xususan, Zilola Namozovaning "Navoiy lirikasi matnshunosligi tadqiqi tadriji (Hamid Sulaymonov ilmiy faoliyati asosida)" deb nomlangan filologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida Hamid Sulaymonovning matnshunoslik tadqiqotlari va unga xos jihatlar haqida so'z yuritilgan, dastavval olimning tarjimai holi, faoliyati tilga olingan, Navoiy lirik merosining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, akademik nashrini tayyorlash kabi masalalar, amalga oshirilgan ishlardagi xatoliklar sanalgan, bu

¹ Malikov Akrom Abduxamidovich – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID : 0000-0002-9515-439X

Iqtibos uchun: Malikov, A.M. 2024. "XX asr matnshunosligida Navoiy asarlari tadqiqi: Hamid Sulaymonov hamda Porso Shamsiyev tajribasi". *Oltin bitiglar* 2: 60 – 88.

borada M. Abulxayrov hamda V. Rahmonovlarning fikrlari keltirilgan. Z. Namozova dissertatsiyada Hamid Sulaymonov istifoda qilgan qo'lyozmalarga diqqat qaratgan, ularning ro'yxatlari va tasniflarini taqdim qilgan, "Xazoyin ul-maoniy"ning tanqidiy matni va akademik nashrlarini tayyorlash borasida tavsiyalar bergan [Namozova 2020]. Yosh matnshunoslardan G'iyosiddin Shodmonov "Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq usullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotidagi o'rni" nomli dissertatsiyasida P. Shamsiyevning hayoti, faoliyati va ilmiy merosiga doir muhim qirralarni atroflicha o'rgangan [Shodmonov 2021].

Hamid Sulaymonov tadqiqotlari haqida

Atoqli matnshunos, navoiyshunos olim Hamid Sulaymonov 1955 – 1961-yillarda mashaqqatli mehnat bilan uch jildni – uch qismni o'z ichiga oluvchi "Alisher Navoiy lirikasining matniy tadqiqi" deb nomlangan rus tilidagi doktorlik dissertatsiyasini yozib tugatdi [Sulaymonov 1955 – 1961]¹.

Dissertatsiyaning birinchi qismi "O'zbekcha devonlar" deb nomlanib, unda Alisher Navoiy qalamiga mansub o'zbek tilidagi devonlarning qo'lyozmalari haqida so'z yuritiladi. Ilmiy ish avvalida olim Zahiriddin Muhammad Boburning: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bilan to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas", – degan e'tirofini iqtibos sifatida keltirgan. Tadqiqot muqaddimasi to'rt qismdan iborat:

1. Navoiy merosini o'rganish tarixidan.
2. Shoir dastxatining taqdiri haqida.
3. Matniy tadqiqotlarning umumiy tahlili.
4. Shoir lirikasiga oid chop etilgan nashrlarning umumiy tahlili.

Birinchi qismda olim Alisher Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati, Hirot tarixida tutgan o'rni, o'zbek tili oldidagi xizmatlarini qayd etib, M. Katremer, M. Belin, I. N. Beryozin, A. Vamberi kabi rus va g'arb sharqshunoslari uning hayoti, faoliyati va ijodi haqida so'z yuritganliklarini aytadi. Fransuz shaqshunosi Katremerni alohida tilga olib, Navoiy haqida dissertatsiya yoqlab, Parijda "Muhokamat ul-lug'atayn"ni nashrdan chiqarganligi haqida to'xtaladi. Shuningdek, olim akademik va yozuvchi Oybekning maqolalari, professor Y.E.Bertelsning "Navoiy" monografiyasi, Olim Sharafiddinovning "Navoiy tarjimai holi" kabi ishlarini eslab o'tadi. Hamid Sulaymonov

¹ Maqolada H. Sulaymonovga nisbat beriladigan barcha fikrlar mana shu manbadan olinadi.

so'nggi 15 yilda, ya'ni 1947-yildan boshlab 1961-yilga qadar 19 ta dissertatsiya Alisher Navoiy ijodi tadqiqiga bag'ishlanganligini aytib, fanning navoiyshunoslik degan yosh va yangi sohasiga asos solinganligiga diqqat qaratadi.

Hamid Sulaymonov Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar, kotiblar va qo'lyozmalarining xususiyatlari bilan bog'liq muhim masala xususida to'xtalar ekan, ko'plab xattotlar o'zlarini shoir asarlari "muharriri" deb bilganlarini ta'kidlaydi. Kotiblar ba'zan Alisher Navoiy qo'lyozmalaridagi tushunarsiz so'zlarni, o'z ta'blariga o'tirmagan o'rinlarni o'zgartirishgan va natijada bunday "nomehribon" tuzatishlar orqali kotiblar o'zlari aytishni juda ham xohlagan fikrlarni qo'lyozma tarkibiga kiritib ketishgan. Hatto shoir hayotlik chog'ida Hirotda ko'chirilgan qo'lyozmalarda ham juz'iy xatolar uchraydi. Chunki Alisher Navoiyda hamisha ham o'z devonlarining ko'chirilishini to'la nazorat qilish imkoni yo'q edi.

Hamid Sulaymonov shoirning kotiblar haqida o'ziga xos e'tiroflari borligini aytib, o'zining so'zini o'zgartirganlarga nisbatan keskin munosabat bildirgan nuqtalarni ham zikr qiladi. "Badoye' ul-bidoya", "Sab'ai sayyor" hamda "Mahbub ul-qulub" dan keltirilgan parchalarda shoir o'z so'zi himoyasi haqida gapirgan va uni qasddan o'zgartirgan yoki be'tibor holda xatoga yo'l qo'ygan kotiblarni qattiq tanqid ostiga olgan.

Olim tekstologiya, ya'ni matnshunoslik fani Sharqda bo'lmaganligini aytadi, ammo u ilm egasi sifatida bu sohani mustaqil fan yo'nalishi deb biladi. H. Sulaymonovga ko'ra, matnshunoslik XIX asrning ikkinchi yarmida Sharq qo'lyozmalarini o'rganish asnosida G'arb va Rossiyada paydo bo'lgan. Ammo ta'kidlash joizki, Sharqda yozma yodgorliklarni o'rganishning o'z an'ana va qat'iy tamoyillari mavjud edi. Shuning uchun bu sohani alohida ajratib olish yoki qoidalarini ishlab chiqishga zarurat sezilmagan. Alisher Navoiy qo'lyozmalari ko'chirilgan O'rta Osiyo hududlarida kalligraflar, ya'ni kotiblar, miniatyurachi rassomlar, sahifalovchi sahhoflar birgalik ishlashgan. Albatta, birgina yozma yodgorlikni ko'chirayotgan ijodiy jamoaning muallif matniga befarq bo'lishlari yoki mazmun mundarijasida katta o'zgarishlar qilishlari mumkin emas.

H. Sulaymonov aytadiki, muayyan ijodkorning asarini ko'chirayotgan bu ijodiy jamoa matnni qog'ozga tushirishda faqatgina bir nusxa bilan cheklanmagan, balki bir vaqtning o'zida ayni asarning bir necha qo'lyozmalariga murojaat qilgan. Natijada, kamdan-kam hollarda bo'lsa ham, asarning tahrirlangan hamda bir necha joylarga "sochilgan" nusxalari asosida ular matnning muallif tahriridan o'tgan

ilk nusxasini tiklashga erishganlar. Bu nusxani aynan adibning asl qarashlari manbasi deb e'tirof qilish mumkin edi. Ammo kotiblar yo noto'g'ri tushunganlari, yo o'z e'tiqodlari sababli yo bilmasdan ayrim jumla, so'zlarni qoldirib ketishar, boshqasiga almashtirar edilar. Matnlardagi bunday o'zgarishlarni hujjatlashtirish tartibi ilgari ishlab chiqilmagan. Ammo Sharqda qo'lyozmalarni ko'chirishda yo'l qo'yilgan xatolarni matnning o'zida yoki hoshiyalarda to'g'irlashning ayrim shakllarini uchratamiz. Mazkur "tahrir"lashni umumiy uch ko'rinishda tasniflash mumkin:

1. *Qo'lyozmalarining yo'qolgan qismlarini qayta tiklash.* Masalan, Qo'qon xonligida Umarxon saroyida ko'chirilgan va 677-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozmada shu holga guvoh bo'lamiz: "G'aroyib us-sig'ar" va "Navodir ush-shabob"ning yo'qolgan sahifalari qayta tiklanganligi ma'lum bo'ladi.

2. *Interpolyatsiya.* Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarida biz tez-tez interpolyatsiyani uchratamiz. Tushib qolgan baytlar, satrlar boshqa nusxalar asosida aniqlanib, hoshiyalarga yoki satrlar orasiga yozib qo'yiladi. Bu ko'pincha kotiblar emas, balki shu nusxani o'qigan va boshqasi bilan solishtirgan kitobxonlar tomonidan amalga oshirilgan.

3. *Matn buzilishlarini turli o'rinlarda qayd etish.* Qadimgi mualliflar va kotiblar, odatda, matnda uchragan har qanday buzilishlarni qo'lyozma sahifalarining hoshiyalariga belgilashni shart deb hisoblaganlar. Bunday qaydlarni Alisher Navoiy qo'lyozmalarida to'rt xil ko'rinishda uchratamiz:

a) baytlar tartibi o'zgarib ketsa, satrlar qarshisiga raqamlar qo'yish bilan bu xato bartaraf etilgan;

b) alohida baytlar yoki misralar chalkashib ketsa, ularning o'z o'rnini nuqta chiziqlar bilan ko'rsatilgan;

v) ayrim baytlarga ortiqcha so'zlar yozilgan yoki biror so'z, satr takror bitilgan bo'lsa, bu xatolik nuqtali chiziq ichiga olingan;

d) so'zlar xato yozilsa, uning ustiga ح belgisi qo'yilgan, to'g'irlangan harfga esa buni bildiruvchi ه yozilgan.

H. Sulaymonov shu o'rinda bir oz bahstlab mulohazani keltiradi. Unga ko'ra, qo'lyozmalar ustida olib borilgan bu ishlar qadimgi mualliflarga oid, ammo bu ishlar sof "stixiyali" xususiyatga ega bo'lib, ilmiy jihat ishlab chiqilgan tizim emas edi. Sharq mualliflarining asarlari, xususan, Alisher Navoiy ijodi zamonaviy fanda qabul qilingan qoidalar asosida keng filologik miqyosda tanqidiy o'rganilmaganligi olim tomonidan maxsus qayd etiladi.

H.Sulaymonov Sharq filologlarining bir xizmatini alohida

e'tiborga molik deb baholaydi. Bu xizmat shundan iborat ediki, ular Sharq mumtoz ijodkorlari, shuningdek, Alisher Navoiy asarlariga bag'ishlab lug'at va sharhlar yaratishgan. Olim bu muammo hali hech kim tomonidan o'rganilmaganligini afsus bilan ta'kidlaydi. Hamid Sulaymon "Abushqa", "Badoe' ul-lug'at", "Chig'atoy va usmonli turk lug'ati" va boshqa lug'atlar Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilganligini ma'lum qilgan, ammo bu lug'atlarning saqlanish manzili va raqamlarini aytmaydi, shuningdek, olim 7863-raqamli qo'lyozmaga havola bergan holda Navoiy qo'lyozmalarining muayyan matnlariga berilgan izoh va lug'atlar hoshiya yoki matndan so'ng kelishini bildirib, ular o'zbek adabiy tilining lug'atshunosligi sohasida o'ta muhim deb hisoblaydi.

H. Sulaymonov o'rganilayotgan qo'lyozmaning muallif tomonidan yozilgan dastxat nusxasi mavjud yoki mavjud emasligi har qanday matnshunos uchun qiziq ekanligini ta'kidlaydi. Chunki dastxat nusxaning bor-yo'qligi ilmiy-tanqidiy matnni tuzish, uning xos jihatlari belgilash va metodni aniqlab olishda ahamiyatlidir. O'zbek adabiyoti taqdiriga befarq bo'lmagan adabiyotshunoslar Alisher Navoiyning dastxatlari taqdiriga alohida e'tibor qaratganlar. H. Sulaymonov Alisher Navoiy o'z qo'li bilan yozgan biror matn hali topilmaganligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, Alisher Navoiy dastxati bizning davrimizga qadar yetib kelmagan, balki turli sabablarga ko'ra nobud bo'lgan. Bu xulosani asoslash uchun H. Sulaymonov quyidagi omillar keltiradi:

1. Alisher Navoiy turli mavzularda turli yillarda ko'p yozgan, o'z she'rlarini Abdurahmon Jomiy va Sulton Husayn huzurida o'qigan, e'tiroflar bilan bir qatorda tavsiyalarni hisobga olib, tahrirlagan. Qolaversa, shoirning o'zi "Xazoyin ul-maoniy"ga yozgan so'zboshisida Sulton Husayn uning she'rlariga shaxsan muharrirlik qilganligi haqida ma'lumot beradi.

2. Navoiy tayyor bo'lgan asarlarini qoralamadan so'ng tahrirlab, ko'p asrlik an'analarga sodiq holda kotibga topshirgan. Bu oqqa ko'chirish jarayoni bilan H. Sulaymonovning ta'kidlashicha, asosan, Hirot xattotlik maktabining ikki taniqli vakili – Sultonali Mashhadiy va Abduljamil shug'ullanganlar. Shuningdek, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad binni Nur, Darvesh Muhammad Toqiy kabilar ham Navoiy asarlaridan nusxalar ko'chirishgan. Tabiiyki, asar qoralamadan oqqa ko'chirilgach, muhtasham va qimmat kitobga aylantirilgach, uning ilk nusxasini saqlab qolishga ehtiyoj qolmagan.

3. H. Sulaymon Navoiy o'z asarlarini kitobat qilganmi, degan

savolni qo'yadi va Sharqda muallif dastxatlari deyarli saqlanib qolmaganligini ta'kidlaydi. Olimning xabar berishicha, ikki holda muallif xati saqlangan: 1) diniy va siyosiy davlat dalolatnomalari, farmonlar ostidagi imzolar yoki xatlar, yozishmalar shaklida; 2) muallifning o'zi yetuk xattot bo'lsa yoki kotibga kitobat uchun to'lashga mablag'i yetmasa, o'z asarini o'zi oqqa ko'chirib, kitobat qildirgan. Navoiyning esa bu ishga ehtiyoji yo'q edi.

4. Olimning navbatdagi savoli – Alisher Navoiyning dastxati saqlangan qo'lyozmalarining taqdiri nima bo'lgan? U mantiqan fikrlagan holda Navoiy turli tuzatish va o'zgartirishlar kiritgan qimmatli sahifalar asar oqqa ko'chirilgach, muallif tomonidan "keraksiz qoralama", – deya yo'q qilingan bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi 4 ta banddan iborat masalaga o'z javobini bergach, H. Sulaymonov Navoiy dastxati bo'lmagani uchun uning asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish mashaqqat tug'dirishini ta'kidlaydi. Demak, Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda yagona manba – shoirning boshqalar (kotiblar) tomonidan ko'chirilgan eng qadimiy, yaxshi saqlangan nusxalaridir. Bu nusxalar sifati va holatiga ko'ra asosiy va yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

H. Sulaymonov Y. E. Bertelsning "Navoiy" (1948) monografiyasi uchun material to'plash jarayoni, Toshkentda yashagani va uning shogirdlari – S. Mutallibov va G'. Karimovlar nomini qayd etadi. Olimning aynan "Alisher Navoiy asarlarining matnshunoslikka doir tadqiqotlari Y. E. Bertels rahbarligi ostida Toshkentda boshlandi", – degan ma'lumoti ahamiyatlidir. Aynan bunday tadqiqotni ilk bor S. Mutallibov va G'. Karimov Y. E. Bertels ilmiy rahbarligida amalga oshirganliklari bugun quyidagi xulosalarni beradi:

1. O'zbek matnshunosligida matnshunoslikning ilmiy asoslari, tahlil uslublari Y. E. Bertels tomonidan ishlab chiqilgan va shakllantirilgan.

2. S. Mutallibov va G'. Karimov ilk navoiyshunos-matnshunoslardir.

H. Sulaymonov tadqiqotining muhim jihatlaridan biri shuki, biz olimning doktorlik dissertatsiyasi orqali XX asrning birinchi yarmida amalga oshirilgan navoiyshunoslik tadqiqotlari haqida to'laqonli ma'lumot olamiz va bu bizga tahlil imkonini beradi. Xususan, olim ilmiy ishi yozilayotgan davrgacha Navoiyning "lirikasini hisobga olmaganda sakkizta asarining ilmiy-tanqidiy matni" tuzilganligini aytadi. Bu tadqiqotlarning sifati haqida esa quyidagi xulosalarini taqdim qiladi:

1. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining nashri. Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid bu risolasi 1940-yil lotin alifbosida chop etilgan. H.Sulaymonovning aytishicha, kitob matnini filologiya fanlari nomzodi O. Usmonov nashrga hozirlagan, professor A.K.Borovkov tahrir qilgan. So‘zboshi (5 – 13-betlar)da “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning tarixiy va ilmiy-nazariy ahamiyati, nashr uchun asos bo‘lgan manbalar, nashrga tayyorlovchilarning matnni tanqidiy o‘rganish metodlariga doir qisqa ma’lumotlar berilgan. Kitob so‘ngida ismlar ko‘rsatkichlari (67 – 68-betlar), eski so‘zlar lug‘ati (69 – 83-betlar) ilova qilingan.

H. Sulaymonov ta’kidicha, tanqidiy matn muallifi ixtiyorida o‘sha vaqtda “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning uchta nashri mavjud bo‘lib, ularni o‘zaro qiyoslab, 143 ta nomuvofiqlikni aniqlagan. Bu uch manba Parij (1841), Istanbul (1897) va Qo‘qon (1916) nashrlari edi. Chunki o‘sha vaqtda “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning biror qo‘lyozma nusxasi haqida hali ma’lumotlar aniqlanmagan bo‘lib, bu haqda ilk bora o‘zbek navoiyshunoslari Ogoh Sirri Levendning 1958-yil e’lon qilgan ishi orqali xabar topganlar. O. S. Levend Istanbuldagi Revan kutubxonasida saqlanayotgan 808-raqamli kulliyot va Sulaymoniya kutubxonasida XVI asr boshlariga oid deb qaralgan 4056-raqamli nusxa tarkibida “Muhokamat ul-lug‘atayn” borligini aytgan. H.Sulaymonov 1955 – 1958-yillarda H. Sulaymonov tayyorlagan “Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalari” (“Рукописи Алишера Навои”) kitobida sobiq SSSR hududida saqlanayotgan 1075 ta nusxa ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, birorta ham “Muhokamat ul-lug‘atayn” kitobi yo‘q edi. Albatta, H. Sulaymonov bergan bu ma’lumotning qimmati shuki, bu asar qo‘lyozmasi bizda tarqalmaganining sabablarini aniqlash Navoiydan keyingi yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida muayyan tasavvurlar beradi. Qolaversa, Navoiyning aynan qaysi asarlari bizda eng ko‘p ko‘chirilgani va tarqalgani haqidagi ma’lumotlar tahlili ham oxirgi to‘rt asrdagi kitobxonning ma’naviy ehtiyoji, dunyoqarashi yoki olib borilgan siyosatning mohiyatini yoritib beradi degan fikrdamiz.

H. Sulaymonov O. Usmonov nashrining ilmiy-tanqidiy matn emasligini ta’kidlar ekan, buning quyidagi sabablarini keltirib o‘tadi:

1. O. Usmonov istifoda etgan Parijdagi M. Katremer nashri yoki Istanbul va Qo‘qon (ayniqsa, bu nashrda zamonaviy turkman tiliga moslashish bor deydi H. Sulaymonov) nashrlarining ilmiy qimmati baland emas.

2. Nashr eski o‘zbek yozuvida emas, lotin alifbosida ekani ham ilmiy-tanqidiy matn talabiga ziddir.

H. Sulaymonov mazkur tahlillari asosida “Muhokamat ul-lugʻatayn” ilmiy-tanqidiy matnini tuzish kelajakda qilinishi kerak boʻlgan ishlardandir deb aytadi.

Shu oʻrinda aytib oʻtishimiz joizki, H. Sulaymonov aytgan bu ish filologiya fanlari nomzodi Yu. Tursunov tomonidan 2021-yil amalga oshirildi. Mazkur nashr soʻzboshisida Y. Tursunov 1940-yilgi nashrni faqat O. Usmonov emas, balki P. Shamsiyev ham tayyorlaganligini qayd etgan. Bu nashrni “... muallif redaksiyasiga yaqin matnni tiklash yoʻlidagi ilk qadam sifatida” baholaydi, uning oʻziga xos ahamiyatini eʼtirof qiladi (3-bet). Mazkur asarni 1962-yil P. Shamsiyev Parij nusxasidan qoʻlda arab imlosida koʻchirganligini Y. Tursunov maʼlum qiladi. Parij nusxasi bu hijriy 993, milodiy 1536 – 1527-yillarda koʻchirilgan kulliyot tarkibidagi “Muhokamat ul-lugʻatayn” boʻlib, uni fransuz sharqshunosi Katremer ham oʻz nashriga (1841) asos qilib olgan edi.

Y. Tursunov bu borada yana I. Odilovning ishini qayd qilgan, I. Odilov ham Istanbul nashridan eski oʻzbek yozuvida “Muhokamat ul-lugʻatayn”ni koʻchirgan boʻlib (1941), bu ish ham hali ilmiy tadqiqot maqomida emas edi.

Asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga M. Hamidova ham qoʻl urgan, u oʻz ishiga eski nashrlar (Parij, Istanbul, Qoʻqon) bilan bir qatorda Istanbul (Revan 808) va Parij (316 – 317) nusxalarining fotokoʻchirmasini jalb etgan, ammo ish yakuniga yetmay qolib ketgan. Y. Tursunov H. Sulaymonovning 1973-yil nashr etilgan “Alisher Navoiy qoʻlyozmalari tadqiqoti” maqolasiga tayanib (“Adabiy meros”, 3-son, 86 – 87-betlar), Alisher Navoiyning dunyo qoʻlyozma fonlarida saqlanayotgan 8 ta kulliyotning uchta tarkibidagina “Muhokamat ul-lugʻatayn” borligini aytadi. Ana shu uch kulliyot quyidagilardir:

1. Istanbul nusxasi (Revan 808), koʻchirilgan sanasi: 901 – 902 (1496 – 1497).

2. Parij nusxasi (316 – 317), koʻchirilgan sanasi: 933 (1526 – 1527).

3. Fotih nusxasi (4056), koʻchirilgan sanasi: XVI asr boshlari.

Y. Tursunov aynan Fotih nusxasini mukammal deb biladi [Alisher Navoiy 2021].

H. Sulaymonov qayd etgan ikkinchi ish ushbu:

2. “Layli va Majnun”.

Dostonning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish yoʻlidagi dastlabki harakatni G. Karimov amalga oshirgan. H. Sulaymonov ushbu ishni toʻlaqonli ilmiy-tanqidiy matn deb atash imkoni

yo'qligini ta'kidlaydi. Yana bir nuqta borki, buni ham nazardan qochirmaslik kerak – H. Sulaymonov: "G'. Karimov "Xamsa"ning ikkinchi dostoni "Layli va Majnun"ning tanqidiy matnini eski o'zbek yozuvida tayyorladi", – deydi (21-bet). Keyingi yondashuvlarda "Layli va Majnun" "Xamsa"ning uchinchi dostoni deb qaralgan. H. Sulaymonovga ko'ra, uni ikkinchi deb qayd etish sabablarini ham aniqlashtirish foydadan xoli bo'lmaydi. Qolaversa, bizga ma'lum aksar qo'lyozma va toshbosmalarda ham "Layli va Majnun" "Hayrat ul-abror"dan so'ng joylashtirilgan. H. Sulaymonov G'. Karimovning dissertatsiyasi ikki qismdan iborat bo'lganini aytadi: birinchi qism "Layli va Majnun"ning tanqidiy matnini tuzishga doir tadqiqotlar" deb nomlansa, ikkinchi qism "Layli va Majnun" tanqidiy matni va farqlanishlar" deb atalgan. Ammo dissertatsiyaning ikkinchi qismi Moskvadagi Lenin kutubxonasida ham, O'zR Fanlar akademiyasining Fundamental kutubxonasida ham topilmagani sababli bugun "Layli va Majnun"ning tanqidiy matni bilan tanishish imkoni yo'q. Ammo zikr etilgan ikkala kutubxonada ham tadqiqotning birinchi qismi mavjud va unda doston matnini o'rganishning asosiy bosqichlari hamda uning matni tanqidi jadvallarda ko'rsatilgan.

H. Sulaymonov ana shunga asoslanib "Layli va Majnun"ning G'. Karimov tayyorlagan tanqidiy matniga o'z munosabatini bildiradi. Xususan, "Xamsa"ning ko'p nusxalari borligini ta'kidlagan olim doston tanqidiy matnini shakllantirish uchun atigi uchta nusxadan foydalangan:

1. Navoiy hayotlik chog'ida Abduljamil kotib ko'chirgan, Toshkent Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti fondida 5018-raqamli nusxa. Bu nusxa tanqidiy matn uchun asos qilib olingan.

2. Taniqli xattot Sultonali Mashhadiy ko'chirgan, XV asrga oid bo'lgan Leningraddagi (hozirgi Sankt-Peterburg) Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat jamoat kutubxonasi fondida 560-raqam bilan saqlanayotgan nusxa.

3. Kotibi va ko'chirilgan vaqti qo'lyozmaning o'zida ko'rsatilmagan, G'. Karimovning o'zi XVI asrga mansub deb belgilagan, Toshkent Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti fondidagi 7554-raqamli nusxa.

G'. Karimov bu uch nusxani asosiy manba sifatida tanlagan. Ulardagi farqlanishlar jadvalda aks ettirilgan, shuningdek, Shohmurod kotibning Toshkent toshbosma nashri ham yordamchi-nazorat nusxasi sifatida qo'llangan. "Olim asosiy matnga nisbatan boshqa nusxalarda uchragan ma'noga oid buzilishlar va imloviy farqlarni ko'rsatgan. Bu filologik jihatdan tanqidiy matn tuzishda juda

muhim hisoblanadi”, – deydi H. Sulaymonov. Ammo u “Xamsa”ning XVII, XVII, XIX asrlarda ko‘chirilgan nusxalariga ega bo‘la turib, bu qadar kam nusxadan foydalanganini jiddiy kamchilik deb biladi, xususan, ixtiyorida XIX asrga oid 50 dan ziyod qo‘lyozma nusxasi bo‘lgani holda toshbosma nashr tanqidiy matn tuzishda foydalanish uchun aslo to‘g‘ri emasligini ta‘kidlaydi. H. Sulaymonov, tabiiyki, o‘z davrini nazarda tutib, 16 yildan buyon G‘. Karimov tuzgan “Layli va Majnun” tanqidiy matni topilmagani (yoki yashirin yotgani) sababli undan mutaxassislar foydalana olmayotganini afsus bilan qayd etadi. Ammo P. Shamsiyev “Xamsa”ning tanqidiy matnini tayyorlash loyihasini boshlab, yakunlagan edi, u o‘z ishi ichidan “Layli va Majnun” hamda “Saddi Iskandariy”ning tanqidiy matnlarini chop etishga ulgurmagan.

3. “Hayrat ul-abror”.

H. Sulaymonov zikr etgan uchinchi ish “Hayrat ul-abror”ning ilmiy-tanqidiy matnidir. “Hayrat ul-abror”ning tanqidiy matnini tuzishga 1944 yil ilk bora S. Mutallibov urinib ko‘rgan. S. Mutallibov ham G‘. Karimov foydalangan manbalarni o‘zi uchun asos qilib olgan va G‘. Karimov “Layli va Majnun” dostoni tanqidiy matni uchun qo‘llagan usullardan foydalangan. Shunday qilib, o‘sha davr uchun kam o‘rganilgan “Hayrat ul-abror” dostoni matni eski turkiy yozuvda tiklangan bo‘lsa-da, ilmiy jamoatchilikka taqdim qilinmagan.

1970-yil P. Shamsiyev “Hayrat ul-abror”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab chop etdi. Bu haqda biz keyinroq to‘xtalamiz.

4. “Sab’ai sayyor”.

H. Sulaymonov “Sab’ai sayyor” dostonining 1956-yil O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti chop etgan ilmiy tanqidiy matnini filologiya fanlari nomzodi P. Shamsiyev tayyorlaganini qayd etar ekan, bu ishda ham G‘. Karimov (“Layli va Majnun”) va S. Mutallibovlar (“Hayrat ul-abror”) o‘z ishlari uchun asos qilib olganlari “Xamsa”ning 3-nusxasi – Abduljamil kotib, Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan nusxa hamda ko‘chirish sanasi ko‘rsatilmagan XVI asrga oid nusxaga suyanilganligini ta‘kidlaydi. Bundan tashqari, P. Shamsiyev so‘nggi asrda ko‘chirilgan yana 4 ta nusxadan foydalanganligini aytsa-da, qanday shaklda istifoda etganini na ilmiy ishda, na tanqidiy matnda ko‘rsatgan. Aksincha, P. Shamsiyev matn tanqidida o‘tgan asrdagi qo‘lyozmalardan foydalanish shart emas deb hisoblaydi: “Turli davrga oid qo‘lyozmalar kolleksiyasidan saylab olib tekshirganimiz to‘rt nusxa orqali (bu yerda to‘rtinchi nusxa Shohmurod kotib ko‘chirgan litofgrafiya nusxasidir – H. S) tasavvurimiz shu bo‘ldiki, umuman, “Xamsa” dostonlaridan har birini ilmiy-kritik nashrga tayyorlashda

(Toshkentdagi) mavjud XVII, XVIII va XIX asr nusxalarini yoki bosma nusxalaridan birontasini asos olishning, hech bo'lmaganda, yordamchi nusxa sifatida foydalanishning zarurati yo'qdir".

H. Sulaymonov hamkasbining ushbu fikrini alohida qayd etadi: "Ilmiy-kritik tekstni takomillashda, kamchiliklarni yo'qotib, asosiy tekstni nuqsonsiz holsiz keltirishga, qisqasi, tuzilgan tekstni avtorning originaliga yaqinlashtirishda XV va XVI asrga mansub bo'lgan uch ishonchli nusxalarning o'zi batamom yetarlidir".

H. Sulaymonov P. Shamsiyevning so'nggi asrlarga oid qo'lyozmalardagi matnlarning shikastlanish tarixini qayd etish keraksiz degan fikriga qo'shilmaydi, tanqidiy matn ilmiy apparati uchun bularning barchasi zarur deb biladi.

H. Sulaymonov P. Shamsiyev o'z dissertatsiyasida unikal sanalgan "A" va "S" nusxalarning poleografik xususiyatlari, nuqson va shikastlanishlarni bayon qilmaganligini jiddiy kamchilik deb biladi. Xususan, u Sultonali Mashhadiy ko'chirgan nusxada 204b va 205a sahifalar orasida o'z ichiga 1260 satrni o'z ichiga olgan 8 ta qog'oz yo'qolganligini P. Shamsiyev aytib o'tmagan, H. Sulaymonovga ko'ra, qolaversa, dostonning nashr etilgan tanqidiy matnida 113-betdan 136-betgacha bo'lgan baytlar "S" nusxada yo'q va bu hech bir o'rinda qayd etilmaganligi tadqiqotning atroflicha, obyektiv ekaniga putur yetkazgan.

H. Sulaymonovning P. Shamsiyevga bildirgan jiddiy e'tirozlaridan biri u tanqidiy matn uchun tanlagan "M" nusxasi xususida bo'lib, P. Shamsiyev qo'lyozmaning XVI asrga oid ekanligini ishonchli darajada asoslamagan, foydalanilgan qog'oz, kitob formati, xat uslubi XVI asr nusxalarini eslatadi, ularga o'xshab ketadi deyish bilan cheklangan, holbuki, XVII -XVIII asrlardagi nusxalarda ham shunday sifatdagi qog'oz, xat uslubi (dastxat), format va muqovalashni ko'ramiz, demak, "M" nusxaning qaysi davrga tegishli ekanligini asosli dalillar bilan chuqurroq isbotlash kerak.

H. Sulaymonov "Sab'ai sayyor"ning P. Shamsiyev tuzgan tanqidiy matni xususidagi tahlillarini davom ettirib, tanqidiy matnni shakllantirish tutumlarini (prinsiplarini) yaxshiroq va aniqroq ishlab chiqish mumkinligini aytadi. Shuningdek, ilmiy apparatni shakllantirishda murakkab yo'ldan borilganligi, so'zlarni yozishda imlo jihatdan chalkashliklar borligini misollar bilan ko'rsatgan.

H. Sulaymonovning yana bir e'tirozi P. Shamsiyev "Sab'ai sayyor" birikmasini qanday tarjima qilgani bilan bog'liq. P. Shamsiyev "Yetti sayyoh" deb yozgan, ammo H. Sulaymonov fikriga ko'ra, "Yetti sayyora", ya'ni yetti planeta demakdir. Buni to'rtta hujjat bilan

dalillaydi:

1. Barcha joylarda “Sab’ai sayyor” so’zi سبعة سيار tarzida kelgan, سبعة سيار emas.

2. Shoirning o’zi “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida “Sab’ai sayyor” haqida gapirib, aynan yetti planeta ma’nosiga ishora qiluvchi izoh bergan.

3. Alisher Navoiy falakiyot ilmini yaxshi bilgan, xususan, “Farhod va Shirin” dostonida Mirzo Ulug’bek sha’nida aytgan baytlari bunga dalolat bo’ladi, demak, shoir samoda kezib yurgan yetti sayyorani nazarda tutib, asarini shunday nomlagan.

4. Dostonda Alisher Navoiy asarni سبعة سيار deb atadim deb yozadi, so’z oxirida o’ning kelmagani avvalgi satrdagi so’zga qofiya bo’lishi talab bilan izohlanadi. Bu esa shoirning boshqa asarlarida juda ko’p kuzatiladi.

H. Sulaymonov “Sab’ai sayyor”ning P. Shamsiyev tayyorlagan tanqidiy matni tahlilidan so’ng, navbatdagi ish haqida fikr bildiradi.

5. “Mahbub ul-qulub”.

Alisher Navoiyning bu asari 1948 yil SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi A. N. Kononov tomonidan nashrdan chiqarilgan va unga tanqidiy matn deb yozilgan edi. Bu ish uchun A. N. Kononov 7 ta qo’lyozmani jalb qilgan, ularning ikkitasi tayanch nusxa edi: SSSR Fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2095-raqam bilan saqlanayotgan qo’lyozma hamda Saltikov-Shchedrin nomli Davlat jamoatchilik kutubxonasidagi 558-raqamli nusxa. Keyingi o’rganishlar ham bu qo’lyozmalar “Mahbub ul-qulub”ning Sobiq Ittifoq hududida topilgan eng qadimiy nusxalari ekanligini tasdiqlaydi. H. Sulaymonov Ogoh Sirri Lavand ma’lumotidan so’ng Istanbuldagi univresitet kutubxonasida 977 / 1569-yilda ko’chirilgan, 5757-raqamli “Mahbub ul-qulub”ning yana bir nusxasi borligi 1948-yilga kelib ma’lum bo’lganini ta’kidlagan, ammo bu nusxa tadqiqotga tortilgani haqida biror belgi berilmagan.

H. Sulaymonovga ko’ra, professor A. N. Kononovning XVI asrga oid ikkita va XVII – XIX asrlarda ko’chirilgan 5 ta nusxani birdek tadqiqotga jalb qilishi e’tirofga sazovor. Modomiki, o’rganilayotgan yodgorlikning eng qadimgi boshqa nusxasi yo’q ekan, matnshunos bu ikkita tanlangan qo’lyozma va keyingi asrlarga oid boshqa nusxalarni qiyoslash orqali asl matnni tiklashi mumkin edi. H. Sulaymonov ta’kidicha, A. N. Kononov bu besh nusxadan tashqari matnlar o’rtasidagi farqlarni ko’rsatish uchun “Mahbub ul-qulub”ning yana uchta qo’lyozma va uchta bosma nusxalaridan foydalangan. Tanqidiy matn boshidan oxirigacha yagona qat’iy

ilmiy tutum (prinsip) asosida shakllantirilgan. Ijobiy e'tiroflar asnosida H. Sulaymonov A. N. Kononovning bu ishi xususida ham ayrim mulohazalarini bayon etgan, xususan, asar mazmuniga oid sharhlar, izohlar berilganida, ko'rsatkichlar havola etilganida nashr to'laroq filologik ishga aylanardi va undan foydalanish osonlashardi, qolaversa, "Mahbub ul-qulub"ning tanqidiy matni nashrida ayrim tipografik jihatlarga ham yo'q emas. H. Sulaymonovning buyondashuvidan biz nashrda ayrim harfiy yoki imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilganini tasavvur qilamiz.

6. "Mezon ul-avzon".

H. Sulaymonovning ta'kidlashicha, Alisher Navoiyning sharq she'riy o'lchami muammolariga bag'ishlangan va mazmunan murakkab tuzilishga ega bu risolasining tanqidiy matni 1949-yilda filologiya fanlari doktori I. Sulton tomonidan tayyorlangan va nashr etilgan. Bu vaqtda Alisher Navoiyning bu asari qo'lyozmalari tadqiqotchiga ma'lum bo'lmagan. I. Sultonning izlanishlari ham mazkur asar nusxalari SSSR hududidagi fondlarda cheklangan ekanini ko'rsatdi. Natijada, olim sovet fondlarida mavjud bo'lgan XVII – XIX asrlarga oid 4 ta nusxadan foydalanishga majbur bo'ldi. Shuningdek, ko'chirilgan sanasi noma'lum bo'lgan va Toshkent fondida saqlanayotgan yana bir qo'lyozmani nazorat nusxasi sifatida tadqiqqa tortgan.

H. Sulaymonov "Mezon ul-avzon"ning tanqidiy matni xattot A. Murodov tomonidan qo'lda ko'chirilib, so'ng bosmaxonada bosilganini ta'kidlarkan, qavslar, tinish belgilari, texnik ishlarning aksari qo'lda bajarilgani ishni o'ta ibtidoiy shaklga solib qo'yganiga e'tiroz bildiradi. Shuningdek, tanqidiy matnda bir qancha xatoliklar borligini aytib, xususan, "Mezon ul-avzon"da Alisher Navoiy vaznlarni amalda she'riy parchalarda ko'rsatish uchun "Xazoyin ul-maoniy"dagi baytlarni keltirganini ta'kidlaydi, ammo tanqidiy matnda ana shu parchalar nuqsonli aks etgan, holbuki, bu she'riy parchalarni "Xazoyin ul-maoniy"ning boshqa o'nlab nusxalaridan topib, to'g'ri shaklda keltirish mumkin edi. H. Sulaymonov "Mezon ul-avzon"ning yanada qadimiyroq va mo'tabarroq nusxalari topilsa, bu tanqidiy matndagi xatoliklar bartaraf etilib, mukammallashishiga umid bildiradi va bu ish kelajakniki ekanligini aytadi.

H. Sulaymonov Bokuda tanqidiy matn deb chop etilgan "Munshaot" hamda "Vaqiya" asarlarining nashri tanqidiy matn emasligini, balki biror qo'lyozmaning ko'chirmasi ekanligini ta'kidlash bilan cheklanadi.

H. Sulaymonov bergan ushbu ma'lumotlar va tahlillarga

tayanib, qisman xulosa qilish mumkinki, 1961-yilga qadar tanqidiy matn deya nashr etilgan Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Layli va Majnun”, “Sabʻai sayyor”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon” asarlari ustida olib borilgan matnshunoslik tadqiqotlarini matnshunoslik talablari bilan baholay olamiz, olim bu ishlarning hech biridan ilmiy qoniqish bildirmagan, barchasini oʻz asoslariga koʻra tanqid qilgan. Muhim jihati shuki, biz H. Sulaymonovning bu tahlillari jarayonida uning matnshunoslik tadqiqotlariga oid fundamental qarashlarini aniqlay olamiz, bu esa yosh matnshunoslar uchun ham, matnshunoslik tadqiqotlariga obʻektiv va ilmiy yondashuv uchun ham oʻta zarur sanaladi.

“Navoiy devonlarining shoʻro va xorijiy fondlarda saqlanayotgan qoʻlyozmalari haqida” deb nomlangan birinchi bobda quyidagi masalalar oʻrganilgan:

- Navoiyning dunyoga mashhur devonlari;
- Navoiy devonlarining mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxalari;
- Navoiy devonlarining xorij mamlakatlari fondlarida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxalari;
- Hirotidan topilgan va oʻsha paytda nomaʼlum boʻlgan “Badoyeʼ ul-bidoya” hamda Toshkentda saqlanayotgan yagona “Navodir un-nihoya” devonlari qoʻlyozmalari haqida;
- Navoiy devonlarining bosma nashrlari.

Birgina Toshkentning oʻzida Navoiy devonlarining 125, Leningrad fondida 40, Tojikiston fondida 20, Tbilisi fondida 9, umumiy hisobda, sobiq Sovet ittifoqidagi fondlarda 230 qoʻlyozmasi mavjudligi koʻrsatilgan. Shuningdek, Yevropa fondlarida – Londondagi Britaniya muzeyida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Berlin, Parij, Myunxen, Rim va Nyu-York, Istanbul, Pekin, Dublin kabi shaharlardagi fondlarda Navoiy devonlarining jami 86 qoʻlyozma nusxasi saqlanishi aytilgan. H.Sulaymonov har bir devonning qaysi davrga mansubligini ham koʻrsatib oʻtgan. Olim keyingi oʻrinlarda “Badoyeʼ ul-bidoya” devonining Parij (№ 746), London (№ 401), Boku (№ 3010), Toshkent (№ 84) qoʻlyozma nusxalaridagi janrlar soni, ularning joylashgan sahifalarini qiyoslab, maxsus jadval tuzgan. “Navodir un-nihoya” devonidagi gʻazallar esa qay tarzda “Xazoyin ul-maoniy” devonidan oʻrin olgani ham jadval orqali maʼlum qilingan.

Ilmiy tadqiqotning ikkinchi bobi “Qoʻlyozmalarni oʻrganishning qiyosiy metodi asosida Navoiy devonlari redaksiyasini klassifikatsiya qilish muammolari” deb nomlangan boʻlib, unda

quyidagi masalalar yuzasidan bahs yuritilgan:

muammoning kelib chiqish tarixi;

qo'lyozmalarni qiyosiy o'rganish metodi haqida, Navoiyning to'rt devoni redaksiyasi tavsifi va xarakteristikasi;

"Xazoyin ul-maoniy" devoni arxitektonikasi;

"Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozmalarini muallif redaksiyasi asosida aniq shaklga keltirish.

Olim o'zi belgilab olgan masalalar yuzasidan aniq va izchil tadqiqot olib borib, ishonchli xulosalarni taqdim etgan.

"Navoiyning o'zbekcha she'rlarini xronologik davrlashtirish usuli" deb nomlangan uchinchi qismda ushbu muammolarga atroflicha to'xtalgan:

muammoning kelib chiqishi;

muallifning xronologik davrlashtirishi va uning shartliligi;

she'rlarning haqiqiy xronologiyasi va ularning yozilish davri;

"Xazoyin ul-maoniy" she'rlarining nisbiy xronologiyasi.

Mazkur bobda olim Navoiy devonlaridagi she'rlarning yozilish davriga e'tibor qaratgan. Turli qo'lyozmalarni qiyoslagan, "Xazoyin ul-maoniy" devonidagi she'rlarning joylashish o'rnini o'rgangan va shoir bu ishni aniq tarh asosida amalga oshirganini isbotlab bergan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "Qo'lyozmalarining matniy tadqiqotini amalga oshirish va uning xarakteristikasi" deb atalgan bo'lib, unda olim ushbu masalalarni asosiy ish sifatida belgilab olgan:

ko'plab qo'lyozmalarga e'tibor qaratishning zaruriyati;

qo'lyozmalarining fotonusxalari ustida ishlash;

muayyan qo'lyozmalarining tavsifi;

qo'lyozmalar shajarasi.

Olim har bir belgilangan masala yuzasidan chuqur va batafsil izlanishlar olib borib, ularning aniq va asoslangan natijalarini ko'rsatgan, devonlardagi she'rlar matnini o'zaro qiyoslab, ishonchli matn borasidagi qarashlarini bayon qilgan.

"Matn tanqidi" deb nomlangan beshinchi bobda ilmiy tanqidiy matn tuzishning prinsiplari, chalkashliklarni barataraf qilish sistemasi, "Xazoyin ul-maoniy" devoni nashrining ma'lumot berish apparati masalalari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning ikkinchi yirik qismi – "Devoni Foni" devoni qo'lyozmalarini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur bobda "Devoni Foni"dagi she'rlar matni, ushbu devonning yetti qo'lyozmasini o'zaro qiyosiy o'rganib, Muhammad Muhsin Foni Kashmiriy devoni haqida batafsil so'z yuritilgan. Shuningdek, zamondosh olimlarning devon qo'lyozmalari ustida olib borgan izlanishlari tahlil etilgan,

devonning tarkibiy tuzilishi haqida muhim ma'lumotlar berilgan, aniq ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Ilmiy tadqiqotning "Bibliografiya" bo'limi juda katta hajmga ega. Olim davr talabiga ko'ra tuzum g'oyasini aks ettirgan adabiyotlarning yarim sahifali ro'yxatidan so'ng Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi devonlari qo'lyozmalarining 232 nusxasi, ularning saqlanish manzili va katalogdagi raqamlarini bergan. Navoiy devonlarining nashrlari, forsiy devoni qo'lyozmalari haqidagi ma'lumotdan so'ng navoiyshunoslikka doir 18 ta dissertatsiya nomma-nom sanalgan. Shuningdek, Navoiy ijodi haqida ma'lumot beruvchi risolalar, kitoblar, Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlar nomi ham keltirilgan. Bo'limning oxirgi qismida Navoiy devonlarining O'zbekistonda saqlanayotgan qo'lyozmalari katalogi, turli qo'lyozma nusxalaridan olingan fotonusxalar ilova qilingan.

H. Sulaymonovning dissertatsiyasi ikkinchi qismida Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibidagi barcha she'rlarning matla' va maqta'si, she'rlarning hajmi, dastlabki mo'tabar qo'lyozmalarda joylashgan o'rni jadval shaklida havola qilingan.

H. Sulaymonovning "Hayrat ul-abror"ning tanqidiy matni xususidagi mulohazalari bilan tanishish jarayonida 1970-yil dostonning tanqidiy matni P. Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgani haqida to'xtalib o'tgan edik. Endi o'sha nashr xususidagi so'zimizni davom ettirsak.

Nashrning muqaddimasida P. Shamsiyev "Farhod va Shirin" (1956), "Sab'ai sayyor" (1963) dostonlarining tanqidiy matnlari e'lon qilinganligini aytadi. Olim mazkur asarlarning tanqidiy matnlari uchun qanday ilmiy prinsiplarni belgilab oldi? Matn tanqidida qanday mezonlarga suyandi? H. Sulaymonov keskin tanqid qilgan holatlarni u qay yo'sinda tushuntirgan edi?

So'zimiz avvalida G'. Shodmonovning "Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq usullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotidagi o'rni" mavzuidagi dissertatsiyasini zikr etib o'tgan edik. U o'z tadqiqot ishida P. Shamsiyev kutubxonasi, fondi, ijodiy ishlari, ilmiy tajribalarini diqqat bilan o'rganib, bugungi matnshunos nigohi bilan baholaydi, aksar o'rinlarda olimning mehnati va yutuqlarini e'tirof qilib, kelajak avlod matnshunoslari uchun tajriba maydoni ekanligini xulosa qilgan.

Biz H. Sulaymonov hamda P. Shamsiyevning Alisher Navoiy asarlari matniy tadqiqotlariga oid qarashlarini qiyosiy-tahliliy o'rganishni maqsad qilib olganimiz uchun ularning sohaga oid

fundamental qarashlarini takror bo'lsa-da, muxtasar shaklda eslab o'tishimiz kerak.

Porso Shamsiyev ilmiy faoliyatiga doir

Qiyosiy tahlilimizga asos sifatida H. Sulaymonovning doktorlik dissertatsiyasidagi fikrlarni olganimiz kabi P. Shamsiyevning ham nomzodlik va doktorlik ishlariga qisqacha murojaat qilamiz va u tuzgan "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" dostonlarining tanqidiy matnlari nashrlaridagi mulohazalariga ham to'xtalib o'tamiz. Olim "Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida" (1952) nomzodlik ishining kirish qismida davr talabidan kelib chiqqan olim sobiq Sho'ro hukumati g'oyalari, ular talab qilgan jihatlarni aytib, raqamlangan dastlabki bo'limda shoir asarlarining hamma qo'lyozmalaridagi matnlar ham ishonchli emasligi, kotiblarning xatosi va boshqa sabablar bilan turli o'zgartirishlar kiritilgani, shoir asarining asliyatga yaqin ilmiy-tanqidiy matnini yaratish kun tartibidagi muhim masala ekani, mazkur dissertatsiya shu yo'ldagi urinish bo'lib, "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-tanqidiy matni tuzib chiqilgani ma'lum qilingan.

Keyingi bo'limda Navoiy asarlarining o'sha davr doirasida yaratilgan ilmiy-tanqidiy matnlari ro'yxati keltirilib, ularning har biriga qisqacha tavsif berilgan. Jumladan, O. Usmon tomonidan tuzilgan "Muhokamat ul-lug'atayn", A. N. Kononov tomonidan tuzilgan "Mahbub ul-qulub", I. Sulton tayyorlagan "Mezon ul-avzon", S. Mutallibov tomonidan tuzilgan "Hayrat ul-abror" va "Layli va Majnun" asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlariga olim aniq va xolis munosabat bildirgan. P. Shamsiyev mazkur ilmiy-tanqidiy matnlarning yutuq va kamchiliklarini ishonchli tarzda ko'rsatgan.

Navbatdagi bo'limda olim Navoiyning shaxsiy kotibi Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida 5018-raqam bilan saqlanayotgan, 1940-yilda Ibodilla Obidov ta'mirlagan "Xamsa" qo'lyozmasini "Sab'ai sayyor" ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun asos qilib olgan va qo'lyozmaning holati, ko'rinishi haqida batafsil tavsif va ma'lumot bergan. Olim "Xamsa"ning yozilgan vaqti va sarflangan muddatni Navoiyning baytlariga tayangan holda aniqlab chiqqan. Dissertant tahlillar natijasida Abduljamil kotib "Xamsa"ni qachon va qancha vaqt ichida ko'chirganiga e'tibor qaratib, aniqlik kiritgan. Olim o'rganishlari natijasida Abduljamil kotib ko'chirgan "Xamsa" nusxasi shoir hayotligidagi dastlabki yoki birinchi nusxa

degan xulosaga kelgan. Abduljamil kotib va uning tarjimayi holi, faoliyatiga bog'liq ma'lumotlar tarixiy manbalar asosida o'rganilgan va muhim xulosalar taqdim qilingan. Unga ko'ra Abduljamil kotib o'z davrining yetuk olimi bo'lib, madrasada dars bergan, Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlarni paydar-pay ko'chirib borgan, xattotlik borasida katta mahoratga ega bo'lgan.

Dissertant Abduljamil kotib haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilgach, bevosita "Qiblat ul-kuttob" ("Kotiblar qiblasi") unvoni sohibi bo'lgan Sultonali Mashhadiy to'g'risida ham ma'lumot beradi. Bu bejiz emas. Chunki "Sab'ai sayyor" dostoning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun Sultonali Mashhadiy ko'chirgan, o'sha paytda Leningraddagi Saltikov-Shchedrin Xalq kutubxonasida 13560-raqam ostida saqlangan "Xamsa" nusxasidan foydalanilgan edi.

Olim Sultonali Mashhadiy haqidagi dalillarni to'plab, tahlil qilib, umumiy ma'lumotlarni taqdim etgach, uning tomonidan 1492 – 1493-yilda ko'chirilgan nusxani "S nusxa" deb ataydi. So'ng ilmiy-tanqidiy matn tuzish uchun asos bo'lgan uchinchi asosiy nusxa sifatida XVI asrda ko'chirilgan deb kelinayotgan, nomi ko'rsatib o'tilgan markazda 7554-raqam bilan saqlanayotgan "Xamsa" nusxasi haqida tavsif beradi va uni "M nusxa" deb ataydi.

Olim Alisher Navoiy "Xamsa"sining Toshkentda 75, Leningradda esa 17 nusxasi ma'lum ekanini ta'kidlagan. Shuningdek, uning boshqa nusxalari saqlanish holati va sifati haqida ham tavsif bergan. Ba'zi nusxalarning mutlaqo yaroqsiz ekani, ichidagi ko'p baytlar o'zgartirilgani Navoiy dunyoqarashini sun'iy ravishda sayozlashtirishga urinish deb baholagan. Olimning bunday munosabatini o'sha davr siyosatining mahsuli sifatida ham qabul qilish mumkin.

Shuningdek, olim XIX asr oxiri XX asr boshlarida toshbosma usulida chop etilgan "Xamsa"ning uchta nusxasini ham tadqiq etib, ularni alohida tavsiflagan va kamchiliklarini aniq va ravshan ko'rsatgan. "Sab'ai sayyor" dostoni ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun asos qilib olingan uch nusxada uchraydigan jamiki farqlar ikki guruh: asosiy va muhim orfografik farqlarga ajratilgan. Har bir farqqa atroflicha izoh berilgan, "Sab'ai sayyor"ning ilmiy-tanqidiy matnida bu tuzatishlar qay tarzda aks etgani aytib o'tilgan.

Dissertatsiyaning asosiy qismi yakunlangach, olim to'rt ilovada o'zi foydalangan asosiy va yordamchi nusxalar o'rtasidagi farqlarni jadval ko'rinishida taqdim etgan. Aynan mana shu ish hosilasi bo'lgan "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti nashrining so'zboshida P. Shamsiyev tanqidiy matnni tayyorlash

prinsiplari haqida to'xtalgan, ilmiy ishidagi fikrlarni zaruratan takroriy keltirgan. Olim Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish zaruratini asosan ikki sabab bilan izohlaydi:

1. Alisher Navoiy matnlarining avtografi – o'z dastxati bilan yozilgan nusxasi topilmagan.

2. Shoir asarlari turli zamon va makonlarda turli sa'viyada kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Ba'zan ularning "chalasavodligi va beparvoligi" (P. Shamsiyev ta'rifi – A. M.) natijasida nusxalarda nuqsonlar, farqlanishlar yuzaga kelgan.

Shu bois Navoiy asarlarini xatodan xoli, muallif dastxatiga eng yaqin shaklda o'z alifbosida chop qilishga ehtiyoj bor. Buning uchun ishonchli va nuqsonlari kam bo'lgan nusxalarni aniqlab, ularni o'zaro solishtirish yo'li bilan xatolarini bartaraf etib, tanqidiy matn tayyorlash kerak.

P. Shamsiyev "Sab'ai sayyor"ning tanqidiy matni tuzish uchun ushbu nusxalardan foydalanganini aytadi:

1. A nusxa – Abduljamil kotib tomonidan 1484-yil, ya'ni dostoni yozilishi barobarida ko'chirilgan fanga ma'lum bo'lgan eng qadimiy nusxa. Olim bu nusxani "original ko'chirilgan dastlabki nusxa" yoki "eng birinchi nusxalardan biri" deb hisoblaydi. Kotib besh ming baytdan iborat asarni juda kam miqdordagi mexanik va texnik xatolar bilan ko'chirgani nusxaning qimmatini oshiradi. Bu tayanch nusxa sifatida olingan.

2. S nusxa – Sultonali Mashhadiy 1492 (93) yilda ko'chirgan nusxa. Leningraddagi (hozirda Sankt Peterburg) Saltikov Shedrin kutubxonasida 13563-raqam bilan saqlanadi. Bu nusxada, P. Shamsiyevga ko'ra, A nusxaga nisbatan biroz mexanik xatolar uchraydi, xususan, 4 misra tushib qolgan va P. Shamsiyev undan yordamchi nusxa sifatida foydalangan.

3. M nusxa – O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fonida 7554-raqam bilan saqlanayotgan, P. Shamsiyev XVI asrga oid deb ishongan va tanqidiy matn tuzishda yordamchi nusxa bo'lib xizmat qilgan qo'lyozma.

P. Shamsiyev litografiya (tosh) bosma nusxalardan tanqidiy matn tuzishda yordamchi nusxa sifatida ham foydalanib bo'lmasligini ta'kidlash asnosida Navoiyning turli asrlarda ko'chirilgan barcha qo'lyozmalarini o'rganish, ularni o'zaro solishtirishga vaqt va imkon yetmasligini aytadi. Chunki ularning har biriga murojaat qilish, ulardagi farqlarni qayd etib borish ishni ko'paytiradi va tanqidiy matndan foydalanishni murakkablashtiradi. Maqsad – shubha va nuqsonlardan xoli tanqidiy matnga ega bo'lib, uni ilmiy

istifoda etish ekan, bunga ehtiyoj yo'q deb biladi P. Shamsiyev. Shuning uchun u foydalanishga yengil, ixcham va ishonchli tanqidiy matn yaratish lozim deb ishonadi.

Olim "Sab'ai sayyor"ning tanqidiy matnini tuzishdagi ish jarayoni quyidagi tartibda bo'lganini tushuntiradi:

1. A nusxa asosida doston boshdan-oyoq ko'chirib chiqilgan va undagi imlo xususiyatlari saqlab qoling.

2. S va M nusxalar bilan bu nusxa solishtirilgan va farqlar qayd etib borilgan.

Nusxalar o'rtasidagi farqlar soni 950 taga yetgan. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin edi:

1. Asosiy farqlar.

A) S nusxada kotib so'zlar oxiridagi harflarni ko'p hollarda tushirib qoldirgan, ayrim so'zlarni tashlab o'tgan;

B) A nusxada kotib o'z xatolarini tuzatib borgan. Masalan, u so'zlar o'rnini almashtirib qo'ysa م ح harflarini qo'ygan. Bu harflar mutaqqadim va oxir degan ma'noni bildirib, bu belgilar qaysi so'z ustiga qo'yilsa, o'sha so'z o'zidan avvalgi yoki keyingi so'zga nisbatan almashtirib o'qilishi zarur bo'lgan;

V) asosiy va yordamchi nusxalarda ayrim so'zlar almashib qolgan.

2. Orfografik farqlar.

P. Shamsiyev solishtirilgach, uchala nusxa orasida orfografik farqlar juda ko'pligini ma'lum qiladi. Ularning ahamiyatlilari 400 taga yetgan va barchasi tanqidiy matnda aks etgan.

P. Shamsiyev nusxalarda harflarning diakritik belgilari – nuqtalar muammosi ham borligini e'tirof qilib, bu hol A nusxada juda ko'pligini bildiradi. Kotib o'z ishini tezlatish uchun bo'lsa kerak, zarur o'rinlarda ham nuqtalarni qo'ymagan. Ammo S va M nusxalarda nuqtalar nisbatan o'z o'rnida qo'llangan va bu ikki nusxa vositasida so'zlar tanqidiy matnda o'z nuqtalari bilan aks ettirilgan. Shuningdek, madlar ham A nusxaga binoan qoldirilgan, bu Navoiy davridagi talaffuz yoki vazn talabi bilan tushuntirilgan.

P. Shamsiyev "Farhod va Shirin" dostonining tanqidiy matni borasida ham "Sab'ai sayyor"dagi kabi Abduljamil kotib ko'chirgan "Xamsa" nusxasini asos o'laroq oladi. Kotib doston so'ngida 889-yil ko'chirib tugatganligini aytadi, 1484-yilga to'g'ri keladi.

Olim "Sab'ai sayyor"dagi kabi "Farhod va Shirin"ning tanqidiy matnini tuzish uchun Sultonali Mashhadiy ko'chirgan "Xamsa" nusxasini tanlagan va kitob so'ngidagi ma'lumot 1492 (93) yilda ko'chirilganiga dalolat qiladi.

P. Shamsiyev O'zFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida 7554-raqamli "Xamsa" qo'lyozmasini "Sab'ai sayyor" dostoni tanqidiy matnida istifoda etganidek tadqiq etar ekan, endi nusxaning XVI asrga oidligini isbotlash uchun undagi matnni ham keltiradi. Bu matn orqali sulton Boyazid Muhammadiy ismli bekka hijriy 979, milodiy 1571-yilda bu nusxani hadya qilganini bilib olamiz. Mazkur ta'kid H. Sulaymonovning bu nusxaning ko'chirilish davri ishonchli hujjat bilan isbotlanmagan degan e'tiroziga javob ham sanaladi.

Olim "Farhod va Shirin"ning tanqidiy matnini tuzishda yana ikki nusxani yordamchi o'laroq ishga jalb qiladi va "Sab'ai sayyor"ga nisbatan ish hajmini kengaytiradi. Bu nusxalarni L1 va L2 deb nomlaydi. Bu ikkala nusxa ham Leningraddagi Davlat Xalq kutubxonasida saqlanib, biri Xanikov bo'limida 55, ikkinchisi Dorn bo'limida 559 bilan raqamlangan.

L1 (Xanikov 55) katta kulliyot bo'lib, unda shoirning 13 ta asari jamlangan, L2 kichikroq to'plam bo'lib, unda "Xamsa"ning to'rtta dostoni o'rin olgan, faqat "Saddi Iskandariy" yo'q.

P. Shamsiyev aynan "Xamsa" dostonlari tanqidiy matnini tuzish uchun ishni ko'paytirmaslik kerak, barcha nusxalarni tadqiqotga tortish shart emas degan fikrini mustahkamlaydi, takror bayon qiladi. Xususan, "Xamsa", Navoiy ta'biri bilan aytganda, hech qanday "tag'yir va tabdil"ga uchramay, mo'tabar nusxalar orqali bizga yetib kelgan. Shunday ekan, o'sha mo'tabar nusxalarning o'zi bilan ishlash ortiqcha mashaqqatlardan bizni xalos qiladi va ishonchli tanqidiy matnga ega bo'lishimizni ta'minlaydi. Ammo P. Shamsiyev: "... tekstolog olimlarning ta'kidlashiga ko'ra, tanqidiy tekst tuzishda har bir asarning o'z xususiyatidan kelib chiqish va har bir asarga yakkama-yakka ish ko'rish kerak", – deb yozadi hamda u tanqidiy matn tuzish uchun barcha nusxalarni ishga jalb etishning hojati yo'q degan fikrining faqat Navoiy "Xamsa"si uchun xosligini aniq ta'kidlaydi. Shu o'rinda olim: "... ish jarayonida ayrim so'zlarning o'qilishini aniqlashda boshqa qo'lyozmalarga, hatto toshbosma nusxalarga ham nazar solishga to'g'ri keldi", – deb qayd etadiki, bu uning "Sab'ai sayyor" tanqidiy matnini tuzish haqida maqolasida aytgan "... turli asrlarga oid ... qo'lyozmalarni va litografiya nashrlarini tekstologiya ishida asosga olib bo'lmasligini, hatto yordamchi nusxa sifatida ham foydalanish mumkin emasligiga ishonch hosil qildik" jumlasiga mantiqan zid ko'rinadi. Modomiki, ayrim so'zlarni o'qish uchun toshbosma nashrga murojaat qilinayotgan ekan, albatta, bu nusxa ham tekstologiya ishiga jalb etilgan sanaladi.

P. Shamsiyev “Hayrat ul-abror”dan avvalgi ikki tanqidiy matnni (“Farhod va Shirin” hamda “Sab’ai sayyor”ni nazarda tutmoqda – A. M.) 3 ta qadimiy qo’lyozma nusxalarni asos qilib olgani va ba’zi qo’lyozma va bosma nusxalar yolg’iz yordamchi nusxalar sifatida xizmat qilganini ta’kidlagan. Demak, P. Shamsiyev o’zi foydalangan manbalarni asosiy va yordamchi nusxalar kabi ikki guruhga ajratmoqda. Shu o’rinda qayd etish joizki, olim nima uchundir o’z yordamchi nusxalariga “yolg’iz” ta’rifini ishlatganini izohlamagan.

P. Shamsiyev quyidagi nusxalarni asosiy deb tanlab olgan:

1. Abduljamil kotib nusxasi, bu qo’lyozma A deb belgilangan.
2. Sultonali Mashhadiy qo’lyozmasi, bu nusxa S deb atalgan.

3. Kolofonsiz qo’lyozma, uni olim M harfi bilan belgilab, XVI asrga oid deb qaraydi. Avvalgi satrlarda aytib o’tganimizdek, H.Sulaymonov aynan shu nusxaga jiddiy e’tiroz qilib, uning davrini belgilashda keltirilgan asoslar yetarli emas degan. Shuningdek, yana batafsil ma’lumot bermagan holda uch litografik (toshbosma) nusxalarni yordamchi nusxa sifatida olinganligini qayd qiladi.

P. Shamsiyev “Hayrat ul-abror” tanqidiy matni uchun asos qilib olingan 6 ta nusxa haqida gapiradi, lekin L1 va L2 nusxalarni 4- va 5-nusxalar deya ta’kidlab, bu ikki qo’lyozma “Farhod va Shirin” dostonining tanqidiy matnini tayyorlashda yordamchi nusxa o’laroq qo’llanganligini ma’lum qilgan. Oltinchi nusxa esa Qozon davlat universiteti Sharq bo’limida saqlanayotgan “Xamsa” qo’lyozmasi bo’lgan.

Olim “Hayrat ul-abror” tanqidiy matnini tuzishga oid ayrim mulohazalarini so’zlab, A nusxadan yo’qolgan 9 ta varaq boshqa noma’lum kotib tomonidan to’ldirib qo’yilganligini aytadi; L1 belgisi bilan foydalangani kulliyotning 1842-yilda ko’chirilganligini tilga olib, Navoiy davriga nisbatan ancha keyin ko’chirilgani uchun ishda foydalanmasa ham bo’lardi deydi, ammo bu nusxa puxta ko’chirilgani va ayrim so’zlarning variantlari ko’rsatib ketilgani sababli ishga jalb qilganini ta’kidlaydi.

P. Shamsiyev o’zi foydalangan 6-nusxani sifat e’tibor bilan Navoiy davri, kamida XVI asrga oid deb yozadi, qo’lyozma tavsifini beradi. So’ng yuqoridagi uch nusxaga qo’shimcha bu uch nusxani ham birgalikda zikr etib, bu tadqiqotda ularga quyidagi belgilarni qo’yadi:

1. Abduljamil kotib nusxasi – A.
2. Sultonali Mashhadiy nusxasi – B.
3. XVI asrga oid Toshkent nusxa – V.

4. XIX asr Leningrad nusxasi – G.

5. Leningraddagi miniatyurali nusxasi – D.

6. Qozon Davlat universitetida 15334-raqamli yangi topilgan nusxa – Y.

G'. Shodmonov ham ta'kidlaganidek, bu o'rinda qo'lyozmalarni shartli belgilab olishda P. Shamsiyevning mezoni o'zgargan, u alifbo tartibini qo'llagan.

P. Shamsiyev tanqidiy matn tuzishda ikki asosiy masalani o'rta qo'ygan:

1. Har qanday kotib ishiga tanqidiy yondashuv, chunki har bir xattot qo'lyozmani ko'chirishda xatolikka yo'l qo'yishi mumkin, bu nuqsonlarni boshqa nusxa bilan to'ldirish tabiiy zaruratdir.

2. Imlo masalasida Alisher Navoiy davridagi yozuv qoidalarini saqlab qolish uchun Abduljamil kotib nusxasidagi imloga amal qilingan. Ammo Abduljamil kotib چ پ kabi uch nuqtali harflarni ishlatmay ular o'rniga ج ب harflarni qo'llasa, olim چ پ harflarni istifoda etgan. Shuningdek, kitobxonga o'qishni osonlashtirish maqsadida cho'zib o'qiladigan maddli so'zlardagi maddlarni tiklagan, kerakli so'zlarga tashdidlar qo'ygan.

Porsoxon Shamsiyev "Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari" nomli doktorlik ishining (1969) dastlabki bobini "Navoiy asarlarining ommaviy nashrlari va tekstologiya masalasi" deb nomlab, olim unda Navoiy asarlarining ishonchli nusxasini yaratish, nashr qilish va o'z davrigacha bo'lgan tajribalar haqida so'z yuritadi. Ushbu bobda "Mahbub ul-qulub" (1939), "Muhokamat ul-lug'atayn" (1940), "Farhod va Shirin" (1940), "Layli va Majnun" (1941), "Saddi Iskandariy" (1941), Sadridin Ayniy qisqartirib nashrga tayyorlagan "Xamsa", "Chor devon" (1940), Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan anjuman bahona tayyorlangan 4 jildidan iborat (dastlabki jildda she'rlar, ikkinchi jildda "Xamsa", uchinchi jildda "Majolis un-nafois" va "Muhokamat ul-lug'atayn", to'rtinchi jildda nasriy asarlar) Navoiy asarlari seriyasi nashrlari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari Hamid Sulaymonov to'rt kitob shaklida chop qilgan "Xazoyin ul-maoniy" (1959 – 1960) Navoiy asarlarining 7 jildlik noto'liq nashri (1948 – 1949), 15 jildlik nashri (1963 – 1968) haqida ham to'xtalib o'tgan.

Ishning ikkinchi bobi "Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish tajribalari" deb atalgan bo'lib, unda shoir asarlarining tanqidiy matnini tayyorlash borasidagi tajribalar haqida fikr yuritilgan. Olim bir qancha ishlar qatorida Suyima G'aniyeva nashr

qildirgan “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matni, o’sha davrda navoiyshunoslikka ilk qadam qo’yayotgan L.Xalilov, Y.Is’hoqov, M.Rahmatullayeva nomi va ishlarini tilga olgan. A.N.Kononov (“Mahbub ul-qulub”), M.A.Salye (“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”) kabi xorijiy olimlarning bu boradagi ishlariga tanqidiy munosabat bildirgan.

“Navoiy “Xamsa”si dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va uning prinsiplari” deb nomlangan uchinchi bobda dastavval Navoiy shaxsiyatining noyoblighi, daho sifatidagi xislatlari, “Xamsa dostonlari” tilga olinib, ularning tanqidiy matnini tayyorlash jarayoni haqida so’z yuritiladi.

Porsoxon Shamsiyev Alisher Navoiy o’zi yozgan “Xamsa” dostonlarini yaxlit asar sifatida hamisha bir muqova ostida bo’lishini istaganini, bu an’anaga shoir hayotlik chog’ida ham rioya qilganini, shu bois barcha qo’lyozma va toshbosma nusxalarda “Xamsa” yaxlit kitob shaklida uchrashini ta’kidlaydi. “Xamsa”ning tanqidiy matni ustida boshlangan ish, uning borish jarayoni to’g’risida qisqacha so’z yuritgach, o’zbek matnshunosligida uchrayotgan nuqson va kamchiliklarga e’tibor qaratadi.

Ishda “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matni amalga oshgani, “Farhod va Shirin” dostoni ilmiy tanqidiy matni bilan aloqador jarayonlar, ularda mo’tabar va qadimiy qo’lyozmalar bilan birga yordamchi nusxalarga ham murojaat qilingani tahlil qilingan.

“Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni ham tayyor bo’lgani, ammo poligrafik muammolar sababli uni chop etish mashaqqatli kechgani, “Layli va Majnun” dostonining ham ilmiy-tanqidiy matni tuzilgach, “Xamsa”ni 1959 – 1960-yildagi kabi qayta chop etish mumkinligi, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda asarning eng qadimiy nusxasiga yondashish haqiqatga muvofiq bo’lishi ta’kidlangan.

Ilmiy ishda Navoiy “Xamsa”sining qadimiy qo’lyozmasi kotibi Abduljamil kotib va Sulton Ali tarjimayi holiga doir ma’lumotlar ham berilgan. Qo’lyozma matnlarni qiyoslash jarayonida ulardagi farqlarni belgilash uchun qo’llanilgan shartli belgilar, qo’lyozmalarning shartli nomlanishlari bilan bog’liq muhim ma’lumotlar taqdim etilgan. Aynan mazkur doktorlik dissertatsiyasida “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”, “Layli va “Majnun”, “Sab’ai sayyor” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari ilova sifatida berilgan.

Xulosa

H. Sulaymonov hamda P. Shamsiyevlarning Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnlarini yaratishga doir tadqiqotlarini qiyosiy-tahliliy o'rganib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. H. Sulaymonov va P. Shamsiyev tanqidiy matn yaratish borasida navoiyshunoslikda o'ziga xos maktab yaratgan, fundamental va juz'iy masalalarda farqli va umumiy qarashlarga ega bo'lgan yirik olimlardan hisoblanadi. Xususan, tanqidiy matn tuzish uchun H. Sulaymonov barcha nusxalarni qiyosiy o'rganish shartini qo'ysa, P. Shamsiyev bu ishni zarur emas deb hisoblagan. "Sab'ai sayyor"ning nomlanishi haqida ham ikki olim o'zaro qarama-qarshi fikrlarni bayon qilganlar.

2. H. Sulaymonov o'z faoliyatini Alisher Navoiy lirikasining matniy tadqiqotiga bag'ishlagan bo'lsa, P. Shamsiyev "Xamsa"ning tanqidiy matnlarini yaratishga bag'ishladi. "Xazoyin ul-maoniy" va "Xamsa" Alisher Navoiy ijodiy merosining ikki qanoti ekanligini hisobga olsak, ikkala olim ham ilmga ulkan hissa qo'shishni maqsad qilib, adabiyotshunoslikdagi eng muhim vazifalarni bajarishga bel bog'laganlarini ilg'ash qiyin emas.

3. H. Sulaymonov ham, P. Shamsiyev ham o'z ilmiy tadqiqotlarida o'zlarigacha bo'lgan matnshunoslik ishlarini atroflicha o'rganib, munosabat bildirganlar. Bu munosabatlarning aksari tanqidiy ruhda bo'lib, ikki matnshunos ham sohada yo'l qo'yilgan nuqson va xatoliklarni ilmiy asoslarda bartaraf qilish shartligini ta'kidlagan. Eng ahamiyatli jihati, ular tahliliy yondashgan barcha nashr ishlari bir xil va xulosalari ham asosli e'tiroz va e'tiroflarga asoslangan.

4. H. Sulaymonov hamda P. Shamsiyevar ilmiy tadqiqotlari o'qildizi sanalgan "Xazoyin ul-maoniy" va "Xamsa"ning to'laqonli, imkon qadar xatolardan xoli, ishonchli tanqidiy matnini tayyorlab, chop qilishni rejalashtirgan edilar. H. Sulaymonov "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashrini amalga oshirdi, "G'aroyib us-sig'ar"ning tanqidiy matnini tuzishga muvaffaq bo'ldi, ammo hayotlik chog'ida chop etishga ulgurmasi (keyinchalik professor H. Boltaboyev tanqidiy matnning faksimil nashrini cheklangan adadda taqdim qildi); P. Shamsiyev "Xamsa"ning bir muqova ostida to'liq shaklda chop qildi, o'zining ta'biri bilan aytganda, bu nashrda bir qancha nuqsonlari bor edi; u "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor"ning tanqidiy matnlarini e'lon qildi, dastavval "Sab'ai sayyor"ning tanqidiy matnini tayyorlagan bo'lsa, keyingi ishlarida tanqidiy matn tuzish, nusxalar bilan ishlash prinsiplarini

mukammallashtirib bordi; “Layli va Majnun” hamda “Saddi Iskandariy”larning tanqidiy matnlarini yakunlagan bo’lsa-da, chop etish nasib etmadi.

5. H. Sulaymonov va P. Shamsiyevning tadqiqotlari bugungi tadqiqotchilarga ham o’z mavzulari doirasidagi barcha ishlarni sinchkov va talabchan o’rganish borasida o’rnak bo’la oladi. Shuningdek, ularning izlanishlari, ilmiy merosi navoiyshunoslikning istiqboldagi muhim vazifalarini belgilashda yordam beradi. Xususan, navoiyshunoslik fani ilmiy asoslar bilan maydonga kelganiga bir asrdan oshib borsa-da, hamon shoir asarlarining to’liq tanqidiy matnlari ishlab chiqilmagan. P. Shamsiyev har bir nusxaga tanqidiy qarash haqida qayta va qayta ta’kidlab yozganidek, yosh matnshunoslar H. Sulaymonov va P. Shamsiyevlar tuzgan tanqidiy matnlarni diqqat bilan o’rganishlari, bu ishlarga bildirilgan munosabatlarni tahlil qilishlari, aniq xulosalarga kelishlari kerak. “Xazoyin ul-maoniy” va “Xamsa”ning tanqidiy matnlarini “Navoiy yozgan alifboda” (P. Shamsiyev ta’biri) zamonaviy imkoniyatlardan foydalanganholda chop etish va ilmiy jamoatchilikka taqdim etish davr talabiga aylandi. Shu choqqacha navoiyshunoslik tadqiqotlarining aksari akademik nashrlarga (asosan, Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlari to’plami hamda o’n jildlik to’la asarlari to’plami) asoslangan holda olib borilayotgan edi. Nafaqat “Xazoyin ul-maoniy” va “Xamsa”, balki “Mezon ul-avzon” (I. Sulton), “Mahbub ul-qulub” (Kononov) “Majolis un-nafois” (S.G’aniyeva), “Lison ut-tayr” (Sh. Eshonxo’jayev), “Tarixi muluki ajam” (L. Xalilov), “Muhokamat ul-lug’atayn” (Y. Tursunov), “Nasoyim ul-muhabbat” (H. Islomov), “Nazm ul-javohir” (M. Rashidova), “Xamsat ul-mutahayyirin” (O. Alimov)larning tanqidiy matnlarini tanqidiy nazar bilan tahlildan o’tkazish, ilmiy baholash, kamchiliklari bo’lsa, aniqlash zarurati sezilsa, to’g’irlab chop qilish; bu va Navoiyning boshqa asarlarining tanqidiy matnlari ustida ish olib borib, natijaga erishish kechiktirib bo’lmaydigan vazifaga aylangan.

Navoiyshunoslikda tanqidiy matn tuzish prinsiplari qo’lyozmalarning qadimiy nusxasini aniqlash, ularni o’zaro qiyoslash, farqlarini belgilash doirasida cheklanib qolgan. Bu prinsiplarga yangi bir usuliy qoida bilan yondashish davri ham yetib keldi degan fikrdamiz. Ya’ni o’zbek matnshunosligiga kontekst istilohini joriy qilish, uning mohiyati haqida, ilmiy asoslari to’g’risida ham izlanish olib borishga katta zarurat bor. Kontekst “butun” ma’nosiga yaqin mazmunni ifodalab, muayyan asar yoki uning parchasi kontekstga nisbatan “qism” deb olinadi. Tanqidiy matn

tuzishda tanlab olingan asar mazmuni kontekst deb qabul qilinadi, parchalari esa uning uzviy bo'laklari sifatida ko'rib, so'zlarni to'g'ri o'qish, ularning matndagi o'rnini to'g'ri belgilashda mana shu jihat asosiy o'ringa ko'tariladi. O'qilishi qiyin bo'layotgan so'z yoki parcha kontekstning umumiy g'oyasiga zid bo'lmasligi lozim. Matnning murakkablik tug'dirgan qismlari faqat yordamchi nusxalar vositasida emas, balki shu matnning boshqa o'rinlaridagi ma'nolarga muvofiq aniqlanishi H. Sulaymonov hamda P. Shamsiyevlar ta'kidlagan "avtograf nusxaga" yoki "haqiqiy matnga" yaqinlashtiradi. Bu esa tadqiqotimizning keyingi bosqichlaridagi asosiy muammodir.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1956. *Сабъаи сайёр*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
- Алишер Навоий. 1963. *Фарҳод ва Ширин*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
- Алишер Навоий. 1970. *Ҳайрат ул-аброр*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
- Алишер Навоий. 2012. *Ғаройиб ус-сиғар (Танқидий матн, факсемил нашр)*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Алишер Навоий. 2021. *Муҳокамат ул-луғатайн*. Илмий танқидий матн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: Юсуф Турсунов. Тошкент: ЎзРФА "Фан" нашриёти давлат корхонаси.
- Винокур, Г. 1927. *Критика поэтического текста*. Москва.
- Жабборов, Нурбой. 2020. *Матн тарихини ўрганишнинг муқобала услуби. "Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари"* мавзuidaги Республика II илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: "Фан".
- Жабборов, Нурбой. 2019. *Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари)*. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Лихачев Д. 1962. *Текстология. На материале русской литературы X – XVII вв.* М. – Л.
- Намозова, Зилола. 2020. *Навоий лирикаси матншунослиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида)*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... Тошкент.
- Сирожиддинов, Шухрат. *Матншунослик сабоқлари*. 2019. Тошкент: "Navoiy universiteti" нашриёт-матбаа уйи.
- Сирожиддинов, Шухрат & Умарова, Соҳиба. 2015. *Ўзбек матншунослиги қирралари*. Тошкент: Akademnashr.
- Сирожиддинов, Шухрат. 2011. *Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-*

- типологик, текстологик таҳлили. Тошкент: Akademnashr.
- Сулаймонов, Ҳамид. 1955 – 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишер Навои* (Алишер Навоий лирикасининг матншунослик тадқиқоти). Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Москва.
- Шамсиев, Порсохон. 1952. *Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тести ва уни тузиш принциплари ҳақида*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Шамсиев, Порсохон. 1969. *Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.
- Шодмонов, Ғиёсиддин. 2021. *Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... Тошкент.

The study of Alisher Navoy's works textual criticism of the 20th century: the experience of Hamid Sulaymonov and Porso Shamsiev

Akrom Malikov¹

Abstract

Uzbek textual criticism has accumulated extensive experience in creating scientific and critical texts of Alisher Navoi's works. Initial textual studies were carried out by such scientists as S. Mutalibov, G. Karimov, I. Sultan, Kh. Sulaimanov, P. Shamsiev, S. Ganieva. This article comparatively studies the scientific methods, principles and approaches of Kh. Suleymanov and P. Shamsiev when compiling the text and draws conclusions. Also at the end of the article, the problem of context when composing a scientific-critical text is mentioned.

Key words: *text, textual research, critical text, textual research, manuscript, context.*

¹ Akrom A. Malikov – doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: akrommalik@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9515-439X

For citation: Malikov, A.M. 2024. "The study of Alisher Navoy's works textual criticism of the 20th century: the experience of Hamid Sulaymonov and Porso Shamsiev". *Golden Scripts* 2: 60 – 88.

References

- Alisher Navoiy. 1956. *Sabai sayyor*. Ilmij-tankidij matn. Nashrga tajjorlovchi: P. Shamsiyev. Toshkent: UzSSR FA nashrijoti.
- Alisher Navoiy. 1963. *Farhod va Shirin*. Ilmij-tankidij matn. Nashrga tajjorlovchi: P. Shamsiyev. Toshkent: UzSSR FA nashrijoti.
- Alisher Navoiy. 1970. *Hajrat ul-abror*. Ilmij-tankidij matn. Nashrga tajjorlovchi: P. Shamsiyev. Toshkent: UzSSR FA nashrijoti.
- Alisher Navoiy. 2012. *Gharojib us-sighar* (Tankidij matn, faksemil nashr). Toshkent: Mumtoz suz.
- Alisher Navoiy. 2021. *Muhokamat ul-lughatajn*. Ilmij tankidij matn. Tuzuvchi va nashrga tajjorlovchi: Jusuf Tursunov. Toshkent: UzRFA "Fan" nashrijoti davlat korhonasi.
- Vinokur, G. 1927. *Kritika poeticheskogo teksta*. Moskva.
- Jabborov, Nurboy 2020. *Matn tarihini urganishning mukobala uslubi*. "Uzbek mumtoz adabijotini urganishning nazariy va manbaviy asoslari" mavzuidagi Respublika II ilmij-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent: "Fan".
- Jabborov, Nurboy. 2019. *Uzbek matnshunosligi va unda matn tankidi, ilmij-tankidij matn istilohlarining urni // Uzbek mumtoz adabijotini urganishning nazariy va manbaviy asoslari* (Respublika ilmij-amaliy konferentsijasi materiallari). Toshkent: Mumtoz suz.
- Lihachev D. 1962. *Tekstologiya. Na materiale russkoj literaturji X – XVII vv.* M. – L.
- Namozova, Zilola. 2020. *Navoiy lirikasi matnshunosligi tadmiki tadrizhi (Hamid Sulajmon ilmij faolijati asosida)*. Filologiya fanlari bujicha falsafa doktori (PhD) diss... Toshkent.
- Sirozhiddinov, Shuhrat. *Matnshunoslik saboklari*. 2019. Toshkent: "Navoiy universiteti" nashrijot-matbaa uji.
- Sirozhiddinov, Shuhrat & Umarova, Sohiba. 2015. *Uzbek matnshunosligi kirralari*. Toshkent: Akademnashr.
- Sirozhiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarining kijosij-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.
- Sulajmonov, Hamid. 1955 – 1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alisher Navoi (Alisher Navoiy lirikasining matnshunoslik tadmikoti)*. Filologiya fanlari doktori ilmij darazhasini olish uchun jozilgan diss... Moskva.
- Shamsiyev, Porso. 1952. *Alisher Navoiy "Sabai sayyor" dostonining ilmij-kritik teksti va uni tuzish printsiplari hakida*. Filologiya fanlari nomzodi ilmij darazhasini olish uchun jozilgan diss... Toshkent.
- Shamsiyev, Porso. 1969. *Navoiy asarlari matnlarini urganishning bazi masalalari*. Filologiya fanlari doktori ilmij darazhasini olish uchun jozilgan diss... Toshkent.
- Shodmonov, Ghijosiddin. 2021. *Porso Shamsiyev ilmij laboratorijasi: tadmik usullari, tamojillari, matnshunoslik tarakkijotidagi urni*. Filologiya fanlari bujicha falsafa doktori (PhD) diss... Toshkent.

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

Sharq mumtoz adabiyotida faxriya

Dilnavoz Yusupova¹
Umedullo Mahmudov²

Abstrakt

Mazkur maqola Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodida o'ziga xos o'rin egallagan faxriya adabiy hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada faxriyaning Sharq adabiyoti, xususan, mumtoz arab va fors adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, faxriyaning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari xususida ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, faxriyaning sharq adabiyotidagi tasnifi va unga oid bo'lgan qarashlar ilmiy tahlilga tortilib, masala yuzasidan xulosalar taqdim etiladi. Maqolada faxriyaning Sharq adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyati xususidagi faktlar al-Mutannabiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy hamda Alisher Navoiy ijodi misolida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *faxriya, Sharq adabiyoti, janr, badiiy san'at, al-Mutannabiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, lison ul-arab.*

Kirish

Faxriya arab, fors va turkiy she'riyatda keng tarqalgan adabiy hodisalardan biri bo'lib, shoir tomonidan o'z ijodi va iste'dodidan faxrlanib aytgan so'zlari aks etgan she'riy parcha yoki alohida she'r turidir. Agar mo'tabar lug'atlarga murojaat qilinadigan bo'lsa, faxriya yoki mafoxira (ar.) – maqtanmoq, faxrlanmoq shuningdek, o'z ulug'ligini bildirish, o'zi bilan maqtanish degan ma'nolarda keladi [vajehyab.com]. Faxriya kichik lirik she'r, masalan

¹ Yusupova Dilnavoz Rahmonovna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

² Mahmudov Umedullo Akmaliddin o'g'li – filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti.

E-pochta: Umedullo.mahmudov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4309-6503

Iqtibos uchun: Yusupova, D. R., Mahmudov, U. A. 2024. "Sharq mumtoz adabiyotida faxriya". *Oltin bitiglar* 2: 89 – 102.

g'azallarda bir baytdan, katta hajmli asarlar: qasida va dostonlarda esa bir necha baytdan iborat bo'lishi mumkin. Ana shunday baytlar ishtirok etgan yoki butunlay shunday baytlardan iborat bo'lgan asarlar *g'azali faxriya*, *qasidai faxriya* deb ham nomlanadi. Faxriyaga ba'zi manbalarda janr, ba'zilarida esa she'riy san'at sifatida qarash bor. Agar faxriya turli janrdagi she'rlar ichida voqe' bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinsa, uni *husni ibtido*, *husni matlab* kabi ma'naviy san'atlar qatoriga qo'shish to'g'riroq bo'ladi [Adabiyotshunoslik lug'ati 2010, 342-243].

Faxriyada shoir o'z ijodini boshqa bir shoir ijodiga, muhim bir voqea-hodisa yoki obyektga kamtarona, mubolag'ali yoki kinoyaviy tarzda taqqoslaydi, qiyoslaydi. Macalan, mavlono Lutfiy o'z she'rining temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bek tomonidan e'tirof etilganini ta'kidlab, uning she'rlari forsiy ijodkor Salmon Sovajiynikidan qolishmasligini faxriya tarzida shunday yozadi:

Ulug'bekxon bilur Lutfiy kalomin

Ki, rangin she'ri Salmondin qolishmas [Lutfiy 2012, 123].

Yoki Alisher Navoiy o'z g'azallaridan birida nazmdagi muvaffaqiyatlaridan faxrlanib, so'z o'yini vositasida "agar Navoiyning she'rlarini Sakkokiy o'qiganida, xijolat tortganidan o'zini o'ldirishga pichoq topa olmagan bo'lardi" deb yozadi:

Navoiy nazm aro tig'i zabonin o'yla surdiki,

Pichoq topmas uyottin o'zni o'ldurmoqqa Sakkokiy

[Navoiy 1989, 356].

Faxriyaning tarixiga doir

Sharq xalqlari adabiyoti o'zining rang-barangligi, mavzu ko'lamining kengligi va yo'nalish hamda uslublarning betakrorligi bilan jahon adabiyotida o'ziga xos alohida o'ringa ega. Bunda mumtoz davr namoyandalari, donishmandlar qalamiga mansub asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' donishmand, shoir va mutafakkirlar tomonidan sab etilgan, sharq xalqlarining o'lmas xazinasiga aylangan bunday asarlar bilan nafaqat kelgusi avlodlar, balki mualliflarning o'zlari ham faxrlanishga haqli ekanliklarini qayd etmoq joiz.

Adabiyot tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, Sharq xalqlari adabiyotida she'rda faxrlanish holati ilk bor arab adabiyotida kuzatiladi. Bu borada arabistonlik taniqli adabiyotshunos Hanna al-Foxuriyning fikrlari o'rinli ekanligini qayd etmoq joiz: "Mafoxira – bu o'z fazilatlarini sanash qatorida yomon odatlarni isloh etishdir [İbn Manzûr 1968, 5]. Umuman olganda, bu yo'nalish

mumtoz arab she'riyatida keng tarqalgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, she'riyatdagi faxriyaning ham bir necha ko'rinishi mavjud, jumladan, o'z-o'zini maqtash, ba'zan kalondimog'lik, siyosiy va mazhabiy faxriyalarni qayd etish o'rinlidir" [vajehyab.com].

Ibn Manzurning "Lison ul-arab" nomli qomusiy asarida yozilishicha, "faxr – bu qadimgilarning g'urur va shon-sharafni da'vo qilib, o'z fazilatleri, mag'rurligi va ulug'vorligini maqtashga bag'ishlangan san'atdir" [عزیز الله توکلی 1394, ۸۴].

Odatda faxriya qasidaning madhdan keyingi qismi sifatida kelsa-da, ba'zi o'rinlarda uning she'rning boshqa qismlarida, ba'zan alohida baytlar holida ham uchrashi kuzatiladi. Mumtoz arab adabiyotida paydo bo'lgan ilk nazmiy asar – qasidalarda insoniy fazilatleri qayd etgan holda uning yaratilmish boshqa mavjudotlardan aql, iffat, adolat va qahramonlik kabi sifatler bilan ajralib turishini faxr bilan aytish qabul qilingan. Ammo faxrning muayyan shaxs yoki muallifga qaratilishi yaxshi belgi sifatida tilga olinmagan [عزیز الله توکلی 1394, 135]. Shuni ham ta'kidlash kerakki, agar faxr haqqoniy va dalil-asoslarga ega bo'lsa, unga e'tirozlar nisbatan kam kuzatiladi. Bu borada asl millati yahudiylardan bo'lgan arab shoiri Samuel al-Yazdiy (vaf. mil.av. 560)ning ijodiga taalluqli qasidalarni keltirish mumkin. Keyinchalik, vaziyat o'zgarib, shoirlar o'z qabilalari, avlodlarining sha'nini turli da'vo va janglarda himoya qilish uchun faxriyalarga murojaat qilganlar [Ibn Manzûr 1968, 5]. Qavm va xalqlar o'rtasida kechgan katta urushlarda muayyan qavm, sulola va hatto hukumatlarning vakillari sifatida shoirlar maydonga chiqib, o'z qavmi, millati yoki mamlakatini faxr bilan maqtab, ba'zi o'rinlarda g'alabaning ta'minlanishida muhim rol o'ynaganlar [عزیز الله توکلی 1394, 136]. Bundan tashqari, faxriyalardan ba'zan o'zaro tortishuvlarda qarshi tomonning aqlini kiritib qo'yishda foydalanilgan. Bunda muallif o'z xislatlerini bayon etish barobarida, qarshi tomonning nuqsonlarını ochiq-oshkor aytib o'tadi. She'rning bu shaklini mafoxira ham deyilar [مهدی فیاض و دیگران 1398, 233]. Shuningdek, she'riyatda o'tmishdagi bo'lgan buyuk ishlar va voqea-hodisalar, xalq qahramonlarining fazilatleri, amalga oshirgan qahramonliklerini tarixga muhrlash, ajdodlar davrida bunyod etilgan tarixiy obida va binolar xususidagi ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazish vositasi sifatida ham faxriyalardan foydalanilgan va shu davrdan e'tiboran faxriyalarga nazmda keng o'rin ajratila boshlangan. Biz mumtoz arab adabiyotida faxriyaning eng go'zal va mumtoz ko'rinishlerini shoir Abu-t-Toyyib Ahmad ibn al-Husayn al-Mutanabbi ijodida kuzatishimiz mumkin. Uning quyidagi so'zlari

fikrimizga dalil bo'la oladi:

انا الثريا، وذان الشيب والهزم

ما ابعد العيب والتقصان عن شرفى

Ma'nosi:

Bu qadar ayb-u nuqson mening pok sharaflı manzilimdan yiroqdir, men misli Surayyo yulduzidek baland martabaliman, kamchilig-u qarilik iztiroblari va nuqsonlari bilan mening o'rtamda katta masofa bor... [ابوالطيب، 1934, V3; 371].

Mutanabbiy biror she'rida, biror o'rinda o'zi haqidagi faxriyani keltirmay o'tmaydi. U she'rlarida yuqori martabalikka, ulug'lik va buyuklikka da'vo qiladi. Yuqorida aytilganidek, Mutanabbiy o'zining fazilat va sifatlarini nazmda turli badiiy san'atlardan foydalangan holda mumtoz tarzda bayon etarkan, o'z shijoati, g'ayrati, nozik tab'ligini fasih kalomlar bilan ma'lum qiladi:

و لكن معدن الذهب الرغام

و ما انا منهم بالعيش منهم

Ma'nosi:

Garchi ularning (davrdoshlari, o'z davrining odamlari) orasida bo'lsam-da, ulardan biri emasman (bu maqtangulik emas), chunki oltin ham tuproq orasida bo'ladi [ابوالطيب، 1934, V4: 17].

Shoir she'rlaridan yana birida quyidagicha faxrlanadi:

وة فى كل مليحة ضرّاتها

و ترى الفتوة والمرّوه و لا بو

فى خلوتى لا خوف من تبعاتها

هن الثلاث المانعائى لذتى

Ma'nosi:

Jasurligim va mardligim, haddan ziyod yaxshiligim, meni yomonlik va nopisand razilliklar qilishimdan qaytarib turadi, ammo men o'sha yomon ishlarning oqibatidan sira cho'chimayman [المتنبى، 1934, V1; 227].

Shoir yuqoridagi misralarda o'zining haddan ziyod yaxshi sifatlar egasi ekanligiga urg'u berarkan, qo'lidan yomonliklar ham kelishi, ammo yomonliklarning oqibatidan sira cho'chimasligini ta'kidlaydi. Quyidagi misralarda esa o'zining urushqoqligi haqida xabar berib, qilich yalang'ochlovchilar jumlasidan ekanligi bilan bir qatorda, qo'lida ilm va qalam kabi qurollari borligini ham aytib o'tadi. Jazirama biyobonlar, uchqur otlar va uzun tunlar uni yaxshi tanishlarini fasohat bilan bayon etadi:

والسيف والرمح والقرطاس والقلم

الجبلى والليل والالبيداء تعرفنى

Ma'nosi:

Uchqur otlar va uzun tunlar hamda jazirama sahrolar shuningdek, nayzalar-u, qilich, qog'oz va qalam meni juda yaxshi taniydilar... [ابوالطيب، 1934, V3; 396].

Shuningdek, Mutanabbiy Sayf ud-Davla madhida yozgan

qasidasida o'zga shoirlar faqat shoirlikni da'vo qilishlari, ammo bu da'volar puch bo'lib, tanho uning o'zi "shoiri davron" ekanligini quyidagicha bayon etadi:

خليلي اني ازي غير شاعر فلم منهم الدعوى و مني القصائد

Ma'nosi:

Do'stlar! Men o'zimdanda o'zga shoirni ko'rmayapman. Agar unday bo'lmasa, nega unda ularda (shoirlikka) kuchli da'vo, menda esa ajib va sara she'rlar bor?! [ابن تمل، 1934, V1; 271].

Mutanabbiy o'z she'rlarini qimmatbaho durr-u gavhar deb biladi va shu sababli ularni munosib va sharaflari odam – Sayf ud-Davlaga hadya o'laroq, taqdim etadi.

لك الحمد في الدرّ الذي لفظه فانك معطيه واني ناظم

Ma'nosi:

Go'zal alfozi meniki bo'lgan bu go'zal durr-u gavhar sening maqtoving va sharafingdir. Sen menga ushbu go'zal marvaridlarni hadya etar ekansan, men ularni bir rishtaga tizib chiqaman [المتنبى، 1934, V3; 391].

Fors mumtoz adabiyotida faxriya

Mumtoz arab adabiyoti an'analari asosida sayqal topgan faxriyanavislik keyinchalik fors adabiyotiga ko'chib, betakror nazm uslubining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Mumtoz fors adabiyotining namoyandalari ham o'z o'rnida yashagan davri, o'z mamlakatlari, sulola vakillari va podshohlar, ular bino qilgan me'moriy obidalar, ularning shaxsiy fazilatlar va insoniy sifatlar bilan she'rda g'ururlanadigan, ba'zan o'zlari yaratgan irod namunalari bilan faxrlanadigan bo'ldilar. Fikrimizning dalili sifatida Rudakiy, Firdavsiy, Hoqoniy Shirvoniy, Hofiz Sheroziy, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy kabi shoir va mutafakkirlarning turli yo'nalishlarda irod etgan faxriyalarini keltirish mumkin.

Jumladan, Abulqosim Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma"sida fors tiliga qayta jon bag'ishlagani, uzoq yillar davomida ranj chekkanini qayd etib, quyidagi satrlarni faxriya sifatida yaratgan.

بسي رنج بردم بدین سال سي عجم زنده كردم بدین پارسي

Ma'nosi:

Men 30 yil davomida ranj chekib, ajam xalqlarining porsiy (forsiy) tilini qayta jonlantirdim [ganjoor.net].

Firdavsiy yana bir o'rinda faxriyaning betakror va mumtoz namunasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bunda shoir obod binolar

kuni kelib xarobaga aylanishi, unga quyosh nurlari-yu yomg'ir suvlari ta'sir etishi haqida fikr yuritib, o'zining oftob-u yomg'irga chidamli, sira xarob bo'lmaydigan saroy yaratgani xususida faxrlanadi:

بناهای آباد گردد خراب،
ز باران و از تابش آفتاب.
پی افکندم از نظم کاخی بلند
که از باد و باران نیابد گزند.

Ma'nosi:

Obod binolar yomg'ir suvlari-yu quyosh nurlari ta'sirida bir kun xarobaga aylanadi. Men esa nazmda na yomg'ir suvi, na da oftob nuri ta'sir o'tkazadigan, hech ham xarobaga aylanmaydigan saroy qurdim [ganjoor.net].


Bundan tashqari, Hofiz ijodida ham faxriyalarning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Hofiz Sheroziy o'z she'rlarini madh etar ekan, uning ta'sirida kashmirliklar va turklar raqsga tushadilar deydi:

به شعر حافظ شیراز می رقصند و می نازند
سیه چشمان کشمیری و ترکان سمرقندی

Ma'nosi:

Hofiz She'roziyning she'rlariga berilib, kashmirlik qora ko'zlar va samarqandlik turklar nozlanib, raqsga tushadilar [ganjoor.net].

Eronlik olimlarning mavzu doirasida amalga oshirgan bir talay tadqiqotlarida faxriyaning turli ko'rinishlari tasnif va talqin qilingan. Jumladan, Said Shafi'unning "Fors adabiyotida faxriya (Faxriyaning shakli, turlari va tipologiyasiga oid) nomli maqolasida quyidagi tasnif kuzatiladi [سعید شفیعیون 1400; 22].



Yuqorida keltirilgan tasnifga ko'ra, an'anaviy faxriyalarning

bosh mavzusi shoirlikdan faxr tuyish, oshiqlikdan faxrlanish bo'lsa, noan'anaviy faxriyalarda faqirlik, zohid va qalandarlik, xokсорlik bilan faxrlanish asosiy mazmunni tashkil etadi. Mustaqil va ichki turkumdagi faxriyalarda esa badiiy san'atlar qo'llangan faxriyalar va aralash mazmun kasb etgan faxriyalar kuzatiladi. Qiziqarli jihati shundaki, faxriyalar haqida so'z ketganda ularning salbiy ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ular mafoxira hamda manofiralar misolida kuzatiladi. Mafoxirada muallif qarama-qarshi tomonning yomon sifat va odatlarini tanqid ostiga olib, o'zining afzal sifat va fazilatlarini bilan maqtansa, manofirada qarama-qarshi tomonning nafrat uyg'otadigan salbiy xarakterlari ko'rsatib o'tiladi. Bu turdagi faxriyalarni yuqoridagi tasnifning *g'oyib* va *hozir* degan qismlarida mushohada etish mumkin. Shuningdek, bevosita hamda bilvosita faxriyalarning o'z tilidan faxrlanish, nazirago'ylik hamda hajviya kabi ko'rinishlari mavjudligini ta'kidlab o'tmoq joiz.

Alisher Navoiy ijodida faxriya

Barcha Sharq mutafakkirlari ijodida bo'lgani kabi Alisher Navoiy ijodida ham faxriya hodisasi alohida o'rin egallaydi. Uning faxriyalari bir baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lib, ular shoirning turli janrdagi asarlari: g'azallari, qit'alari, dostonlari tarkibidan o'rin olgan. Shoir faxriyalarini mavzu ko'lamiga ko'ra, shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) favqulodda iste'dod sohibi ekanligini bayon qilish;
- 2) ustozlarini ulug'lash asnosida o'zining ularga munosib shogird ekanligini ta'kidlash;
- 3) o'z ijodini boshqa shoirlar bilan qiyoslash;
- 4) turli janrdagi she'rlari va ularning badiiyati bilan bog'liq qarashlar;
- 5) o'z asarlarining shuhratidan iftixor tuyg'ulari.

Muhimi shundaki, Alisher Navoiy faxriyalari shunchaki o'zidan faxrlanish bo'lmay, shoirning badiiy olamiga kirish yo'lidagi o'ziga xos ochqichlardir. Chunki ularda u o'zining iste'dodi, salohiyati, mahorat qirralarini ochibgina qolmay, asarlarining janriy tarkibi, mavzu ko'lamini va obrazlar olami, badiiy yuksakligi, salmog'i va ahamiyati haqida ham fikr yuritadi. Ayni jihatda, uni o'z ijodining ilk tadqiqotchisi deyish mumkin [Navoiy 2000, 77]. Shuni ta'kidlash lozimki, Navoiyning faxriya hodisasi aks etgan qaysi asari bo'lmasin, barchasida shoir islomiy e'tiqod nuqtayi nazaridan fikr yuritadi, o'z iste'dodining Alloh tomonidan berilgan nihoyasiz lutf, inoyat ekanligiga urg'u qaratadi.

Masalan, “Saddi Iskandariy” dostonining 8-bobi «Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta’rifida» deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo’lsa, uning hamma ishida zafar bo’ladi, tikan ushlasa, g’uncha, tuproq olsa, oltin bo’ladi, bularning barchasi Alloh taoloning inoyatidandir, shunday ekan, unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirar ekan, Alloh unga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun Unga shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

*G’azal tarzig’a avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug’ rustaxez.
O’qur vaqti ahli salomat muni
Ko’rub olam ichra qiyomat kuni...
Har asnofi zikri emas sha’nima,
Bilur har kishi boqsa devonima [Navoiy 1993, 55].*

Yoki Said Hasan Ardasheriga yozgan masnaviy maktubida nazmda qobiliyat jihatidan Nizomiyga teng ekanligini, Tangri taolo unga lutf ko’rsatib, nihoyasiz she’riy quvvat ato etayotganini, Firdavsiy va Nizomiylar 30 yil vaqt sarflab yozgan “Shohnoma”-yu “Xamsa”ni 30 oyda yoza olishga o’zida kuch sezayotganini bayon qiladi:

*Falak ko’rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire...
Yetar Tengridin oncha quvvat manga,
Ki bo’lmas bitiriga fursat manga...
Ne “Shahnoma”kim, “Xamsa”g’a ursam el,
Aning panjasi sori yetkursam el.
O’tuz yilki oni Nizomiy demish,
Qoshimda erur ikki-uch yillik ish... [Navoiy 1988, 529].*

Ta’kidlash joizki, shoir faxriyalarida iftixor tuyg’usi sharqona odob doirasida ifodalanadi. Navoiy “Xamsa” takmilida salaflarini tilga olar ekan, ularga minnatdorlik hislarini izhor etadi, beshlikni yozishda boshdan-oyoq ulardan ma’naviy madad olganini, erishgan natijalarida ularning alohida hissalarini borligini aytib o’tadi:

*Burundin chu ko’rguzdunguz yorliq,
Base yetti sizdin madadkorliq.
Kichik erkanimdin bo’lub qoshima,
Ulug’ muddao soldingiz boshima.
Chu ollimg’a kelgan biyik tog’ edi,*

*Toshi itig-u yo'li bo'rtog' edi.
Bu bo'rtog'liq birla yuz pech anga,
Chiqa olmag'udek kishi hech anga.
Chiqar yo'lida to'rt oromgoh,
Beshinchisi maqsad biloishtiboh.
Har oromgohida yuz nav' ranj,
Vale tutqach orom zimnida ganj.
Anga chiqmoq o'lmay kishining ishi,
Magarkim chiqib bir, iki, uch kishi.
Manga chunki sizdin madad bor edi,
Ne sizdinki, Tengri madadkor edi [Navoiy 1993, 55].*

Navoiy ijodida faxriyaning muqoyasa usuli, ya'ni o'z ijodini boshqa shoirlar ijodi bilan qiyoslash yo'nalishi alohida o'rin egallaydi. Biz buni ulug' mutafakkirning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida kuzatishimiz mumkin. Shoir ayrim badiiy san'atlarga izoh berish asnosida o'z ijodini muayyan tarzda forsigo'y ijodkorlar she'rlari bilan qiyoslaydi. Masalan, tarsi' san'ati haqida fikr yuritarkan, shunday yozadi: «Tarsi' san'atikim, matla'dan o'zga baytda bo'la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matla'yi rostdur, ammo asli matla'da avvalgi misraning bir lafzida takalluf qilibdur va matla'yi budurkim, bayt:

*Safoi safvati ro'yat birext obi bahor,
Havoyi jannati ko'yat bibext mushki tator [Navoiy 2000, 32].*

(Mazmuni: Pokiza yuzingning sofligi bahor suvini to'kdi. Jannatdek manzilingning havosi xushbo'y hid taratdi).

Navoiy bu o'rinda forsigo'y adib Salmon Sovajiy (1310 – 1376)-ning qasidasi haqida fikr yuritib, uning matla'sida *tarsi'* san'ati bilan bog'liq asosiy mezon, ya'ni ikki misradagi barcha so'zlarning o'zaro ohangdosh bo'lish qoidasi bir juftlikda (obi – mushki) buzilganligini ta'kidlaydi. Fikrini davom ettirarkan, ushbu matla'ga javob yozgan aksar shoirlar muddaoga erisha olmay pand yozganlarini, o'zi esa unga javobiya tarzida quyidagi baytni bitganligini faxriya tarzida shunday bayon qiladi:

«Bu matla'ga tatabbu' qilg'on ko'p suxanvarlar va nazm-gustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar. Bu faqirning matla'yi budurki, bayt:

*Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor*

(Mazmuni: Bahor faslining shamoli bo'ston uzra shunday esdiki, undan oshiq'larga nigor (sevikli yor) vaslining xush isi

yetishdi).

Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matla' tarsi'ga voqe' bo'lur, aybdin muarro va murassa'g'a kelur, e'tirozdin mubarrodur» [Navoiy 2000, 32].

Darhaqiqat, ushbu baytdagi so'zlar raviy va ohangdoshlik nuqtayi nazaridan o'rganib chiqilsa, ulardagi barcha so'zlarning o'zaro mos ekanligini kuzatish mumkin. Navoiy, shuningdek, tarsi' san'ati asosida arab va forsiy she'riyatda ungacha hech kim ruboiy janrida she'r bitmaganligini ta'kidlar ekan, shunday yozadi:

“Bu nav' she'rning ta'kid va mubolag'asi uchun yana bir ruboiy ham debmenki, to Xalil binni Ahmad ruboiy qoidasin vaz' qilibdur, tarsi' san'atida ruboiy aytilg'on eshitilmaydur, balki yo'qtur va ul budurkim, ruboiy:

*Ey ro'yi tu kavkabi jahon oroye,
V-ey bo'yi tu ashhabi ravon osoye,
Be mo'yi tu, yo Rab, chunon farsoye,
Giso'yi tu chun shabi fig'on afzoye”* [Navoiy 2000, 32].

(Mazmuni: Ey, sening yuzing jahonni bezovchi yulduzdir, Ey, sening xushbo'y hiding jon rohatidir; Sening soching bo'lmasa, chunonam parishonlik bo'ladi, Kokiling (esa) fig'onli tunga o'xshaydi).

Alisher Navoiyning bir qator faxriyalari g'oyibdan kelgan ovoz (hotif) yoki buyuk salaflari va ustozlari (Nizomiy, Jomiy) nomidan keltirilganligini kuzatamiz:

*Dedim: nazm ahlining sarxayli kim bo'lgay, dedi hotif:
Navoiy bo'lg'ay ulkim, sen tilaydursen agar, bo'lg'ay*
[Qomusiy lug'at 2016, 443].

Baytda hotif Alisher Navoiyning nazm ahlining peshvosi, shoirlarning ustodi bo'lishini bashorat qiladi.

“Xamsa” nihoyasida esa Nizomiy tilidan Navoiyning g'azal va masnaviyda beqiyos muvaffaqiyatlarga erishib, shuaro peshqadamiga aylangani ta'kidlanadi:

*Sipehr aylab el ichra nodir seni,
Jahon nazmi tavrida qodir seni.
G'azal tavrida chunki qilding xirom,
So'z ahlig'a so'z dorni qilding harom.
Tutib erdi nazming jahon kishvarin,
Jahon kishvarin yo'qki, jon kishvarin.
Bu dam masnaviyg'akim aylab shitob,*

To'ka boshlading xomadin durri nob.

Ajab ish bu ishda sanga berdi dast –

Ki, el nazmig'a berdi nazming shikast [Navoiy 1993, 575].

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy ijodida faxriya san'ati muhim o'rin egallab, uning asarlarida iftixor tuyg'usi sharqona odob doirasida bayon qilinadi. Navoiy o'z iste'dodi uchun Allohning inoyati va lutfini asos deb biladi va unga shukrona keltirishni bir lahza ham unutmaydi.

Xulosa

Sharq adabiyotida faxriya adabiy hodisasini mumtoz ijodkorlar asarlari asosida tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Faxriya Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy san'at turi bo'lib, kichik lirik she'rlarda bir baytdan, katta hajmli asarlar: qasida va dostonlarda esa bir necha baytdan iborat bo'ladi.

2. Faxriya shoirning iste'dod darajasi, asarlarining badiiy yuksakligi hamda erishgan muvaffaqiyatlari va shon-shuhratidan faxrlanib bitgan she'r-u baytlari tarzida odatda she'riyatda muayyan maqomga erishgan shoirlar tomonidan qalamga olinadi.

3. Sharq adabiyotida faxriya janrining ilk ildizlari arab adabiyotida qasida janri tarkibida vujudga kelgan bo'lib, ularda dastavval muayyan insoniy fazilatlarni qayd etgan holda uning yaratilmish boshqa mavjudotlardan aql, iffat, adolat va qahramonlik kabi sifatlar bilan ajralib turishini faxr bilan aytish qabul qilingan. Keyinchalik esa shoirlar o'z qabilalari, avlodlarining sha'nini turli da'vo va janglarda himoya qilish uchun faxriyalarga murojaat qilganlar.

4. Arab adabiyotida ilk faxriyanavis shoir sifatida Abu-t-Toyyib Ahmad ibn al-Husayn Mutannabiy nomi tilga olinadi. Uning deyarli barcha she'rlarida o'zi haqidagi e'tiroflar u yoki bu shaklda namoyon bo'ladi. Arab shoiri boshqa shoirlar orasida yuqori martabalikka, ulug'lik va buyuklikka da'vo qilar ekan, o'z shijoati, g'ayrati, nozik tab'ligini fasohat va balog'at bilan bayon etadi.

5. Fors adabiyotida faxriya san'ati nisbatan kengroq mohiyat kasb etib, mumtoz fors shoirlari o'zlari yashagan davr sulola vakillari va podshohlar, ular bino qilgan me'moriy obidalar, ularning shaxsiy fazilatlari va insoniy sifatleri bilan she'rda g'ururlanadigan, ba'zan o'zlari yaratgan irod namunalari bilan faxrlanadigan bo'ldilar. Xususan, Abulqosim Firdavsiy o'z

“Shohnoma”si orqali fors tiliga qayta jon bag’ishlagani, u barpo qilgan obida asrlar va zamonlar sinovlariga bardosh berishini, sira zavol ko’rmasligini e’tirof etsa, Hofiz Sheroziy she’rlarining ohangi va jozibasi kashmirliklar va turklarni raqsga tushishga majbur qiladi deb yozadi.

6. Alisher Navoiy ijodida faxriya muhim o’rin egallab, uning deyarli barcha namunalarida o’z iste’dodi uchun Allohning inoyati va lutfini asos deb bilgan va unga shukrona keltirishni bir muddat unutmagan orif bandaning izhorlari o’z ifodasini topgan.

Adabiyotlar

Adabiyotshunoslik lug’ati. Quronov, D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 2010.

Toshkent: Akademnashr.

Alisher Navoiy. 1988. *G’aroyib us-sig’ar*. MAT. 20 jildlik. T.3. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 1989. *Navodir ush-shabob*. MAT. 20 jildlik. T.4. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 1990. *Badoye’ ul-vasat*. MAT. 20 jildlik. T.5. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 1990. *Favoyid ul-kibar*. MAT. 20 jildlik. T.6. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 1993. *Saddi Iskandariy*. MAT. 20 jildlik. T.11. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy. 2000. *Muhokamat ul-lug’atayn*. MAT. 20 jildlik. T.16. Toshkent: Fan.

Alisher Navoiy: qomusiy lug’at. 2016. Ikki jildlik. 1 – 2-jildlar / Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.

Lutfiy. 2012. *Devon*. Nashrga tayyorlovchi S.Erkinov. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU.

الفاخوري، حنا. تاريخ الادب العربي. ترجمة: عبدالمحمد آيتي. تهران: ۱۸۳۱. نشریات توس. صص: ۵.

İbn Manzûr. 1968. *Lisânü’l-‘Arab*. (Dâru Sâdir) Beyrut. V. 48.

عزيزالله توكلي كافي آبادی و دیگران. بررسی تطبیقی خودشیفتگی (نارسسیم) در شعر خاقانی و منتبى. مطالعات ادبیات تطبیقی، سال نهم، شماره ۴۳، تابستان تهران- ۹۹۳۱، صص: ۵۳۱-۴۵۱.

مهدی فیاض و دیگران. مفاخره: جلوه ای از نقد شعر در ادب فارسی. پژوهشنام ادب غنایی دانشگاه سیستان و بلوچستان. سال ۷۱، شماره ۳۳، پاییز و زمستان (۸۹۳۱ صص) ۳۳۲-۶۵۲.

المنتبى، ابوالطيب. ۴۳۹۱ م، دیوان ابی الطیب المنتبى بشرح ابی البقاء العکبرى، شركة مكتبة بصر، الطبعة الثانية.

<https://vajehyab.com/dehkhoda/%D9%85%D9%81%D8%A7%D8%AE%D8%B1%D9%87?q=%D9%85%D9%81%D8%A7%D8%AE%D8%B1%D9%87>

<https://ganjoor.net/ferdousi/shahname/yazdgerd3/sh17>

سعید شفیعیون. فخریہ در ادب فارسی(واکاوی و گونه شناختی فخریہ و زیرگونه های آن با نگاهی به گونه همسنگش). نشریہ علمی جستارهای نوین ادبی، سال ۴۵، شماره ۴، سال ۲۰۴۱. DOI: <https://doi.org/10.22067/JLS.2022.73090.1181>

Faxriya (Self-Praise) in Eastern Classical Literature

Dilnavoz Yusupova¹
Umedullo Mahmudov²

Abstract

This article is devoted to the problem of faxriya (self-praise), which occupies a special place in the works of figures of world literature. The article presents scientific data based on the role and significance of faxriya in world literature, especially in classical oriental literature. Information is also given about the stages of gradual development of faxriya in European, Arabic, Persian and Turkic literature. In addition, the classification in the literature of the East and related scientific views were subjected to scientific analysis, and conclusions on this issue were presented.

In the article, facts about the role and meaning of self-praise in Eastern literature are analyzed using the example of the works of al-Mutannabi, Abulkasim Firdawsi, Hafiz Shirozi and Alisher Navoi.

Key words: *self-praise, Eastern literature, genre, art, al-Mutannabi, Abulqasim Ferdowsi, Hafiz Shirozi, Alisher Navoi, Lison ul-Arab.*

References

- Adabiyotshunoslik lug'ati*. Quronov, D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. 2010. Toshkent: Akademnashr.
- Alisher Navoiy. 1988. *G'aroyib us-sig'ar*. MAT. 20 jildlik. T.3. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1989. *Navodir ush-shabob*. MAT. 20 jildlik. T.4. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. *Badoye' ul-vasat*. MAT. 20 jildlik. T.5. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. *Favoyid ul-kibar*. MAT. 20 jildlik. T.6. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1993. *Saddi Iskandariy*. MAT. 20 jildlik. T.11. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2000. *Muhokamat ul-lug'atayn*. MAT. 20 jildlik. T.16. Toshkent: Fan.

¹ Dilnavoz R. Yusupova – doctor of philology, professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

² Umedullo A. Mahmudov – doctor of philosophy (PhD) in philology, associate professor, Samarkand International University of Technology.

E-pochta: Umedullo.mahmudov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4309-6503

For citation: Yusupova, D. R., Mahmudov, U. A. 2024. "Faxriya (Self-Praise) in Eastern Classical Literature". *Golden Scripts* 2: 89 – 102.

- Alisher Navoiy: *qomusiy lug'at*. 2016. Ikki jildlik. 1 – 2-jildlar. Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Lutfiy. 2012. *Devon* / Nashrga tayyorlovchi S.Erkinov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Al-Fakhouri, Hanna. 1381. *History of Arabic literature*. Translated by: Abdul Muhammad Ayti. Tehran: Tos publications. ff: 5.
- İbn Manzûr. 1968. *Lisânü'l-'Arab*. (Dâru Sâdir) Beyrut. V. 48.
- Dear God, Tawakkoli is sufficient for me and my family. An application of Narcissism in the poetry of Khaqani and Mutanabi. Applied literature reviews, Sal Nahm, Shamarah 34, Tabistan Tehran - 1394, pp. 135-154.
- Mehdi Fayyad and Dijran. Boast: *Jalwa, meaning poetry criticism in Persian literature. The name of Danish lyric literature in Sistan and Baluchestan*. Sal, 17 Shamariyya, 33 Bayes and Zamistan (1398 pp.). 233-256.
- Al-Mutanabbi, Abu Al-Tayeb. 1934 AD, *The Diwan of Abu al-Tayyib al-Mutanabbi, explained by Abu al-Baqa al-Akbari*, Library Company in Egypt, second edition.
- <https://vajebyab.com/dehkhoda/%D9%85%D9%81%D8%A7%D8%AE%D8%B1%D9%87?q=%D9%85%D9%81%D8%A7%D8%AE%D8%B1%D9%87>
- <https://ganjoor.net/ferdousi/shahname/yazdgerd3/sh17>
- Saeed Shafiyoun. *Fakhriyah in Persian Literature (Wakawi wa Ghunah Shanakhti Fakhriya and Zirghunah hay an ba nāhiḥ with it Ghunah hamsangish)*. Scientific Bulletin, Novel Literary No. 54, Section 4, No. 1400. DOI: <https://doi.org/10.22067/JLS.2022.73090.1181>

Кероглу – азербайджанский народный героический эпос

Айну́р Ибрагимова¹

Абстракт

Эпос «Кероглы» представляет собой один из самых величественных памятников азербайджанского народного творчества. История эпоса «Кероглы» в Азербайджане и записи стихов этого эпоса, согласно известным нам пока фактам, начинается в первой половине XVIII века (Ильяс Мушег из Тебриза, 1721 год) и в начале XIX столетия (Андалиб Караджадаги, 1804). В его формировании и популяризации в качестве *эпоса* есть исключительная заслуга народных певцов-*ашугов*.

В частях, рассказывающих о походах Кероглы в одиночку или с сорвиголовами в отдельные вражеские города, завершенных сюжетах, воспеваются преимущественно идеи героизма и свободы.

Происхождение образа Кероглы связано с архетипом сына Бога в тюркской мифологии. Функционально Кероглы представляет собой спасителя этноса.

Ключевые слова: *азербайджанский эпос, Кероглы, героический эпос, эпический герой, Гуммет Ализаде.*

Введение

Эпос «Кероглы», являющийся одним из наиболее величественных образцов азербайджанского народного эпического творчества, своей поэтической завершенностью, богатством содержания информативных сведений, несравнимой ни с каким другим эпосом широтой по ареалу распространенности, безмерной популярностью даже среди народов, отличающихся друг от друга по происхождению, отличается от большинства других эпических памятников. Будучи героическим эпосом, «Кероглы» воплощает в себе соображения о героизме и свободе, чаяния и пожелания, надежды и мечты азербайджанского народа. Кероглы для

¹ Айну́р Ибрагимова – Институт Фольклора Национальной Академии Наук Азербайджана, Баку, Азербайджана.

E-mail: ibrahimova_a@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3201-7440

Для цитирования: Ибрагимова А. 2024. «Кероглу – азербайджанский народный героический эпос». *Golden Scripts* 2: 103 – 116.

многих тюркских народов, в том числе азербайджанского народа, является символом героизма.

Варианты и версии

У эпоса «Кероглы» есть многочисленные варианты и версии, собранные у народов Поволжья, Средней Азии, Кавказа, Ближнего Востока, Анатолии и Балкан. В азербайджанском кероглуждении все тексты «Кероглы» с точки зрения образа, построения, сюжета и мотивов классифицируются на две группы:

1) азербайджанская или западная версия (охватывает азербайджанскую, тюркскую, курдскую, грузинскую, армянскую, болгарскую и пр. западные варианты);

2) среднеазиатская или восточная версия (охватывает туркменскую, узбекскую, таджикскую, казахскую и др. восточные варианты).

Необходимо подчеркнуть, что в формировании и сохранении эпоса «Кероглы» важная роль была у народных певцов ашугов. Эпос «Кероглы» долгое время занимал одно из основных мест в репертуаре азербайджанских ашугов.

У истории сбора и издания текстов эпоса «Кероглы» в Азербайджане есть богатая история.

Стихи, собранные в рукописной антологии, составленной в 1721 году Тебризским купцом Элиасом Мушегом, представляют собой первый источник, в котором собраны относящиеся к «Кероглы» гошма и герайлы в большом объеме. В нем было 13 стихов, данных на азербайджанском языке, однако написанных армянским алфавитом. Рукописная антология, названная «Книгой песней», согласно выдающемуся азербайджанскому фольклористу И.Аббаслы, был собран у тебризских ашугов и, наряду с «Кероглы», включал в себя и стихотворения из «Асли и Керема», «Ашуга Гариба» и других азербайджанских эпосов. После этого, если смотреть в хронологической последовательности, должны отметить наличие множества стихов из эпоса «Кероглы» в «Сборнике стихотворений» великого поэта Андалиба Караджадаги, бывшего родом из города Ахар в Южном Азербайджане, относящемся к 1804 году. Этот сборник хранится в архиве Азиатского музея Санкт-Петербурга.

Еще один экземпляр «Кероглы» из 28 собраний, относящийся к середине XIX века, записанный в Тебризе, был

выявлен в фонде Института рукописей имени Г.Кекелидзе в Грузии. Согласно замечанию Х.Кероглы, филологически и стилистически рукопись относится к азербайджанской версии эпоса и на сегодняшний день представляет собой более содержательный вариант «Кероглы» [Кероглы 1996, 96-97]. Тбилисская рукопись охватывает следующие части «Кероглы» (название частей-меджлисов мы показали вкратце):

- I меджлис. Эрзерумский поход Демирчиоглу.
- II меджлис. Стамбульский поход Кероглы.
- III меджлис. Урфинский поход Кероглы.
- IV меджлис. Поход Эйваза на Снежное озеро.
- V меджлис. Ванский поход Кероглы.
- VI меджлис. Поход Эйваза в Алеппо за Шерифе-ханум.
- VII меджлис. Дагестанский поход Кероглы.
- VIII меджлис. Поход Белли Ахмеда в Эрзерум за Гюларе-ханум.
- XI меджлис. Встреча Кероглы с Болу-беком.
- X меджлис. Курдистанский поход Кероглы.
- XI меджлис. Похищение Гамзой Гырата.
- XII меджлис. Нападение Давуд-паши на Ченлибел. Пленение Эйваза.
- XIII меджлис. Египетский поход Кероглы.
- XIV меджлис. Дагестанский поход Кероглы. Приезд Шахсенем-ханум в Ченлибел.
- XV меджлис. Хамисский поход Кероглы.
- XVI меджлис. Набег Бурджу-бека на Ченлибел.
- XVII меджлис. Кероглы и Гасан Джалали.
- XVIII меджлис. Пленение Гадирагой Эйваза.
- XIX меджлис. Рождение Кероглы. Рождение Гырата. Побег Кероглы от Шаха Аббаса (из Исфагана).
- XX меджлис. Война Кероглы с Шахом Аббасом. Отъезд в Византию.
- XXI меджлис. Поход Кероглы в Тахти-Сулейман. Приезд Хуршуд-ханум в Ченлибел.
- XXII меджлис. Покидание Эйвазом Кероглы и отъезд в Ван – к Маразу Джалили.
- XXIII меджлис. Диярбакирский поход Сархоша.
- XXIV меджлис. Отъезд Махбуба в Айн за Шурахи-ханум.
- XXV меджлис. Поход Кероглы в Малатью. Отъезд Кенана в Ченлибел.

XXVI меджлис. Поход Эйваза-балы в Сулейманийе.

XXVII меджлис. Нападение Меджидаги на Ченлибел.

XXVIII меджлис. Смерть Кероглы.

Особенностей, отличающих эту рукопись, достаточно много. Среди них особо можно подчеркнуть частое присутствие сказочных мотивов, эпизод с рождением Кероглы, путешествие героя и его сорвиголов в Ван, Диярбакир, Малатью, Таhti-Сулейман, Сулейманийе, Алеппо и пр., образы сорвиголов Сархоша, Кенана и других. Вместе с тем, основные образы, мотивы и сюжеты Тифлисской рукописи идентичны другим азербайджанским вариантам.

После вхождения Северного Азербайджана в состав Российской империи тексты «Кероглы» начали издаваться в различных печатных органах.

Необходимо подчеркнуть, что преследующие цель присвоить богатое духовное наследие азербайджанского народа армяне в этот период проявляли особое рвение в этом вопросе. Присвоение армянами азербайджанского фольклора, если обратим внимание, осуществлялось в три этапа. На первом этапе они азербайджанский фольклорный текст (на азербайджанском тюркском языке) полностью фиксируют или готовят к изданию в армянском алфавите, на последующем этапе уже переводят на армянский язык образец, а на последнем этапе искажают, «армянизируют» имена образов в тексте, добавляя искусственные дополнения, издают (например, будто бы Кероглы является названием армянского рода «Хорхорян»).

Существование хранящейся в Матенадаране, записанной армянским алфавитом, но на азербайджанском языке и относящейся к XIX веку рукописи под заглавием «Сказка о Кероглы» показывает системность и последовательность этого процесса. Эта рукопись охватывает части «Алы-киши и Ровшан», «Гизироглу Мустафа-бек» и «Болу-бек» эпоса «Кероглы». Стихи эпоса в рукописи составляют 55 строф [Аббаслы, 2001: 24]. В 1872 году еще один текст «Кероглы» на азербайджанском языке на армянском алфавите было издан под названием «История Кероглы, вместе с песнями».

К концу XIX века армяне, переводя тексты на свой язык, начали издавать «Кероглы». В 1897, 1900 и 1904 годах меджлисы «Приключение Гизироглы и Болу-бека», «История Демирчиоглы» и «Болу-бека» были изданы отдельными

книгами на армянском языке в переводе ашугов армянского происхождения Ашуг Джемали и Ашуга Хаяти.

Начиная с 30-40 годов XIX века, побывавшие в Азербайджане русские и европейские этнографы, путешественники и востоковеды проявляли особый интерес к эпосу «Кероглы». Чрезмерная популярность эпоса среди восточных народов, естественно, привлекало внимание европейцев. Некоторые из них записанные или же приобретенные в виде рукописей тексты «Кероглы» впоследствии напечатали в газетах и журналах эпохи, или же добавили к своим книгам. В 1840 году русский И.Шопен, в 1842 году поляк Александр Ходзкр-Борейко, в 1875 году немец барон фон Гакстгаузен, в 1889 году француз Фредерик Дюбуа де Монперу издали в печати свои записи об эпосе «Кероглы».

Великий венгерский востоковед Герман Вамбери, совершивший путешествие в Южный Азербайджан, дал в построчном переводе стихи «Кероглы» из полученной в городе Хой рукописи в своей книге, изданной в 1885 году.

Эпос «Кероглы», собранный А.Ходзко в Южном Азербайджане в 1834 году и изданный в Лондоне в 1842 году, сыграл исключительную роль в мировом признании эпоса. В издании А.Ходзко было 13 меджлисов из эпоса «Кероглы». Записанный в 1834 году в Тебризе Ашугом Садыгом из Нигарыстана эпос, затем будучи повезен в Лондон, в 1842 году был напечатан на английском языке [Chodzko: 1842]. Позже этот вариант был напечатан во Франции (3 издания – 1843, 1846, 1852 годы), Германии (1843), России (1856), Соединенных Штатах Америки (1871 году, Нью-Йорк). Определенные части этого варианта увидели свет на польском (1849, Варшава) и грузинском языках (1887, 1908, Тифлис).

Этот вариант в качестве одного из самых древних вариантов сохранил в себе многое из ныне утерянных многочисленных мотивов.

А прозаическая часть записанного путешествовавшим по Закавказью в первой половине XIX века немецким путешественником, этнографом и писателем бароном Августом фон Гакстгаузенем варианта была на немецком, прозаическая же часть – на азербайджанском языке. А.Гакстгаузен напечатал этот текст под названием «Татарское предание о слепом Обейде и его сыне Кероглы» в изданной в 1857 году в Санкт-Петербурге книге под названием

«Закавказская провинция» [Гакстгаузен, 1857: 149-153]. Текст был записан со слов местного немецкого сказителя по имени Петр Нов.

Зафиксированный другим европейским путешественником Фредериком Дюбуа де Монперу текст был дан в его работе «Сеяхатнаме» (Путевые заметки) [Montpereux 1839, 455-457]. Хотя собранное Фредериком Дюбуа предание имеет много общего с записанным Августом Гакстгаузенем преданием, обширным сюжетом не обладает.

Среди изданных в XIX веке вариантов наиболее искаженный вариант «Кероглы» принадлежит И.Шопену [Шопен 1840, 12-25].

Следует отметить и напечатанные в эти годы в Кавказских местных органах печати, хотя качественно и содержательно они и были неполными.

В 1830-е годы в газете «Тифлиссские ведомости» издается статья, охватывающая некоторые эпизоды из эпоса «Кероглы». В них Кероглы, наряду с «добрым разбойником», предстает как иреваньский сардар [Тифлиссские ведомости 1830, 16].

В газете «Кавказ» за 1847 год был дан небольшой материал об эпосе «Кероглы». В первом номере за 1859 год выходящей в Тифлисе газеты «Заря Востока» были напечатаны две сказки-рассказа «Сын слепого» и «Сказка об Эйвазе»

В 9-ом номере альманаха СМОМПК, выходящего в Тбилиси (1890 год), студентом Закавказской педагогической семинарии Мирза Велизаде был дан рассказ «Кероглы» и 3 стиха (арабским алфавитом и в русском переводе), собранные в 1889 году в селе Ходжалар Тифлиссского уезда [Велизаде 1890, 14].

Начиная с начала XX века издание текстов «Кероглы» приобрело особую скорость. За малым исключением, можно сказать, начиная с первых десятилетий XX века сбором, изданием и исследованием эпоса «Кероглы» на Кавказе занимались преимущественно азербайджанские ученые.

Изданный в типографии братьев Оруджевых в 1913 годы Рза Закиром небольшого объема «Кероглы» считается одним из первых изданий эпоса в Азербайджане. Однако этот текст практически идентичен тексту известного под названием стамбульского варианта (или же стамбульского

предания). Стамбульский вариант в 1913 году был издан Г.Месарошем в Будапеште и на венгерском языке.

В 1927 году В.Хулуфлу две записанные у ашугов части издал в виде книги [Кероглы, 1927]. В 1929 году он заново издал более обширный текст эпоса в латинской графике [Кероглы, 1929]. И издание Аббасом Раджабли записанного от Ашуга Гусейна из Шамкира в 1937 году и охватывающего три части эпоса «Кероглы» было одним из имеющих особое значение текстов эпоса «Кероглы» [Кероглы 1999]. Позже Г.Ализаде, шаг за шагом пройдя регионы Азербайджана, впоследствии систематизировал и подготовил к изданию материалы, собранные им у знаменитых и талантливых ашугов [Кероглы 1940]. В этом эпосе «Кероглы», изданном в 1940 году (на русском языке) и 1941 году (на азербайджанском языке), были следующие части:

1. Кероглы;
2. Стамбульский поход Кероглы;
3. Кероглы и Ашуг Джунун;
4. Туркменский поход Кероглы;
5. Кероглы и Демирчиоглу;
6. Эрзерумский поход Кероглы;
7. Тогатский поход Кероглы;
8. Арзинджанский поход Кероглы (на русском языке вышло под названием «Кероглы и Болу-бек»);
9. Багдадский поход Кероглы;
10. Поход Кероглы в Баллыджа;
11. Византийский поход Кероглы;
12. Баязидский поход Кероглы (в русском издании этой части нет);
13. Дербентский поход Кероглы;
14. Старость Кероглы.

М.Г.Тахмасиб подготовил к изданию эпос «Кероглы» в 1949 и 1956 годах [Кероглы, 1949; Кероглы, 1956] и сыграл исключительную роль в популяризации эпоса. Этот текст в дальнейшем неоднократно переиздавался.

Издание «Кероглы», увидевшее свет в оформлении Исрафила Аббаслы и Бахлула Абдуллаева в 2000 году (на русском языке) и 2005 году (на азербайджанском языке), было подготовлено на основе хранящихся в Институте литературы имени Низами Национальной Академии наук Азербайджана фольклорных архивов (Кероглы, 2000). В этом

издании имеются 25 частей-сюжетов:

1. Алы-киши. Сказитель Ашуг Али, составитель Г.Ализаде;
2. Кероглы и Дели Гасан. Сказитель Ашуг Гасанбала, составитель А.Г.Тахиров;
3. Стамбульский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Аббас, составитель Г.Ализаде;
4. Ашуг Джунун. Сказитель Ашуг Али, составитель Г.Ализаде;
5. Туркменский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Али, составитель Г.Ализаде;
6. Эрзерумский поход Демирчиоглы. Сказитель Ашуг Мирза, Туркменское путешествие Кероглы Г.Ализаде;
7. Эрзерумский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Ибрагим Гараоглы, составитель Г.Ализаде;
8. Журавлиное перо. Сказитель Ашуг Исрафил, составитель Г.Ализаде;
9. Византийский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Ибрагим Гараоглы, составитель Г.Ализаде;
10. Кероглы и Болу-бек. Сказитель Ашуг Садиг, составитель Г.Ализаде;
11. Похищение Гырата Гамзой. Сказитель Ашуг Годжа, составитель Г.Ализаде;
12. Кероглы и Араб Рейхан. Сказитель и составитель неизвестны;
13. Кероглы и Айпара. Сказитель Ашуг Джахандыр, составитель А.Г.Тахиров;
14. Баязидский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Али, составитель Г.Ализаде.
15. Побег раба. Сказитель Ашун Мехди Насибоглу, составитель неизвестен;
16. Агджакузу. Сказитель Ашуг Аслан Косалы, составитель Э.Меммедли;
17. Прибытие Перзад-ханум в Ченлибел. Сказитель Ашуг Аслан Косалы, составитель Э.Меммедли;
18. Прибытие Махру-ханум в Ченлибел. Сказитель Ашуг Гусейн Джаван, составитель М.Хакимов;
19. Кероглы и Бейлер. Сказитель Алиш Самед, составитель А.Г.Тахиров;
20. Поход Кероглы в Баллыджа. Сказитель Ашуг Мухтар, составитель Г.Ализаде;

21. Дербентский поход Кероглы. Сказитель Ашуг Вели, составитель Г.Ализаде;

22. Прибытие Зарнишан-ханум в Ченлибел. Сказитель Ашуг Гусейн Сараджлы, составитель М.Хакимов;

23. Прибытие Гасана-паши в Ченлибел. Сказитель и составитель анонимны.

24. Прибытие Марджан-ханум в Ченлибел. Сказитель Аббас Иман оглы Велиев, составитель Али Грубанов;

25. Старость Кероглы. Сказитель Ашуг Мамед, составитель Г.Ализаде.

А один вариант, собранный у иранских тюрок-азербайджанцев и хранящийся в архиве Али Камали, подготовил к изданию Али Шамиль (Кероглы, 2009). Согласно А.Шамилю, в этой версии элементы классовой борьбы практически отсутствуют [Шамиль, 2014: 349].

Предполагается возникновение эпоса «Кероглы» на исторической почве поднявшего голову в конце XVI века – начале XVII века в Восточной Анатолии и Азербайджане движения джелалитов. А согласно ряду ученых, эпос «Кероглы» первоначально возник в эпоху гейтюрков среди обосновавшихся в Средней Азии огузов и в результате перемещения огузо-туркменских племен в Азербайджан приобрел новый – нынешний – вид эпоса. Туркменский исследователь Б.А.Каррыев, претендующий на то, что турецкий (анатолийский) «Кероглы» генетически стоит на южноазербайджанской (парижский экземпляр) версии, полагал, что эпос впоследствии распространившись и развившись в анатолийской среде, приобрел национальные оттенки [Каррыев, 1968: 240].

Согласно предположениями азербайджанских ученых, происхождение образа Кероглы связано с архетипом умирающего и воскрешающегося сына Бога в тюркской мифологии. Функционально Кероглы представляет собой спасителя этноса. Функция спасителя, в народном суфизме обретя новую ценность, обогатилась миссией стража справедливости, друга бедняков. Кероглы в качестве мифологического типа все стороны перестроения получил из шаманских мифов [Баят 2003, 155-156].

В некоторых вариантах образ Кероглы в скрытой форме воплощал в себе черты, присущие первому имама шиитов Али, а в конце же присущую Мехди Сахибу аз-Заману

исламскую эсхатологию. В этом смысле эпос «Кероглы» тесно связан с широко распространившимися в средние века суфийскими течениями.

Эпос «Кероглы» составлен из частей, каждый из которых обладает завершенным сюжетом. Большинство частей повествует о походах героя в одиночку или с сорвиголовами в отдельные вражеские города и стоит на одинаковом инварианте. Согласно некоторым ученым, на уровне архетипа в основе эпоса «Кероглы» стоит противостояние Космос-Хаос (Огуз-Хаос). С появления Кероглы до смерти деятельность Кероглы на мифологически-космическом уровне прочерчивает траекторию солнца с восхода до заката. Путешествия героя в отдельные города (части-варианты эпоса) представляет собой состоящие из эпической проекции парадигматические ряды этого движения - сакрального архетипа [Аббасов 2008, 118].

Эпос «Кероглы», будучи звеном в процессе непрерывного продолжения тюрко-огузского эпоса, непосредственно или же опосредственно повторяет древние модели. Подчеркнем, что в азербайджанском варианте эпоса сюжеты и о рождении, и о кончине (смерти) Кероглы не распространились. Особенно в редких случаях можно встретить части, повествующие о рождении Кероглы.

Хотя каждая часть «Кероглы» в отдельности и является самостоятельной, завершенной историей, в целом объединяется вокруг единого сюжета. Образы, составляющие полюс ведущих героев (Кероглы, Дели Гасан, Эйваз, Демирчиоглы и пр.) участвуют в большинстве частей и действуют по ходу всего произведения. Образы второго ряда (Гасан-паша, Джафар-паша, Аслан-паша, Болу-бек, Джамал-паша, Гачаралы, Муштулуг, конюх Муртуз, Плещивый Гамза, Махмуд-паша, Араб Рейхан, Хоткар Мурад, Гарахан, Араб-паша и др.) действуют в отдельных частях.

Кероглы невозможно представить без его коня Гырата и меча Мисри.

Заключение

«Кероглы», как и другие азербайджанские эпосы, построен на смене друг другом прозаической и поэтической частей. В прозаической части, обычно, излагается событие, а пожелания, мечты, призывы даются поэтически (стихами,

написанными в жанрах азербайджанской поэзии гошма и герайлы).

В целом, составляющие большинство лирико-поэтических образцов в «Кероглы» гошма и герайлы по поэтическому совершенству могут считаться самыми прекрасными примерами азербайджанской народной поэзии. Более половины из них выражают настроение, пожелания и обращения (наставления, призывы) героя (преимущественно Кероглы).

Хотя в стихах эпоса «Кероглы» лиризм достаточно силен, большинство из них представляют собой исторические героические песни. Составляющие большинство лирико-поэтических образцов в «Кероглы» гошма и герайлы по поэтическому совершенству могут считаться самыми прекрасными примерами азербайджанской народной поэзии XVI-XIX века.

Литература

- Abbaslı, İ. 2007. *Azərbaycan dastanlarının yayılması və təsiri məsələləri*. Bakı: Nurlan
- Abbasov, E. 2008. «*Koroğlu*»: *poetik sistemi və strukturu*. Bakı: Nurlan.
- Koroğlu. 1927. *Toplayıb nəşr edəni Vəli Xuluflu*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1929. *Toplayıb nəşr edəni Vəli Xuluflu*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1941. *Tərtib edəni H. Əlizadə*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1949. *Tərtib edəni, müqəddimə və şərhlərin müəllifi M.H.Təhmasib*. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 1956. *Çapa hazırlayanı və ön sözün müəllifi M.H.Təhmasib*. Bakı: Azərb. SSR EA Nəşriyyatı.
- Koroğlu. 2000. *Rza Zaki nəşri*. Transliterasiya, tərtib, ön söz, şərh və lüğətin müəllifi E.Tofiqqızı. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 1999. *Abbas Rəcəbli nəşri*. Tərtib, ön söz və şərhlərin müəllifi E.Tofiq qızı. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 2009. *Əli Kamali arxivindəki variantlar*. Çapa hazırlayanı Ə.Şamil. Bakı: Nurlan.
- Koroğlu. 2005. *Mətni hazırlayıb tərtib edənlər: İ.Abbaslı, B.Abdulla*. Bakı: Lider.
- Bayat, F. 2003. *Köroğlu: şamandan aşık, alptan erene*. Ankara, Akçağ.
- Şamil, A. 2014. *Azərbaycanda Köroğlu destanının derlenməsi, yayımlanması və araşdırılması tarixindən*. "Köroğlu" kitabı, 333-354. Hazırlayan M.Sabri Koz). İstanbul, Kitabevi yayınları.
- Аббаслы, И. 2001. *Арэал распастранення і вліяння азербайджанскіх дастанав*. Баку: Седа.
- Велизаде, М. 1890. "Предание о разбойнике Коротлы". *СМОМПК*, IX, 121-126. Тифлис.
- Гакстгаузен, А. 1857. «Татарское предание о слепом Обеиде и его сыне

Кер-оглы». *«Закавказский край»*. Заметки о семейной и общественной жизни и отношениях народов, обетающих между Черным и Каспийским морями, 1 ч., СПб., 149-153.

Тифлиссские ведомости. 1830. № 68.

Заря Востока. 1859. Тифлис, №1.

Каррыев, Б.А. 1968. *Эпические сказания о Кер-оглы у тюркоязычных народов*. Москва: Наука.

Кер-оглы – восточный поэт-наездник. 1856. Полное собрание его импровизаций с присовокуплением его биографии. Перевод с английского С.С.Пенн. Тифлис.

Кер-оглы. 1940. *Азербайджанский народный эпос*. Составитель: Г.Ализаде. Баку: Азернешр.

Кер-оглы. 1847. Газ. «Кафказ», Тифлис, №22.

Короглу. 2000. Составители: И.Аббаслы, Б.Абдулла. Баку: Седа.

Короглу, Х.Г. 1996. *«Кероглы» – продолжение азербайджанской эпической традиции*. Х.Г.Короглу, А.М.Набиев. Азербайджанский героический эпос. 96-163. Баку: Язычы.

Шопен, И. 1840. «Кер-оглы, татарская легенда». *«Маяк современного просвещения и образованности»*. СПб., 2 ч., глава 3, с.12-25.

Chodzko, A. 1842. *Specimens of the popular poetry of Persia as found in the Adventures and improvisations of Kurroghlou, the bandit minstrel of Northern Persia and the songs of the people inhabiting the shores of the Caspian sea*. London.

Montpereum, F.D. 1839. *Voyage autour du Caucase, chez les Tcherkesses et les Abkhases, en Colechide, en Georgie, en Armenie et en Cremee*; 6 volumes, tome III, 455-457. Paris.

Koroglu – Azerbaijan Folk Heroic Epos

Aynur Ibrohimova¹

Abstract

The epos “Koroglu” is one of the most magnificent monuments of Azerbaijan folklore. The history of the epos “Koroglu” in Azerbaijan and writing of the poems of this epos according to the facts known to us begins in the first half of the 18th century (Ilyas Musheg from Tabriz, 1972) and at the beginning of the of the 19th century (Andalib Karajadagi, 1804). In its formation and popularization as the epos has the special labor of the folk singers – ashugs (ashug – Caucasian folk poet and singer).

In the parts telling about the trips of Koroglu alone or with some daredevils to the enemy cities in the completed plots the ideas of heroism and freedom are sung.

The origin of the character Koroglu is connected with the archetype the son of the God in Turkic mythology. Functionally Koroglu expresses the savior of the ethnos.

Key words: Azerbaijan epos, Koroglu, heroic epos, epic hero, Hummet Alizade.

References

- Abbaslı, İ. 2007. *Azərbaycan dastanlarının yayılması və təsiri məsələləri*. Bakı: Nurlan
- Abbasov, E. 2008. «Koroğlu»: poetik sistemi və strukturu. Bakı: Nurlan.
- Koroğlu. 1927. *Toplayıb nəşr edəni Vəli Xuluflu*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1929. *Toplayıb nəşr edəni Vəli Xuluflu*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1941. *Tərtib edəni H. Əlizadə*. Bakı: Azərnəşr.
- Koroğlu. 1949. *Tərtib edəni, müqəddimə və şərhlərin müəllifi M.H.Təhmasib*. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 1956. *Çapa hazırlayanı və ön sözün müəllifi M.H.Təhmasib*. Bakı: Azərb. SSR EA Nəşriyyatı.
- Koroğlu. 2000. *Rza Zaki nəşri*. Transliterasiya, tərtib, ön söz, şərh və lüğətin müəllifi E.Tofiqqızı. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 1999. *Abbas Rəcəbli nəşri*. Tərtib, ön söz və şərhlərin müəllifi E.Tofiq qızı. Bakı: Elm.
- Koroğlu. 2009. *Əli Kamali arxivindəki variantlar*. Çapa hazırlayanı Ə.Şamil.

¹ Aynur Ibrohimova – PhD in philology, Institute of Folklore of the National Academy of Sciences of Azerbaijan, Baku, Azerbaijan.

E-mail: ibrahimova_a@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3201-7440

For citation: Ibrohimova, A. 2024. “Koroglu – Azerbaijan Folk Heroic Epos”. *Golden Scripts* 2: 103 – 116.

Bakı: Nurlan.

Koroğlu. 2005. *Mətni hazırlayıb tərtib edənlər*: İ.Abbaslı, B.Abdulla. Bakı: Lider.

Bayat, F. 2003. *Köroğlu: şamandan aşık, alptan erene*. Ankara, Akçağ.

Şamil, A. 2014. *Azərbaycanda Köroğlu destanının derlenmesi, yayımlanması və araştırılması tarixindən*. "Köroğlu" kitabı, 333-354. Hazırlayan M.Sabri Koz). İstanbul, Kitabevi yayınları.

Abbaslı, I. 2001. *Areal rasprostraneniya i vliyaniya azerbaydjanskix dastanov*. Baku: Seda.

Velizade, M. 1890. "Predanie o razboynike Koroglu". *SMOMPK*, IX, 121-126. Tiflis.

Gakstgauzen, A. 1857. «Tatarskoe predanie o slepom Obeide i yego syne Ker-ogly». «*Zakafkazskiy kray*». *Zametki o semeynoy i obshchestvennoy jizni i otnesheniyax narodov, obetayushix mejdu Chernym i Kaspiyskim moryami*, 1 ch., SPb., 149-153.

Tiflisskie vedomosti. 1830. № 68.

Zarya Vostoka. 1859. Tiflis, №1.

Karгыев, B.A. 1968. *Epicheskie skazaniya o Ker-ogly u tyurkoyazychnykh narodov*. Moskva: Nauka.

Ker-ogly – vostochnyy poet-naezdник. 1856. Polnoe sobranie yego improvizatsiy s prisovokupleniem yego biografii. Perevod s angliyskogo S.S.Penn. Tiflis.

Ker-ogly. 1940. *Azerbaydjanskiy narodnyy epos*. Sostavitel: G.Alizade. Baku: Azerneshr.

Ker-ogly. 1847. *Gaz*. «Kafkaz», Tiflis, №22.

Koroglu. 2000. Sostaviteli: I.Abbaslı, B.Abdulla. Baku: Seda.

Koroglu, X.G. 1996. «*Kerogly*» – *prodoljenie azerbaydjanskoy epicheskoy traditsii*. X.G.Koroglu, A.M.Nabiev. Azerbaydjanskiy geroicheskiy epos. 96-163. Baku: Yazычы.

Shopen, I. 1840. «Ker-ogly, tatarskaya legenda». «*Mayak sovremennogo prosvesheniya i obrazovannosti*». SPb., 2 ch., glava 3, s.12-25.

Chodzko, A. 1842. *Specimens of the popular poetry of Persia as faund in the Adventures and improvisations of Kurroghlou, the bandit minstrel of Northern Persia and the songs of the people inhabiting the shores of the Caspian sea*. London.

Montpereum, F.D. 1839. *Voyage autour du Caucase, chez les Tcherkesses et les Abkhases, en Colechide, en Georgie, en Armenie et en Cremee*; 6 volumes, tome III, 455-457. Paris.

TILSHUNOSLIK
LINGUISTICS

Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari

Qosimjon Sodiqov¹

Abstrakt

Til bilimi sohasida ilk o'rta asrlarning sharq, xususan, turkiy tilshunosligi Yevropa ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. O'sha davr tilshunosligida til bilimi atamalari tizimi tugal bir ko'rinishda ishlab chiqilgan bo'lib, qoraxoniylar davri asarlarida ularning ma'lum bo'lagi tamg'alanib qolgan.

Hozirgi an'anaviy tilshunoslikda atamaga (=terminga) nisbatan belgilangan o'lchovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan to'g'ri kelavermaydi. Ular ba'zan ko'p anglamlilik xususiyatiga ham ega. Turkiy so'zlarning atamaga aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Eski turkiy yozma yodgorliklarda ishlatilgan atamalar tizimi ilk o'rta asrlarda turkiy jamoada, xususan, bilginlar va o'qimishlilar doirasida tilshunoslik, lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy so'zlardan iborat. Til bilimi atamalari tizimining muqim bir tartibga kelishi va takomillashuvida o'sha davr tilshunos olimlari, tarixchilari va adabiyot ahlining xizmati ulug'dir.

Ushbu maqolada qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari, ularning matndagi ma'nolari va atamaga aylanish jarayoni ochiqlab berilgan.

Tayanch so'zlar va birikmalar: *turkiy tilshunoslik tarixi, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, til, so'z, nutq, yozuv, yozma til.*

So'zboshi

Fan sohasining tarixi tilda o'sha sohaga tegishli atamalar, ya'ni terminlar tizimining shakllanishidan boshlanadi. Til bilimi-ning yuzaga kelishi va taraqqiyoti bilan bir paytda, uning atamalari ham yaratila boshlaydi. Ayni o'lchovga tayanadigan bo'lsak,

¹Qosimjon Sodiqov – filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

E-mail: kasimjonsadikov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2002-5171

Iqtibos uchun: Sodiqov, Q. 2024. "Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari". *Oltin bitiglar* 2: 117 – 135.

turkiy tillarda til bilimining yuzaga kelish tarixi ilk o'rta asrlardan boshlanganiga guvoh bo'lamiz [Содиқов 2020, 171–189].

Tilshunoslik atamalarining to'liqligi, keng qamrovliligi, o'z navbatida, o'sha davr tilshunosligining yuqori bosqichda ekanini ko'rsatuvchi omillardan biri sanaladi; til bilimining nechog'liq rivojlanganini shundan ham bilsa bo'ladi.

O'rta asrlar sharq ilmida, xususan, turkiy tilshunoslik tarixida bilim va uning tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan butun boshli atamalar tizimi puxta, tugal bir ko'rinishda ishlab chiqilgan edi. Bularning bari o'sha chog'larda yaratilgan adabiy, tarixiy, ilmiy asarlarda tamg'alanib qolgan.

Qoraxoniylar davri turkiy yozma adabiy tilining atalishi

Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'ati-t-turk» asarida qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini «turkcha» (تُرکچە) atamasi bilan bir qatorda «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*) deb ham atagan edi. U o'z davri yetakchi dialektlarini (sharqiy dialektlarni) umumlashtirib «turk tili», qolganlarini esa o'z otlari (*o'g'uzcha, qipchoqcha* va b.) bilan atagan. Muhimi shundaki, ana shu «turk tili» atamasining o'rnida «xoqoniya tili», «xoqoniya turkchasi» otini ham qo'llagan: «Shahar o'rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida (بالتُرکّیّہ الخاقانیّة) so'zlaydilar» deb yozadi u [TCД. 40]. Mahmud Koshg'ariy ushbu atama ostida o'z davri turkiy yozma adabiy tilini ko'zda tutgan.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida «turkiy til, turkcha til» ma'nosida *türkčä* (تورکچا), *türk luyatī* (ترک لوغتی) atamalarini ishlatgan. Mana misoli:

Muḡar menḡātü keldi türkčä maṣal,

Oqıyıl munı sen, köñül ögkä al.

«Bunga o'xshaydigan turkcha maqol bor,

Sen bu maqolni uqqin, ko'ngilga va miyangga joyla» [QBN. 18b, 5];

Yoki:

Maṣriq vilāyatida, qamuy Türkistān elindä buyraxan tilinčä, türk luyatiča bu kitābtin yaxşıraq hargiz kim ersä taṣnīf qılmay turur. – «Mashriq viloyatida, butun Turkiston elida bug'raxon tilincha, turk lug'aticha hech kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» [QBH. 1b, 13–2a, 2].

Yusuf Xos Hojib *buyraxan tili* (بغراخان تیلی), *xan tili* (خان تیلی) atamalarini ham qo'llagan. Buning bilan Tavg'ach ulug' Bug'raxon zamonidagi turkiy yozma adabiy til ko'zda tutiladi. «Qutadg'u

bilig»ning muqaddimasida shunday jumlani o'qiydiz: *Türkistän ellärindä buyraxan tilinčä bu kitābdin yaxşıraq hargez kim ersä taşnif qılmadı.* – «Turkiston ellarida bug'raxon tilida biror kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» [QBQ. 1b, 10–11].

Yoki:

*Bu Buyraxan vaqtı içrā anı,
Yemā xan tilinčä bu aytmiş muni.*

«Bu Bug'raxon vaqtida uni (yozib),
Yana buni xon tilida aytibdi» [QBQ. 2b, 14].

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»ning so'nggi bobida o'z kitobi *türkčä* (ترکجه) ~ *türkî* (ترکی)da bitilganini ta'kidlaydi: *Anin uş čiqardim bu türkčä kitāb* («Shuning uchun ham bu turkcha kitobni yozdim») deya bitadi muallif [YugB. 49, 11].

Arslon Xo'ja tarxonning «Hibatu-l-haqoyiq»qa ilova qilingan she'rida yozilishicha, asar *kāšyarî til* (کاشغری تیلی) ~ *kāšyar tili* (کاشغر تیلی)da bitilgan. Mana uning yozganlari:

*Tamāmi erür kāšyarî til bilä,
Ayitmiş Adīb rīqqatî til bilä.
Agar bilsä kāšyar tilin har kişi,
Bilür ol Adībnuñ nekim aymişşi.
«Asar kāšyarî til bilan yozib tugatildi,
Adib uni adabiy til bilan aytmişdir.
Agar har kishi kāšyar tili ni bilsa,
Adibning nima aytganlarini bilib oladi»*

[Yugnakiy 119, 6–120, 3].

Anglashiladiki, yuqorida tilga olingan *türkčä*, *türkî*, *türk luyatı* va ularning o'rnida qo'llangan «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*), *buyraxan tili*, *xan tili*, *kāšyarî til* ~ *kāšyar tili* atamalari qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini anglatgan.

Til, so'z, yozuv bilan bog'liq tushuncha va atamalar

Kishilik o'tmishida lingvistik bilimlar tarixi «til»ni anglashdan, u haqdagi tushuncha-qarashlarning yuzaga kelishidan boshlangan. Shuning uchun ham *til* so'zini lingvistil tushunchalarining birinchisi, lisoniy qarashlarning tayanch nuqtasi desa bo'ladi.

til atamasi boshlang'ich davrda, harqalay, «jamiyatdagi aloqa vositasi» ma'nosida ishlatilgan, «kishi nutqi» ma'nosi esa keyinchalik shakllangan bo'luvi kerak.

Yana *til* so'zi «nutq a'zosi»ni ham bildiradi. «Nutq a'zosi» anglamidagi *til* so'zining talaffuzi «aloqa vositasi» va «kishi nutqi»

anglamlaridagi *til* dan farq qilgan ko'rinadi. Sababi shundaki, «Qutadg'u bilig»ning arab yozuvli Namangan nusxasida **تِل** so'zi «nutq a'zosi» anglamida kelganida, unga tushum kelishigi qo'shimchasi-ning *ḡayn* li yo'g'on varianti qo'shilgan (تَلِغ). Shuning uchun uni *tīlīy* deb o'qilgani to'g'ri. Mana o'sha bayt:

Tīlīy keḡ kōḡāzgil, kōḡāzildi baš,
Sōzūḡni qīsuryīl, uzatīldī yaš.
 «Tilni juda ehtiyot qilgin, bosh saqlanadi,
 So'zni qisqa qilgin, yoshing uzayadi» [QBN. 13b, 9].

Ayrim o'rinlarda **تِل** so'zi «nutq a'zosi» anglamida kelganida ham, unga tushum kelishigi qo'shimchasining *kāf* li ingichka varianti qo'shilgan (تِلِيك). Shuning uchun uni *tilig* deb o'qiladi. Mana o'sha bayt:

Öküš sözlāsā, yaḡšadī ter tilig,
Yana sözlāmāsā, ayīn ter tilig.
 «Ko'p so'zlasa, tilni ezmalandi deyiladi,
 So'zlamasachi, tilni soqov deyiladi» [QBN. 13b, 7].

Anglashiladiki, «nutq a'zosi» bilan «jamiyatning aloqa vositasi» bo'lgan *til*, kelib chiqishiga ko'ra, boshqa-boshqa so'zlardir. Tarixan ularning birinchisi yo'g'on o'zakli, keyingisi esa ingichka o'zakli so'z bo'lgan: *tīl* va *til*. Keyinchalik, bu so'zlar talaffuzda farqlanmay qo'ygan.

Basharti shunday ekan, olimlarning *til* so'zi «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti*- fe'lidan yasalgan (*ti+l>til*), degan fikriga [Насилов 1974, 22] qo'shilish qiyin. Shunday bo'lganida, bu so'z «Qutadg'u bilig»da *til* shaklida yo'g'on unli bilan talaffuz qilinmagan bo'lar edi. Demak, u «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti*- fe'luga emas, boshqa so'zlarga bog'lanadi.

Endi *til* so'zining yozma yodgorliklardagi ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Mahmud Koshg'ariyga ko'ra:

til – «til» (اللسان). Maqolda (shunday kelgan): *Erdām baši – til*. Ma'nosi: «Eng yaxshi xulqning boshi tildir».

til – «til» (اللفه). Chunonchi, *uyyur tili* – «uyg'ur tili»; *xītay tili* – «xitoy tili» kabi.

til – «so'z» (الكلام); *ol begkā til tegürdi* – «u bekka so'z tegizdi; haqoratimiz so'z so'zladi».

tīl – «josus»; *yayīdīn tīl tutti* – «yov josusini tutib oldi» [ТД, 588].

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» masnaviysida:

tīl (تِل) – *anat.* «til»:

Biligsiz tili tutči berklig keräk,

Biliglig kiši tilqa erklig keräk.

«Bilimsizning tili doim berk bo'lishi kerak,

Bilimlining tili so'zga erkin bo'lishi kerak» [QBN. 41a, 13];

Biliglig bilig berdi tilqa pışıy. – «Bilimli [ya'ni Tangri taolo] tilga pishiq bilim berdi» [QBN. 13b, 1].

til dan yasalgan so'zlar:

tilday (تيلداغ) – «yolg'on»:

Sen aymış bu söz barča anday turur,

Haqiqat körü barča tilday turur.

«Sen aytgan bu so'z barchasi o'shandaydir [ya'ni to'g'ridir],

Haqiqat ko'zi bilan qaralsa, (bularning barchasi) yolg'ondir» [QBN. 101b, 3].

tılmač (تيلماج) – «tilmoch, tarjimon»: *Uquşqa, biligkä bu tılmači til.* – «Uquvga, bilimga tilmoch – bu tildir» [QBN. 13a, 8].

til (1) (تيل) «til; jamiyat tili»; ijtimoiy hodisa: *Qamuy til bilir ersä, ačsa tilig.* – «(Elchi) barcha tilni [ya'ni borgan mamlakatidagi xalq tilini] bilsa, tilini so'zga ochsa [ya'ni o'sha tilda so'zlasa]» [QBN. 99a, 8].

(2) «nutq; kishi nutqi»:

Birisi bitigči, xatı belgülüg,

Birisi yalawač, tili ülgülüg.

«Biri xati belgili [ya'ni ravon, tushunarli] kotib,

Biri nutqi o'lchovli [ya'ni fikrlab, meyori bilan so'zlovchi] elchi» [QBN. 102b, 1].

«Hibatu-l-haqoyiq»da shunday to'rtlik bor:

Ešitkil, biliglig negü dep ayur:

Adablar başı til, ködäzmäk turur.

Tiliñ bektä tutyıl, tişiñ sinmasun,

Xalı čiqsa bektin, tişiñni siyur [YugC. 13,7–10].

Ushbu to'rtlikdagi *bek-* «mahkam, mustahkam» degani, lekin bu o'rinda ko'chma ma'noda «qafas»dir.

To'rtlikda *adablar başı til* deyilganda, *til* – «kishining nutqi»; *tiliñ bektä tutyıl* deyilgandagi *til* – «nutq a'zosi»ni anglatadi.

She'rning ma'nosi shunday bo'ladi:

«Eshitgil, bilimli kishi [ya'ni donishmand] nima deb aytadi:

Adablarning boshi til(dir, uni) saqlamoq kerak.

Tilingni berkda [ya'ni qafasda] tutg'il, tishing sinmasin,

Agar berkdan [ya'ni qafasdan] chiqqudek bo'lsa, tishingni sindiradi».

(3) «sir»:

Qatiylanyu, aşnu til alyu keräk,

Bu tildin yayı qılqı bilgü keräk.

«Mustahkamlanib, so'ng (sir biluvchilar yordamida) til olish kerak,

Bu tildan [ya'ni sirdan] yov qilig'ini bilish kerak» [QBN. 89b, 4].

(4) «so'z, gap; og'zaki so'z»: *Sözüñni tilin ay, tilini eşit.* – «So'zingni til bilan ayt [ya'ni og'zaki ayt], tilini [ya'ni so'zini] eshit» [QBQ. 155b, 2].

(5) «istak, xohish»:

Biligligkä sözlädim uşbu sözü,

Biligsiz tilini bilümäz özü.

«Ushbu so'zimni bilimliga so'zladim,

Bilimsiz tilini [ya'ni istagini] o'zim tushuna olmadim» [QBN.14b, 7].

til so'zidan yangi so'zlar va iboralar ham yasalgan:

til aç- (تیل اچ) – «til och-»: *Munī körsä kezlär, til açmaz, tuyur.* – «Nuqsonini ko'rsa berkitadi, til ochmaydi, yashiradi» [QBQ. 147b, 16].

til al- (تیل ال) – «til ol-; sir bil-»: *Qatiylanyu, aşnu til alyu keräk.* – «Mustahkamlanib, so'ng (sir biluvchilar yordamida) til olish kerak» [QBN.89b,4].

tilin ay- (تیلین ای) – «tilda ayt-, til bilan ayt-, og'zaki ayt-»; elchiga maslahat: *Sözüñni tilin ay, tilini eşit.* – «So'zingni til bilan ayt [ya'ni og'zaki ayt], tilini [ya'ni so'zini] eshit» [QBQ. 155b, 2].

tilin kön- (تیلین کون) – «tilda iqror bo'l-»; e'tiqodga nisbatan:

Ani qodti, tutti könilik yolın,

Kirür-men könilikkä, köndüm tilin.

«U (avvalgi niyatini) qo'ydi, to'g'rilik yo'lini tutdi,

Men to'g'rilik (yo'li)ga rozi bo'laman, tilimda iqror bo'ldim» (QBQ.156b,14).

til (تیل) – *anat.* «til; inson tili»: *Tilim, tınma, öggil yaratıylını.* – «Tilim, tinma, maqta yaratuvchini» [ya'ni Tangri taoloni] [QBN. 20b, 9].

(2) «molning tili; shifobaxsh et» sifatida:

Öz inçlik tiläsä eräzi uzun

«Til» atliy etig ye, tiril ey tüzün.

«Vujudning farog'ati uzoq osoyishtaligini istasang,

«Til» deb ataluvchi etni yeb tur, ey sarishta» [QBN. 168a, 12].

Bu so'zdan yasalgan **tilči** (تیل چی) – «vositachi»:

Yalawaç tedüküm bu tilçi turur,

Bu tilči sözün aysa, ölmäz, qalur.

«Elchi deganim, bu – vositachidir,

Bu vositachi soʻzlarini aytsa, oʻlmaydi, qoladi [yaʼni elchiga oʻlim yoʻq]» [QBN. 139a, 8].

Eng muhimi, qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan sof turkiy tilshunoslik atamaları oʻzining koʻp maʼnoliligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi anʼanaviy tilshunoslikda atama, yaʼni terminga nisbatan qatʼiy qoida ishlaydi: u bir maʼnoli boʻlmogʻi kerak, degan talab qoʻyiladi. Lekin bu talabni turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan qoʻllash u qadar toʻgʻri emas, nazarimizda. Turkiy soʻzlarning atamaga (=terminga) aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Yaʼni ular koʻpmaʼnolilik xususiyatiga ega.

Muhimi shundaki, turkiy yozma yodgorliklar tilida soʻzlarning soni emas, ularda qancha maʼno ifoda etilgani ahamiyatli. Tilning boyligi soʻz maʼnolarining koʻpligi bilan oʻlchanadi.

Alisher Navoiy oʻzining «Muhokamatu-l-lugʻatayn» asarida turkiy soʻzlarda koʻpmaʼnolilik xususiyati ustun ekanligini koʻrsatib oʻtgan edi. U *tüş, yan, yaq* soʻzlarida uch xil maʼno; *bar* soʻzida toʻrt maʼno; *sayin* soʻzida besh maʼno, shuningdek, *tüz* soʻzining ham bir qancha maʼnolari borligini taʼkidlaydi.

U yana yozadi: *Bu navʼ alfāz ham-ki, üç maʼnā-vu dört maʼnā va artuyraq-kim, irāda qilsa bolıyay, köp bar-ki, fārsî alfāzda anda qyoqtur* [MJI. 37, 65-66].

Lugʻat tarkibining semantik takomili ilmiy atamalar tizimida ham aks etgan.

Buni misollarda koʻrib chiqamiz.

Shulardan biri **söz** (سوز) atamasi boʻlib, u ilkin maʼnoda «muayyan tushuncha»ni anglatgan. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqatda uning vazifasi kengayib, «gap», hatto «nutq»ni ham anglata boshlagan. Masalan, *sözlädi* deganda «soʻzni aytdi, talaffuz qildi» emas, «gapirdi; fikrini bildirdi; xabar berdi» anglashiladi.

Rasmiy muloqatda *söz* «yurt egasining buyrugʻi, elga qarata aytgan soʻzi»ni anglatgan. Yozuv yuzaga kelmasdan ancha burun, oʻzaro rasmiy muomaladan boshlab yurt egasining elga murojaati ham, jamoa orasidagi oʻzaro kelishuv munosabatlari ham *söz* dan boshlangan. Yurt egasi qoʻl ostidagi kishilarga, elga oʻz soʻzini, yaʼni buyrugʻini aytgan.

Yozma hujjatchilik yuzaga kelgandan keyin ham *söz* kalimasi rasmiy bitiglarda ayni vazifada ishlatila boshladi. Jumladan, ilk va oʻrta asrlarda yaratilgan yorliqlarning unvonlarida *sözüm* kalimasi

qo'llangan. U «bu mening farmonim, yorlig'im» degan ma'noni anglatadi [Содиқов 2020, 501–502]. Masalan, Shohrux mirzoning Talxan ota mozorining mujovuri nomiga bergan yorlig'i *Šāhruh bahadur sōzūm devānlarya*; Sulton Umarshayxning Marg'ilon ulug'laridan Mir Sayid Ahmad nomiga bergan yorlig'i *Sultān 'Umar-šayx bahadur sōzūm devānlarya*; Sulton Abu Saidning turk sultoni Hasan begga yo'llagan bitigi *Sultān Abu Sa'id kārāgān sōzūm* deb boshlangan [Содиқов 2016, 144–158]. Endi bu o'rinda *sōz* ilmiy atamaga aylandi.

sōz ning qoraxoniylar davri yodgorliklarida qo'llangan ma'nolari quyidagicha:

(1) «so'z, tushuncha» ma'nosida keladi:

Keyik tayi kōrdūm bu türkčä sōzūg,

Ani aqru tuttum, yaqurdum ara.

«Bu turkcha so'zni tog' kiyugidek ko'rdim,

Uni ohista tutdim, avrab (o'zimga) yaqinlashtirdim [ya'ni orgatdim]» [QBH. 92b, 30].

Uquš kōrki til-ol, bu til kōrki – sōz,

Kiši kōrki yūz-ol, bu yūz kōrki – kōz.

«Zakatning ko'rki tildir, bu til ko'rki – so'z,

Kishining ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki – ko'z» [QBH. 10a, 23].

(2) «Kishining nutqi»ni anglatadi:

Bilip sōzläsä sōz, biligkä sanur,

Biligsiz sözi öz başini yeyür.

«So'zni bilib so'zlasa, donolik sanaladi,

Bilimsizning so'zi o'z boshini yeydi» [QBN.13b, 3].

(3) «so'z, muomala»ni bildiradi:

Kitāblar oqir ham bilir ersä sōz,

Uqar ersä še'r ham qoşar ersä öz.

«(Elchi) kitoblar o'qisa hamda so'zni [ya'ni muomalani] biladigan bo'lsa, She'rni uqadigan bo'lsa hamda o'zi ham to'qiydigan [ya'ni she'r yozadigan] bo'lsa» [QBQ. 76b, 2].

(4) «aytilgan fikr, mulohaza»: *Bayat atı birlä sōzūg başladı.*
– «Xudo nomi bilan [ya'ni bismilloh bilan] so'zini boshladi» [QBN. 118b, 2].

(5) «yorliq, farmon, buyruq»:

Nečä ma bilig bilsä beglär özi,

Bitigči keräk-ök bitisä sözi.

«Beglarning o'zi qanchalik bilimli bo'lmasin,

Yorliq (yoki xabar) yozgudek bo'lsa, albatta, kotib kerakdir» [QBN. 100b, 2].

(6) «o'git, pand-nasihati, ibratli so'z»:

Señä sözlädim men sözü, ey oyul,

Señä berdi bu pand özü, ey oyul.

«Senga so'zimni so'zladim, ey o'g'il,

Senga pand-nasihati qildim, ey o'g'il» [QBN. 14a, 5].

Bu sözkä tanuyi maşal keldi, söz,

Bu söz işkä tutyil, sözüñ munda uz.

«Bu so'zga isbot uchun maqol, so'z bor,

Bu so'zni [maqolni] ishga tutgin, so'zingni shu yerda uz»

[QBH. 8b, 23].

«Hibatu-l-haqoyiq»da:

Adib Aḥmad atim, adab-pand sözü,

Sözü munda qalur, barur bu özü.

«Adib Ahmad otim, adab-pand so'zim,

So'zim bu (dunyo)da qoladi, o'zim esa o'tib boraman» [YugB.

49,7–8].

(7) «sir, yashirin so'z»:

Bu iki kişidä bolur barča söz. – «Barcha so'z [ya'ni barcha sir]

ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] bo'ladi» [QBN.100b, 9].

(8) «ta'lim»:

Qamuy nāḡä öñdi-törü bar, sözi,

Törü tüz yuritsa, yarur er yüzi.

«Hamma narsaning tartib-qoidasi, ta'limi bor,

Tartibini to'g'ri tutsa, kishiningyuzi yorug' bo'ladi» [QBN.167a,

2].

(9) «maslahat, ko'rsatma»:

Nekü ter eşitkil otači sözi,

Munuy ma'nisi uq, tirilgil qozı.

«(Bu to'g'rida) tabib so'zini [ya'ni ko'rsatmasini] eshitgin,

nima deydi,

Buning ma'nisini uq, yashagin (ey) qo'zi» [QBN. 167b, 14–15].

(10) «ta'rif, bayon»:

Tügäl boldi emdi aş-içgü sözi. – «Endi osh-ichimlik(lar) ta'rifi

tugal bo'ldi» [QBN.169a, 3].

(11) «va'da»:

Tilin sözlänmiş sözdän yanmaz erän,

Sözindän yanilyli işälär sanı.

«Til bilan so'zlangan so'zdan er kishilar qaytmaydi,

So'zidan [ya'ni va'dasidan] qaytuvchi (kishi) xotinlar

qatoridir» [QBQ. 159b, 7].

(12) «ma'lumot; xabar»:

Yana čiqti oylan, ayitti sözün,
Qayun kelmişin ham tiläkin, özin.

«O'g'lon yana chiqdi, so'zini [ya'ni ma'lumot, xabarlarini]
so'radi, / Qayerdan kelganini hamda maqsadini, o'zini (so'radi)»
[QBN. 214a, 2].

(13) *söz* «badiiy asar; kitob» ma'nosida ishlatilgan:

*Yil altmış iki erdi tört yüz bilä,
Bu söz sözlädim men tutup jan serä.
Tügäl on sekiz ayda aydım bu söz,
Ödürdüm, adırdım, söz ewdip terä.*

«To'rt yuz oltmish ikkinchi yil edi,
Men jonni koyitib ushbu so'zni so'zladim [ya'ni asarni
yozdim].

Bu so'zni [ya'ni asarni] o'n sakkiz oyda tugal aytib bo'ldim,
Tanladim, farqladim, so'z(lar)ni yig'ib terdim» [QBH. 93a,
3–4].

(14) «oyat»ni bildiradi:

Yaşıl kökdin indi yayız yerkä söz. – «So'z moviy ko'kdan
qo'ng'ir yerga tushdi [ya'ni ikki narsaga: (a) oyatlarga; (b) so'zning
ulug' va qutlug' ekaniga ishora]» [QBN.14b, 15].

(15) «hadis»:

Yusuf Xos Hojib asarning na't bo'limida yozadi:

*Köñül badım emdi anıñ yoliña,
Sewip sözi tuttum bütüp qavliña.*

«Endi ko'ngilni Uning [ya'ni Muhammad alayhi-s-samom-
ning] yo'liga bog'ladim,

Qavliga inonib, sevib Uning so'z(lar)iga [ya'ni hadislariga]
amal qildim» [QBN. 9a, 4].

Eski turkiy tilda *söz* dan yangi so'zlar va iboralar ham
yasalgan. Bular:

söz aç- (1) – (سوز aç) «so'z och-»:

*Yanut berdi Ögdülmiş, aydi: Özüm
Tiläk birlä keldi, açayın sözüm.*

«Javob berdi O'gdulmish, aytdi: O'zim
Tilak bilan keldim, ochayin so'zim» [QBQ. 149a, 12].

(2) «sir och-, sir ayt-»:

*Bu iki kişikä söz açyu keräk,
Söz açsa, awaylari yüḡgü keräk.*

«Bu ikki kishiga so'z ochish [ya'ni sir aytish] kerak,
So'z ochsa [ya'ni sir ochsa], (ularning) injiqliklarini ko'tarish
kerak» [QBN. 100b, 8].

söz açmaq (سوز اچماق) – «soʻz ochmoq; sir aytmoq»:

Birisi – bitigʻi, birisi – vazir,

Bu ikki kishikā söz açmaq tegir.

«Birisi – kotib, birisi – vazir,

Bu ikki kishiga soʻz ochmoqqa [yaʼni sir aytmoqqa] toʻgʻri keladi» [QBN.100b, 7].

söz ay- (سوز ای) – «soʻz ayt-»: *Šakarda süçügräk söz aydım senä.* – «Senga shakardan shirinroq soʻz(lar) aytdim» [QBN.142b, 3].

söz ayit- (سوز اییت) – «soʻz soʻra-»:

Ayit söz ularqa yemä bütümä terk,

Biligli bayat-ol, muni tutyu berk.

«Ulardan soʻz soʻra, shuningdek, darrov ishona qolma,

(Tugal) biluvchi xudodir, buni qattiq tutish kerak» [QBN. 159a, 2].

söz başi (سوز باشی) – «soʻzbashi»: *Söz başi. Küntuydi elig 'adl şifatini (ayur).* – «Soʻzbasi. Kuntugʻdi elig adl sifatini aytadi» [QBQ. 4b, 13].

söz bilig (سوز بیلک) – *adab.* «adabiyot; adab ilmi; soʻz ilmi»:

Munjar menzätü sözlamiş söz bilig,

Bu söz işkä tutyil, ey qılqı silig.

«Soʻz ilmida bunga moslab soʻz aytilgan,

Bu soʻzga amal qilgin, ey xulqi muloyim» [QBN. 152b, 11].

söz çıqar- (سوز چیقار) – «soʻz chiqar-, sir ayt-»:

Bitigʻi-İlimya bolunsa özün,

Köñül sirri bek tut, çıqarma sözüñ.

«Oʻzing maktub bituvchi bosh kotib boʻlsang,

Koʻngil sirini yashirin tut, soʻzingni chiqarma» [QBQ. 126b, 11].

söz kes- (سک زوس) – «soʻz kes-, soʻz tugat-»:

Sözin kesti Ögdülmiş, aydi: Qadaş,

Bu yanliş turur 'ām yoriqı, adaş.

«Oʻgdulmish soʻzini tugatdi, aytdi: (Ey) qarindosh,

Avomning feʼl-atvori bu yangligʻ boʻladi, ey jora» [QBN. 165b, 3].

söz qat- (سوز قات) – «coʻz soʻra-»:

Qaçan söz qatar ersä beglär senä,

Uzatma sözüñni, ey ersig toña.

«Beglär sendan qachon soʻz soʻraydigan boʻlsa,

Soʻzingni choʻzma, ey javonmard bahodir» [QBQ. 126a, 8].

söz qiy- (سوز قی) – «soʻzni buz-; vaʼdani buz-»:

Yana-oq бүтүрди, ayur: Ey qadaş,

Sözün qiyma, kelgil, ey köñli tüdäş.

«Yana qayta ta'kidladi, aytdi: Ey qarindosh,

So'zingni buzma, kelgin, ey ko'ngli yaqin» [QBQ. 157a, 15].

söz sözlä- (سوز سوزلا) – «so'z so'zla-, so'z ayt-, gapir-»: *Öküş sözlämä söz, birär sözlä, az.* – «So'zni ko'p so'zlama, bir-bir so'zla, oz (so'zla)» [QBN. 13b, 5].

söz suwı (سوز سقى) – «so'z suvi», ya'ni «ta'siri»:

Öküş sözlämä söz, serin, til ködäz,

Öküş sözlämiş söz suwı qaldı az.

«So'zni ko'p so'zlama, o'yla, tilni saqla,

Ko'p so'zlagan so'zning suvi [ya'ni ta'siri] oz qoladi» [QBN. 156b, 7].

söz tut- (سوز توت) – «so'z tut-; sir saqla-»:

Bu iki kişidä bolur barça söz,

Bu söz tutmasa, öz işin buzdı öz.

«Barcha so'z [ya'ni barcha sir] ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] bo'ladi,

Ular so'z saqlamasa [ya'ni sir saqlamasa], o'z ishini o'zi buzadi» [QBN.100b, 9].

söz uzat- (سوز اوزات) – «so'zni choz-»:

Qaçan söz qatar ersä beglär señä,

Uzatma sözüñni, ey ersig toñä.

«Beglar sendan qachon so'z so'raydigan bo'lsa,

So'zingni cho'zma, ey javonmard bahodir» [QBQ.126a, 8].

söznüñ içi (سوزنونک ایچی) – *tilsh.* «so'zning ichi, ma'nosi»:

Yana bilsä söznüñ içi ham taşı. – «Yana (elchi) sozning ichini [ya'ni ma'nosini] hamda tashini [ya'ni shaklini] (yaxshi) bilsa» [QBQ.75a, 14].

söznüñ taşı (سوزنونک تاشی) – *tilsh.* «so'zning tashi, ko'rinishi, shakli» [QBQ.75a, 14].

sözçi (سوزچی) – «so'zchi, vakil»:

Qatıy arzuladı seni körgükä,

Meni sözçi idti oqıp eltgükä.

«Seni ko'rishni qattiq orzuladi,

Chaqirib, olib borishga meni vakil qilib yubordi» [QBQ. 149a, 14].

sözlä- (1) – (سوزلا) «so'zla-, gapir-»: *Öküş sözläsä, yañşadı ter tilig.* – «Ortiqcha so'zlasa, tilni ezma(landi) deyiladi» [QBN.13b, 7].

(2) «ig'vo qil-»: *Bođun tili yawlaq, seni sözlägäy.* – «Xalqning tili yomon, seni ig'vo qiladi [so'zma-so'z. so'zlaydi]» [QBN.13a, 14].

sözlämäk (سوزلاماک) – «so'zlamak»:

Sözlämäkmü yegräk azy šük turmaqmu? – «Soʻzlamak yaxshiroqmi yoki jim turmoq?» [QBQ.5a, 6].

ič söz (ایچ سوز) – «sir, yashirin soʻz»ni anglatadi:

Bitigčikā ayyu keräk iç sözin,

Ködäzsä bitigči öküş ya azin.

Bu iç söz tutuyli bütün-čin keräk,

Bütünlükkä artuq bütün dīn keräk.

«(Hukmdor) kotibga ich soʻzni [yaʼni sirni] aytsa boʻladi,

(Qachonki) kotib (ich soʻzning) koʻp yoki ozini saqlay olsa.

Bu ich soʻz [yaʼni sir] tutuvchi chin soʻzli, ishonchli boʻlishi kerak,

Bunga qoʻshimcha yana iymoni but boʻlishi kerak» [QBQ.78a,2–3].

Eski turkiy tilda keng koʻlamda va turli maʼnolarda ishlatilgan soʻzlardan yana biri *bitig* dir. Bu atama «yoz-, bit-» anglamidagi *biti*- feʼlidan yasalgan; *-g* – ot yasovchi qoʻshimcha. Endi buning maʼnolarini koʻrib chiqaylik.

Mahmud Koshgʻariyga koʻra:

bitig – «kitob».

bitig – «yozuv; yozmoq». Bu ayni chogʻda masdardir; *anñ bitigi belgölüg* – «uning yozuvi maʼlum, belgili».

bitig – «tumor» (oguzcha) [TCД. 247].

«Qutadgʻu bilig» asarida *bitig* soʻzi quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

bitig (1) – (بتیک) *tilsh.* «yozuv»:

Qamuy eđgü sözlär bitigdä bolur,

Bitinmiş üçün söz unıtmas qalur.

«Barcha ezgu soʻzlar yozuvda boʻladi,

Yozilgan boʻlgani uchun soʻz unutilmaydi, (mangu) qoladi» [QBN.101a, 10].

(2) *adab.* «kitob; asar»: *Sözüm sözlädim men, bitidim bitig.* – «Men soʻzimni soʻzladim, kitob yozdim» [QBN.19b, 8].

(3) «qonun kitoblari»:

Tetiglik bilä bilsä türlüg bitig,

Bitig bilsä, ötrü bolur er tetig.

«(Elchi) tetiklik bilan turli bitiglarni [yaʼni qonun kitoblarini] bilsa,

Bitig [yaʼni qonun kitoblarini] bilsa, soʻng kishi tetik boʻladi» [QBQ. 76a,15–16].

(4) «xat, maktub»:

Davāt quldī, kāyid, bitidi bitig,

Bitig birlä etti işinkä etig.

«Davot va qog'oz so'radi, maktub yozdi,
Maktub bilan ishiga zamin hozirladi» [QBN.118b, 1].

(5) «hujjat»:

Bilir bolsa tegmä bu türlüg bitig,

Anin saqlasa, ötrü qilsa etig.

«(Hisobchi) har turli hujjatlarni biladigan bo'lsa,
Shu bilan ziyraklansa, song ish qilsa» [QBN.104a, 5].

(6) «xotura»:

Ölürin bilip qilmış özkä etig

Bitip qodmiş atin tirigkä bitig.

«O'lishini bilib o'ziga hozirlik ko'rgan (kishi)
Otini tiriklar uchun xotira qilib yozib qoldiradi» [QBN.16b, 5].

(7) «o'git, nasihat»:

Bu bitig oqiyil, nekü ter eşit,

Bilig birlä başlap, özünkä eş et.

«Bu o'gitni o'qigin, nima deyilgan, eshit,
Bilim bilan boshlab, o'zingga esh qil» [QBQ. 76a, 11].

(8) «tumor»: *Bu aymış: bitig tutsa, yeklär yirar.* – «Bu [ya'ni azayimxon] aytadi: tumor tutsa, jinlar qochadi» [QBN.158a, 3].

bitig dan yangi so'zlar ham yasalgan:

bitigçi (1) – (بتیک جی) «kotib»:

Bitigçi nekü-teg keräk ey tetig,

Anar beg inänip bitisä bitig.

«Kotib qanday bo'lmog'i kerak, ey zehnli,
(Toki) beg unga ishonib, xat yoza olsa» [QBN.100b, 12].

(2) hisob-kitobni daftarlarga yozib boruvchi; hujjat ishini olib boruvchi: *Bitigçi keräk uz, qamuy xat bilir.* – «Bitigchi [ya'ni hisob-kitobni qayd etuvchi] mohir, hamma xat-hujjatni biladigan bo'lishi kerak» [QBN. 103b, 13].

bitigçi-ilimya (بتیک جی ایلیمغا) – *bitigçi* – umumiy ma'noda «kotib, xat bituvchi»; *bitigçi-ilimya* esa «xonning xat va yorliqlarini bituvchi kotib»dir: *Ögdülmış eligkä bitigçi-ilimya nekü-teg keräkin aytur.* – «O'gdulmish eligga xat bituvchi kotib qanday bo'lmog'i kerakligini aytadi» [QBN. 100a, 14].

Mahmud Koshg'ariyga ko'ra: *ilimya* – shoh maktublarini «turk xati» (خط التركيه) bilan yozuvchi kotib [TCĐ. 119].

Yodgorliklarda «yozma til» va «nutq»ni anglatuvchi atamalar

Qadimgi va eski turkiy yozma yodgorliklarda tilshunoslik

atamalarining ba'ziları birikma shaklida ham ishlatilgan.

bitig söz (1) – (بتیک سوز) yozma so'z; matn; eligning yorlig'i:

Nečä ma özüm sözläsä söz tilin,

Elig yarliyi – bu bitig söz adin.

«Men tilda qancha so'z so'zlaganim bilan,

Elig yorlig'i – bu yozma so'z boshqadir» [QBQ. 95b, 2–3].

(2) *tilsh.* yozma nutq; yozma adabiy til:

Balāyat bilä xat tenäšsā qalī

Eđi eđgü til bu bitig söz tili.

«Agar fasohat bilan (chiroyli) xat tenglashsa,

Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo'ladi» [QBN. 101a, 8].

bitig söz yañi (بتیک سوز یانی) – *tilsh.* «yozma nutq usuli»: Eđi

eđgü yañ bu bitig söz yañi. – «Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir» [QBN.101a,9].

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»da «nutq» ma'no-sida **til söz** (تیل سوز) atamasini ishlatgan. Mana uning misoli:

Xiradliq-mu bolur tili boş kiši?!

Telim bašni yedi bu til söz boši [YugC. 14, 4–5].

Keltirilgan misoldagi *til söz boši* birikmasini R.R. Arat turkcha o'girmada *boş-boğazlık ve ağız gevşekliği* deb bergan:

Boş-boğaz adam akıllı olur mu?;

bu boş-boğazlık ve ağız gevşekliği çok başları yedi [Arat 1992, 87].

Adib Ahmadning bu so'zlari qozoqcha o'girmasida shunday:

Тілін тартпаған кісіні ақылды деуге бола ма?

Тіл мен сөздің бастығы талай басты жеді [Йүгінеки, 53].

Vaholanki, ushbu birikmadagi *til söz* – «til va so'z» emas, balki «nutq» degani; *til söz boši* esa «nutqqa erk berish», ya'ni «tilga erk berish» anglamidadir. Shunga ko'ra, Adib Ahmad so'zini shunday o'girish mumkin:

«(Hech bir zamonda) tili bo'sh [ya'ni tiliga erk beruvchi] kishi aqlli bo'larmidi?!

Bu nutqning bo'shi [ya'ni nutqqa, tilga erk berish] ko'p kishining boshini yedi».

til söz atamasini «nutq; og'zaki so'z» anglamida Yusuf Xos Hojib ham ishlatgan:

Kişi köñli bilgü tanuq erdi til söz,

Köñül til ala boldi, kimkä bütäyi.

«Nutq kishi ko'nglini bilish uchun belgi edi,

Ko'ngil (bilan) til ola bo'ldi [ya'ni, bir-biriga teskari bo'ldi], kimga ishonayin» [QBQ. 193a, 16].

Yusuf Xos Hojib «ogʻzaki soʻz, nutq» anglamida **tilin söz** (تيلين سوز) atamasini ham qoʻllagan:

*Yoq ersä bitig bu kişilär ara,
Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä.*

«Bu kishilar orasida yozuv boʻlmaganida
Ogʻzaki soʻzga kim ham ishongan boʻlardi, koʻrgin-a»
[QBN.101a, 13].

Yana Adib Ahmad «nutq»ni **ayiz til** (اغيز تيل) ham degan.
Mana uning misoli:

*Ayiz til bezägi köni söz durur,
Köni sözlä sözni, tiliñni bezä* [YugC. 16, 5–6].

R.R. Arat *ayiz til bezägi* birikmasini turkcha oʻgirmada
ağzın ve dilin ziyneti deb bergan:

*Ağzın ve dilin ziyneti doğru sözdür;
sözü doğru söyle, dilini süsle* [Arat 1992, 88].

Adib Ahmadning bu soʻzlari qozoqcha oʻgirmasida shunday:
Тіл мен жақтың көрки – шын сөз,
Шын сөйле, әңгімеңді тартымды ет [Йүгінеки, 53].

Vaholanki, bu birikmadagi *ayiz til* – «ogʻiz va til» emas, balki «nutq»; *ayiz til bezägi* esa «nutqning bezagi»dir. Shuningdek, *tiliñni bezä* deganda ham, *til* – «nutq»ni anglatadi; «nutqningni beza» degani. Shunga koʻra, Adib Ahmad aytgan oʻgitning maʼnosi shunday boʻladi:

«Nutqning bezagi toʻgʻri soʻz turur,
Soʻzni toʻgʻri soʻzla, tilingni [yaʼni nutqningni] beza».

Tuganchi

Til bilimi sohasida ilk va oʻrta asrlarning sharq, xususan, turkiy tilshunosligi Yevropa ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. Ilk oʻrta asrlar tilshunosligida til bilimi atamaları tizimi tugal bir koʻrinishda ishlab chiqilgan boʻlib, qoraxoniylar davri asarlarida ularning katta boʻlagi tamgʻalanib qolgan.

Qoraxoniylar davri yozma adabiy tili oʻsha davr manbalarida *türkçä, türkî, türk luyatî* atamaları bilan bir qatorda «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*), *buyraxan tili, xan tili, kāşyarî til ~ kāşyar tili* deb ham atalgan.

Temuriylar davridagi *čiyatay tili ~ čayatay lafzi*, koʻp jihatdan, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, yozma adabiyoti va yozuv madaniyati anʼanalarini tutdi. *Čiyatay tili* qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining davomidir.

Hozirgi anʼanaviy tilshunoslikda atamaga (=terminga) nisba-

tan belgilangan o'lovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan to'g'ri kelavermaydi. Turkiy so'zlarning atamaga (=terminga) aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Turkologlar qadimgi turkiy so'zlarning atamaga aylanish qonuniyatiga tayanib, turkiy atamashunoslik o'lovlarini yangidan ishlab chiqmog'i kerak.

Eski turkiy yozma yodgorliklarda ishlatilgan atamalar tizimi ilk o'rta asrlarda tilshunoslik, turk jamiyatida, xususan, olimlar va o'qimishlilar doirasida lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy so'zlardan iborat. Til bilimi atamalari tizimining muqim bir holga kelishi va takomillashuvida o'sha davr tilshunoslari, tarixchilar va adabiyot ahlining xizmati ulug'dir.

Adabiyotlar

- ТСД* – Махмуд Кошғарий. *Туркий сўзлар девони* [Dīvānu luḡāti-t-türk]. 2021. Nashrga tayёрlovchi Қ. Содиқов. Истанбул.
- Yug* – Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqoyiq» asari: Arat 1992: *A* – asarning 1444-yili Samarqandda ko'chirilgan uyg'ur yozuvli nusxasi: S. I-LXII; *B* – asarning 1480-yili Istanbulda uyg'ur yozuvida yozilib, tagma-tag arab xatida izohlab chiqilgan nusxasi: S. LXIII–CXVII; *C* – asarning XVI yuzyilda arab xatida ko'chirilgan nusxasi: S. CXVIII–CLXVI.
- Йүгінеки* – Ахмед Йүгінеки. Ақиқат сыйы. 1985. Түпнұсқаның фотокөшірмесі, транскрипциясы, прозалық және поэтикалық аудармасы. Баспаға дайындағандар: Ә. Құрышжанов, Б. Сағындықов. Алматы.
- QB* – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» masnaviysi: *H* – Vena (Hiro) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: Радлов В.В. Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *N* – Namangan (Farg'ona) nusxasi: O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, 1809 ko'rsatkichli qo'lyozma. *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *Q* – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- ko'rsatkichli qo'lyozma: *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara, 2015.
- МЛ* – Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. Тошкент.
- Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükeki. *Atebetü'l-Hakayık*. R.R. Arat. Ankara.
- Насилов 1974 – Насилов В.М. *Язык тюркских памятников уйгурского письма XI–XV вв.* Москва.
- Содиқов 2016 – Содиқов Қ. *Илк ва ўрта асрларда яратилган туркий ҳужжатлар*. Тошкент.
- Содиқов 2020 – Содиқов Қ. *Эски ўзбек ёзма адабий тили*. Тошкент.

Linguistic terms used in works of the Karakhanid era

Qosimjon Sodiqov¹

Abstract

As scientific sources testify, early and medieval eastern, in particular, Turkic linguistics were significantly ahead in their development of the level of linguistic knowledge in Europe. This is evidenced by the fact that by this period an integral system of linguistic terms had already been formed in the East, a significant part of which was preserved in written monuments of the Karakhanid period. And what is especially noteworthy is that many of them are of Turkic origin. And in this regard, the merit of linguists, historians and literary figures of this period is invaluable.

The lion's share of linguistic terms and requirements for them are inherited by modern Eastern linguistics. However, over time, they nevertheless underwent changes, which affected, first of all, their semantics. In particular, they developed polysemy.

This article is devoted to the study of the history of the formation and development of Turkic linguistic terms of the Karakhanid period.

Key words and phrases: *history of Turkic linguistics, written and literary language of the Karakhanid period, language, word, speech, writing, written language.*

References

- TSD – Mahmud Koshg'ariy. *Turkiy so'zlar devoni* [Dīvānu luyāti-t-türk]. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. Istanbul, 2021.
- Yug – Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqoyiq» asari: Arat 1992: A – asarning 1444-yili Samarqandda ko'chirilgan uyg'ur yozuvli nusxasi: S. I–LXII; B – asarning 1480-yili Istanbulda uyg'ur yozuvida yozilib, tagma-tag arab xatida izohlab chiqilgan nusxasi: S. LXIII–CXVII; C – asarning XVI yuzyilda arab xatida ko'chirilgan nusxasi: S. CXVIII–CLXVI.
- Yygineki – Axmed Yygineki. *Aqiqat* сыуы. Түрнұсқаның фотокөшірмесі, транскрипциясы, прозалық және поэтикалық аудармасы. Баспаға дайындағандар: Ә. Құғышжанов, Б. Сағ'ындықов. Алматы, 1985.
- QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» masnaviysi: H – Vena (Hirot)

¹ Qosimjon Sodiqov – doctor of philological sciences, professor, Tashkent State University of Oriental Studies.

E-mail: kasimjonsadikov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2002-5171

For citation: Sodiqov, Q. 2024. "Linguistic terms used in works of the Karakhanid era". *Golden Scripts* 2: 117 – 135.

- nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Radlov V.V. Kutadku-Bilik. Faksimile uygurskoy rukopisi.* – SPb., 1890; *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım).* – Ankara, 2015; *N* – Namangan (Farg’ona) nusxasi: O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, 1809 ko’rsatkichli qo’lyozma. *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım).* – Ankara, 2015; *Q* – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- ko’rsatkichli qo’lyozma: *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım).* Ankara, 2015.
- ML – Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug’atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. Toshkent.
- Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükneci. *Atebetü’l-Hakayık.* R.R. Arat. Ankara.
- Nasilov 1974 – Nasilov V.M. *Yazyk tyurkskix pamyatnikov uygurskogo pisma XI–XV vv.* Moskva.
- Sodiqov 2016 – Sodiqov Q. *Ilk va o’rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar.* Toshkent.
- Sodiqov 2020 – Sodiqov Q. *Eski o’zbek yozma adabiy tili.* Toshkent.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asaridagi ayrim so'zlarning o'zbek shevalarida saqlanishi

(“b” undoshi bilan boshlanuvchi so'zlar o'rnagida)

G'aybullab Boboyorov¹

Abstrakt

Maqolada Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” (Turkiy so'zlar devoni) asarida tilga olingan “b” undoshi bilan boshlanuvchi bir necha o'nlab so'zlarning o'zbek tili va shevalarida qay ko'rinishlarda saqlanib qolgani yuzasidan so'z yuritiladi. Ayniqsa, “Devon”da uchraydigan “b” undoshi bilan boshlanuvchi 70 ga yaqin so'z asarning o'zbekcha o'girmalarida yetarlicha ochiqlanmagani aytib o'tilib, ularning o'zbek adabiy tili va shevalarida eski turkcha bilan deyarli birday ko'rinishda saqlanganiga urg'u beriladi. Shuningdek, ayrim eski turkcha so'zlarning o'qilishi va ochiqlamalari bilan bog'liq tortishuvlarga aniqlik kiritish ko'zda tutiladi.

Ochqich so'zlar: *o'zbekcha, Mahmud Koshg'ariy, “b” undoshi, turkiy tillar, eski turkcha, tub turkiy so'zlar, sheva.*

Kirish

Bundan deyarli ming yil oldin – XI yuzyillikda qog'ozga tushirilgan va negizi eng eski chog'larga taqaluvchi minglab so'zlarni o'zida qamrab olgan Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” (Turkiy so'zlar devoni) asari ilk turkiy so'zlikdir. Bu so'zlik bugungi turkiy tillar o'tmishini yorituvchi o'xshashi yo'q yozma manba o'laroq izlanuvchilarni o'ziga tortib keladi. Buni keyingi yuz yilga yaqin vaqt kesimida “Devon”ning nemischa, Onado'li turkchasi, o'zbekcha, inglizcha, uyg'urcha, forsha, qozoqcha, ruscha, qirg'izcha, xitoycha kabi o'nlab tillarga birin-ketin o'girilib, chop etilishi bilan birga, asar bilan bog'liq yuzlab yirik izlanishlar, minglab maqolalar kun yuzini ko'rayotganining

¹ Boboyorov G'aybulla Bolliyeovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

Iqtibos uchun: Boboyorov, G. B. 2024. “Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asaridagi ayrim so'zlarning o'zbek shevalarida saqlanishi (“b” undoshi bilan boshlanuvchi so'zlar o'rnagida)”. *Oltin bitiglar* 2: 136 – 158.

o'ziyoq ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, 1950-yillardan bugungi kungacha "Devon"ning Onado'li turkchasi [Atalay 1941-1944; Erdi, Yurteser 2005; Ercilasun 2014], o'zbekcha [Муталлибов 1960-1963; Болтабоев, Исабеков 2016; Содиқов 2017], ruscha [Ауэзова 2005; Рустамов 2010] kabi bir necha o'girmalari chop etildi. Ushbu tillardagi nashrlarning har birida eski turkiy so'zlar bilan bog'liq ko'plab chigalliklarga aniqlik kiritilayotgani quvonarlidir.

Qanchalik talato'pli yillar bo'lishiga qaramasdan 1960-yillarda turkiy ellar orasida "Devon"ning birinchilardan bo'lib o'zbek tilida chop etilishi va sovet turkologlarining ana shu o'girmaga tayanib, turkiy so'zlar bo'yicha izlanishlar olib borganliklarining o'ziyoq o'zbek tilshunosligining ulkan yutug'iga aylangan edi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, S. Mutallibov boshlab bergan va G. Abdurahmonov, Q. Mahmudov, Q. Karimov kabi atoqli tilchilarimiz tomonidan 1960-1980-yillarda yanada yuksak cho'qqilarga olib chiqilgan o'zbek turkologiyasi (Sh. Shoabdurahmonov, S. Dolimov, E.Fozilov, A. Rustamov, H. Dadaboev, Q. Sodiqov, N. Rahmon, Q.Omonov va yana bir necha izlanuvchilarimizni aytmaganda) bugungi kunda bundan 50 yillik oldingi dovrug'ini tiklay olganicha yo'q.

Mahmud Koshg'ariy asarida o'rin olgan deyarli 8000 mingga yaqin turkiy so'z bugungi turkiy tillarda u yoki bu ko'rinishda saqlanib qolgan bo'lib, ularning sezilarli bir bo'lagi o'zbek tilida bundan ming yil oldin qanday qo'llanilgan bo'lsa, unchalik o'zgarmasdan shundayligicha ishlatilib kelinadi. Qizig'i shundaki, asarda turkiy tillarning o'zak adabiy tili deb tilga olingan "Xoqoniya turkchasi" (Qoraxoniylarning ish yuritish va yozishma tili)ga tegishli so'zlarning ko'pchiligi bugungi o'zbek va uyg'ur tillarida, Koshg'ariy tomonidan turklarning yirik bir bo'lagi o'laroq eslab o'tilgan "o'g'uz turklari" bilan bog'liq so'zlar Onado'li turkchasi, ozarbayjoncha, turkmancha, gagauzcha va o'zbek tilining Xorazm – o'g'uz tarmog'ida keng ko'lamda saqlanib qolgani ko'zni quvontiradi. Shunga o'xshash "Devon"da chigil (qarluq, yag'mo, arg'u), shuningdek, o'g'uzlar singari turkiylarning ko'p sonli bir tarmog'i deb eslatilgan qipchoqlarning bugungi izdoshlari – qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, qoraqalpoq, no'g'oy, qumiq, qorachoy-bolqor, qaraim va qirimchaq tillaridagi so'zlarning ko'pchiligi asarda o'rin olgan so'zlar bilan deyarli birday. Bundan tashqari, asardagi minglab so'zlarga turkiy tillarning boshqa tarmoqlari – Sibirdagi oltoy, xakas, tuva, shor, teleut, saxa (yoqut) tillarida duch kelsak, eski turkiy so'zlarning sezilarli bir bo'lagini esa Erondagi xalach, qashqay, Xitoydagi sariq uyg'ur va

salor tillarida uchramiz.

“Devon”ni o‘zbek tilida chop etgan bilga olimlarimiz har bir so‘zga sinchkovlik bilan yondashib, ularni bor bo‘yicha ko‘rsatgan holda bilim ahliga va el-yurtimizga yetkazib berishga tirishganlar. Ularning xizmatlarini qanchalik ulug‘lasak shunchalik oz. Ayniqsa, S.Mutallibovning bu ezgu ishi bugungacha izlanuvchilarning qo‘lidan tushmasdan keladi. Shu bilan birga, asarning ilk o‘girmasidan bugungacha o‘tgan 60 yildan ortiq vaqt kesimida “Devon”dagi so‘zlarning o‘qilishi, tub anglami va saqlanish darajasi bilan bog‘liq ko‘plab izlanishlar kun yuzini ko‘rganini aytib o‘tish kerak.

Kezi kelganda shuni aytib o‘tish kerak, “Devon”ni o‘zbek tiliga o‘giran tilchilarimizning yutuqlari bilan birga ayrim kichik yanglishuvlarga yo‘l qo‘ygani ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, ayrim so‘zlarning birmuncha yanglish o‘girilgani seziladi: **“tag‘ay – amaki”** emas, **“tog‘a”**, **“Xitay – yuqori mansab nomi”** emas, Xitoy, **“küp – ko‘p”** emas, kub (idish), **“to‘larsuq – oyoq izi”** emas, hayvonning orqa oyog‘i to‘pig‘i/tovoni va b. [qar. ДЛТ 1960, I, 130, 460; ДЛТ 1963, III, 256; ДЛТ 1967, 255; ДЛТ 2016, III, 78, 165; ДЛТ 2017, 405]. Shu o‘rinda asarning Q. Sodiqov o‘girmasida bu kabi yanglishuvlarga birmuncha tuzatishlar kiritilganini aytib o‘tishimiz kerak [qar. ДЛТ 2017].

Shuningdek, o‘nlab so‘zlar o‘zbekchaga o‘girilar ekan, eskidan qanday bo‘lsa, shunday ko‘rinishda o‘zbek tilida saqlanib qolayotganiga qaramay, “Devon” nashrlarida o‘rin olmaganiga ko‘zimiz tushadi. Quyida biz “Devon”ning o‘nlab tillarga qilingan o‘girmalariga tayanib, shuningdek, tilchilarimizning ko‘plab izlanishlarida qo‘lga kiritilgan yutuqlari bilan tanishgan holda [Аллабердиев 2016; Tog‘ayev 2019: 107-127 ва б.] asarda uchraydigan “b” undoshi bilan boshlanuvchi va asarning o‘zbekcha nashrlarida deyarli o‘rin olmagan so‘zlarning o‘zbek adabiy tilida va shevalarimizda saqlanishiga to‘xtalib o‘tamiz:

1. **“bağ – tok”** [ДЛТ 1963, III, 166; ДЛТ 1967, 61]. O‘zbek shevalarida **“bāğ – tokzor”** ma‘nosida ham uchraydi. O‘zbek tilining ochiqklamali so‘zligi – izohli lug‘atida bu so‘z “mevali daraxt, tok va gul bilan band maydon, mevazor” deb ochiqqlanadi [ЎТИЛ 2006, 349].

2. **“bağır – jigar”** [ДЛТ 1960, I, 341]. Turkiy tillarning ko‘pchiligida eski turkchadagi kabi saqlanib qolgan bu so‘z “Devon”ning o‘zbekcha o‘girmalarida “jigar” deb ochiqqlanadi. Holbuki, o‘zbek tili va shevalarida forscha “jigar” anglamida “bağır” (bağır, bavur) ko‘rinishida, shuningdek, “bağırkeng, toshbağır” va

boshqa bir necha so'z birikmasi o'rnagida ancha keng uchraydi [qar. ЎТИЛ 2006, 190-191; ЎХШЛ 1971, 40; Ҳафасов 2011, 30].

3. **"bağirlaq"** – loyxo'rak dega bir qush" (kulik, chirok) [ДЛТ 1960, I, 461; ДЛТ 2017, 198]. O'zbek tilining Xorazm shevasida **"bağirtlaq"** – churraq (qumda yashaydigan kaptarga o'xshash qush" (chirok) so'zi uchraydi [ЎХШЛ 1971, 41]. Shunga o'xshab turkiy tillardan bir nechasida bu so'z **"bağirtlak"** (turk., ozarb.) ko'rinishida saqlanib qolgan [DLT 2014, 220, 570; DLT 2006, IV, 64],

4. **"bağırçaq"** – eshak to'qimi" [ДЛТ 1960, I, 460; ДЛТ 2017, 198]. O'zbek shevalarida bu so'z saqlanmagan bo'lsa-da, shunga birmuncha yaqin keluvchi ayrim so'zlarga duch kelinadi. O'rnak uchun, Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi o'zbek qarluq shevasida **irğınçaq** "eshak egari" so'zi uchraydi [ЎХШЛ 1971, 120]. Qozoq tilidagi **"baursa"** – tartpanıñ attıñ bauırına keletin jalpaq jeri" ((egar) tortmasining ot bag'riga tortiladigan yalpoq bo'lagi) bo'lsa [Қалиев 2014, 99], Onado'li turkchasi shevalarida **"bağırçaq"** – ot va ho'kizga qo'shiladigan aravalardagi old yostiq bilan arava o'qi orasiga qo'yiladigan uzun mato" bu so'zning eski ko'rinishiga yaqin keladi [qar. Derleme Sözlüğü 1993, 474].

5. **"bağram qum"** – kichik tepalar ko'rinishida yig'ilgan qum (qumtepa)" [DLT 2014, 211]. "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bu so'z birikmasi "Elangan qum. Mayin qum" deb ochiqlangan [qar. ДЛТ 1960, I, 447]. Bizningcha, ayrim turkiy tillardagi, shu jumladan, o'zbek tilidagi **"barxan"** so'zi bilan eski turkchadagi **bağram** bitta negizdandir. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **"barxan(lar)"** – sahro va cho'llarda shamol ta'siri (kuchi) bilan paydo bo'ladigan ko'chma qumtepalar" deb keltiriladi [ЎТИЛ 2006, 172]. Asarning turkcha o'girmasida "kichik tepalar ko'rinishida yig'ilgan qum" [DLT 2014, 211], qozoqchasida "qum dalasi, qum dengizi" deb o'girilishi bilan birga bu so'z "barxan" ma'nosida qavs belgisi orasida berib o'tilishi [ДЛТ 1998, 543] ham ushbu atamani shu yo'sinda ochiqlashga undaydi.

6. **"baziç"** – ishkom; *badiçliq yığaç* – ishkom yog'och" [ДЛТ 1960, I, 461]; "toklarga ishkom va so'ri qilish uchun tayyorlangan yog'och" [ДЛТ 2017, 198]. Bizningcha, bu so'zning ilk bo'lagi o'zbek shevalaridagi **"vəliš"** (vəlish) – ishkom (toklarni ko'tarib qo'yish, tarash, yoyish uchun ishlatiladigan so'ri)" (Farg'ona vodiysi o'zbek shevalari) va O'zbekistonning boshqa viloyatlarida (Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo) qo'llaniladigan shunga o'xshash **vəyiş / vayış** so'zlari bilan bitta negizdan bo'lsa kerak [qar. ЎХШЛ 1971, 60-61]. Eski turkchada so'z boshi va so'z o'rtasida d – z – y almashinuvi

ko'zda tutiladigan bo'lsa, **badiç > vayış** o'zgarishi yuz bergan deya olamiz. "Devon"da bu so'zning **bazıç – badiç** ko'rinishlarida turlicha berilishi ham bu qarashimizni kuchaytiradi. Bu so'zning negizida eski turkcha ba- "bog'lamoq" fe'li yotib [qar. ДТС 1969, 76], undan **bazıç** so'zi yasalgan deb qarashga yetaklaydi. Shuningdek, uni sug'diycha **βδyз** "o'rama, o'ramoq, bog'lamoq" so'zi bilan solishtirsa bo'ladi [Gharib 1995, 100]. Sug'diy tilda so'z boshidagi ayrim undoshlarning keyinchalik birmuncha o'zgarishga uchrab, **βδyз** so'zi **vāliš** ko'rinishini olgan deb qarashga turtki bo'ladigan o'rnaklarga duch kelamiz: so'z boshida β > v, f, so'z o'rtasidagi δ > l. O'rnak uchun: βzδ' – Bazda = Fazli (Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi qadimiy qishloq) [Нафасов 2009, 266]. Bizningcha, ikkinchi qarash to'g'riroqqa o'xshaydi. Chamasi, turkiylar sug'diycha βδyз so'zini **bazıç** ko'rinishida o'zlashtirganlar.

7. **"bala** – qush bolasi. Shuningdek, yirtqich va boshqa hayvonlarning bolasiga nisbatan ham istiora ravishda qo'llanadi; ishlarda odamga yordam beradigan yordamchi. Bu so'z ko'pincha ekin-tikinchilik ishlarida yordam berishga qo'llanadi" [ДЛТ 1963, III, 250-251]. Bu so'zning ikkinchi ma'nosi o'zbek tilida **"malay**– 1. xo'jayin yoki boshqa birovning xizmatlarini bajaruvchi kishi, xizmatkor. 2. Birovning manfaati uchun ko'r-ko'rona xizmat qiluvchi odam" so'ziga to'g'ri keladi [ЎТДЛ 2006, 533]. **"Bala** – qush bolasi" so'zi o'zbek, qozoq va yana bir necha turkiy tillarda "polapon", "palapon", "balaban" so'zlari bilan bitta negizdan [ЎТДЛ 2008, 290].

8. **"baldiz** – xotinning singlisi. Erning singlisiga baldiz deyilmaydi, singil deyiladi" [ДЛТ 1960, I, 426]. "Devon"ning o'zbekcha ko'rsatkichida bu so'z **"baldiz** – xotinning singlisi (boldiz)" deb keltirilgan [DLT 1967, 54]. Ko'plab o'zbek shevalarida (Toshkent, Jizzax, Xorazm va b.) **"baldiz** – qaynsingil (xotinning singlisi)" anglamidadir [ЎХШЛ 1971, 335; Тўйчибоев, Қашқирли 2012, 199].

9. **"baliqçin** – qarqara, oq quton, baliq ovlaydigan oq qush" [ДЛТ 1960, I, 468; ДЛТ 2017, 202]. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **"baliqçi** – suvdagi baliqlar bilan tiriklik qiluvchi, cho'l-duqsimonlar oilasiga mansub qushlar oilasi" deb ochiqqlanadi [ЎТДЛ 2006, 149]. Onado'li turk shevalarida **"baliqçin", "baliqçil",** ozarbayjonchada **"baliqçiq quş"** shu ma'nolarda ishlatiladi [Derleme Sözlüğü 1993, 504; DLT 2006, 487].

10. **"bart** – suv ichiladigan idish (o'g'uzcha)" [ДЛТ 1960, I, 327; DLT 2014, 148]. O'zbek shevalarida negizi bu so'zga borib taqaladigan **"batqaldaq** – suv tashiydigan jo'mraksiz sopol idish"

so'zi saqlangan (Sayram) [ЎХШЛ 1971, 44] – bart+qaldaq > batqaldaq. Onado'li turkchasidagi **"bardaq"** – suv ichadigan idish, sopol idish" ham shu negizdandir [DLT 2014, 148, n. 623].

11. **"baqayaq / baqanaq"** – ayri tuyoqlilarning ikkita tirnog'i orasi va ikki tirnoqdan biri" [DLT 1963, III, 192; DLT 2014, 571]. Bu so'z xakas tilida **"pağayax"** – oyoq bilagi (panjasi), oshiq suyagi" ko'rinishida saqlangan [qar. Arıkoğlu 2014]. Onado'li turkchasi shevalaridan birida "bağanak – echki va qo'yning tirnog'i" anglamida ishlatiladi [Derleme Sözlüğü 1993: 474]. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **"baqay"** – shevada; pocha, to'piq, boldir suyagi" deb ochiqlangan [ЎТИЛ 2006, 185]. Bu so'zlarni o'zbek shevalarida uchraydigan quyidagicha so'zlar bilan solishtirsa bo'ladi: baqay – 1. pocha, hayvon pochasi "нижняя часть ноги животного" (Janubiy / Markaziy Xorazm); 2. to'piq «**щиколотка**» (Shimoliy Xorazm) [ЎХШЛ 1971, 41]. Qirg'izchada **"bakay"** – otning yoki qoramolning tuyog'i" anglamidadir [Юдахин 1985, 100]. Qozoqcha "baqay" ham shu ma'noni anglatadi [Қалиев 2014, 86].

12. **"baqir – mis; chaqa (pul)"** [ДЛТ 1960, I, 341-342]. O'zbek tilining ko'plab shevalarida **"baqir / paqir"** – (mis) chelak; chaqa (pul)" anglamida qo'llaniladi [ЎХШЛ 1971, 41]. Onado'li turkchasi va tatarcha **"bakir – mis"**, qozoq va yana bir necha turkiy tilda **"baqir – aqcha (pul)"** degan ma'noda ishlatiladi [Қалиев 2014, 87].

13. **"baqlan; baqlan qozi"** – yosh va semiz qo'zi" [ДЛТ 1960, I, 415]. O'zbek tilida eskirgan va oz qo'llaniladigan **"baqlan"** so'zi uchrab, u "qo'y, qo'chqor, qo'zi, hisori" kabi qo'ychilik bilan bog'liq atamalardan biridir [Нематов, Расулов 1995, 113]. Qozoq tilida **"baqlan"** – ertaroq tug'ilib, erta yetilgan qo'zi" ma'nosida uchraydi. Qoraqalpoq tilida **"baqlan"** – semiz qo'y", **"baqlan quzi"** – semiz qo'zi", uyg'ur tilida **"baqlan"**, qirg'iz tilida **"baklan"** so'zlari shunga yaqin ma'nolarda keladi [Түрсынова, Бидола 2016, 323].

O'zbek tilida bu so'z etnik atama o'laroq ham uchrab, Xorazm viloyati Yangibozor tumanida Baqlon, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi Kat qishlog'i yonida Bog'lon deb ataladigan qishloqlar bor [Марқаев 2021].

14. **"bat – tez, darrov"** [ДЛТ 1960, I, 461]. Bu so'z boshqa turkiy tillarga qaraganda o'zbek tilida "bot (**bât**) – oradan ko'p vaqt o'tmay yoki o'tkazmay, tez", "bot-bot (**bât-bât**) – dambadam, tez-tez, birin-ketin" ko'rinishlarida yaxshi saqlangani ko'zga tashlanadi [ЎТИЛ 2006, 327-328]. Shunga qaramay, "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bunga e'tibor berilmagan. Qirg'izchada **"bat"**, uyg'urchada **"pat"** – "tez, tez orada, yaqin" so'zlaridan tashqari

[Юдахин 1985, 116; ДЛТ 2014, 140, n. 594], turkiy tillarning ko'pchiligida bu so'z saqlanib qolmagan.

15. **“batigʻ – daryo va boshqalarning chuqur joyi”** [ДЛТ 1960, I, 352]. O'zbek tilida **“botiq (bātiq) – 1. Ichiga botgan, botinqi; 2. Quruqlikda yer yuzasining, shuningdek, okean va dengizlar tubining atrofiga nisbatan ancha pasta botgan joylari”** degan ma'nolarda ishlatiladi [ЎТИЛ 2006, 329].

16. **“başaq – o'q va nayza uchidagi temir; to'piq (boshmoq)”** [ДЛТ 1960, I, 359]. Bu so'z o'zbek tilida onda-sonda bo'lsa-da, uchrab turadi. Ayniqsa, ilmiy izlanishlarda bunga ko'proq dech kelamiz. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **“boshhoq (bāşāq) – kamon o'qining boshi, o'q uchi”** deb keltirilishi ham buning bir dalilidir [ЎТИЛ 2006, 342].

17. **“başmaq – to'piq”** [ДЛТ 1960, I: 433]. “Devon”ning turkcha o'girmalarida bu so'z **“boshmoq (oyoq kiyim)”** deb berilgan [DLT 2014, 162, 578]. Asarning o'zbekcha nashri ko'rsatkichida **“başaq”** so'ziga shu ma'noda **“boshmoq”** deb ochiqlama berilgan [DLT 1967, 59]. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **“boshmoq (bāşmāq) – kigiz etik, piyma; umuman oyoq kiyimi”** deb ochiqlangan [ЎТИЛ 2006, 342]. Turkiy tillarning bir nechasida **“oyoq kiyim turi”** ma'nosida qo'llaniladigan [ЭСТЯ 1978, 93-94] bu so'z “Devon”ning o'zbekcha o'girmalarida **“to'piq (o'g'uzcha so'z)”** deb keltirilgan [ДЛТ 1960, I, 433]. Asarning keyingi o'girmalarida ham bunday ochiqlamaning qaytarilishi [ДЛТ 2017, 185] esa o'zbek tilida bu so'z saqlanmagan degan qarashni keltirib chiqaradi. Bunday yondashuvlar ayniqsa, “Devon”ning turkcha, qozoqcha, qirg'izcha yoyinlarida va asar bo'yicha olib borilayotgan ayrim izlanishlarda ko'zga tashlanib keladi [Осоналиева 1972, 97-99; ДЛТ 1998; ДЛТ 2014].

Qizig'i shundaki, o'zbek shevalarida **“pāşmāk (pashmak)”** so'zi **“tuyaning tovonı»** ko'rinishida uchraydi (Qashqadaryo v., Muborak t.) [Нафасов 2011, 225].

18. **“bazgan – temirchilar qo'llanadigan bolg'a”** [DLT 2014, 7, 190]. “Devon”ning o'zbekcha nashrlarida bu so'z **“yassi burunli”** deb yanglish o'girilgan [ДЛТ 1960, I: 56; ДЛТ 2017, 20]. “Devon”ning 1940- yillardagi B. Atalay o'girmasida **“Mersin (og'ochining) yemishi”** ko'rinishidagi ochiqlama berilgan bu so'z inglizcha Dankoff-Kelli nashrida **“smiths hammer”** (temirchilar bolg'asi) deb tuzatilgan [DLT 1985b, III: 69; ДЛТ 2014: 190, n. 802]. Asarning qozoqcha nashrida Turkiyadagi kabi **“Mersin og'ochining yemishi (mevasi)”** deb yanglish o'girilgani ko'zga tashlanadi [ДЛТ 1998, I, 44].

Bu tuzatish asarning keyingi turkcha o'girmasida "demirci çekiçi", ruscha o'girmasida esa «кузнечный молот» (temirchi bolg'asi) ko'rinishida o'rin olgan [DLT 2014, 190, n. 802; ДЛТ 2005, 62].

O'zbek tilida "bosqon (**bāsqān**) – temirchilarning katta, og'ir bolg'asi", "chilangarlar ko'rasidagi ko'raga havo haydovchi va ko'mirning yonishini kuchaytiruvchi qurilma" deb ochiq lanadi [ЎТИЛ 2006, 327]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, turkiy tillar orasida bu so'z ko'proq o'zbek tilida saqlanib qolgan.

19. "**bāk** (bek) – mustahkam, mahkam: *bāk neḡ* – mustahkam, mahkam narsa" [ДЛТ 1960, I, 321; DLT 2014, 145]. "Devon"da boshqa bir o'rinda "*beg / bāg*" so'zi uchrab, unga ham "mahkam, pishiq, qattiq" deb ochiq lama berilgan [ДЛТ 1960, I, 424]. Bu ochiq lamalar asarning boshqa yerida keltirilgan "**beg** – bek (amaldor); xotinning eri" so'zlaridan ayri-ayri betlarda keltirilishi ularning boshqa-boshqa so'zlar bo'lganini ko'rsatadi. Bāk so'zi ko'pchilik turkiy tillarda tom ma'noda shu ko'rinishda uchramasada, uni uyg'urcha, Onado'li turkchasi va qozon tatarchasidagi "qattiq; sog'lom, chidamli; kutilgandan ortiq; tez" ma'nosida orttirma, kuchaytiruvchi ang lamida ayrim so'zlar oldida keladigan **pāk, pek, bik** so'zlari bilan tenglashtirsa bo'ladi. O'rnak uchun, turk. pek iyi; pek güzel, q. tatar. bik zur "o'ta yaxshi" kabi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'zbek shevalarida "**pāk**" so'zi uchrab, u "sal (oz qolmoq)" deb ochiq lanadi [ЎХШЛ 1971, 216]. Bizningcha, bu va uning boshqa ko'rinishi bo'lgan o'zbek shevalaridagi **pāk** so'zini "Devon"dagi va boshqa turkiy tillardagi bāk, pāk, pek, bik bilan bitta negizdan deb qarash kerak. Shevalarimizda "paq / pāk qāldi (pak / paq qoldi) "tez, tez bo'ldi, sal qoldi (voqea sodir bo'lishiga o'ta oz qoldi)" degan ma'nolarda ishlatiladigan ibora bu so'zga o'rnak bo'la oladi.

20. "**bālāk** – sovg'a, tuhfa. Safar qiluvchi odam o'z yaqinlariga olib boradigan yoki biror bir yerdan boshqa bir yerga keltiriluvchi sovg'a" [ДЛТ 1960, I, 366]. Bu so'zga turkiy tillarning ayrimlarida uchrab, o'zbek tilida saqlanib qolmagan deb qaraladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'zbek tilida fors yoki arab tilidan kirib kelgan so'z deb bilinadigan "palak [**pālāk**] – osmon gumbaziga o'xshash doira shaklidagi gul naqshlar bilan qoplangan, odatda uy devorlariga bezak uchun osib qo'yiladigan kashtachilik buyumi"ning [ЎТИЛ 2008, 206] negizi bu so'zga borib taqalmasmikan, deb qarashga undaydi. Chamasi, kelinning yangi tushib borgan kuyov uyiga "sovg'a" o'laroq "palak" olib borishi shu ang lamni tashuvchi eski turkcha "balak"ka borib taqaladi.

21. **“bedük** – har narsaning kattasi” [ДЛТ 1960, I, 366]. S.Mutallibov uning boshqa bir ko‘rinishi bo‘lgan **bezük** so‘zini “buyuk, baland” deb o‘g‘irgan [ДЛТ 1960, I: 119]. O‘zbekchada “buyuk (**büyük**) ko‘rinishida uchraydigan bu so‘z turkiy tillarda **“biyik”** (qozoq.), “büyük” (turk.) ko‘rinishlarida saqlanib qolgan. Uning eng eski ko‘rinishi tuva turkchasida saqlangan: **“bedik”** [Ойноткинова, Миндибекова, Юша 2018, 180].

22. **“beçkäm** – belgi, nishon. Ipakli narsa yoki yovvoyi sigirning dumini botirlar urush kunlarida jang belgisi tarzida taqib oladilar. O‘g‘uzlar uni parcham deydilar” [ДЛТ 1960, I, 446]. Bu so‘z turkiy tillarning ko‘pchiligida deyarli saqlanmagan. Afg‘oniston o‘zbeklari shevasida **“beçkäm** – bayroq” degan anglamda ishlatiladi.

23. **“beg** (bäg) – I. bek, II. er. Xotinning eri. U uyida beklarga o‘xshatilgani uchun shunday atalgan” [DLT 1963, III: 170]. Farg‘ona vodiysining ayrim yerlarida yosh kelinlarning o‘z eriga yuzlanganda “begim” deyish an‘anasi saqlangan.

24. **“bez** – et bilan teri orasida (ma‘lum sabab bilan) paydo bo‘ladigan shish” [ДЛТ 1963, III, 134]. O‘zbek tilida **“bez** – inson tanasining yallig‘lanishi natijasida teri bilan et orasida do‘mpayib chiqqan shish” degan ko‘rinishda uchraydi [ЎТИЛ 2006, 208]. Onado‘li turkchasida “et bezi” shu anglamdadir [DLT 2014, 319].

25. **“bezik** – titroq, larza” [ДЛТ 1960, I: 366]. O‘zbek tilida **“bezgak (bezgäk)** – isitma chiqarib, qaltiradigan yuqumli kasallik” so‘zi bilan bitta negizdan [ЎТИЛ 2006, 210].

26. **“benäk** – chaqa, pul” [ДЛТ 1960, I: 367]. O‘zbek tilida birmuncha eskirgan bo‘lsa-da **“bönak** – biror ish yuzasidan ish beruvchilarning ish bajaruvchilarga oldidan beradigan qarzi (puli)” ko‘rinishida saqlanib qolgan [qar. ЎТИЛ 2006, 416].

27. **“bergü / bärügü** – qarz” [ДЛТ 1960, I: 403]. Bu so‘z o‘zbek tilining Shimoliy Xorazm shevalarida **“bergü** – qarz” [ЎХШЛ 1971, 50], Qarshi shevasida **“bergülik** – o‘zga kishiga beriladigan narsa, haq” o‘rnida ishlatiladi [Хафасов 2011, 36].

28. **“bertindi** – zaiflandi, bo‘shashdi” [ДЛТ 1963, II, 276]. O‘zbek tilining qarluiq shevasining bir necha tarmoqlarida (Namangan, Farg‘ona, Olmos, Toshqo‘rg‘on, Karkidon) **“bertmaq** – shikastlanmoq, lat yemoq” fe‘li uchraydi [ЎХШЛ 1971, 50]. Onado‘li turkchasida shunga yaqin **“bertilmek”** uchrab, u “Devon”dagi so‘zga yaqin keladi. Asarni bu tilga o‘g‘irgan izlanuvchilar “bertindi - et darbe vb. şeylerden dolayı bertildi ve onda (elde) zayıflık ve durgunluk belirdi” (et zarba va boshqa narsalar tufayli bertildi va unda (qo‘lda) zaiflik va charchoq sezildi)” ko‘rinishida ochiqqlaganliklari

ham buni ko'rsatib turibdi [DLT 2014, 302].

29. **"bi** – bu so'zning böy shakli ham bor. Bir xil qurt-qo'ng'iz" [ДЛТ 1963, III, 224]. "Devon"ning 2017-yilgi o'girmasida **"böy** – bir turli o'rgimchak. Bu so'zning bög varianti ham bor. To'g'risi shudir" deb ochiqlangan [ДЛТ 2017, 370]. O'zbek shevalarida **"biy** – o'rgimchakning zaharli bir turi", **"böy** – qoraqurt" (zaharli o'rgimchak) ko'rinishlarida uchrasa-da [qar. ЎХШЛ 1971, 55; Нафасов 2011, 41], bu so'z "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida shu ko'rinishlarida o'rin olmagan. Turkiy tillar orasida qirg'izcha **"böy"**, **"böyön"**, **"böyü"** **"böö"** so'zlari shu ma'noda ishlatiladi [Юдахин 1985, 150]. Anado'li turkchasi shevalarida **"bö"**, **"böy"**, **"böye"**, **"böğ"** so'zlari "qurt, chayon, ilon" va shunga o'xshash zararli yaratilqlar uchun qo'llaniladi [Derleme Sözlüğü 1993, 755-756, 773].

30. **"biçğuç** – qaychi. Bu bilan har narsa kesiladi"; **"biçğu** – narsalarni kesuvchi asbob" [ДЛТ 1960, I: 421; DLT 1967: 67]. O'zbek tilida **"biçqī** – qo'l arra, kichik arra" so'zlari uchraydi [ЎХШЛ 1971, 53, 221]. O'zbek shevalaridagi **"biçqiç** – bichuvchi, kiyim bichish bilan shug'ullanuvchi", **"biçimçi"** atamaları [Нафасов 2011, 45] ham ular bilan bitta ildizdan

31. **"bīrqīğ** – ot va eshaklarning burnidan nafas olish bilan xirillashi, pishqirishi" [ДЛТ 1960, I: 429; DLT 2014: 201]. O'zbek shevalaridagi **"pīrqīllamaq** – (to'mov bo'lib) burnidan nafas olishda qiynalmoq" ma'nosida so'z ham shu negizdan.

32. **"biçin** – maymun: biçin yīlī – maymun (muchali) yili" [ДЛТ 1960, I: 387]. O'zbek tilining Xorazm shevasida **"biçin** (yīlī) – maymun (muchali) yili" deb yuritiladi [ЎХШЛ 1971, 180]. Qozoqchada bu so'z **"meşin jīlī"** o'laroq qo'llaniladi.

33. **"bitig / bitik** – kitob; yozuv; tumor" [ДЛТ 1960, I, 366]. O'zbek adabiy tilida **"bitik** – yozuv, xat, asar" [ЎТИЛ 2006, 282], shevalarda **"pitik** – peshonasiga bitilgan; pitik-taqdir – taqdir" ko'rinishlarida uchraydi (Qashqadaryo vil. Ko'kdala t., Harduri q.).

34. **"böktir** – tog'lardagi baland-pastlikyer" [ДЛТ 1960, I, 424]. O'zbek shevalarida **"böktār** – tog' etagi" (Zomin, Baxmal) ko'rinishida uchrab, tog'dagi qishloqlardan biri Bo'ktaryo'l deb ataladi. Qirg'iz tilida ham bu so'z shu ko'rinishda saqlanib qolgan. Boshqa o'zbek shevalarida **"böktārmaq** – 1. Egar orqasiga yumaloqlab o'rab bog'lamoq (Dehqonobod t.). 2 Qalin va quyuq bo'lib bosmoq (bulut) (Chaydari q.)" ko'rinishida saqlangan [Нафасов 2011, 59].

35. **"borğuy** – puflab chalinadigan karnay" [DLT 1963, III: 259]. O'zbek tilining ochiqlamali so'zligida **"burğu** – karnay yoki surnay shaklidagi qadimiy cholg'u asbobi" deb ochiqlanadi [ЎТИЛ

2006, 385]. Bu soʻz shu maʼnoda koʻpchilik turkiy tillarda deyarli saqlanib qolmagan.

36. **“boşlag”** – boʻsh qoʻyilgan (hayvon)” [DLT 1941, faksimile: 232]. Oʻzbekcha oʻgirmalarda bu soʻz “bashlag” (**başlag**) [ДЛТ 1960, I: 429;], turkcha va inglizcha oʻgirmalarida **boşlag** koʻrinishida keltirilgan [DLT 1985b, 1985, 77; DLT 2005, 176]. A. Rustamiyning 2010 yilda ruscha oʻgirmasida ham “bashlag” koʻrinishida berilgan boʻlib, ushbu tilchi olim Dankoff nashridagi boşlag ni qabul qilmagan [DLT 2010, 374]. Biroq bu soʻz qoʻlyozmada  **boşlag yilqi** soʻz birikmasi oʻrnagida ham uchrab, soʻz boshidagi ilk be (b) – shin (sh) harf belgilari orasidagi belgining (alif) yoki (vav) ekanini aniqlash birmuncha qiyin [qar. DLT 1941, facsimile, 232]. “Devon” da **boş** “erkin, boʻsh, boʻshatilgan” soʻzi bilan birga **boşlaglandi** “takabburlandi” feʼli uchrashi [ДЛТ 1963, III, 137; ДЛТ 1963, II, 316] bu soʻzni “bashlag” emas, “boʻshlag” oʻqish kerakligini koʻrsatadi. Shu oʻrinda bu soʻzni boşlag deb oʻqishimizni oʻzbek shevalarida **“boşlag”** (boshlagʻ) (“boʻsh: маллар бошлағ йүрөптә”) soʻzi uchrashi ham qoʻllab-quvvatlaydi [qar. Abdullaev 1961, 29].

37. **“boz munçuq** – xotinlar taqadigan bir xil munchoq” [ДЛТ 1963, III, 133]. “Devon” koʻrsatkichi tuzuvchilari bu soʻzni yanada aniqroq qilib “tumor, bir xil munchoq (amulet)” deb ochiqlashgan [ДЛТ 1967, 71]. Bu soʻzni shunga oʻxshashroq maʼnodagi oʻzbekcha “koʻz munchoq (**köz munçaq**)” (“Koʻz tegmasin) uchun (odatda yosh bolaning qoʻli, kiyimi va sh.k. ga) taqib qoʻyiladigan munchoq” soʻzi bilan solishtirsa boʻladi [qar. ЎТИЛ 2006, 449].

38. **“boqağu** – oʻgʻrilar boʻyniga solinadigan sirtmoq” [ДЛТ 1960, I: 417]. Bu soʻz oʻzbek tilidagi **“boğav** – kishan, sirtmoq, band, iskanja” soʻzining eng eski koʻrinishidir [ЎТИЛ 2006, 429]. Oʻzbek tilida birmuncha keng ishlatilishiga qaramay “Devon”ning oʻzbekcha nashrlarida oʻrin olmagan bu soʻz Qrim tatar tilida **“buğav”** koʻrinishda uchraydi [Kırım Tatar Sözlüğü 2017, 97].

39. **“boxsuq / boğsuq** – tutqunlar va oʻgʻrilar boʻyniga solinadigan temir kishan” [ДЛТ 1960, I, 432;]. Bu soʻz yuqorida oʻzbek tili oʻrnagida keltirilgan **“boğav** – kishan, sirtmoq, band, iskanja” soʻzi bilan bitta negizdan.

40. **“boğra** – erkak tuya” [ДЛТ 1960, I, 397]. Turkiy tillarining koʻpchiligida **“boğra”, “buvra”** deb uchraydi. Oʻzbek tili va shevalarida ham shu koʻrishlarda saqlanib qolgan [ЎТИЛ 2006, 429].

41. **“boğlamaq** – bogʻlamoq, boʻxcha qilib tugmoq” [ДЛТ 1963, III, 307]. Oʻzbek tilidagi **“boğça, boxça** – kiyim-kechak, latta-putta va shu kabi oʻrab tugilgan qiyiq, roʻmol, qiyiqcha” koʻrinishlarida

uchraydigan [ЎТИЛ 2006, 421, 429] so'zlar bilan bitta negizdan. Shuningdek, o'zbek shevalarida "boğiq – bog'lagich" (Sayram) ko'rinishidagi so'z ham shunga yaqin [ЎХШЛ 1971, 54].

42. **"bögmäk** – to'plamoq, yig'moq, to'smoq; *ol suwuğ bökdi* – u suvni bo'g'ib, to'xtatib qo'ydi, to'pladi" [DLT 1963, II, 276; DLT 2014, 303]. S. Mutallibov bu so'zni **bükmäk** (bykmäk) deb o'qigan. "Devon"ning boshqa tillardagi o'girmalarida bögmäk ko'rinishida berilgan [DLT 2014, 303]. Shu o'rinda uning o'zbek shevalarida **bögmäk** o'laroq qo'llanilishini ko'zda tutish kerak bo'ladi. O'rnak uchun, Sayram, Qarnoq (Janubiy Qozog'iston) o'zbek shevalarida **bögämäk** – suvni bo'g'moq, to'smoq, **bögät** "to'g'on, to'siq" [ЎХШЛ 1971, 55], Qashqadaryo viloyati, Ko'kdala tumanidagi Harduri qishlog'ida **bögmäk** "ariq suvini turli narsalar qo'yib to'smoq" ma'nosida ishlatiladi.

43. **"bögrül / bökrül:** *bögrül at.* Ikki biqini oq ot. Shuningdek, ola qo'y va boshqa hayvonlarga ham bögrül deyiladi" [ДЛТ 1960, I, 445; DLT 2005, 200]; **"Boğral** – tomog'i oq qo'y" [ДЛТ 1960, I, 445; DLT 2005, 193]. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi o'zbek shevalarida **"burul** – olachipor bo'yinli yilqi" ma'nosida uchraydi [Тўйчибоев, Қашқирли 2012, 219]. Ko'pchilik turkiy tillarda **"buğrul", "bügrül", "buvrul"** so'zlari "ola, olachipor, qo'ng'ir tusli uy hayvoni" uchun qo'llaniladi [ЭСТЯ 1978, 228].

44. **"bölük** – har qanday hayvon jinsi to'dasi; *bir bölük qoy* – bir to'da qo'y" [ДЛТ 1960, I, 366]. O'zbek shevalarida **"bölik** – tomorqa (er)" ko'rinishida uchraydi [ЎХШЛ 1971, 55]. Shuningdek, o'zbek tilidagi "bo'lak (**böläk**) – butunning bir qismi, qism, parcha, kesim" [ЎТИЛ 2006, 407], shevalardagi **"böltäk** – 1. Yaxlit maydonlarning chetida, orasida qolib ketgan kichik hajmli (er). 2 Bichish jarayonida kichik bo'lak sifatida kesilgan, qirqilgan, qiytiq (mato)" [Нафасов 2011, 60] so'zlarining barchasi bitta negizdan.

45. **"budursin** – bedana" [ДЛТ 1960, I, 469]. Bu so'zning birmuncha o'zgargani Onado'li va ozarbayjon turkchasida **"bildirçin"** ko'rinishida saqlanib qolgan. O'zbek, qozoq, qirg'iz va yana bir necha turkiy tillardagi "bedana", "bo'dana" mo'g'ulchadan o'zlashgan so'z bo'lib [Санжеев, Орловская, Шевернина 2015, 121], unga eski turkcha **"budursin ~ budurçin"** bilan bitta negizdan deb qaraladi. O'zbek tilida ushbu sayroqi qush chiqargan tovushidan kelib chiqib **"bitbildiq", "pitpildiq"** deb ham ataladi [ЎТИЛ 2006, 282]. Chamasi, eski turkcha "budursin" so'zining yasalişida ham shunday holat yuz bergan.

46. **"bužti** – sovuqqa qotdi; *er tumlug'qa bužti* "kishi sovuqqa

qotdi, sovuqdan o'ldi" [ДЛТ 1963, III, 443; ДЛТ 1967, 77; ДЛТ 2014, 327]. Bu so'z o'zbek shevalarida quyidagicha ko'rinishda uchraydi: **buyuq** – qish (ba'zan kuz, erta bahor)ning qattiq sovug'i" [Нафасов 2011, 54]; buyuğ – "sovuq"; **buyu** – "qattiq sovuq"; **buyğurmaq** – sovuq urmoq, qattiq sovqotmoq" [ЎХШЛ 1971, 56-57]. Qirg'iz tilida "**buyuk**- muzlamoq" degan ma'noda ishlatiladi [Юдахин 1985, 165]. Shuningdek, turk, ozarbayjon, boshqird, qoraqalpoq, qorachoy-bolqor, qozoq, tatar, tuva kabi turkiy tillarda ham bu so'z shunga yaqin ko'rinishlarda saqlanib qolgan [ЭСТЯ 1978, 242].

47. "**bulan** – qipchoq mamlakatlarida bo'ladigan yirik g'aydali vahshiy hayvon" [ДЛТ 1960, I, 391; ДЛТ 2014, 600]. Bu so'z turkiy tillardan bir qanchasida shu ko'rinishda saqlanib qolgan [ЭСТЯ 1978, 260]. O'zbek tili shevalarida "bulān – yovvoyi eshak" [Мирзаев 2013, 275], o'zbek tilining ochiqchamali so'zligida esa bu so'z "yovvoyi ot" deb ochiqlangan [ЎТИЛ 2006, 370].

48. "**buluq** – burchak" [ДЛТ 1963, III, 381; ДЛТ 2005, 206]. O'zbek qarluqchasining O'sh tarmog'ida bu so'z "**buluq-burçäk** – burchak" ko'rinishida saqlangan [ЎДМ 1961, 422; ЎХШЛ 1971, 57].

49. "**bulğayuq**: *bulğ'ayuq suv* – loyqa suv" [ДЛТ 1963, III, 194]. O'zbek tilining ochiqchamali so'zligida "**bulğ'anch**, bulğ'anchiq – bulğ'angan, iflos, loyqa" deb uchraydi [ЎТИЛ 2006, 373]. O'zbek tilining Qoramurt, Qorabuloq (Jan. Qozog'iston) shevalarida "**bolamiq** – loyqa" [ЎХШЛ 1971, 54], Ko'kdala tumani Harduri qishlog'i shevasida "**bulğ'anchiq** – loyqa (suv)" anglamidadir.

50. "**bulğama** – yog'i ham yo'q, mazasi ham yo'q yovg'on osh" [ДЛТ 1960, I, 453; ДЛТ 2017, 194]. Onado'li turkchasidagi o'girmasida bu so'z "yağı ve şekeri olmayan bulamaç" deb ochiqlanadi [ДЛТ 2014, 216]. Shunga o'xshash so'zlar o'zbek shevalarida keng tarqalgan bo'lsa-da, "Devon"ning o'zbekcha o'girmachilari bunga to'xtalib o'tishmagan. Holbuki, tilimizda "**bulamiq**" va shevalarimizda "**bulamaq**", "**bulmāğ**" so'zlari uchrab, "atala, yog'li atala, bulamiq" degan ma'nolarni bildiradi [Абдуллаев 1969, 29; Нафасов 2011, 55; Аллабердиев 2016, 47].

51. "**buçğaq** – 1) burchak, uch (chet); 2) tuyaning oyoq terisi" [ДЛТ 2014, 203, 599]. S. Mutallibov ushbu so'zlarni "Devon"-ning birinchi jildida shunga yaqinroq ma'nolarda ochiqlab o'tgan [ДЛТ 1960, I, 432], asar uchun ko'rsatkich (indeks) tuzilgan kezlarda bu ikkala so'z ko'rsatkichga kirmay qolgan [ДЛТ 1967, 81-82]. Asarning 2017-yilgi o'girmasida ham ushbu ochiqchamalar qaytarilgan [ДЛТ 2017, 185].

Chig'atoy turkchasi (eski o'zbekcha)da ko'p uchrab, bugungi

turkiy tillarning ko'pchiligida **buççaq** / **puççaq** ko'rinishlarida saqlanib qolgan bu so'z o'zbek shevalarida deyarli uchramaydi deyilsa-da [ЭТЯ 1978, 283], uning o'zbek tilida boshqacharoq ko'rinishlari borligini ko'zdan qochirmaslik kerak: 1) "**puçmâq** – chet, pastqam joy, ovloq; burchak; 2) po'choq (**poçâq**) – meva, sabzovot, danak va b.larning qobig'i" [ЎТИЛ 2006, 325, 331].

52. "**burçaq** – 1) burchoq (loviya turi); 2) ter tomchisi, donasi" [ДЛТ 1960, I, 433]. Bu so'z ko'plab turkiy tillarda bo'lganidek, ham o'zbek adabiy tilida, ham shevalarda "**burçâq** – doni qora-qo'ng'ir rangli, ozuqabop bir yillik dukkakli o'simlik va uning doni", "Bir yillik dukkakli o'simlik va uning doni" deb ochiqilanadi [ЎТИЛ 2006, 385; Нафасов 2011, 54]. Ushbu o'simlik turi dumaloq ko'rinishda bo'lib, eski turklar uni "ter tomchisi, donasi" ma'nosida ham ishlatganlar. O'zbek shevalarida shunga o'xsharoq "**burçâq** - ayrim qo'ylarning bo'g'izi atrofida bo'ladigan munchoqsimon o'simta" so'zi bunga o'rnak bo'la oladi [qar. Нафасов 2011, 54].

53. "**burī** / **bōri** – 1. o'q uchiga o'tkaziladigan temir halqa. 2. Ichimlik idishlaridan ichimlik oqib ketmasligi uchun uning og'ziga tiqib qo'yiladigan tiqin, po'kak" [ДЛТ 1963, III, 239; ДЛТ 2014, 443]. O'zbek tili va shevalaridagi möri – oshxona, o'choq va shu kabilarning tutun chiqib ketadigan yo'li" [ЎТИЛ 2006, 670]. Bu so'z o'zbek tili izohli lug'atida "mo'ri (**mōri**) – g'ishtdan qilingan suvquvur" ma'nosidagi forscha so'zdan o'zlashgan deb ochiqilanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan eski turkcha **bōri** / **burī** so'zi ham ushbu forscha so'zdan olingan chamasi. Boshqa tomondan esa Onado'li turkchasidagi "**boru** – suv quvuri" so'zi, shunga yaqin o'zbek tilidagi "quvur > qubur > burğu" so'zlarining negizida eski turkcha "burmaq – burmoq, buramoq" fe'li yotishini ko'zda tutsak, bu so'zning forscha yoki turkiycha ekanini tekshirib ko'rish kerak bo'ladi.

54. "**burundūq** – jilov, no'xta" [ДЛТ 1960, I, 460; ДЛТ 2017, 198]. O'zbek tilida "**burundūq** – asov, tishlong'ich tuyaning yoki qopag'on itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r" [ЎТИЛ 2006, 383]. Buxoro viloyati Olot va Qorako'l tumani o'zbek o'g'uz shevasida bu so'z "jilov, no'xta" ma'nosidadir [Аллабердиев 2016, 43]. O'zbek shevalarida bu so'z "kelinni kuyovning uyiga olib kirgan va unga keyin ham o'z onasidek munosabada bo'lib yuradigan, tutingan ona, ota" ma'nosida ham ishlatiladi.

55. "**burutmaq** – sasitmoq" [ДЛТ 1963, II, 340]. O'zbek tilida "**burqiramâq**, **burqimâq** – 1. pag'a-pag'a ko'tarilmoq, buruqsamoq, burqimoq" (tutun, bug'); 2. Anqimoq, gurkirab taralmoq (hid)"

ko'rinishlarida uchraydi [ЎТИЛ 2006, 385].

56. **“buxsamaq** – bosh tortmoq, ishni (majburiy suratda) bajarmoq” [ДЛТ 1963, III, 299]. O'zbekchanning O'sh shevasida “buxsamaq – tiqishtirmoq, bosib ezmoq” ma'nosida qo'llaniladi [ЎДМ 1961, 422].

57. **“but** – son” [ДЛТ 1963, III, 131]. “Devon” o'girmasining ko'rsatkichida bu so'z “son; oyoq – bedro, lyajka, nogi” deb keltirilgan [ДЛТ 1967, 80]. Shu bilan birga, S. Mutallibov uni shu ko'rinishda o'gilar ekan “bu so'z hozir Oltiariq shevasida oyoq ma'nosida qo'llanadi” deb ochiqlama bergan [ДЛТ 1963, III, 131]. Q. Sodiqov o'girmasida bu so'z “son, but” deb berilgan [ДЛТ 2017, 364]. O'zbek shevalarida “but - but, oyoq” ma'nolarida tez-tez urchab turadi (Qashqadaryo vil, Ko'kadal t. Harduri q.). Qirg'iz tilida **“but”** “oyoq” degan ma'noda keng qo'llaniladi.

58. **“buturgak** – pista shaklidagi tikanli bir o'simlik. U kiyim va boshqa narsalarni ilib qoladi” [ДЛТ 1960, I, 461; ДЛТ 2017, 198]. Bu so'z o'zbek shevalarida **“pitirraq”** ko'rinishida uchrab, “qo'yning juniga yopishib qoladigan o'simlikning dumaloq urug'i, qo'yikan” ma'nosidadir [ЎХШЛ 1971, 221; Хафасов 2011, 229]. “Devon”ning turkcha o'girmalarida “fistık şeklinde bir diken” (pista ko'rinishidagi tikan turi) deb ochiqlanadi [DLT 2014, 220, 605]. Onado'li turkchasining ayrim shevalarida **“bitirraq** – qir-adirlarda o'suvchi yovvoyi o'tning tashqi tomoni tikkanli urug'i” uchun qo'llaniladi [Derleme Sözlüğü 1993, 671].

59. **“butiq** – otning oyoq terisi shilinib olinib qilingan mesh” [ДЛТ 1960, I, 358]. O'zbek shevalarida **“butaq** – so'yilgan takaning boshi va oyoqlarini (tizzadan pastini) kesib tashlab, puflab terisining shilib olinishi” (barloslarga yaqin Musobozori shevasi)” [Жўпаев 1969, 126].

60. **“buşmaq** – siqilmoq, zerikmoq” [DLT 2014, 160, 265; ДЛТ 2017, 212]; **“buşurmaq** – yurakni siqib yubormoq” [DLT 1963, II, 82]. O'zbek tilidagi “pishmoq (**pişmaq**) – siqilmoq, (ichi) pishmoq, zerikmoq” so'zining ildizi shu so'zlarga borib taqaladi.

61. **“buw** – mog'or, uzoq turib qolish yoki hidlanishdan non yuzida paydo bo'lgan ko'kimtirlik” [DLT 1963, III, 143; DLT 1967, 76]. Bu so'z “Devon” qo'lyozmasida  **“buw** – al-xudra” (ko'kimtir) deb keltirilgan [DLT 1985b, 499] bo'lishiga qaramay, uni ko'pchilik izlanuvchilar **boq** ko'rinishida berib kelishadi [DLT 1985a, III, 76; DLT 2005, 194; DLT 2014, 400, 593]. Ularga ko'ra, q (qof) harf belgisi ustiga keyinchalik bitta nuqta qo'shib qo'yilgan bo'lib, bu so'z qof bilan tugaydigan so'zlar sirasida kelgani uchun uni **boq**

deb o'qish kerak bo'ladi [DLT 2014, 400]. Bu so'zni B. Atalay **pow** deb o'qib, asar qo'lyozmasi bo'yicha ish olib borgan R. Kilisli uning bu ko'rinishida yozganiga e'tiroz bildirgan [DLT 1985a, III, 129]. Unga ergashgan S. Mutallibov bu so'zni **buw** ko'rinishida bergan [ДЛТ 1963, III, 143]. Bizningcha, **buw** to'g'riroq bo'lsa kerak. O'zbek shevalarida "**buv** – nonning ustidagi mog'or", "biror narsa tagida qolib, ustida o'zgarishlar bo'lgan non" ma'nolarida uchraydi. Shuningdek, "Devon"ning uyg'urcha o'g'irmasida "**pov** – puv. Uzun turib qolg'onliq yoki buzulg'onliqtin nonning ustida paydo bo'lg'an ko'k" [DLT 2008, III, 178] deb ochiqilanishi ham turkiy tillarda bu so'zning eski turkcha **buw** "buv" bo'lgani to'g'risidagi qarashlarni kuchaytiradi. Aytib o'tish kerak, "Devon"ning qozoqcha o'g'irmasida bu so'z "buv" ozarbayjonchasida "pow" ko'rinishida berilgan [ДЛТ 1998, III, 184; DLT 2006, III, 136].

O'zbek tilining Forish shevasida **bug'ruqmoq** "mog'or-lamoq" (заплесневеть, покрыться гнилью) so'zi uchraydi [ЎХШЛ 1971, 56]. Bunga tayanib "mog'or" manosidagi turkiy so'z eski turkchada va bugungi turkiy tillarda "buv" va "bug'" ko'rinishlarida qo'llanilgan deb ochiqlasa bo'ladi.

62. "**büdik** – o'yin, raqs" [ДЛТ 1960, I, 390]. Bu so'z shu ko'rinishda turkiy tillarda deyarli saqlanmagan. Chamasi, uni o'zbek shevalaridagi "**bädik** – alas (kasalni o'rtaga olib, ashula aytib davolash" (Qarnoq shevasi) so'zi bilan solishtirish kerak bo'ladi. Uni arabcha "badiha" (ichki sezgi, topqirlik. Shu negidagi she'r turi) bilan bog'lash birmuncha qiyin [ЎТИЛ 2006, 135]. Shuningdek, turkiy tillarning qipchoq lahjalarida "bilev" (o'yinga, raqsga tushmoq) fe'li ham bu so'z bilan bog'lansa kerak.

63. "**büjin** – har xil o't o'simligi" [ДЛТ 1960, I, 379]. Bu so'zning o'zbek tilidagi "bujg'un (**bujgun**) – 1) qayrag'ochning bir turi, qattiq tanali daraxt; 2) pista daraxtining meva qilmay, bujmayib qolgan mevasi; 3) o'simliklar tanasining turli qismlarida ko'pincha virus, bakteriya, zamburug', hasharotlar ta'sirida paydo bo'ladigan g'urrallar" so'zi bilan bog'liq yoki bog'liqmasligi aniqlanmagan [ЎТИЛ 2006, 362].

64. "**bük** – 1. chakalakzor (**густой лес**); burchak (arg'ucha)" [ДЛТ 1960, I, 321; ДЛТ 1967, 83; DLT 2014, 113]. Bu so'z o'zbek tili shevalarida "**bük** – chekka, tomon, ovloq yer" ko'rinishida uchraydi [ЭСТЯ 1978, 291; ЎДМ 1961, 422]. Qozoqchada "bük – og'ochlari tig'iz o'sgan yer" [Қалиев 2014, 132], xakaschada esa "pük – o'tloq" ma'nosidadir [Arıkoğlu 2014]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, qozoqchada bu so'z borligiga qaramay, "Devon"ning

qozoqcha o'girmasida bu so'z uchrashiga e'tibor qaratilmay, "bük – to'qay, og'och o'sgan yer" deb ochiqlash bilan cheklanilgan [ДЛТ 1998, I, 392]. Onado'li turkchasining bir qancha shevalarida "bük – 1) dala-qir va irmoq qirg'oqlaridagi to'qay va tikanli yer; 2) oqarsuv qirg'oqlaridagi unumli ekin dalalari; 3) butazor, chakalakzor va o'rmonlarning eng qalin yeri" va shunga yaqin ma'nolari bor [Derleme Sözlüğü 1993, 814-815].

O'zbek shevalarida shunga birmuncha yaqin keladigan "bük" so'zi uchrab, "havosiz joy, dim", "dim, issiq, nafasni qaytaradigan" degan ma'nolarda qo'llaniladi [Жўраев 1969, 126]. Qarshi shahri yaqinidagi qarluq shevasida so'zlashuvchi Bo'lmas qishlog'i qarluq shevasida бүкламақ "dimiqmoq" [Нафасов 2011, 54], Ko'kdala tumanidagi Harduri qishlog'i qipchoq shevasida "bük" (dim; oz havoli yer) degan ma'noda ishlatiladi.

65. **"büküm: бүкүм etük** – xotinlar kiyadigan etik, maxsi (o'g'uzcha). O'g'uzlardan boshqalar мүким, мүкин deydilar" [ДЛТ 1960, I, 376; DLT 2014, 170]. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **"mökki** – shevada xom teridan tikiladigan qo'nji kalta oyoq kiyimi" deb ochiqlangan [ЎТИЛ 2006, 667].

66. **"bükür** – buyrak" ДЛТ 1960, I, 342]. Bu so'z o'zbek shevalarida **"büyir** – biqin, buyrak joylashgan yer" ko'rinishida saqlangan [Мирзаев 2013, 275; Нафасов 2011, 54].

67. **"bürlänmäk** – kurtak chiqarmoq"; *yığaç bürländi* "daraxtlar kurtak chiqardi, novda chiqarsa ham shunday deyiladi" (dal pobegi, pokғыlsya pochkami) [ДЛТ 1963, II, 276; ДЛТ 1967, 85; DLT 2014, 302, 609]. O'zbek shevalarida **"büri** – "yo'ng'ichqa yaprog'ining quritilgani" (Qarshi sh.) [Нафасов 2011, 56], "yantoq, yo'ng'ichqa yaprog'i" (Ko'kdala t., Harduri q.) ma'nolaridadir. Bu so'z turkiy tillarda quyidagicha ko'rinishlarda uchraydi: qozoqchada **"bür"** – yaproq: 1) G'o'zaning ilk tugunida kurtaklarini o'rab turgan yaproq; 2) O'simliklar va og'och (daraxt) butoqlarining yaproq chiqaruvchi tuguni, qirg'izchada esa бүр - "yosh (ilk) yaproqchalar" [Юдахин 1985, 168], xakaschada **pür** - "yaproq" [Домажаков 1948, 112; Arıkoğlu 2015]. Onado'li turkchasining ayrim shevalarida **"bür** – kurtak" ma'nosidadir [Derleme Sözlüğü 1993, 824]. Qrim tatarchasida **"bürlenme** – o'simliklarning ilk bahorda yasharishi, kurtaklanishi" deb ishlatiladi [Kırım Tatar Sözlüğü 2017, 101].

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'zbek tilining ochiqklamali so'zligida **"bur** – meva, hosil, barg, ozuqabop" ma'nosidagi forsha so'z deb ochiqlangan [ЎТИЛ 2006, 374-375]. Biroq turkiy tillarning ko'pchiligida, Oltoy va Sibir turklarida bu so'zning borligini ko'zdan

68. **"bütä** – ko'p, mo'l" [ДЛТ1963, III, 236]. O'zbek tilining o'g'uz shevasida **"bütäv** – bo'linmagan, bir butun (narsa)" [ЎХШЛ 1971, 58] so'zini ushbu so'z bilan bitta negizdan deb qarasa bo'ladi.

69. **"bütti**: *baş bütti* – yara tuzaldi" [DLT 1963, II, 339]. O'zbek tilining izohli lug'atida **"bitmāk** – et unib, birikib tuzalmoq, to'lishmoq yoki bekilmoq" deb ochiqqlanadi [ЎТИЛ 2006, 284]. Ayrim o'zbek shevalarida **"bitmāk** – tuzalmoq" o'laroq ishlatiladi (Ko'kdala t., Harduri q.). O'rnak keltiradigan bo'lsak: kesilgan yaram bitib ketdi (tuzaldi).

70. **"büškäl** – lochira, yupqa non. Xoqoniyaliklar so'zi [ДЛТ 1960, I, 445]. O'zbek tilining O'sh shevasida bu so'z "pöškäl – nonning bir turi" ma'nosida ishlatiladi [ЎДМ 1961, 426].

To'xtam

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida uchraydigan so'zlarning ko'pchiligi oradan deyarli ming yil o'tgan bo'lishiga qaramasdan, biror o'zgarishga uchramasdan, bugungacha yetib kelgan. To'g'ri, ayrim so'zlar kundalik turmushda ishlatilmasligi, yo bo'lmasa, turkiylarning ko'pchiligi yangi o'lkalarga borib o'rnashishi so'nggida bu tillarga ayrim so'zlar o'rniga yot so'zlar kirib kelgani ko'zga tashlanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, "Devon"da keltirilgan bir necha minglab so'zlar bugungi kunda ham keng qo'llanilayotgani ko'zlarni quvontiradi. Ayniqsa, o'zbek tili deyarli ming yildan beri turli tillarda so'zlashuvchi el-uluslar bilan qo'shni yoki aralash yashab, ularning tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashtirganiga qaramay, "Devon"dagi so'zlarni eng ko'p saqlagan turkiy tillardan biri o'laroq bilinadi. Buni tilimizda uchraydigan tub turkiy so'zlarning ham o'zbek adabiy tilida, ham uning shevalarida qo'llaniladigan yuzlab o'rnaklar ko'rsatib turibdi. Mahmud Koshg'ariy asarida keltirilgan birgina "b" undoshi bilan boshlanuvchi yuzlab so'zlar ming yil oldin qanday bo'lsa, shunday ko'rinishda saqlanib qolganini "Devon"ning o'girmalaridan ko'rib turibmiz.

Biz ushbu kichik izlanishimizda ushbu Koshg'ariy so'zligida uchrasa-da, eski ko'rinishida, yo bo'lmasa, yaqin ko'rinishda saqlangan so'zlarni "b" undoshi bilan boshlangan 70 ta so'z o'rnagida qarab chiqdik. Kelgusidagi izlanishlar ushbu undosh bilan boshlanuvchi bunday so'zlarning soni yanada ko'proq bo'lganiga aniqlik kiritadi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

- Arıkoğlu, E. 2005. *Örnekli Hakasça – Türkçe Sözlük*. Ankara.
- Derleme Sözlüğü, 1993. *Türkiye’de Halk Ağzından Derleme Sözlüğü*. II B. 2. Baskı. Ankara: AÜ Basımevi.
- Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. 1941. Çev. B. Atalay. Cilt III. Ankara.
- Divanü Lugat-it-Türk Tıpkıbasımı “Faksimile”*. B. Atalay 1941. Ankara.
- Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. 1943. Çev. B. Atalay. Cilt IV. Ankara.
- Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi*. 1985a. Çev. B. Atalay. Cilt I-IV. TDK yayınları: 521–524. Ankara.
- Divanü Lugat-it-Türk*. (Tıpkıbasım). 1990. Kültür Bakanhğı Yayınlan, Ankara.
- Жўраев, Б. 1969. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари*. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, М. 1960. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1 том. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, М. 1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2 том. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Маҳмуд. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 том. Тошкент: Фан.
- Девону луғотит турк*. 1967. Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибов иштироки ва таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Кашгари, М. 2005. *Дивану лугат ат-тюрк [Текст]*. М. Кашгари; пер., предисл. З.- А. М. Ауэзовой. Алматы: Дайк-Пресс.
- Махмуд ал-Кашгари 2010. *Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов)*. В 3-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст]. Махмуд ал-Кашгари. Москва.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2016. *Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Нашрга тайёрл. Ҳ. Болтабоев, Б. Исабеков. Масъул муҳаррир.: Ҳ. Дадабоев. Тошкент, MUMTOZ SO‘Z.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2017. *Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони)*. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Kaşgarlı Mahmud. 2005. *Divānū Lugatī’t-Türk*. Çeviri, Uyarlama, Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul: Kabcacı Yayınevi.
- Mahmud Kaşğari. *Divanü lûğat-it-türk*. I cild. 2006. Тәrcümә edән vә nәsrә hazırlayan: R. Әskәр. Baki: Ozan.
- Mahmud Kaşğari. *Divanü lûğat-it-türk*. II cild. 2006. Тәrcümә edән vә nәsrә hazırlayan: R. Әskәр. Baki: Ozan.
- Mahmud Kaşğari. *Divanü lûğat-it-türk*. III cild. 2006. Тәrcümә edән vә nәsrә hazırlayan: R. Әskәр. Baki: Ozan.
- Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugatī’t-Türk*. 2014. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. Ankara, TDK.
- Марқаев, К. 2021. *Ўзбек этнонимлари*. Қарши: Intellekt.
- Мирзаев, Т. 2013. *Ҳоди Зариф суҳбатлари*. Тошкент.

- Иброҳимов, Б. 1967. Ўзбек тилининг изоҳли Андижон шеvasи. Тошкент: Фан.
- Керейтов, Р.Х., 2009. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. Ставропол: Сервисшкола.
- Киргизско-русский словарь, 1985. Составитель К.К. Юдахин. Книга 1. А – К. Фрунзе.
- Нафасов, Т. 2009. *Қашқадарё қишлоқномаси*. Тошкент: Муҳаррир.
- Нафасов, Т. 2011. *Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати*. Тошкент: Муҳаррир.
- Нематов, Х., Расулов, Р. 1995. *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари (Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма)*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Ойноткинова, Н. Р., Миндибекова, В. В., Юша Ж. М. 2018. *Миф и ритуал тюркских народов Южной Сибири (алтайцев, хакасов, тувинцев)*. Астана: Ғылым баспасы.
- Осмоналиев, Б. 1972. "Об отражении лексики киргизского языка в словаре Махмуда Кашгари "Дивану лугат-ит-тюрк". Советская тюркология 1: 97-99.
- Санжеев, Г.Д., Орловская, М.Н., Шевернина, З.В. 2015. Этимологический словарь монгольских языков: в 3 т. Институт востоковедения РАН. Гл. ред. Г.Д. Санжеев, ред. Л.Р. Концевич, В.И. Рассадин, Я.Д. Леман. Москва: ИВ РАН.
- Tog'aev, T. 2019. "Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek shevalarida qo'llanishi" *Oltin bitiglar – Golden scripts*, 3: 107-127. Toshkent.
- Тўйчибоев, Б., Қашқирли, Қ. 2012. *Зоминнинг тил қомуси*. Тошкент: Академнашр.
- Тўрсынова, М.А., Бидола П. 2016. "Түркі тілдері лексикасын салыстыра зерттеу тәжірибесінен". Ұлы Дала» І-ші гуманитарлық ғылыми форумының материалдары – Материалы І форума гуманитарных наук «Великая Степь», 319-327. Астана: Международная Тюркская Академия.
- Қазақша – орысша сөздік / <https://sozdik.kz>.
- Қалиев, Б. 2014. *Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі*. Алматы.
- Polatlı Kırım Tatar Türkçesi Sözlüğü. 2017. Hazırlayanlar D. Evirgen, C. Evirgen. Ankara.
- Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б". 1978. В. Севортян. Москва: Наука.
- Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букву "Қ". 2000. Авт. сл. статей Л. С. Левицкая, А. В. Дыбо, В. И. Рассадин. Москва: Наука .
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1961. В. В. Решетов таҳрири остида. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, А – Д. 2006. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси".

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, Шукрона – Ҳ. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.

Ўзбек халқ шевалари луғати. 1971. Масъул муҳаррир Ш.Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент: Фан.

Preservation of some words in Uzbek dialects in Mahmud Kashgari's work «Dīwān Lughāt al-Turk»

(in the example of words beginning with the consonant «b»)

Gaybulla Babayarov¹

Abstrakt

In the article, in the Uzbek language and dialects, several dozen words beginning with the consonant «b» recorded in Mahmud Kashgari's «Dīwān Lughāt al-Turk» (Dictionary of Turkic words) the rest will be discussed. In particular, about 70 words beginning with the consonant «b» found in «Dīwān» were not sufficiently explained in the Uzbek translations of the work, and it was emphasized that they were preserved in the Uzbek literary language and dialects in almost the same form as the old Turkic, it is given. In addition, it is intended to clarify the controversies related to the reading and interpretation of some old Turkic words.

Key words: *Uzbek, Mahmud Kashgari, constant “b”, Turkic languages, Old Turkic, original Turkic, dialects.*

References

- Arıkoğlu, E. 2005. *Örnekli Hakaşça – Türkçe Sözlük*. Ankara.
Derleme Sözlüğü, 1993. *Türkiye’de Halk Ağzından Derleme Sözlüğü*. II B. 2. Baskı. Ankara: AÜ Basımevi.
Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi. 1941. Çev. B. Atalay. Cilt III. Ankara.
Divanü Lugat-it-Türk Tıpkıbasımı “Faksimile”. B. Atalay 1941. Ankara.

¹ G'aybulla B. Babayarov – Doctor of History, professor, Academy of Sciences of Uzbekistan National Center of Archaeology.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

For citation: Boboyorov, G. B. 2024. Preservation of some words in Uzbek dialects in Mahmud Kashgari's work “Dīwān Lughāt al-Turk” (In the example of words beginning with the consonant “b”). *Golden Scripts* 2: 136 – 158.

Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi. 1943. Çev. B. Atalay. Cilt IV. Ankara.

Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi. 1985a. Çev. B. Atalay. Cilt I-IV. TDK yayınları: 521–524. Ankara.

Divanü Lugat-it-Türk. (Tıpkıbasım). 1990. Kültür Bakanhğı Yayınlan, Ankara.

Jo'raev, B. 1969. *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari*. Toshkent: Fan.

Koshg'ariy, M. 1960. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1 tom. Toshkent: Fan.

Koshg'ariy, M. 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 2 tom. Toshkent: Fan.

Koshg'ariy, Mahmud. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tom. Toshkent: Fan.

Devonu lug'otit turk. 1967. Indeks-lug'at. G' Abdurahmonov va S. Mutallibov ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent: Fan.

Kashgari, M. 2005. *Divanu lugat at-tyurk [Tekst]*. M. Kashgari; per., predisl. Z.- A. M. Auezovoy. Алматы: Dayk-Presc.

Maxmud al-Kashgari 2010. *Divan lugat at-turk (Svod tyurkskix slov)*. V 3-x tomax. T. 1. Per. s arab. A.R. Rustamova pod red. I. V. Kormushina [Tekst]. Maxmud al-Kashgari. Moskva.

Koshg'ariy, Mahmud. 2016. *Devonu-lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. Nashrga tayyorl. H. Boltaboev, B. Isabekov. Mas'ul muharrir.: H. Dadaboev. Toshkent, MUMTOZ SO'Z.

Koshg'ariy, Mahmud. 2017. *Devonu-lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni)*. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. Toshkent: G' G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Kaşgarlı Mahmud. 2005. *Divānū Lugatī't-Türk*. Çeviri, Uyarlama, Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul: Kabcacı Yayınevi.

Mahmud Kaşğari. *Divanü lüğat-it-türk*. I cild. 2006. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.

Mahmud Kaşğari. *Divanü lüğat-it-türk*. II cild. 2006. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.

Mahmud Kaşğari. *Divanü lüğat-it-türk*. III cild. 2006. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.

Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugatī't-Türk*. 2014. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. Ankara, TDK.

Marqaev, K. 2021. *O'zbek etnonimlari*. Qarshi: Intellect.

Mirzaev, T. 2013. *Hodi Zarif suhbatlari*. Toshkent.

Ibrohimov, B. 1967. *O'zbek tilining izohli Andijon shevasi*. Toshkent: Fan.

Kereytov, R.X., 2009. *Nogaysi. Osobennosti etnicheskoy istorii i bytovoy kulturi*. Stavropol: Servisshkola.

Kirgizsko-russkiy slovar, 1985. Sostavitel K.K. Yudaxin. Kniga 1. A – K. Frunze.

Nafasov, T. 2009. *Qashqadaryo qishloqnomasi*. Toshkent: Muharrir.

Nafasov, T. 2011. *Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati*. Toshkent:

Muharrir.

- Nematov, H., Rasulov, R. 1995. *O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari (Oliy o'quv yurti talabalari uchun qo'llanma)*. Toshkent: O'qituvchi.
- Oynotkinova, N. R., Mindibekova, V. V., Yusha J. M. 2018. *Mifi ritual tyurkskix narodov Yujnoy Sibiri (altaysev, xakasov, tuvinsev)*. Astana: G'ilyim baspasy.
- Osmonaliev, B. 1972. "Ob otrajenii leksiki kirgizskogo yazyka v slovare Maxmuda Kashgari "Divanu lugat-it-tyurk". *Sovetskaya tyurkologiya* 1: 97-99.
- Sanjeev, G.D., Orlovskaya, M.N., Shevernina, Z.V. 2015. *Etimologicheskij slovar mongolskix yazыkov: v 3 t.* Institut vostokovedeniya RAN. Gl. red. G.D. Sanjeev, red. L.R. Konsevich, V.I. Rassadin, Ya.D. Leman. Moskva: IV RAN.
- Tog'aeв, T. 2019. "Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so'zlarning o'zbek shevalarida qo'llanishi" *Oltin bitiglar – Golden scripts*, 3: 107-127. Toshkent.
- To'ychiboev, B., Qashqirli, Q. 2012. *Zominning til qomusi*. Toshkent: Akademnashr.
- Tyrsinova, M.A., Bidola P. 2016. "Tyрки tilderi leksikasin salıstıyra zertteu tәjiribesinen". *Ұлы Dala» I-shi gumanitarlıq g'ilyimi forumıның materialdari – Materiali I foruma gumanitarnix nauk «Velikaya Step»*, 319-327. Astana: Mejdunarodnaya Tyurkskaya Akademiya.
- Qazaqsha – ғысша сөздік / <https://sozdik.kz>.
- Qaliev, B. 2014. *Qazaq tiliniń tysindirme sөzdigi*. Алматы.
- Polatlı Kırım Tatar Türkçesi Sözlüğü. 2017. Hazırlayanlar D. Evirgen, C. Evirgen. Ankara.
- Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovi na bukvu "B"*. 1978. V. Sevortyan. Moskva: Nauka.
- Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov: Obşetyurkskie i mejtyurkskie osnovi na bukvu "Q"*. 2000. Avt. sl. statey L. S. Leviskaya, A. V. Dybo, V. I. Rassadin. Moskva: Nauka.
- O'zbek dialektologiyasidan materiallar*. 1961. V. V. Reshetov tahriri ostida. Toshkent: O'zSSR FA nashriyoti.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildlik, A – D. 2006. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildlik, Shukrona – H. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Mas'ul muharrir Sh.Sh. Shoabdurahmonov. Toshkent: Fan.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 06. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62